

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

8/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

8/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2025, № 8, avgust

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

SERIYA: ANIQ VA ...TABIIY FANLAR. ...TILSHUNOSLIK

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
MATEMATIKA *** MATHEMATICS *** МАТЕМАТИКА		
Do'sanova U.X., Axmadova N.M.	Gerasimov-kaputo kasr hosilasiga ega aralash turdagi tenglamalar uchun o'ng tomonni aniqlashga oid teskari masalalar	4
Qo'shaqov X.Sh., Toxirjonova Sh.D.	Sonlar ketma-ketligi limitiga doir ayrim olimpiada masalalari	12
Hoitmetov U.A., Sobirov Sh.K.	Integration of the non-stationary extended fifth-order modified korteweg-de vries equation in the class of rapidly decreasing functions	18
Subhonova Z.A.	A cauchy problem of for a fractional integro-differential diffusion-wave equation	27
Azimzoda A.A.	Monomial ideals and gröbner bases	36
Khasanov A.B.	Two-fermion hamiltonian on the three dimensional lattice with first nearest-neighbor interaction	45
To'rayev J.N.	Issiqlik tarqalish masalasini sonli yechish sxemasi	55
Akhmatov A.A.	Stabilization of the rotational motion of a manipulator's end-effector	68
FIZIKA *** PHYSICS *** ФИЗИКА		
Nishonov I.E., Nurmaxammadov U.O., Tolibjanov T.X., Buriyev S.B.	Particle dynamics and collisions in nonlinear electrodynamics (ned) black hole geometries	73
Boliyev O.I.	Organik molekulalarning yuqori samarali termoemitterlar sirtida ionlanish mexanizmlarining qo'llanilish tahlili	77
Maxmanov U.K., Aslonov B.A., Chuliyev T.A., Tursunqulov E.A.	Uglerodli nanoquvur eritmalarining optik xossalariga o'lcham va issiqlik ta'siri	83
Очилов О., Маликов К.Х., Қулматова Г.А.	Вычисление удельного вклада мкд в эффект фарадея на критических длинах волн	89
Равшанов Ш.А., Хамдамов М.М.,	Численное исследование влияния внешних факторов на тепловой поток и потери давления в трубах	95

Жумаев Ж.		
BIOLOGIYA *** BIOLOGY *** БИОЛОГИЯ		
Ashurov M.M., Raximov A.X., Kurbanbaev N.A.	Jelatinni atr-ftir spektroskopiyasi yordamida farqlash va aralash jelatinni aniqlashdagi muammolarni yechish	107
KIMYO *** CHEMISTRY *** ХИМИЯ		
Hoshimov F.X., Butanov Kh.T., Mamatkulov Sh.I., Ruzimuradov O.N.	Suvni parchalash uchun cofeni/NF asosidagi ikki funksiyali elektrokatalizatorlar	112
Jo‘raboyev T.E., Xalilov U.B.	Kapton poliimid sirtini lazer yordamida grafenlash: md tahlili	119
INFORMATIKA *** INFORMATICS *** ИНФОРМАТИКА		
Umarov Sh.A., Umarova M.I.	Sun’iy immun tizimi asosida anomaliyalarni aniqlash tizimini loyihalashtirish	125
Nizomiddinova G.S.	Ikki komponentali muhitlarda divergent kross-diffuziya masalalarini sonli modellash	129
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Нигматова Л.Х.	Типология и основные составляющие лингвистических корпусов	134
Mavlonov Sh.Sh., Asadov T.H.	Shodmon Sulaymon she’riyatidagi ayrim turg‘un va erkin o‘xshatishlar tadqiqi	138
Shokirova D.A.	Bola nutqida genderga xos leksik-semantik farqlar va ularning ingliz hamda o‘zbek tillaridagi aks etishi	142
Asadova Sh.A.	Frazema va frazemalararo ma’noviy munosabat	147
Bozorova G.Z.	Tibbiy terminologiya – mustaqil leksik qatlam sifatida	153
Jo‘rayeva L.J.	Realiza-neologizm, realiza-arxaizm va realiza-tarixizmlar	159
Kozimova Z.I.	Tasviriy san’at asarlarining tahlilida terminlarning o‘rni va ahamiyati	163
Kubayeva N.A.	Zamonaviy ingliz va o‘zbek adabiyotida frazeologik birliklarning tasnifi, xususiyatlari va lingvokulturologik ahamiyati	167
Nurmatova G.X.	Kollokatsiyalar va kollokatsiyalanish: nazariy-amaliy aspekt	171
Qobilova N.S.	So‘zlashuv nutqining til o‘zgarishlariga ta’siri	177

Qodirova N.A.	Komponentli tahlil metodi	181
Quvondiqova M.Z.	“Sahihul Buxoriy” asaridagi diniy terminlarning semantik tahlili	186
Vaxidova F.S., Sadullayeva U.Sh.	Ingliz va o‘zbek tillarida ziyoratgoh nomlarining leksikografik tahlili va lug‘atlardagi aks etishi	190
Umarova F.M.	Ingliz va o‘zbek maqollarining lingua- madaniy tahlili	196
Xasanov R.S.	Perfekt shaklining semantik tafsilotlari va tarjimaviy ekvivalentlik muammolari	200
Yuldasheva S.B.	O‘zbek tilida ba’zi fe’llarning kontekstdagi ma’nolari tahlili	205
Yusupova D.Y.	Qimmatbaho tosh nomlari badiiy tasvir vositasi sifatida	210
Авезов С.С.	Парсинг интернет-текстов и формирование электронного корпуса узбекского языка	214
Зиядуллаев И.О.	Особые способы словообразования глагольных неологизмов в немецком языке	218
Комилова Н.А.	Прагматические аспекты гендерного феномена: как средство социальной идентификации в речевой деятельности	224
Муротова Н.М.	Культурная обусловленность телесных метафор: сравнительно-лингвистический аспект	228
Ochilova M.R.	San’at sohasida qo‘llaniladigan terminlarning elektron axborot bazasini yaratish	233
Алиева Г.Х.	Гендер и язык: язык женщин как социальная и лингвистическая категория	238
Салахидинова З.О.	Лексико-грамматический состав фразеологизмов в текстах художественных произведений (на материале произведений Д. Рубиной)	243
Sulaymonova M.Sh.	Ilmiy nutqda metaforaning estetik va ta’sirchanlik imkoniyatlari	248

GERASIMOV-KAPUTO KASR HOSILASIGA EGA ARALASH TURDAGI
TENGLAMALAR UCHUN O'NG TOMONNI ANIQLASHGA OID TESKARI MASALALAR

Do'sanova Umida Xomid qizi,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti tayanch doktoranti

umidakhon8996@gmail.com

Axmadova Nigora Murodullo qizi,

Samarqand shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi

ahmatovanigora235@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aralash turdagi tenglamalarda o'ng tomonni aniqlashga oid to'g'ri va teskari masalalar ko'rib chiqiladi. Soha bir qismida qarayotgan tenglama $\rho \in (0,1]$ tartibli Gerasimov–Caputo ma'nosidagi kasr hosilani o'z ichiga olgan subdiffuziya tenglamasi, boshqa qismida esa klassik hosilali to'liq tenglamasidir. Tenglamalarning o'ng tomoni $f(x)g(t)$ ko'rinishiga ega. Tenglama tomonlarida manba hadining har ikkala omili noma'lum bo'lganligi sababli, uning vaqtga bog'liq qismini aniqlashga oid teskari masala shakllantiriladi va o'rganiladi. Boshlang'ich-chegara shartlari bilan berilgan to'g'ri masalaning yechimi ifodasi asosida, teskari masala yuklangan integral tenglamalarning yechiluvchanligiga ekvivalent shaklda keltirib chiqariladi.

Kalit so'zlar: Gerasimov-Kaputo kasr hosilasi, to'g'ri va teskari masalalar, aralash turdagi tenglamalar, subdiffuziya tenglamasi, to'liq tenglamasi, yuklangan integral tenglamalar.

ОБРАТНЫЕ ЗАДАЧИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРАВОЙ ЧАСТИ ДЛЯ УРАВНЕНИЙ
СМЕШАННОГО ТИПА С ДРОБНОЙ ПРОИЗВОДНОЙ В СМЫСЛЕ ГЕРАСИМОВА-КАПУТО

Аннотация. В данной статье рассматриваются прямые и обратные задачи определения правой части в уравнениях смешанного типа. В одной части области исследуемое уравнение является уравнением субдиффузии с дробной производной в смысле Гerasимова-Капуто порядка $\rho \in (0,1]$, а в другой части - уравнением волны с классической производной. Правая часть уравнения имеет вид $f(x)g(t)$. Так как множители в правой части уравнения являются неизвестными, формулируется и исследуется обратная задача по определению зависящего от времени множителя. Используя представление решения соответствующей прямой начально-краевой задачи, решение обратной задачи эквивалентно сводится к вопросу разрешимости нагруженных интегральных уравнений.

Ключевые слова: Дробная производная Гerasимова-Капуто, прямая и обратная задачи, уравнения смешанного типа, уравнение субдиффузии, волновое уравнение, нагруженные интегральные уравнения.

INVERSE PROBLEMS OF THE DETERMINING RIGHT-HAND SIDE FOR MIXED TYPE
EQUATIONS WITH THE GERASIMOV-CAPUTO FRACTIONAL DERIVATIVE

Abstract. In this paper the forward and inverse problems of determining the right-hand side in mixed-type equations are considered. In one part of the domain, the considered equation is the subdiffusion equation with a fractional derivative in the sense of Gerasimov–Caputo of the order $\rho \in (0,1]$ and in the other part—a wave equation with a classical derivative. The right-hand side of the equations has the form $f(x)g(t)$. The inverse problem of finding time-dependent factors on the right-hand side is formulated and investigated, since the factors on both sides of the equation are unknown. Using the representation of solution to the forward initial boundary problem, the solution of inverse problem is equivalently reduced to the solvability of loaded integral equations.

Key words: Gerasimov-Caputo fractional derivative, forward and inverse problems, mixed-type equations, subdiffusion equation, wave equation, loaded integral equations.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda kasr hosilali differensial tenglamalar nazariyasi ko‘plab fan va texnologiya sohalaridagi keng qo‘llanilishiga ko‘ra katta mashhurlik va ahamiyat kasb etdi (masalan, [1]).

Quyidagi aralash turdagi tenglama ρ parametri $0 < \rho \leq 1$ bo‘lgan holda to‘rtburchak $D = \{(x, t) | 0 < x < 1, -\alpha < t < \beta\}$ sohada ko‘rib chiqiladi:

$$Lu = F(x, t), \quad (1)$$

bu yerda

$$Lu = \begin{cases} D_{0t}^\rho u - u_{xx}, & 0 < t < \beta, \\ u_{tt} - u_{xx}, & -\alpha < t < 0, \end{cases} \quad F(x, t) = \begin{cases} f_1(x, t), & 0 < t < \beta, \\ f_2(x, t), & -\alpha < t < 0. \end{cases}$$

Chegaraviy shart sifatida Dirixle sharti olinadi:

$$u(0, t) = u(1, t) = 0, \quad -\alpha \leq t \leq \beta. \quad (2)$$

Ulash shartlari quyidagicha:

$$u(x, +0) = u(x, -0), \quad \lim_{t \rightarrow +0} D_{0t}^\rho u(x, t) = u_t(x, -0), \quad 0 < x < 1. \quad (3)$$

Boshlang‘ich shart quyidagi ko‘rinishda olinadi:

$$u(x, -\alpha) = \varphi(x), \quad 0 < x < 1, \quad (4)$$

bu yerda $\varphi(x)$ va $F(x, t)$ yetarlicha silliq berilgan funksiyalar, $\alpha > 0$, $\beta > 0$ -berilgan haqiqiy sonlar.

(1)–(4) masala to‘g‘ri masala deb ataladi.

Quyidagicha belgilashlar kiritamiz: $D_+ = (0, 1) \times (0, \beta)$, $D_- = (0, 1) \times (-\alpha, 0)$.

1-ta’rif. Agar $u(x, t) \in C(\bar{D})$, $u(x, t) \in AC([0, 1] \times [0, \beta])$ funksiya $u(x, t) \in C_{x,t}^2(D_-)$, $D_t^\rho u(x, t) \in C(\bar{D}_+)$, $u(x, t) \in C_x^2(D_+)$, $u(x, t) \in C_t^1(\bar{D}_-)$ xossalarga ega bo‘lib, (1)–(4) ning barcha shartlarini qanoatlantirsa, u holda bu funksiyaga (1)–(4) to‘g‘ri masalaning **yechimi** deyiladi.

Teskari masala. Aytaylik $F(x, t)$ quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsin

$$F(x, t) = \begin{cases} f_1(x)\phi_1(t), & 0 < t < \beta, \\ f_2(x)\phi_2(t), & -\alpha < t < 0. \end{cases} \quad (5)$$

U holda $\{u(x, t), \phi_1(t), \phi_2(t)\}$ funksiyalar juftligini toping, bu yerda $u(x, t)$ - to‘g‘ri masalaning yechimi, $\phi_1(t) \in C[0, \beta]$, $\phi_2(t) \in C[-\alpha, 0]$ va ular (1) tenglamani, shuningdek, (2)–(4) shartlarni va quyidagi

$$u(x_0, t) = h_1(t), \quad 0 \leq t \leq \beta, \quad u(x_0, t) = h_2(t), \quad -\alpha \leq t \leq 0. \quad (6)$$

qo‘shimcha shartlarni qanoatlantiradi, bu yerda $f_1(x)$, $f_2(x)$ -funksiyalar yetarlicha silliq berilgan funksiyalar, $x_0 \in (0, 1)$ -berilgan nuqta.

Turli tenglamalarning o‘ng tomonini (issiqlik manbai zichligini) aniqlashga oid teskari masalalar ko‘plab mualliflar tomonidan o‘rganilgan (masalan, [2]–[10] adabiyotlarga qarang). Shulardan ayrimlarini alohida ta’kidlab o‘tamiz. Masalan, [2] maqola mualliflari Gerasimov–Caputo hosilasini o‘z ichiga olgan subdiffuziya tenglamasining o‘ng tomonini aniqlashga oid teskari masalani o‘rganishgan, bu yerda elliptik qism Laplas operatoridan iborat. Ushbu ishda tenglamaning o‘ng tomoni $f(x)\phi(t)$ ko‘rinishida bo‘lib, noma’lum funksiya $f(x)$ hisoblanadi. Shunga o‘xshash teskari masala $\rho = 1$ holida K. Sabitov [5] va S. Sidorov [6] tomonidan o‘rganilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, [6] ishida klassik Fourier usuli asosida masalalar yechilgan, elliptik qism sifatida $u_{xx} + bu$ operatori ko‘rilgan. [6] ishida esa degeneratsiyalangan giperbolik qismga ega aralash parabolik-giperbolik tenglama tekislikda o‘rganilgan. O.Abdullayev va T.Yuldashevning [7] ishlarda yuklangan parabolik-giperbolik tenglama uchun kasr tartibli Riemann–Liouville operatorlari ishtirokida, chiziqli bo‘lmagan ulash sharti bilan berilgan teskari masalalar ko‘rib chiqilgan. Bunda o‘ng taraf $t > 0$ uchun $f(x)\phi_1(t)$, $t < 0$ uchun esa $f(x)\phi_2(t)$ ko‘rinishida, noma’lum funksiya esa $f(x)$ hisoblanadi. D. K. Durdiev [8] ishida aralash turdagi (1) tenglamaning elliptik qismi

Laplas operatori bo‘lgan hol uchun boshlang‘ich–chegaraviy masalaning yechimini topishga oid to‘g‘ri va teskari masala o‘rganilgan. Shuningdek, slindrsimon sohada ushbu tenglamaning noma‘lum o‘ng tomoni aniqlanadi.

Ushbu maqolada teskari masalani o‘rganishda [5] ishidagi ayrim original g‘oyalardan foydalanilgan.

To‘g‘ri masala. Biz (1)-(4) masalaning yechimini quyidagi qator ko‘rinishni qidiramiz:

$$u(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} T_k(t) \sin \sqrt{\lambda_k} x. \quad (7)$$

$f_1(x, t)$ va $f_2(x, t)$ funksiyalarni $\{v_k(x)\} = \{\sin(\pi k x)\}$, $k = 1, 2, \dots$ sistemasi bo‘yicha Furye qatorlariga yoyamiz. (7) ifodani (1) ga qo‘ysak, quyidagi differensial tenglamalar hosil bo‘ladi:

$$D_t^\rho T_k(t) + \lambda_k T_k(t) = f_{1k}(t), \quad t > 0, \quad (8)$$

$$T_k''(t) + \lambda_k T_k(t) = f_{2k}(t), \quad t < 0, \quad \lambda_k = (\pi k)^2, \quad (9)$$

bu yerda $f_{1k}(t)$ va $f_{2k}(t)$ mos ravishda $f_1(x, t)$ va $f_2(x, t)$ funksiyalarining quyidagi ko‘rinishda

$$f_{ik}(t) = 2 \int_0^1 f_i(x, t) \sin \sqrt{\lambda_k} x dx, \quad i = 1, 2.$$

aniqlanadigan Furye koefitsiyentlari.

(8), (9) differensial tenglamalarning yechimlari quyidagicha ifodalanadi ([10] ga qarang):

$$T_k(t) = \begin{cases} c_k E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho) + F_1(\sqrt{\lambda_k}, t), & 0 < t < \beta, \\ a_k \cos \sqrt{\lambda_k} t + b_k \sin \sqrt{\lambda_k} t + \frac{1}{\sqrt{\lambda_k}} F_2(\sqrt{\lambda_k}, t), & -\alpha < t < 0, \end{cases} \quad (10)$$

bu yerda $E_{\rho,1}(z)$ -ikki parametrli Mittag-Leffler funksiyasi ([10], 12-betga qarang), c_k , a_k , b_k - ixtiyoriy konstantalar va

$$F_1(\sqrt{\lambda_k}, t) = \int_0^t \tau^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k \tau^\rho) f_{1k}(t-\tau) d\tau, \quad F_2(\sqrt{\lambda_k}, t) = \int_0^t f_{2k}(\tau) \sin \sqrt{\lambda_k} (t-\tau) d\tau.$$

(3) ulash shartlari ostida quyidagilarni olimiz:

$$a_k = b_k, \quad c_k = \frac{f_{1k}(0+0) - \sqrt{\lambda_k} a_k}{\sqrt{\lambda_k}}.$$

a_k noma‘lum konstantalarni topish uchun (4) nolakal shartdan foydalanamiz va quyidagicha tenglamani hosil qilamiz:

$$a_k \Delta_\alpha(k) = \omega_k. \quad (11)$$

Aytaylik, barcha $k \in \mathbb{N}$ uchun

$$\Delta_\alpha(k) = \cos(\sqrt{\lambda_k} \alpha) + \sqrt{\lambda_k} \sin(\sqrt{\lambda_k} \alpha) = \sqrt{1 + \lambda_k} \sin(\sqrt{\lambda_k} \alpha + \theta_k) \neq 0, \quad (12)$$

bo‘lsin, bu yerda $k \rightarrow \infty$ da $\theta_k = \arcsin\left(\frac{1}{\sqrt{1 + \lambda_k}}\right) \rightarrow 0$.

Keyinchalik, topilgan qiymatlarni (10) ga qo‘yib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$u(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left(\frac{\omega_k}{\Delta_\alpha(k)} E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho) + F_1(\sqrt{\lambda_k}, t) \right) \sin \sqrt{\lambda_k} x, \quad t > 0, \quad (13)$$

$$u(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left(\frac{\omega_k}{\Delta_\alpha(k)} (\cos \sqrt{\lambda_k} t - \pi k \sin \sqrt{\lambda_k} t) + \frac{f_{1k}(0+0)}{\sqrt{\lambda_k}} \sin \sqrt{\lambda_k} t \right) \sin \sqrt{\lambda_k} x + \sum_{k=1}^{\infty} \left(\frac{1}{\sqrt{\lambda_k}} \int_0^t f_{2k}(\tau) \sin(\sqrt{\lambda_k} (t-\tau)) d\tau \right) \sin \sqrt{\lambda_k} x, \quad t < 0, \quad (14)$$

bu yerda

$$\omega_k = \varphi_k + \frac{f_{1k}(0+0)\sin\sqrt{\lambda_k}\alpha}{\sqrt{\lambda_k}} - \frac{1}{\sqrt{\lambda_k}} \int_{-\alpha}^0 f_{2k}(\tau)\sin\sqrt{\lambda_k}(\alpha+\tau)d\tau.$$

Aytaylik, $\square = K \cup K_0$ bo'lsin. Bu yerda $\square$ barcha natural sonlar to'plami, K va K_0 esa quyidagicha aniqlangan to'plamlardir:

- 1) Agar $\Delta_\alpha(k) \neq 0$ bo'lsa, u holda $k \in K$,
- 2) Aks holda, ya'ni agar $\Delta_\alpha(k) = 0$ bo'lsa, u holda $k \in K_0$.

Demak, agar barcha k lar uchun $\Delta_\alpha(k) \neq 0$ bo'lsa, unda noma'lum a_k koeffitsiyentlar bir qiymatli aniqlanadi va (1)-(4) masala ham yagona yechimga ega bo'ladi.

Agar ba'zi k lar uchun $\Delta_\alpha(k) = 0$ bo'lsa, u holda (11) tenglama faqatgina o'ng tomoni nolga teng bo'lgandagina yechimga ega bo'ladi: $\omega_k = 0$. Albatta, bu holda a_k koeffitsiyentlar ixtiyoriy tanlanishi mumkin. Demak, (1)-(4) masalaning yechimi yagona bo'lmaydi. Shunday qilib, (1)-(4) masalaning yagona yechimga ega bo'lishi uchun quyidagi mezon (kriteriy)ga ega bo'lamiz:

1-teorema. Agar (1)-(4) masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u holda bu yechim faqat va faqat barcha $k \in \square$ uchun (12) shartlar bajarilsagina yagona bo'ladi.

Endi (12) tengsizlik bajariladigan holatlarni ko'rib chiqamiz.

1-lemma. Agar α ixtiyoriy natural son bo'lsa, unda barcha $k \in \mathbb{N}$ uchun shunday C_0 o'zgarmas son mavjudki, quyidagi baho o'rinli

$$|\Delta_\alpha(k)| \geq C_0 = 1.$$

2-lemma. Agar α ixtiyoriy ratsional son bo'lsa, unda shunday $C_0 > 0$ o'zgarmas son va $k_0 \in \mathbb{N}$ nomer mavjudki, barcha $k > k_0$ uchun quyidagi baho o'rinli:

$$|\Delta_\alpha(k)| \geq C_0 > 0.$$

1-lemma va 2-lemmalarning isbotlari [10] adabiyotda keltirilgan.

3-lemma. Quyidagi ko'rinishdagi darajasi ikki bo'lgan irratsional algebraik sonlar $\alpha > 0$ dan iborat cheksiz M to'plam mavjud:

$$M = \{\alpha \mid \alpha = \sqrt{d} + p, \quad p \in \mathbb{Z}, \quad \sqrt{d} > -p, \quad d = 2, 3, 5, 6, 7, 8\},$$

ular uchun quyidagi tengsizlik bajariladi

$$|\Delta_\alpha(k)| = |\sqrt{1+\pi k} \cdot |\sin(\pi k\alpha + \theta_k)|| > C_0, \quad \forall k \in \mathbb{N},$$

bu yerda $C_0 > 0$ α ga bog'liq o'zgarmas son.

3-lemmaning isboti [11] adabiyotda berilgan.

(12) shart bajarilganda, topilgan yechimlar (13) va (14) qatorlarining tekis yaqinlashuvini ko'rsatamiz. Avvalo, $t < 0$ holatni tekshirishdan boshlaymiz.

Agar $f_1(x, t)$ va $f_2(x, t)$ funksiyalar $\bar{D}$ yopiq sohada uzluksiz bo'lib, x bo'yicha uch marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsa hamda har bir $t \in [-\alpha, 0]$ oraliqda, quyidagi shartlar $f_1(0, t) = f_1(1, t) = 0$, $f_1''(0, t) = f_1''(1, t) = 0$, $f_2(0, t) = f_2(1, t) = 0$, $f_2''(0, t) = f_2''(1, t) = 0$ bajarilsa va $\varphi(x)$ funksiyasi $[0, 1]$ da uzluksiz hamda to'rt marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'lib, $\varphi(0) = \varphi(1) = 0$, $\varphi'''(0) = \varphi'''(1) = 0$ shartlar bajarilgan bo'lsa, unda ushbu funksiyalarning Furrye koeffitsiyentlarini bo'laklab integrallash orqali mos ravishda quyidagicha topish mumkin bo'ladi:

$$f_{ik}(t) = -\frac{2}{(k\pi)^3} \int_0^1 f_i'''(x, t) \cos \pi kx dx = -\frac{f_{ik}'''(t)}{(k\pi)^3}, \quad \varphi_k = \frac{2}{(k\pi)^4} \int_0^1 \varphi^{(IV)}(x) \sin \pi kx dx = \frac{\varphi_k^{(IV)}}{(k\pi)^4}, \quad i=1, 2.$$

Bessel tengsizligiga binoan $L_2[0, 1]$ fazoda, $\varphi_k^{(IV)}$, $f_{1k}'''(t)$ va $f_{2k}'''(t)$ koeffitsiyentlarining kvadratlardan tashkil topgan sonli qatorlar uchun quyidagilar o'rinlidir:

$$\sum_{k=1}^{\infty} |\varphi_k^{(IV)}|^2 \leq \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2}^2, \quad \sum_{k=1}^{\infty} |f_{ik}'''(t)|^2 \leq \|f_i'''(x, t)\|_{L_2}^2, \quad i=1, 2.$$

Shunday qilib, quyidagi baholarni olamiz:

$$|u(x, t)| \leq C \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2} + C \|f_1'''(x, t)\|_{L_2} + C \max_{-\alpha \leq t \leq 0} \|f_2'''(x, t)\|_{L_2}, \quad t \leq 0, \quad (15)$$

$$|u(x,t)| \leq C \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2} + C \|f_1'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{-\alpha \leq t \leq 0} \|f_2'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{0 \leq t \leq \beta} \|f_1'''(x,t)\|_{L_2}, \quad t \geq 0. \quad (16)$$

Shunday qilib, (13) va (14) qatorlar Veyersstrass mezoniga ko'ra mos ravishda $\bar{D}_+$ va $\bar{D}_-$ sohalarida absolyut va tekis yaqinlashuvchi bo'ladi.

Endi (13) va (14) qatorlardan x o'zgaruvchiga nisbatan ikkinchi tartibli hosilalarni tekshiramiz. Yuqoridagiga o'xshash hisob-kitoblarni takrorlab, quyidagi baholarni olamiz:

$$|u_{xx}(x,t)| \leq C \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2} + C \|f_1'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{-\alpha \leq t \leq 0} \|f_2'''(x,t)\|_{L_2}, \quad t < 0, \quad (17)$$

$$|u_{xx}(x,t)| \leq C \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2} + C \|f_1'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{-\alpha \leq t \leq 0} \|f_2'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{0 \leq t \leq \beta} \|f_1'''(x,t)\|_{L_2}, \quad t > 0. \quad (18)$$

Agar $\varphi^{(IV)}(x)$, $f_1'''(x,t)$, $f_2'''(x,t) \in L_2[0,1]$ bo'lsa, u holda $u_{xx}(x,t)$ qatori istalgan $[\varepsilon, \beta]$, $0 < \varepsilon < s < \beta$ oraliqda tekis yaqinlashadi va, demak, bu qatorning har bir hadi $(0, \beta)$ oraliqda uzluksizdir. Shunday qilib, (17) va (18) qatorlar $D_+ = C((0,1) \times (0, \beta))$, $D_- = C((0,1) \times (-\alpha, 0))$ sohalarida absolyut va tekis yaqinlashadi. Shunda, (1) tenglama asosida, quyidagiga ega bo'lamiz: $D_t^\rho u(x,t) \in C(D_+)$, $u_t(x,t) \in C(D_-)$.

(3) ulash shartini ta'minlash uchun $D_t^\rho u(x,t) \in C(\bar{D}_+)$, $u(x,t) \in C_t^1(\bar{D}_-)$ funksiyalarning uzluksizligini ko'rsatish zarur. [13, 98, 231-bet] dagi 2.23-lemma va 4.9-misoldan foydalanib, quyidagi bahoni olamiz:

$$|D_t^\rho u(x,t)| \leq C \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2} + C \|f_1'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{-\alpha \leq t \leq 0} \|f_2'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{0 \leq t \leq \beta} \|f_1'''(x,t)\|_{L_2}, \quad t \geq 0. \quad (19)$$

$u_t(x,t)$ ifodasi uchun esa quyidagi bahoni olamiz:

$$|u_t(x,t)| \leq C \|\varphi^{(IV)}\|_{L_2} + C \|f_1'''(x,t)\|_{L_2} + C \max_{-\alpha \leq t \leq 0} \|f_2'''(x,t)\|_{L_2}, \quad t \leq 0. \quad (20)$$

Shunday qilib, quyidagi lemmalar isbotlandi:

4-lemma. Agar 1-lemma yoki 3-lemmaning shartlari bajarilsa, unda barcha $k \in \mathbb{N}$ uchun (15)-(20) baholar bajariladi.

5-lemma. Agar 2-lemmaning shartlari bajarilsa, unda barcha $k > k_0$ uchun (15)-(20) baholar bajariladi.

Natijada, quyidagi teorema isbotlandi

2-teorema. Aytaylik quyidagi shartlar bajarilsin

$$f_1(x,t) \in C(\bar{D}_+) \cap C_{x,t}^{3,0}(\bar{D}_+), \quad f_1(0,t) = f_1(1,t) = 0, \quad f_1'''(0,t) = f_1'''(1,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq \beta,$$

$$f_2(x,t) \in C(\bar{D}_-) \cap C_{x,t}^{3,0}(\bar{D}_-), \quad f_2(0,t) = f_2(1,t) = 0, \quad f_2''(0,t) = f_2''(1,t) = 0, \quad -\alpha \leq t \leq 0,$$

$$\varphi(x) \in C^4[0,1], \quad \varphi(0) = \varphi(1) = \varphi'''(0) = \varphi'''(1) = 0,$$

va 1-lemma yoki 3-lemma shartlari bajarilsa, unda (1)-(4) masalaning yagona yechimi mavjud bo'ladi va bu yechim (7) qator ko'rinishida ifodalanadi.

Endi, 2-lemma holida quyidagi natija o'rinli bo'ladi:

3-teorema. Agar $\varphi(x)$ va $f_1(x,t)$, $f_2(x,t)$ funksiyalar 2-teoremaning shartlarini qanoatlantirsa, va bundan tashqari $k \in K$ bo'lsa hamda α musbat ratsional son bo'lsa, u holda agar K_0 to'plam bo'sh bo'lsa, unda (1)-(4) masalaning yagona yechimi mavjud bo'ladi va bu yechim (7) qator ko'rinishida ifodalanadi. Agar K_0 bo'sh bo'lmasa, unda to'g'ri masalaning yechimi mavjud bo'lishi uchun zarur va yetarli shart quyidagicha bo'ladi:

$$\varphi_k = \frac{1}{\pi k} \int_{-\alpha}^0 f_{2k}(\tau) \sin \pi k(\alpha + \tau) d\tau - \frac{f_{1k}(0+0) \sin \pi k \alpha}{\pi k}, \quad k \in K_0.$$

Bu holda (1)-(4) masalaning yechimi mavjud bo'ladi, lekin yagona bo'lmaydi:

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} T_k(t) \sin \sqrt{\lambda_k} x + \sum_{k \in K_0} a_k E_{\rho,1}(-\lambda_k t^\rho) \sin \sqrt{\lambda_k} x, \quad t > 0,$$

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} T_k(t) \sin \sqrt{\lambda_k} x + \sum_{k \in K_0} a_k (\cos \sqrt{\lambda_k} t - \sqrt{\lambda_k} \sin \sqrt{\lambda_k} t) \sin \sqrt{\lambda_k} x, \quad t < 0,$$

bu yerda a_k , $k \in K_0$ - ixtiyoriy haqiqiy sonlar.

Teskari masalani tatbiq qilish. Teskari masalaning formal yechimini topish uchun, (1)-(4) to'g'ri masalaning yechimidan foydalanamiz. Bu yechim quyidagi qator orqali berilgan:

$$u(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} T_k(t) v_k(x) = \sum_{k=1}^{\infty} T_k(t) \sin \sqrt{\lambda_k} x, \quad (21)$$

bu yerda (1) tenglamaning o'ng tomoni (5) ko'rinishida bo'lganligi sababli $T_k(t)$ quyidagicha:

$$T_k(t) = \begin{cases} \frac{\omega_{1k}}{\Delta_{\alpha}(k)} E_{\rho,1}(-\lambda_k t^{\rho}) + f_{1k} \int_0^t (t-\tau)^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k (t-\tau)^{\rho}) \phi_1(\tau) d\tau, & t > 0, \\ \frac{\omega_{1k}}{\Delta_{\alpha}(k)} \left(\cos \sqrt{\lambda_k} t - \sqrt{\lambda_k} \sin \sqrt{\lambda_k} t \right) + \frac{f_{1k} \phi_1(0) \sin \sqrt{\lambda_k} t}{\sqrt{\lambda_k}} \\ + \frac{f_{2k}}{\sqrt{\lambda_k}} \int_0^t \phi_2(\tau) \sin \sqrt{\lambda_k} (t-\tau) d\tau, & t < 0, \end{cases}$$

$$\omega_{1k} = \varphi_k + \frac{f_{1k} \phi_1(0) \sin \sqrt{\lambda_k} \alpha}{\sqrt{\lambda_k}} - \frac{f_{2k}}{\sqrt{\lambda_k}} \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) \sin \sqrt{\lambda_k} (\alpha + \tau) d\tau.$$

(21) yechimga (6) va (7) qo'shimcha shartlarini qo'llasak, quyidagi yuklangan hadli integral tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\int_0^t \phi_1(\tau) K_1(\tau, t) d\tau - \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) \bar{K}_1(\tau, t) d\tau = h_1(t) - \phi_1(0) S_1(t) - S_2(t) = \bar{h}_1(t), \quad (22)$$

$$-\int_t^0 \phi_2(\tau) K_2(\tau, t) d\tau - \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) K_3(\tau, t) d\tau = h_2(t) - \phi_1(0) S_4(t) - S_5(t) - \phi_1(0) S_6(t) = \bar{h}_2(t), \quad (23)$$

bu yerda

$$K_1(\tau, t) = \sum_{k=1}^{\infty} f_{1k} (t-\tau)^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k (t-\tau)^{\rho}) v_k(x_0), \quad K_2(\tau, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{2k}}{\sqrt{\lambda_k}} \sin \sqrt{\lambda_k} (t-\tau) v_k(x_0),$$

$$S_1(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{1k} \sin \sqrt{\lambda_k} \alpha E_{\rho,1}(-\lambda_k t^{\rho})}{\sqrt{\lambda_k} \Delta_{\alpha}(k)} v_k(x_0), \quad S_2(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\varphi_k E_{\rho,1}(-\lambda_k t^{\rho})}{\Delta_{\alpha}(k)} v_k(x_0),$$

$$K_3(\tau, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{2k} \sin \sqrt{\lambda_k} (\alpha + \tau)}{\sqrt{\lambda_k} \Delta_{\alpha}(k)} \left(\cos \sqrt{\lambda_k} t - \sqrt{\lambda_k} \sin \sqrt{\lambda_k} t \right) v_k(x_0),$$

$$S_5(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\varphi_k \left(\cos \sqrt{\lambda_k} t - \sqrt{\lambda_k} \sin \sqrt{\lambda_k} t \right)}{\Delta_{\alpha}(k)} v_k(x_0),$$

$$\bar{K}_1(\tau, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{2k} \sin \sqrt{\lambda_k} (\alpha + \tau) E_{\rho,1}(-\lambda_k t^{\rho})}{\sqrt{\lambda_k} \Delta_{\alpha}(k)} v_k(x_0),$$

$$S_4(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{1k} \sin \sqrt{\lambda_k} t}{\sqrt{\lambda_k}} v_k(x_0), \quad S_6(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{1k} \sin \sqrt{\lambda_k} \alpha}{\sqrt{\lambda_k} \Delta_{\alpha}(k)} \left(\cos \sqrt{\lambda_k} t - \sqrt{\lambda_k} \sin \sqrt{\lambda_k} t \right) v_k(x_0).$$

(22) tenglamaga t bo'yicha ρ tartibli differensial operator D_t^{ρ} qo'llaymiz va (23) tenglamani t bo'yicha ikki marta differensiallaymiz, natijada quyidagini hosil qilamiz

$$\phi_1(t) f_1(x_0) - \int_0^t \phi_1(s) \bar{K}_1(s, t) ds - \int_{-\alpha}^0 \phi_2(s) D_t^{\rho} \bar{K}_1(s, t) ds = D_t^{\rho} \bar{h}_1(t), \quad (24)$$

$$\phi_2(t) f_2(x_0) - \int_t^0 \phi_2(\tau) \frac{\partial^2 K_2(\tau, t)}{\partial t^2} d\tau - \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) \frac{\partial^2 K_3(\tau, t)}{\partial t^2} d\tau = \bar{h}_2''(t). \quad (25)$$

Agar $t = 0$ deb olsak, (24) va (25) dan quyidagilarni olamiz:

$$\begin{aligned} \phi_1(0)f_1(x_0) + \int_{-\alpha}^0 \phi_2(s) D_t^\rho \bar{K}_1(s, t) \Big|_{t=0} ds &= D_t^\rho (h_1(0) - \phi_1(0)S_1(0) - S_2(0)), \\ \phi_2(0)f_2(x_0) - \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) \frac{\partial^2 K_3(\tau, t)}{\partial t^2} d\tau &= h_2''(0) - \phi_1(0)S_4''(0) - S_5''(0) - \phi_1(0)S_6''(0). \end{aligned} \quad (26)$$

(26) ga ko'ra quyidagiga egamiz

$$\phi_1(0) = \left(f_1(x_0) + D_t^\rho S_1(0) \right)^{-1} \left(D_t^\rho (h_1(0) - S_2(0)) - \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) D_t^\rho \bar{K}_1(\tau, t) \Big|_{t=0} d\tau \right),$$

agar $f_1(x_0) + D_t^\rho S_1(0) \neq 0$ shart bajarilsa, u holda $\phi_1(0)$ qiymati yuqoridagi formula orqali aniqlanadi va bu natijani (25) dagi ifodaning o'ng tomoniga qo'yamiz. Shuningdek, $f_2(x_0) \neq 0$ sharti bajarilsa, u holda (25) tenglamadan quyidagi integral tenglama kelib chiqadi:

$$\phi_2(t) - \lambda \int_{-\alpha}^0 \phi_2(s) K(\tau, t) dt = v(t), \quad (27)$$

bu yerda yadroning ifodasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K(\tau, t) = \begin{cases} \frac{\partial^2 K_3(\tau, t)}{\partial t^2} + \frac{(S_4''(0) + S_6''(0)) D_t^\rho \bar{K}_1(\tau, t) \Big|_{t=0}}{f_1(x_0) + D_t^\rho S_1(0)}, & -\alpha \leq \tau \leq t, \\ \frac{\partial^2 K_2(\tau, t)}{\partial t^2} + \frac{\partial^2 K_3(\tau, t)}{\partial t^2} + \frac{(S_4''(0) + S_6''(0)) D_t^\rho \bar{K}_1(\tau, t) \Big|_{t=0}}{f_1(x_0) + D_t^\rho S_1(0)}, & t \leq \tau \leq 0, \end{cases}$$

$$\lambda = \frac{1}{f_2(x_0)}, \quad v(t) = \frac{\bar{h}_2''(t)}{f_2(x_0)} - \frac{(S_4''(0) + S_6''(0)) D_t^\rho (h_1(0) - S_2(0))}{f_2(x_0) (f_1(x_0) + D_t^\rho S_1(0))} - \frac{S_5(t)}{f_2(x_0)}.$$

Shunday qilib, (27) integral tenglama yadro va o'ng tomonida uzluksiz funksiyalar mavjud bo'lgan ikkinchi turdagi Fredgolm integral tenglamasi bo'lib, unga Fredgolm nazariyasini qo'llash mumkin [13].

Agar (27) formulaga muvofiq $\phi_2(t)$ funksiyasi aniqlansa, u holda (24) tenglama orqali $\phi_1(t)$ funksiyasini topish mumkin bo'ladi. Bu yerda $\phi(t)$ funksiyasi uzluksiz yadroga va uzluksiz o'ng tomonga ega bo'lgan ikkinchi turdagi Volterra integral tenglamaning yechimi sifatida qaraladi. Bunda $f_1(x_0) \neq 0$ shart va quyidagi shart bajarilgan bo'lishi talab qilinadi:

$$f_1(x_0) + D_t^\rho S_1(0) = \sum_{k=1}^{\infty} f_{1k} \left[1 - \frac{\sqrt{\lambda_k} \sin \sqrt{\lambda_k} \alpha}{\Delta_\alpha(k)} \right] v_k(x_0) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{f_{1k} \cos \sqrt{\lambda_k} \alpha}{\Delta_\alpha(k)} v_k(x_0) \neq 0. \quad (28)$$

Umuman olganda, (28) shart har doim bajarilishini darhol aytib bo'lmaydi. Shu sababli, agar chap tomondagi birinchi had nolga teng emasligi ma'lum bo'lsa, u holda ifoda nolga teng emasligini isbotlash uchun ikkinchi hadning nolga teng emasligini ko'rsatishning o'zi kifoya qiladi. Ayniqsa, $\alpha \in \mathbb{R}$ bo'lsa, (28) shart har doim bajariladi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan mulohazalarga asoslanib, teskari masala uchun quyidagi teorema kelamiz.

4-teorema. Faraz qilaylik

$$D_t^\rho h_1(t) \in C[0, \beta], \quad h_2(t) \in C^2[-\alpha, 0], \quad f_1(x_0) \neq 0, \quad f_2(x_0) \neq 0,$$

bo'lsin. Aytaylik, 1-lemma yoki 3-lemmaning shartlari bajarilsin, hamda $f_1(x)$, $f_2(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalari 2-teorema shartlarini qanoatlantirsin va [5] ishidagi 6-teoremaning 1) yoki 2) farazlaridan biri bajarilsin. U holda, agar $\phi_1(0) = 0$ yoki $\phi_2(0) = 0$ bo'lsa, (24) va (25) integral tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega bo'ladi, ya'ni $\phi_2(t) \in C[-\alpha, 0]$ va $\phi_1(t) \in C[0, \beta]$. Shundan so'ng, $u(x, t)$ funksiyasini (21) formuladan

topish mumkin. Endi $f_1(x_0) \neq 0$ va $f_2(x_0) \neq 0$ shartlari teskari masalaning yagona yechimga ega bo'lishi uchun muhimligini ko'rsatamiz. Darhaqiqat, $f_1(x) = f_2(x) = \sin \sqrt{\lambda_m} x$, ko'rinishdagi funksiyalar mavjud, bu yerda m - ixtiyoriy natural son, x_0 esa shunday tanlanganki, $f_1(x_0) = f_2(x_0) = \sin \sqrt{\lambda_m} x_0 = 0$.

Shunda, $f_1(x) = f_2(x) = \sin \sqrt{\lambda_m} x$ bo'lganda va ixtiyoriy $\phi_1(t) \in C[0, \beta]$, $\phi_2(t) \in C[-\alpha, 0]$ uchun $h_1(t) \equiv 0$, $h_2(t) \equiv 0$ hollarda teskari masalaning quyidagi nol bo'lmagan yechimi mavjud:

$$u_{1m}(x, t) = T_{1m}(t) \sin \sqrt{\lambda_m} x, \quad (29)$$

bu yerda

$$T_{1m}(t) = \begin{cases} \frac{\omega_{1m}}{\Delta_\alpha(m)} E_{\rho,1}(-\lambda_m t^\rho) + f_{1m} \int_0^t (t-\tau)^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_m (t-\tau)^\rho) \phi_1(\tau) d\tau, & t > 0, \\ \frac{\omega_{1m}}{\Delta_\alpha(m)} \left(\cos \sqrt{\lambda_m} t - \sqrt{\lambda_m} \sin \sqrt{\lambda_m} t \right) + \frac{f_{1m} \phi_1(0) \sin \sqrt{\lambda_m} t}{\sqrt{\lambda_m}} \\ + \frac{f_{2m}}{\sqrt{\lambda_m}} \int_0^t \phi_2(\tau) \sin \sqrt{\lambda_m} (t-\tau) d\tau, & t < 0, \end{cases}$$

va

$$\omega_{1m} = \varphi_m + \frac{f_{1m} \phi_1(0) \sin \sqrt{\lambda_m} \alpha}{\sqrt{\lambda_m}} - \frac{f_{2m}}{\sqrt{\lambda_m}} \int_{-\alpha}^0 \phi_2(\tau) \sin \sqrt{\lambda_m} (\alpha + \tau) d\tau.$$

ADABIYOTLAR:

1. Machado J.A. *Handbook of Fractional Calculus with Application*. – Berlin: De Gruyter, 2019.
2. Ashurov R.R., Shakarova M.D. Inverse problem for the subdiffusion equation with fractional Caputo derivative // *Ufa Mathematical Journal*. – 2024. № 1. – pp. 111–126.
3. Karimov E.T., Pengbin F. Inverse source problems for time-fractional mixed parabolic-hyperbolic-type equations // *De Gruyter*. – 2015. № 4. – pp. 339–353.
4. Salakhitdinov M.S., Karimov E.T. Uniqueness of inverse source nonlocal problem for fractional order mixed type equation // *Eurasian Mathematical Journal*. – 2016. № 4. – pp. 74–83.
5. Sabitov K.B. Initial boundary and inverse problems for the inhomogeneous equation of a mixed parabolic-hyperbolic equation // *Mathematical Notes*. – 2017. № 3. – pp. 378–395.
6. Sidorov S.N. Inverse problems for a degenerate mixed parabolic-hyperbolic equation on finding time-depending factors in right-hand sides // *Ufa Mathematical Journal*. – 2019. № 1. – pp. 75–89.
7. Abdullaev O.Kh., Yuldashev T.K. Inverse problems for the loaded parabolic-hyperbolic equation involves Riemann-Liouville operator // *Lobachevskii Journal of Mathematics*. – 2023. № 3. – pp. 1080–1090.
8. Durdiev D.K. Inverse source problem for an equation of mixed parabolic-hyperbolic type with the time fractional derivative in a cylindrical domain // *Vestn. Sam. Gos. Tekhn. Univ., Ser. Phys. Math. Sci.* – 2022. № 26. – pp. 355–367.
9. Pskhu A.V. *Partial Differential Equations of Fractional Order*. – Moscow: Nauka, 2005. [in Russian]
10. Sabitov K.B. Nonlocal problem for a parabolic-hyperbolic equation in rectangular domain // *Mathematical Notes*. – 2011. № 4. – pp. 596–602.
11. Sabitov K.B., Safin E.M. The inverse problem for an equation of mixed parabolic-hyperbolic type // *Mathematical Notes*. – 2010. № 6. – pp. 880–889.
12. Kilbas A.A., Srivastava H.M., Trujillo J.J. *Theory and Applications of Fractional Differential Equations*. – Amsterdam: Elsevier Science, 2006.
13. Sabitov K.B. *Functional, Differential and Integral Equations*. – Moscow: Vysshaya Shkola, 2005. [in Russian]

SONLAR KETMA-KETLIGI LIMITIGA DOIR AYRIM OLIMPIADA MASALALARI

Qo‘shaqov Xolmurodjon Shermamatovich,
Andijon davlat universiteti dotsenti
xolmurodjonqoshaqov737@gmail.com
Toxirjonova Shoxsanam Dilmurod qizi,
Andijon davlat universiteti talabasi
kobilovd139@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika fani bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan xalqaro va respublika fan olimpiadalarida ko‘p uchraydigan sonlar ketma-ketligi va ularning limitiga oid masalalar ko‘rib chiqiladi. Sonlar ketma-ketligi va uning limiti tushunchasi matematik analizning muhim tushunchalaridan biri bo‘lib, matematika yo‘nalishi talabalariga dastlabki bosqichlardanoq chuqur o‘rgatiladi. Limit tushunchasining mohiyati, ketma-ketliklarning xossalari, ularning tahlil usullari va turli yechim strategiyalari misollar asosida yoritiladi. Maqola orqali talabalarining mantiqiy fikrlashi va matematik tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Maqola matematika fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishni istagan talabalar, o‘qituvchilar va olimpiada ishtirokchilari uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ketma-ketlik limiti, fundamental ketma-ketlik, Shtols-Chezaro teoremasi, Lopital teoremasi, Stirling formulasi.

SOME OLYMPIAD PROBLEMS ON THE LIMIT OF NUMBER SEQUENCES

Abstract. This article examines problems related to number sequences and their limits, which are frequently encountered in international and republican subject olympiads among students of higher educational institutions in mathematics. The concept of a number sequence and its limit is one of the important concepts in mathematical analysis and is taught to students of mathematics from the initial stages. The essence of the concept of a limit, the properties of sequences, their analysis methods, and various solution strategies are illustrated with examples. The article aims to develop students' logical thinking and mathematical analysis skills. The article serves as a useful resource for students, teachers, and olympiad participants who wish to gain a deeper understanding of mathematics.

Keywords: Limit of a sequence, fundamental sequence, Stolz-Cesaro theorem, L'Hopital's theorem, Stirling's formula.

НЕКОТОРЫЕ ОЛИМПИАДНЫЕ ЗАДАЧИ НА ПРЕДЕЛ ЧИСЛОВЫХ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются задачи, связанные с числовыми последовательностями и их пределами, которые часто встречаются на международных и республиканских предметных олимпиадах по математике среди студентов высших учебных заведений. Понятие числовой последовательности и ее предела является одним из важных понятий математического анализа и преподается студентам математических специальностей с начальных этапов. Сущность понятия предела, свойства последовательностей, методы их анализа и различные стратегии решения освещаются на примерах. Статья направлена на развитие у студентов логического мышления и навыков математического анализа. Данный материал служит полезным источником для студентов, преподавателей и участников олимпиад, желающих углубить свои знания в области математики.

Ключевые слова: Предел последовательности, фундаментальная последовательность, теорема Штольца-Чезаро, правило Лопиталья, формула Стирлинга.

Kirish. Matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan analizda sonlar ketma-ketligi va ularning limitlari muhim tushunchalardan hisoblanadi. Matematika yo‘nalishi talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan

xalqaro va respublika fan olimpiadalari matematikasida esa bu tushunchalar nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki bilvosita, boshqa bo'limlar bilan integratsiyalashgan holatda uchraydi. Shu boisdan, sonlar ketma-ketligining limitiga oid masalalarni to'g'ri tahlil qilish va samarali yechish strategiyalarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Dastlab asosiy tushunchalarning ta'riflarini keltirib olamiz.

Bizga biror

$$x_n : x_1, x_2, x_3, K, x_n, K, \dots \quad (1)$$

ketma-ketlik hamda $a \in R$ son berilgan bo'lsin.

1-ta'rif. Agar $\forall \varepsilon > 0$ olinganida ham natural son $n_0 \in N$ mavjud bo'lsaki, $n > n_0$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha natural sonlar uchun

$$|x_n - a| < \varepsilon \quad (2)$$

tengsizlik bajarilsa, a son x_n ketma-ketlikning limiti deb ataladi.

2-ta'rif. Agar $\forall \varepsilon > 0$ olinganda ham shunday $n_0 \in N$ son mavjud bo'lsaki, barcha $n > n_0$ va barcha $m > n_0$ lar uchun

$$|x_n - x_m| < \varepsilon \quad (3)$$

tengsizlik bajarilsa, x_n fundamental (Koshi ketma-ketligi) ketma-ketlik deb ataladi.

Asosiy qism. Ushbu Shtols-Chezaro teoremasi limitga doir olimpiada masalalarini yechishda ko'p qo'llaniladi. Undan foydalanish talabaning mahoratiga bog'liq.

1-teorema (Shtols-Chezaro teoremasi). Agar $\{a_n\}$ va $\{b_n\}$ ketma-ketliklar quyidagi shartlarni qanoatlantirsa

1. $\{b_n\}$ ketma-ketlik monoton va uning limiti cheksiz

$$2. \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_{n+1} - a_n}{b_{n+1} - b_n} = L;$$

u holda

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_n}{b_n} = L.$$

Endi xalqaro va respublika fan olimpiadalarida ko'p uchraydigan sonlar ketma-ketligi va ularning limitiga oid masalalar va ularning yechimlaridan namunalar keltiramiz:

1-misol. Hisoblang:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} |\sin(\pi\sqrt{n^2 + n + 1})|$$

Yechim: $|\sin x|$ funksiyasi davri π ga teng bo'lgan davriy funksiya. Shuning uchun

$$\lim_{n \rightarrow \infty} |\sin(\pi\sqrt{n^2 + n + 1})| = \lim_{n \rightarrow \infty} |\sin(\pi\sqrt{n^2 + n + 1} - n)|$$

bo'ladi. Lekin

$$\lim_{n \rightarrow \infty} (\sqrt{n^2 + n + 1} - n) = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{n^2 + n + 1 - n^2}{\sqrt{n^2 + n + 1} + n} = \frac{1}{2}.$$

Bundan limitning $|\sin \frac{\pi}{2}|$ ga ya'ni 1 ga teng ekanligi kelib chiqadi, ya'ni

$$\lim_{n \rightarrow \infty} |\sin(\pi\sqrt{n^2 + n + 1})| = 1.$$

2-misol. Aytaylik a va b sonlari $a \cdot 2^n + b$ barcha natural sonlarda to'la kvadrat bo'ladigan butun sonlar bo'lsin. $a = 0$ ekanini isbotlang.

Yechim: Faraz qilaylik $a \neq 0$ bo'lsin. Demak $a > 0$ yoki ifoda oxiri manfiy bo'lib qoladi. Aytaylik

$$x_n = \sqrt{a \cdot 2^n + b}$$

bo'lsin. U holda

$$\begin{aligned} \lim_{n \rightarrow \infty} (2x_n - x_{n+2}) &= \lim_{n \rightarrow \infty} (\sqrt{a \cdot 2^{n+2} + 4b} - \sqrt{a \cdot 2^{n+2} + b}) = \\ &= \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{3b}{\sqrt{a \cdot 2^{n+2} + 4b} + \sqrt{a \cdot 2^{n+2} + b}} = 0 \end{aligned}$$

Bu butun sonlardan iborat ketma-ketlikdir, shuning uchun shunday bir N soni mavjudki, har bir $n \geq N$ uchun $2x_n = x_{n+2}$ tenglik bajariladi. Lekin $2x_n = x_{n+2}$ tengligi $b = 0$ bo'lishiga ekvivalent. Shunda a va $2a$ bir vaqtning o'zida kvadrat sonlar bo'ladi. Bu esa mumkin emas. Demak $a = 0$ bo'lishi kerak ekan.

(Polish Team Selection Test for the International Mathematical Olimpiad)

3-misol. Isbotlang:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} x^{x+1} dx = \frac{1}{2}.$$

Yechim: Bizga ma'limki,

$$\lim_{x \rightarrow 0^+} x^x = 1$$

Buning isboti Lopital teoremasi orqali bo'ladi:

$$\lim_{x \rightarrow 0^+} x^x = \lim_{x \rightarrow 0^+} e^{x \ln x} = e^{\lim_{x \rightarrow 0^+} x \ln x} = e^{\lim_{x \rightarrow 0^+} \frac{\ln x}{\frac{1}{x}}} = e^{\lim_{x \rightarrow 0^+} (-x)} = 1$$

Masalaga qaytsak, $\varepsilon > 0$ uchun, shunday $\delta > 0$ tanlash mumkinki, shunday $0 < x < \delta$ uchun,

$$|x^x - 1| < \varepsilon$$

$n \geq \frac{1}{\delta}$ uchun bizda bor:

$$|n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} (x^{x+1} - x) dx| \leq n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} |x^{x+1} - x| dx =$$

$$= n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} x |x^{x+1} - x| dx < \varepsilon n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} x dx = \frac{\varepsilon}{2}.$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \int_0^{\frac{1}{n}} (x^{x+1} - x) dx = 0$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} x^{x+1} dx = \lim_{n \rightarrow \infty} n^2 \int_0^{\frac{1}{n}} x dx = \frac{1}{2}.$$

4-misol. Aytaylik $\{a_n\}$ quyidagi rekurent munosabat bilan aniqlangan haqiqiy sonlar ketma-ketligi bo'lsin:

$$\forall n \geq 1 \text{ lar uchun } a_{n+1} = \sqrt{a_n^2 + a_n - 1}.$$

U holda $a_1 \notin (-2, 1)$ ekanligini isbotlang.

Yechim: Avvalo, kvadrat ildiz ostidagi ifodani tekshiramiz. Uning nolga teng bo'ladigan nuqtalari bu:

$$\frac{-1 \pm \sqrt{5}}{2}$$

Shunday qilib, barcha $n \geq 2$ uchun $a_n \geq 0$ bo'ladi, chunki u butun sonning kvadrat ildizi. Bu shartga ko'ra barcha $n \geq 2$ uchun

$$a_n \geq \frac{-1 + \sqrt{5}}{2}, \quad r = \frac{-1 + \sqrt{5}}{2}$$

kabi belgilash kiritamiz.

Teskarisidan faraz qilaylik, $a_1 \in (-2, 1)$. Bunda

$$a_2^2 = a_1^2 + a_1 - 1 = \left(a_1 + \frac{1}{2}\right)^2 - \frac{5}{4} < \left(\frac{3}{2}\right)^2 - \frac{5}{4} = 1,$$

shunday qilib $a_2 \in [r, 1)$. U holda:

$$a_{n+1}^2 = a_n^2 + a_n - 1 < a_n^2 < 1,$$

bunda

$$a_n \in [r, 1) \text{ va } a_{n+1} < a_n.$$

Bundan esa ketma-ketlikning chegaralangan hamda qat'iy kamayuvchi ekanligi kelib chiqadi. Demak, u limitga ega, deylik bu limit L bo'lsin. Bu limit $[r, 1)$ oraligida joylashgan bo'lishi kerak.

Rekurent tenglamadan:

$$L = \sqrt{L^2 + L - 1} \Rightarrow L = 1$$

Ammo bu yechim oraliqqa mos kelmaydi. Demak, farazimiz noto'g'ri ekan.

Bundan $a_1 \notin (-2, 1)$ ekanligi kelib chiqadi.

(Bulgarian Mathematical Olimpiad, 2002)

5-misol. Aytaylik a_0, b_0, c_0 haqiqiy sonlar bo'lsin. $(a_n)_n, (b_n)_n, (c_n)_n$ ketma-ketliklar quyidagi rekurent munosabatlar bilan aniqlangan bo'lsin:

$$a_{n+1} = \frac{a_n + b_n}{2}, \quad b_{n+1} = \frac{b_n + c_n}{2}, \quad c_{n+1} = \frac{a_n + c_n}{2}, \quad n \geq 0.$$

Ketma-ketliklar yaqinlashuvchi ekanligini isbotlang va ularning limitini toping.

Yechim: Uchta (x, y, z) uchun quyidagicha ta'riflaymiz:

$$\Delta(x, y, z) = \max(|x - y|, |x - z|, |y - z|)$$

Aytaylik $\Delta(a_0, b_0, c_0) = \delta$ bo'lsin. Rekurent munosabatdan bizda quyidagi tenglik mavjud:

$$\Delta(a_{n+1}, b_{n+1}, c_{n+1}) = \frac{1}{2} \Delta(a_n, b_n, c_n), \quad n \geq 0$$

Induksiya farazidan

$$\Delta(a_n, b_n, c_n) = \frac{1}{2^n} \delta.$$

Shuningdek,

$$\begin{aligned} \max(|a_{n+1} - a_n|, |b_{n+1} - b_n|, |c_{n+1} - c_n|) &= \frac{1}{2} \Delta(a_n, b_n, c_n). \\ |a_{n+1} - a_n|, |b_{n+1} - b_n|, |c_{n+1} - c_n| \text{ barchasi } &\leq \frac{1}{2^{n+1}} \delta. \end{aligned}$$

Demak,

$$n > m \geq 1, |a_n - a_m|, |b_n - b_m|, |c_n - c_m|$$

quyidagidan kichik bo'ladi:

$$\left(\frac{1}{2^m} + \frac{1}{2^{m+1}} + \dots + \frac{1}{2^n}\right) \delta < \frac{\delta}{2^m}$$

Bu ketma-ketliklar Koshi ketma-ketliklari ekanini isbotlaydi, shuning uchun ular yaqinlashuvchi. Chunki $n \rightarrow \infty$ da $(a_n, b_n, c_n) \rightarrow 0$. Uchala ketma-ketlik ham bir xil L limitga intiladi.

Oxirida har qanday n uchun

$$a_n + b_n + c_n = a_0 + b_0 + c_0$$

tenglik o'rinli bo'lgani sababli, shunday xulosa qilamizki:

$$a_0 + b_0 + c_0 = 3L \Rightarrow L = \frac{a_0 + b_0 + c_0}{3}.$$

6-misol. Quyidagi ko'rinishdagi ko'phad berilgan bo'lsin:

$$P(x) = a_m x^m + a_{m-1} x^{m-1} + \dots + a_0, \quad a_i > 0, \quad i = 0, 1, \dots, m.$$

A_n va G_n esa $P(1), P(2), \dots, P(n)$ sonlarining mos ravishda o'rta arifmetik va o'rta geometrik qiymati bo'lsin. U holda isbotlang:

Sirti ionlanishning nazariy asoslari. Atom va molekulalar uchun ko'plab ionlanish usullari, jumladan elektron ionlanishi, fotoionlashish, kimyoviy ionlanish, atmosfera bosimli kimyoviy ionlanish, korona razryadli ionlanish, tribo-ionlanish, elektropray ionlanish, matritsa yordamida lazer desorbsiya/ionlanish, maydon ionlanish va sirt ionlanish (SI) ishlab chiqilgan. Ushbu usullar orasida (SI) o'zining noyob selektivligi bilan ajralib turadi, bundan tashqari moddalarning ionlashuvi qizdirilgan qattiq jism sirtida (emitterda) sodir bo'ladi [3]. SI hodisasi — bu qattiq jism yuzasidan zarrachalarning termal desorbsiyasi jarayonida musbat va manfiy ionlarning hosil bo'lishidir [4]. Zarrachalar sirtni musbat ion, manfiy ion yoki neytral holatda tark etishi mumkin. SI emissiyasi termodinamik muvozanat sharoitida sodir bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, emitter yuzasidan bug'lanayotgan zarrachalar — neytral molekulalar va ionlar — qattiq jism harorati T ga mos energiya taqsimotiga ega bo'ladi. Bu taqsimot klassik statistik fizika qonunlariga, xususan Boltsman taqsimotiga bo'ysunadi [5]. SI hodisasi qattiq jism sirtidan termik bug'lanayotgan zarrachalarning ion holatida desorbsiyalanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonning fizik-kimyoviy mohiyati bir necha bosqichda amalga oshadi. E'tiborlisi shundaki, zarrachalarning emitter sirtiga qanday yo'l bilan yetib kelganligidan qat'i nazar, SI mexanizmining asosiy xususiyatlari ularning sirt bilan termodinamik va kvant-mexanik muvozanatga kirishi va sirtni tark etish jarayoni bilan belgilanadi. Zarrachalarning yakuniy zaryad holati aynan sirtni tark etish bosqichida aniqlanadi. SI hodisasi uchta ketma-ket bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Zarrachalarning sirtga adsorbsiyalanishi.
2. Qattiq jism va adsorbsiyalangan zarrachalar (shu jumladan adsorbsiyalangan qatlamdagi kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi zarrachalar) o'rtasida issiqlik va zaryad muvozanatining o'rnatilishi.
3. Zarrachalarning sirtni tark etishi, bu jarayonda ularning zaryad holati o'rnatiladi.

Uchinchi bosqich – ya’ni zarracha sirtni tark etayotganda, sirtida sodir bo’lgan jarayonlar va sirt xossalari haqida ma’lumot beradi. Dastlab yagona kvant-mexanik sistema bo’lgan “qattiq jism – zarracha” juftligi zarracha sirtidan kritik masofa X_{kr} (atom o’lchamlariga teng) ga uzoqlashganda ikkita alohida sistema – ya’ni qattiq jism va zarrachaga bo’linadi. Shu vaqtda zarracha izolyatsiyalangan holga o’tadi va uning yakuniy zaryad holati o’rnatilgan bo’ladi. Bu yopiq sistemalar o’rtasida izoenergetik elektron almashinuvi ehtimoliga bog’liq bo’ladi (X_{kr} atom o’lchami tartibiga ega) [6;1-b].

SI jarayonining elektron darajalar bilan bog’liq mexanizmi zarracha (molekula yoki atom) va qattiq jism (emitter) o’rtasidagi energetik o’zaro ta’sirga asoslanadi. Agar zarracha o’zining valent elektronini emitter sirtida mavjud bo’sh holatga o’tkaza olsa, u musbat ion holatiga o’tadi. Aksincha, agar emitterdan elektron zarrachaning bo’sh orbitasiga o’tsa, manfiy ion hosil bo’ladi.

SI samaradorligi zarrachaning ionlanish potentsiali (V) yoki elektron moyilligi (S) bilan emitterning chiqish ishi (ϕ) o’rtasidagi farq orqali belgilanadi. Agar $V < \phi$ bo’lsa, zarracha valent elektronini emitterga o’tkazib, musbat ion hosil qilish ehtimoli ortadi. Aksincha, $S > \phi$ bo’lsa, emitterdan elektron o’tishi osonlashadi va manfiy ionlanish ehtimoli oshadi. Bu energetik muvozanat SI jarayonida sodir bo’ladigan zaryad almashinuvining asosiy mexanizmini tashkil etadi va zarrachaning yakuniy ion holatini belgilaydi. Harorat (T) esa bu jarayonga kuchli ta’sir ko’rsatadi, chunki u elektronlarning Fermi-Dirak taqsimoti bo’yicha energiyaviy holatlar bo’yicha taqsimlanishiga ta’sir etadi. Natijada, emitter haroratining o’zgarishi ϕ , V va S o’rtasidagi energetik nisbatlar orqali ionlanish ehtimolini va hosil bo’ladigan ion tokining zichligini belgilaydi. Bu bog’liqlik Saha–Langmuir tenglamasi bilan nazariy asoslangan bo’lib, eksperimental kuzatuvlar bilan tasdiqlangan.[7;4-8-b].

SI ning asosiy miqdoriy xossasi – bu ionlanish darajasi α bo’lib, u quyidagi tarzda ifodalanadi:

$$\alpha_+ = \frac{\nu^+}{\nu^0} = A \exp \left[\frac{e(\phi - V)}{kT} \right] \quad (1.1)$$

bu yerda:

ν^+ – zaryadlangan (ion holatidagi) zarrachalar oqimi; ν^0 – neytral zarrachalar oqimi; A – musbat ionlar va neytral atomlarning statistik og’irliklarining nisbati; e – elektron zaryadi; ϕ – qattiq jism sirtidan elektronlarning chiqish ishi; V – ionlanayotgan atomlarning ionlanish potentsiali; k – Bolsman doimiysi; T – emitter harorati.

Manfiy ionlar hosil bo’lishi holati uchun ionlanish darajasi quyidagicha yoziladi:

$$\alpha_- = \frac{\nu^-}{\nu^0} = A \exp \left[\frac{e(S - \phi)}{kT} \right] \quad (1.2)$$

Bu yerda S — zarracha elektronlarni qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi **elektron affinitet** (ya’ni elektronga moyillik) bo’lib, u zarrachalarning manfiy ion hosil qilish ehtimolini belgilaydi.

Agar emitterga tashqi elektr maydoni qo’llanilsa, SI jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Xususan, elektr maydonining kuchlanganligi 10^7 V/sm gacha oshirilganda, sirt ionlanish darajasi ushbu jarayonning asosiy parametrlarini tavsiflovchi matematik ifodalar bilan aniqlanadi. Bunday sharoitda kuchli maydon ta’sirida sirt va zarracha o’rtasidagi potensial to’siq pasayadi, bu esa elektron almashinuvi ehtimolini oshiradi hamda ionlanish samaradorligini maksimal darajaga yetkazadi[8;9;10].

Sirti ionlanishda emitter materiallarining nazariy asoslari. Emitter materiali sifatida tanlangan moddaning fizik-kimyoviy xususiyatlari SI jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim parametr hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori chiqish ishiga (ϕ) ega materiallardan foydalanish ionlanish jarayonining energiyaviy selektivligini oshiradi va tanlab ionlanish uchun qulay termodinamik sharoitlar yaratadi. Masalan, reniy (Re), molibden (Mo) va volfram (W) kabi metallar yuqori haroratda barqarorlik, kimyoviy inertlik va optimal chiqish ishi qiymatlari bilan ajralib turadi. Bunday emitterlar sirti va molekularlarning ionlanish potentsiali (V) o’rtasidagi energiya muvozanatini ta’minlab, ion hosil bo’lish ehtimolini maksimal darajaga yetkazishga imkon beradi[11].

Emitterlar bo’yicha dastlabki kuzatuvlar XIX asr oxirlariga to’g’ri keladi. 1889-yilda Elster va Geitel [12], undan ko’p o’tmay Beattie [13] qizdirilgan metall Emitterlaridan musbat ionlarning chiqishini qayd etganlar. Ushbu kashfiyotlardan so’ng, ko’plab tadqiqotchilar ion emissiyasi jarayonlarini hamda zaryad tashuvchilarning tabiatini chuqur o’rganishga kirishdilar [14]. 1908-yilda esa J.J. Thomson [15] va S. Richardson [16,17] toza platina va uglerod Emitterlaridan chiqarilgan musbat ionlarning massa-spektral tahlilini o’tkazib, ularning asosan Na^+ va K^+ ionlaridan iborat ekanligini aniqlashdi. 1910-yilda Richardson [18,19] platina lentasiga joylashtirilgan ishqoriy metall birikmalaridan chiqqan musbat ionlarning massasini ularning atom og’irligiga mos ekanini ko’rsatdi. Keyinchalik, Langmuir, Zandberg va Ionov rahbarligidagi guruhlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida SI hodisasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq

etiladi [20–30]. SI hodisasi 1923-yildan beri volfram sirtlaridagi ishqoriy metallar bo'yicha o'rganib kelinmoqda. Ionov va Zandberg [31] ushbu sohadagi asosiy tajribalarning shu davrdagi bilimlari nuqtai nazaridan tanqidiy tahlillarini o'z ichiga olgan batafsil sharhni taqdim etishgan. Kaminskiy [32] esa SI bo'yicha eksperimental ishlarning foydali xulosasini yozgan.

Organik moddalarga nisbatan yuqori samarali emitter materiallarini aniqlash bo'yicha dastlabki tadqiqotlar Zandberg boshchiligidagi ilmiy guruh tomonidan olib borilgan. Ushbu eksperimentlarda kislorod bilan oldindan oksidlangan volfram simidan emitter sifatida foydalanilgan bo'lib, hosil bo'lgan sirtning chiqish ishi taxminan 6,5 eV ga baholangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday oksidlangan emitterlar tarkibida azot atomini o'z ichiga olgan turli organik birikmalarni sezgir va selektiv tarzda aniqlash imkonini beradi. Volfram sirtida hosil bo'lgan oksid qatlami nafaqat yuqori chiqish ishini ta'minlaydi, balki ayniqsa azotli funksional guruhlar bilan kuchli sirt o'zaro ta'siri orqali ionlanish samaradorligini ham oshiradi [33]. Shunga o'xshash yondashuv boshqa tadqiqot ishlarida ham davom ettirilib [34], detektorlar uchun optimal emitter materiallarini aniqlash maqsadida iridiy (Ir), volfram (W), molibden (Mo), nikel (Ni) hamda oksid qatlami bilan qoplangan nixrom sirtlarida bir qator aminlar va gidrazinlarning sirtiy ionlanish xususiyatlari, shuningdek hosil bo'lgan ion oqimlarining vaqt bo'yicha barqarorligi tizimli tarzda o'rganilgan. Bu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: Ionlanish samaradorligi oksidlangan W, Mo, Ni va nixrom qatorida ketma-ket kamayib boradi. Vakuum sharoitida yoki inert gaz atmosferasida azot tarkibli moddalarni detektsiyalash uchun eng maqsadga muvofiq emitter oksidlangan volfram (W) hisoblanishi, atmosfera bosimidagi havo muhitida ishlovchi detektorlar uchun esa eng samarali emitter materiali oksidlangan molibden (Mo) ekanligi aniqlangan [34]. Shunga qaramay, bunday oksidlangan emitterlarning amaliy qo'llanilishi muayyan cheklavlarga ega. Jumladan, oksidlangan volfram emitteri 1600 K va undan yuqori harorat ta'sirida termal barqarorlikni yo'qotadi hamda bug'lanib ketadi. Bu esa emitter yuzasining morfologik tuzilmasini o'zgartirib, uning ishchi parametrlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, SI jarayonining samaradorligi keskin kamayadi va yuqori haroratli sharoitda organik moddalarning aniqlanish sezuvchanligi sezilarli darajada pasayadi [33]. Volframga nisbatan yuqori chiqish ishini namoyon etuvchi ba'zi yuqori haroratga chidamli materiallar — xususan, reniy [35;36] va iridiy [37], shuningdek, kremniy [38] kabi yarimo'tkazgichlar o'rganilgan. Devis [39] tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, taxminan 10^{-5} torr bosimdagi kislorod ishtirokida 730 °C haroratda Re emitterining chiqish ishi taxminan 7,2 eV gacha oshadi. Ushbu natijalar Re-O₂ tizimining elektron emissiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Greaves va Stickney [40] o'z tadqiqotlarida, yuqori chiqish ishiga erishish zarur bo'lgan holatlarda Re-O₂ kombinatsiyasi W-O₂ yoki Mo-O₂ tizimlariga nisbatan ustunroq bo'lishi mumkinligini taklif qilishgan. Chiqish ishini oshirishga qaratilgan boshqa strategiyalar turli halogen gazlarini (masalan, xlor yoki xloridlar) turli metall yuzalarida adsorbsiyalash orqali amalga oshirilgan. Bu yondashuvlar yuqori chiqish ishiga ega emitterlarni aniqlashda muhim eksperimental asos bo'lib xizmat qilgan. Xlor va xlorid gazlari bilan olib borilgan bir qator tadqiqotlar [41, 42] bu gazlarning ta'siri kislorodnikiga o'xshash tarzda chiqish ishini o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatilgan.

Vakuum sharoitida sirtiy ionlashuv (VSI) va atmosfera bosimi sharoitida sirtiy ionlashuv (ABSI) jarayonlarida samaradorligi yuqori bo'lgan emitterlar.

Keyinchalik Fujii boshchiligidagi tadqiqotda yuqoridagi mulohazalarni hisobga olgan holda, eng yaxshi VSI emitter materialini tanlash bo'yicha quyidagicha tadqiqot o'tkazilgan [43]: Bu maqsadda erish harorati 1450 °C dan yuqori bo'lgan 11 ta yuqori temperaturaga chidamli metall (W, Re, Ta, Mo, Ir, Rh, Pt, Pd, Fe, Co va Ni) tanlab o'rganilgan. Tajribaning birinchi bosqichida ushbu emitterlarda siklogeksendan hosil bo'lgan SI ion toklarining o'lchovi elektrmanfiy gazlar (O₂, F₂, Cl₂) ishtirokida amalga oshirilgan. Bu gazlar metall sirtlarida adsorbsiyalanishi mumkin bo'lib, SI jarayonida ularning ta'sirini baholash muhim hisoblanadi. Ikkinchi bosqichda ion toklarining vaqt davomida barqarorligi va emitter haroratiga bog'liqligi o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, kislorod bilan ishlov berilgach, ion oqimi taxminan 15 daqiqada doimiy holatga yetadi, bu esa emitter yuzasining tez barqarorlashuvini ko'rsatadi. Eng muhim kuzatuv shuki: Pd, Ni, Fe, Ir, Ta va Co emitterlar har qanday haroratda va gaz muhitida umuman ion hosil qilmagan. Bu ularning SI jarayonida nafaolligini bildiradi. Aksincha, Re, W, Pt va Mo metallar sezilarli ion toklarini hosil qilgan, ya'ni faol emitterlar sifatida baholangan. Xususan, kislorod muhitida SI samaradorligi quyidagi tartibda kamaygan: Re > W > Pt > Mo. Bu ketma-ketlik Re va W sirtlarining yuqori chiqish ishi va kislorod bilan barqaror reaksiyaga kirishishi hisobiga organik molekulalarning samarali ionlanishini ta'minlashini ko'rsatadi. Shu sababli, reniy (Re) eng samarali SI emitter materiali sifatida ajralib turishini aniqlashgan [43]. 2024–2025 yillarda Hiraoka, Usmanov va hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotda turli emitter materiallarining (Pd, Re, W, Mo, Ti, SUS304) sirt xossalari va ionlanish samaradorligiga ta'siri tizimli tarzda o'rganildi. Tajriba natijalari emitter materiali analit molekulalarining ion turini, fragmentatsiya darajasini,

fon ionlar spektrini va umumiy signal intensivligini sezilarli darajada belgilab berishini ko'rsatdi. Pd va Re emitterlari yuqori protonatsiya qobiliyati va kuchli kislotalik sirt xususiyatlari bilan ajralib turdi. Ayniqsa, Pd emitterida harorat oshishi bilan $[M+H]^+$ ionlarining signal intensivligi eksponentsial tarzda ortdi. Re emitterida esa protonlangan ionlar bilan bir qatorda $[M-CH_3]^+$ va $[DEA-CH_3]^+$ kabi fragment ionlar ham hosil bo'ldi. Bu Re sirtining kuchli adsorbsiyalovchi va katalitik faol modda ekanligidan dalolat beradi. Boshqa tomondan, W, Mo va SUS304 emitterlari yuzasida karbaril, papaverin, kokain va morfin uchun $[M+H]^+$ ionlari umuman aniqlanmadi. Bu holat emitter yuzasining metanol bug'i bilan zaharlanishi, xususan, grafit qatlamining hosil bo'lishi natijasida sirtning proton donorlik xossasi yo'qolganligi bilan izohlanadi. SUS304 emitterida esa Cr asosli fon ionlar (masalan, $HNa_2CrO_4^+$) yuqori intensivlikda aniqlanib, analit ionlariga nisbatan spektral ustunlikni egalladi. Bu fon ionlarning manbayi emitterning o'zi ekanligi aniqlandi. Ti emitteri esa ionlanish samaradorligi eng past bo'lgan materiallardan biri bo'lib, na protonlangan, na fragmentlangan ionlarni sezilarli darajada hosil qila olmadi. Bu Ti sirtining past kislotalik darajasi va ion almashinuvi jarayonlaridagi inertsias bilan bog'liq bo'lishi mumkin. ABSI sharoitida aniqlangan Re asosidagi klaster ionlar ($NaReO_4Na^+$, $KReO_4K^+$) va SUS304 asosidagi Cr-tarkibli fon ionlar ko'rsatadiki, bu ionlar sirt orqali emas, balki gaz fazasida, uchinchi zarracha ishtirokida klasterlashish orqali hosil bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu holat ABSI mexanizmidagi uchinchi zarracha (masalan, N_2 , O_2) bilan to'qnashuvlarning hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi. Umuman olganda, emitter materiali tanlovi analitlarning ionlanish turini, sezuvchanligini va fragmentatsiya profilini belgilovchi asosiy parametr hisoblanadi. Yuqori haroratda barqaror bo'lgan, kuchli kislotalik sirtga ega Pd va Re emitterlari ABSI uchun eng samarali materiallar sifatida tavsiya etiladi. W, Mo, SUS304 va Ti emitterlari esa, zaharlanishga chidamlilik va sirt regeneratsiyasi imkoniyatlari doirasida ehtiyotkorlik bilan tanlanishi lozimligini aniqlashgan [44].

Xulosa. Ushbu tadqiqotda yuqori haroratga chidamli emitter materiallarining VSI va ABSI sharoitidagi ionlanish faolligi tizimli tahlil qilindi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, inert gaz yoki vakuum muhitida azotli organik birikmalarni detektsiyalash uchun eng samarali emitterlar — oksidlangan volfram (W) va reniy (Re) hisoblanadi. Atmosfera bosimidagi havo sharoitida esa maksimal sezuvchanlik oksidlangan molibden (Mo) va Palladiy (Pd) sirtida kuzatildi. Shuningdek, Pd va Re emitterlarining yuqori proton donorlik xossalari, sirt kislotaligi va ion hosil qilish samaradorligi ularni VSI/ABSI texnologiyalari uchun afzal materiallarga aylantiradi. Ayniqsa, Re yuzasida $[M+H]^+$ va fragmentlangan ionlarning shakllanishi bu sirtning kuchli adsorbsiyalovchi va katalitik faolligini tasdiqlaydi. Tahlillar emitter materialining ionlanish samaradorligi, analit signalining fragmentatsiya darajasi hamda selektivligini aniqlovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, VSI va ABSI tizimlarida yuqori sezuvchanlik va ishonchlilikka erishish uchun Re va Pd asosidagi emitterlar eng maqbul tanlov sifatida tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Зандберг Э. Я., Расулев У. Х., Халиков Ш. М. ЖТФ, 1976, 46, 832
2. Fujii, Toshihiro, Haruhiko Suzuki, and Masahiro Obuchi. "Surface ionization of some basic organics on an oxidized rhenium emitter. Thermionic emission in a protonated form." *The Journal of Physical Chemistry* 89.22 (1985): 4687-4690.
3. Awad, Hanan, Mona M. Khamis, and Anas El-Aneel. "Mass spectrometry, review of the basics: ionization." *Applied spectroscopy reviews* 50.2 (2015): 158-175.
4. Zandberg E. Y., Ionov I. N. Surface ionization (Poverkhnostnaya ionizatsiya) //(No Title). – 1971.
5. Rasulev U. K., Khasanov U., Palitsin V. V. Surface-ionization methods and devices of indication and identification of nitrogen-containing base molecules // *Journal of Chromatography A*. – 2000. – T. 896. – №. 1-2. – С. 3-18. [https://doi.org/10.1016/S0021-9673\(00\)00458-1](https://doi.org/10.1016/S0021-9673(00)00458-1)
6. Э.Я. Зандберг, У.Х. Расулев. Поверхностная ионизация органических соединений, *Успехи Химии*, LI(9), 1425–1436, (1982). DOI: 10.1070/RC1982v051n09ABEH002920
7. U.K. Rasulev, E.Y. Zandberg. Surface ionization of organic compounds and its applications // *Progress in surface science* 1988. Vol. 28. №. 3-4. pp. 181-412. [https://doi.org/10.1016/0079-6816\(88\)90003-2](https://doi.org/10.1016/0079-6816(88)90003-2)
8. Langmuir I., Kingdon K. H. Thermionic effects caused by vapours of alkali metals // *Proceedings of the Royal Society of London. Series A, Containing Papers of a Mathematical and Physical Character*. – 1925. – T. 107. – №. 741. – С. 61-79. <https://doi.org/10.1098/rspa.1925.0005>
9. Н.Д. Потехина. К теории поверхностной ионизации // ЖТФ 1964. Т. 34. с. 1086-1092
10. Л.Н. Добрецов, М.В. Гомоюнова. Эмиссионная электроника. М.: Наука. 1966. с. 546.

11. Manzolaro, M., et al. "The SPES surface ionization source." *Review of Scientific Instruments* 88.9 (2017).
12. J. Elster and H. Geitel, *Ann. Phys. Chem.*, 37 (1889) 315.
13. J.C. Beattie, *Philos. Mag.*, 48 (1899) 97.
14. C.J. Davisson, *Philos. Mag.*, 23 (1912) 121.
15. J.J. Thomson, *Proc. Cambridge Philos. Soc.*, 15 (I 908) 64.
16. O.W. Richardson, *Philos. Mag.*, 16 (1908) 740.
17. O.W. Richardson and E.R. Hulbirt, *Philos. Mag.*, 20 (1910) 545.
18. O.W. Richardson, *Philos. Mag.*, 20 (1910) 981.
19. O.W. Richardson, *Philos. Mag.*, 20 (1910) 999. 30
20. O.W. Richardson, *Emission of Electricity from Hot Bodies*, 2nd edn., Longmans, London, 1921.
21. J.J. Thomson and G.P. Thomson, *Conduction of Electricity through Gases*, Vol. I, 3rd edn., Cambridge University Press, Cambridge, 1928, p. 338.
22. U.A. Arifov and G.N. Shuppe, *Tr. Fiz.-Tekh. Inst., Akad. Nauk Uzbek. SSR*, 2 (1948) 19.
23. E.Ya. Zandberg and N.I. Ionov, *Sov. Phys., Usp.*, 2 (1959) 255.
24. D.D. Mueller, *The theory of surface ionisation and its application to ion propulsion*, MS. Thesis, Air University (U.S. Air Force), Wright-Patterson, OH, 1961.
25. A.H. Tumbull, *Surface ionization techniques in mass spectrometry*, U.K.At. Energy Authority, Res. Group Rep. AERE-R 4295 (1963).
26. M. Kaminsky, *Atomic and Ionic Impact Phenomena on Metal Surfaces*, Springer, Berlin, 1965, p. 98.
27. J.B. Moreau, *Rev. Phys. Appl.*, 3 (1968) 286.
28. E. Ya. Zandberg and N.I. Ionov, *Surface Ionization*, Israel Program for Scientific Translations, Jerusalem, 1971
29. N.I. Ionov, *Surface ionization and its applications*, *Prog. Surf. Sci.*, 1 (1972) 237.
30. E. Ya. Zandberg, *Sov. Phys. Tech. Phys.*, 19 (1975) 1133.
31. E. Ya. Zandberg, and N. I. Ionov, *Usp. Fiz. Nauk* 57, 581 (1959)
32. Kaminsky, Manfred. "Surface effects in controlled thermonuclear fusion." *Critical Reviews in Solid State and Material Sciences* 6.4 (1976): 433-457.
33. Zandberg, E. Ya, and U. Kh. "Rasulev and SbM. Khalikov, *Sot.*" *Phys. Tech. Phys* 21 (1976): 483.
34. Зандберг, Э. Я., У. Х. Расулев, and Ш. М. Халиков. "Эмиттеры для поверхностно-ионизационных детекторов органических соединений." *ЖТФ* 46.4 (1976): 832.
35. Rasser, B., D. I. C. Pearson, and M. Remy. "Surface ionization source for heavy ions." *Review of Scientific Instruments* 51.4 (1980): 474-477.
36. Зандберг, Э. Я. "Назаров ЭГ, Расулев УХ Термоэммиттеры положительных ионов из окисленных ренийевых проволок." (1981): 1242-1247.
37. Wilson, R. G. "Surface ionization of indium and aluminum on iridium." *Journal of Applied Physics* 44.5 (1973): 2130-2132.
38. Pelletier, J., D. Gervais, and C. Pomot. "Application of wide-gap semiconductors to surface ionization: Work functions of AlN and SiC single crystals." *Journal of applied physics* 55.4 (1984): 994-1002.
39. Davis, William D. "Continuous mass spectrometric analysis of particulates by use of surface ionization." *Environmental Science & Technology* 11.6 (1977): 587-592.
40. Greaves, W., and R. E. Stickney. "Adsorption studies based on thermionic emission measurements: III, oxygen on polycrystalline W, Mo, Ta, and Re." *Surface Science* 11.3 (1968): 395-410.
41. Shaw, Marion L., and N. P. Carleton. "Chemisorption of Electronegative Gases on Refractory Metals." *The Journal of Chemical Physics* 44.9 (1966): 3387-3392.
42. Fehrs, D. L., and R. E. Stickney. "Contact-potential measurements of the adsorption of I₂, Br₂, and Cl₂ on bare and cesiated W (100)." *Surface Science* 17.2 (1969): 298-315.
43. Fujii Toshihiro. "Efficient emitters for surface ionization organic mass spectrometry." *International journal of mass spectrometry and ion processes* 87.1 (1989): 51-59.
44. Hiraoka K., Usmanov D. T., Akhmedov S. M., Rankin-Turner S., & Ninomiya S. (2025). *Surface Ionization of Carbaryl, Papaverine, Cocaine, Morphine, and Triethylamine by Heated Surface-Oxidized Metal Filaments of W, Re, Pd, Mo, Ti, and SUS304 Under Atmospheric Pressure: Ionization Mechanism*. *Rapid Communications in Mass Spectrometry*, 39(12), e10029.

UGLERODLI NANOQUVUR ERITMALARINING OPTIK XOSSALARIGA O'LCHAM VA ISSIQLIK TA'SIRI

Maxmanov Urol Kudratovich,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti
"Optika va spektroskopiya" laboratoriyasi mudiri,
fizika-matematika fanlari doktori, professor,
urolmakh@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0002-7185-2812>

Aslonov Bobirjon Ashurovich,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti tayanch doktoranti,
aslonovbobir@mail.ru
<https://orcid.org/0000-0002-3694-3700>

Chuliyev Tohirjon Abdulloyevich,

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti,
chuliyevtohirjon@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0008-2938-0955>

Tursunqulov Elyor Abil o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti stajyor tadqiqotchisi
elyortursunqulov1@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0000-7260-7897>

Annotatsiya. Uglerod nanoquvurlari (UNQ) eritmalarining erigan modda parametrlari va tashqi ta'sir ostida optik xususiyatlaridagi o'zgarishlarni aniqlash ularni amaliy ilovalarda maqsadli foydalanish uchun tanlashda muhim hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda UNQning diametri kamayishi bilan optik yutilish intensivligi ortib borishi va xarakterli yutilish cho'qqilari to'liq uzunligining kamayishi tomonga siljishi aniqlandi. UNQ kolloid eritmasi tashqi issiqlik ta'siri (60 °C haroratda 4 soat ultratovushli ta'sir) ostida UNQlarning uzunligi va diametrini kamaytirishi, bu ham fotonlarning ko'proq yutilishi va yutilish cho'qqilari qiymatining kamayishiga olib kelishi aniqlandi. Tashqi muhit ta'sirida UNQ devorlaridagi grafen qatlamini tashkil etuvchi uglerod atomlarida kombinatsion sochilishining paydo bo'lishi uchun zarur energiya ortib, ularning tebranishlari qisqaroq elektromagnit to'liqlar tomon siljishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: ko'p devorli uglerod nanoquvurlar, optik yutilish, Raman spektr, fotonlar ta'siri, issiqlik ta'sir.

ВЛИЯНИЕ РАЗМЕРА И ТЕМПЕРАТУРЫ НА ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА РАСТВОРОВ УГЛЕРОДНЫХ НАНОТРУБОК

Аннотация. Определение изменений оптических свойств растворов углеродных нанотрубок (УНТ) в зависимости от параметров растворенного вещества и под внешним воздействием важно для их выбора для целевого использования в практических приложениях. В данном исследовании установлено, что с уменьшением диаметра УНТ интенсивность оптического поглощения увеличивается, а характерные пики поглощения смещаются в сторону более коротких длин волн. Установлено, что коллоидный раствор УНТ под влиянием внешней обработки (воздействие ультразвуком при температуре 60 °C в течение 4 часов) уменьшает длину и диаметр УНТ, что приводит к большему поглощению фотонов и уменьшению величины пиков поглощения. Выявлено, что под воздействием внешней среды увеличивается энергия, необходимая для возникновения комбинационного рассеяния света в атомах углерода, образующих графеновый слой на стенках УНТ, а их колебания смещаются в сторону более коротких электромагнитных волн.

Ключевые слова: многослойная углеродная нанотрубка, оптическое поглощение, спектр комбинационного рассеяния, взаимодействие фотонов, тепловое взаимодействие.

THE EFFECT OF SIZE AND TEMPERATURE ON THE OPTICAL PROPERTIES OF

Abstract. *Determination of changes in the optical properties of carbon nanotube (CNT) solutions depending on the parameters of the dissolved substance and under external influence is important for their selection for targeted use in practical applications. In this study, it was found that with a decrease in the diameter of CNTs, the intensity of optical absorption increases and the characteristic absorption peaks shift toward shorter wavelengths. It was found that a colloidal solution of CNTs under the influence of external treatment (ultrasound exposure at a temperature of 60 °C for 4 hours) reduces the length and diameter of CNTs, which leads to greater absorption of photons and a decrease in the magnitude of absorption peaks. It was found that under the influence of the external environment, the energy required for the occurrence of Raman scattering in carbon atoms forming a graphene layer on the walls of CNTs increases, and their oscillations shift toward shorter electromagnetic waves.*

Keywords: *multi-walled carbon nanotube, optical absorption, Raman spectrum, photon interaction, thermal interaction.*

Kirish. Uglerodli nanoquvurlarning (UNQ) o'ziga xos elektr, optik, mexanik va issiqlik xossalari ulardan zamonaviy ishlab chiqarish, xususan, elektronika, energetika va tibbiyotning turli sohalarida foydalanish imkoniyatlarini beradi [1-2]. UNQlar va boshqa birikmalar o'rtasida kimyoviy reaksiya sodir bo'lganda UNQlarning optik xususiyatlari o'zgarishi ulardan selektiv kimyoviy sensorlar sifatida foydalanish imkonini beradi [3-4]. Ushbu sensorlarning optik javobidagi o'zgarish ularning elektron tuzilishining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, elektromagnit to'lqinlar bilan UNQlarning o'zaro ta'sirining tabiatini o'zgartirishga olib keladi. UNQ asosidagi sensor qurilmalar omborxonalar yoki issiqxonalardagi havoning gaz tarkibini kuzatish orqali mahsulot sifatini aniqlashda foydali bo'lishi mumkin. Tibbiyotda UNQlar o'smalarni termik davolashda elektromagnit nurlanish bilan faollashtirilgan mahalliy issiqlik manbalari sifatida ishlatiladi [5]. Bu jarayon UNQlarda elektromagnit to'lqinlarning chastotasi ulardagi sirt plazmonlarining chastotasiga to'g'ri kelganda, sirdagi plazmonlarning qo'zg'alishi UNQlarda bo'ylama elektr tebranishlari paytida ohmik yo'qotishlar natijasida Joule issiqligining chiqishi bilan bog'liq. Undan tashqari, UNQlar tibbiyotda turli boshqa sohalarida, jumladan, dori vositalarini yetkazib berish, kasalliklar diagnostikasi, to'qimalar muhandisligi va immunoterapiyada qo'llaniladi [6-7]. UNQlarning yuqori elektr o'tkazuvchanligi va kichik diametri ularni nano o'lchamdagi elektron qurilmalarda foydalanish uchun ideal material sifatida namoyon qiladi [8-9]. UNQga asoslangan tranzistorlar an'anaviy kremniyga asoslangan tranzistorlarga qaraganda yuqori o'tkazuvchanlik xususiyati va tezroq qo'shilishi sababli ajralib turadi. Bunda yuqori sirt maydoni, mexanik moslashuvchanligi va yaxshi elektr o'tkazuvchanligi bois ularni moslashuvchan displeylarda, kichik o'lchamli elektron qurilmalarda, batareyalar va superkondensatorlarda foydalanishda samarali qiladi [10-11].

UNQlar yuqqa plyonkali quyosh batareyalarini yaratishda fotogeneratsiya joylari va zaryadlarni yig'ish hamda tashish uchun qatlam vazifasida ishlatiladi [12]. Undan tashqari, UNQdan shaffof elektrod sifatida foydalanishda elektronlarni yig'uvchi elektrod yuzasiga tashishda yordam berish uchun ular ko'pincha qo'llab-quvvatlash sifatida ishlatiladi [13]. An'anaviy fotovoltaiik hujayralarning samaradorligini oshirishda UNQlar oddiy texnologiyalar yordamida yaratilishi mumkinligi, yaxshi elektr xususiyatlari, boshqa elektrodga nisbatan silliq sirt va yuqori mexanik moslashuvchanligi, vakuum bo'lmagan muhitda qatlam olish imkoniyati, quyosh nurlarining samarali singishi va fototashuvchilarning generatsiyalanishi, polimerlar bilan geterobirikmalar hosil qilish imkoniyati, elektron va teshiklarning samarali uzatilishi va nihoyat nisbatan past narxda bo'lishi kabi omillar ahamiyat katta kasb etadi.

UNQ tuzilishi, qayta ishlash yoki boshqa materiallar bilan o'zaro ta'siriga qarab optik xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin [14]. Ushbu o'zgarishlar ularning atom va elektron tuzilishining xususiyatlari, shuningdek, kirishmalar (masalan, fullerenlar) yoki kimyoviy ishlov berish ta'siri bilan bog'liq. Shu jihatdan, ikki devorli UNQdan fotoluminesens xossalari uni olish usuliga bog'liq [15], masalan, UNQ kimyoviy bo'g' yordamida o'stirilganda ichki va tashqi qobiqlardan nurlanish namoyon etsa, fullerenlarni bir devorli UNQ ga inkapsulalangan va issiqlik ta'siri yordamida olingan UNQlar faqat tashqi qobiqlarda nur chiqarishi aniqlangan. [16] ishda turli elementlar bilan UNQlarning modifikatsiyasi ularning optik xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi, elementlarning atomlari bilan metall qoplanishi dipol momentlarining o'zgarishiga va qutblanishiga olib kelishi aniqlangan. UNQlarning optik xususiyatlari murakkab hisoblanib, [17] ishda ko'p devorli UNQning suvdagi kolloid suspenziyada erigan modda konsentratsiyasining oshishi bilan kolloid suspenziyaning optik yutilishi ortishi aniqlangan. Boshqa tomondan, UNQlarning optik javobi antenna nazariyasi bilan bog'liq [18], ya'ni ularning turli to'lqin uzunlikdagi yorug'lik bilan o'zaro ta'siri uning fazoviy orientatsiyasi va uzunligiga bog'liq bo'ladi. Elektromagnit to'lqinlar UNQ o'qiga parallel ravishda qutblanish

holatida ularning optik yutilishi elektromagnit to'liqlar UNQ o'qiga perpendikulyar ravishda qutblangandagi optik yutilishidan kattaroq bo'lishi o'rganilgan [19]. UNQlarning elektromagnit to'liqlar bilan o'zaro ta'siriga baho beruvchi barcha omillarni hisobga olish kerak. UNQ eritmalarini saqlash sharoiti hamda issiqlik ta'siri ham nafaqat UNQ ning qayta taqsimlanishiga, balki uning boshqa fizik xususiyatlariga ham ta'sir qiladi.

Ushbu ishda ko'p devorli UNQ o'lchamlarining va issiqlik ta'sirining eritma optik xususiyatlariga ta'siriga doir tadqiqot natijalari bayon etiladi.

Material va metodlar. Tajribalarda turli geometrik o'lchamlarda saralangan UNQ kristal kukunlari (≥ 98.9 soflikda) Sigma Aldrich (AQSh) ishlab chiqaruvchi tomonidan yetkazib berilgan. Erituvchi sifatida ikki marta distillangan suvdan foydalanilgan. Suvda UNQlarning yaxshi erishi uchun sirt faol moddasi sifatida polivinilpirolidon (PVP) ishlatilgan.

UNQ eritmalarini tayyorlashda uzunliklari $\sim 1,5 \div 2$ mkm bo'lgan UNQlar ishlatildi. Maqola matnida o'rtacha ichki diametri $\sim 10 \div 18$ nm, tashqi diametri $\sim 20 \div 35$ nm bo'lgan UNQ eritmasini – 1-namuna; o'rtacha ichki diametri $\sim 4 \div 10$ nm, tashqi diametri $\sim 8 \div 20$ nm bo'lgan UNQ eritmasini esa – 2-namuna sifatida nomlangan. Eritmada UNQ konsentratsiyasi fiksirlangan va $\sim 0,015$ mg/ml.


Kolloid suspenziyalarni tayyorlash uchun avval shisha idishga UNQ kukuni solinib, so'ngra 0.95:0.05 hajmiy ulushdagi distillangan suv va PVP qo'shiladi. Shundan so'ng, aralashmalar 10 daqiqa davomida 1000 rpm tezlikda mexanik aralashtirgich yordamida aralashtiriladi. Keyin aralashmalarga ultratovushli generator yordamida ultratovushli ishlov berish amalga oshiriladi. So'ngra sovuq suvli banyada 40 daqiqa davomida sonikatsiyalanadi va eritma tayyor bo'ladi.

Har xil turdagi UNQlarning kolloid suspenziya namunalarining optik yutilish spektrlari Shimadzu UV-5100 spektrofotometri (Shimadzu, Yaponiya) yordamida qayd qilingan.

UNQ eritmalarining Raman spektrlari **InVia Raman** spektrometri (Renishaw, Buyuk Britaniya) yordamida o'lchandi. Energiya manbai sifatida **532 nm to'liq uzunligiga ega Cobolt CW 532 nm DPSS lazeri** ishlatildi.


Olingan natijalar va ularning tahlili. Namunalarning optik yutilishini o'lchash shuni ko'rsatdiki, bir-xil konsentratsiyali ($\sim 0,015$ mg/ml) va o'rtacha uzunliklari deyarli o'zgaras (≥ 1.5 mkm) bo'lgan UNQ o'rtacha diametrining kichrayishi bilan optik yutilishning ortishi kuzatildi (1-rasm). Bu bir tomondan, UNQlarning bir xil massa konsentratsiyasida birlik hajmli kolloidal suspenziyadagi UNQlar sonining kichik diametrlilik holatda katta diametrlilikdan ko'proq bo'lishiga, bu esa fotonlar bilan ta'sirlashuvchi sirtning va to'ldirish omilining oshishiga olib keladi. O'z navbatida esa bunday tarkibli suyuqlikdan o'tadigan fotonlarning yutilish ehtimolini oshiradi. Boshqa tomondan, UNQlar antennalar sifatida elektromagnit to'liqlar bilan o'zaro ta'sirlashishida ularning miqdoriy konsentratsiyasining oshishi bilan, ushbu elektromagnit to'liqlarni yutadigan tegishli uzunlikdagi UNQlar sonining ko'payishi tufayli suyuqlikdan o'tadigan yorug'lik to'liqlarini yutish ehtimoli ortadi.

Undan tashqari, UNQ o'rtacha diametrining pasayishi bilan ularning sirt plazmonlarini qo'zg'atishga mos keladigan yutilish cho'qqilarida "ko'k siljish" ($316 \text{ nm} \rightarrow 296 \text{ nm}$, $686 \text{ nm} \rightarrow 674 \text{ nm}$) kuzatildi (1-rasm). Bu jarayon UNQ diametrining kamayishi kvant chegaralanish effektining kuchayishiga olib kelishi natijasida ulardagi plazmonlarni qo'zg'atish uchun zarur bo'lgan elektromagnit to'liqlarning energiyasi ortishi bilan izohlanadi.




1-rasm. Yangi tayyorlangan UNQ/suv eritmalarining optik yutilish spektrlari: 1-egri chiziq: 1-namuna, 2-egri chiziq: 2-namuna. Eritma konsentrasiyasi ~0,015 mg/ml

UNQlarning o'rtacha diametrining pasayishi bilan eritmalar Raman spektroskopiyasi natijalari (2-rasm) G (~1599.2 cm^{-1}) va D (~1340.1 cm^{-1}) cho'qqilarida "ko'k siljish" kuzatildi. Uning qiymatlari mos holda ~12.4 cm^{-1} va ~4.1 cm^{-1} ga teng bo'ldi. Shuni ham ta'kidlash joizki, 2-namunada (o'rtacha diametri kichik UNQ eritmasida) G cho'qqisida Raman sochilish intensivligi 1-namunaga (o'rtacha diametri katta UNQ eritmasiga) qaraganda yuqori bo'ldi.




2-rasm. Yangi tayyorlangan UNQ/suv eritmalarining Raman spektrlari: chapda: 1-namuna, o'ngda: 2-namuna. Eritma konsentrasiyasi ~0,015 mg/ml

3-rasmda 1-namunani 60°C haroratda yorug' xonada 4 soat ultratovushli ta'sir qildirilganda uning optik yutilish spektridagi o'zgarishlar natijasi keltirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu haroratda ta'sir jarayoni kolloid eritmadagi UNQlarning uzunligi va qalinligini qisqartiradi, bu esa yangi UNQ eritmalariga nisbatan optik yutilish intensivligining oshishiga va yutilish cho'qqilarining "ko'k siljishi"ga olib keladi, bu 316 nm → 289 nm, 686 nm → 666 nm kabi yuz beradi (3-rasm).



3-rasm. UNQ eritmasi optik yutilish spektrida harorat va vaqtga bog'liq o'zgarish. 1-egri chiziq: 1-namuna, 2-egri chiziq: 1-namunani 60°C haroratda yorug' xonada 4 soat ultratovushli ta'sir qildirilgandan so'ng

4-rasmda UNQ eritmasi Raman spektrida harorat va vaqtga bog'liq o'zgarishlar keltirilgan. Bu holda 1-namunani 60°C haroratda yorug' xonada 4 soat davomida ultratovushli ta'sir qildirilgandan so'ng o'zgarishlar qayd etilgan. Tashqi muhit ta'sirida UNQ diametrining pasayishi va kvant chegaralanish effektining kuchayishi tufayli grafen qatlamini tashkil etuvchi uglerod atomlarida Stokes-Raman sochilishining paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan energiya ortadi. Chunki ko'p devorli UNQdagi grafen qatlamlari orasidagi Van-der-Vaals kuchi ushbu qatlamlarning kollektiv tebranishlariga ta'sir qiladi. UNQ diametrining kamayishi bilan uglerod nanonaychalari devorini tashkil etuvchi grafen qatlamlarining tebranishlari qisqaroq elektromagnit to'lqinlar tomon siljiydi. Bu siljish $1340.1\text{ sm}^{-1} \rightarrow 1351.6\text{ sm}^{-1}$, $1579.2\text{ sm}^{-1} \rightarrow 1596.5\text{ sm}^{-1}$ kabi yuz beradi. Yuqorida qayd etilganidek, tashqi ta'sir natijasida UNQ grafen qatlamlarda nuqsonlarning ko'payishi ham sodir bo'lishi mumkin, bu UNQ qatlamlarining kamayishiga olib keladi, o'z navbatida Raman spektridagi cho'qqilarning holati o'zgaradi.



4-rasm. UNQ eritmasi Raman spektrida harorat va vaqtga bog'liq o'zgarishlar. chapda: 1-namuna, o'ngda: 1-namunani 60°C haroratda yorug' xonada 4 soat ultratovushli ta'sir qildirilgandan so'ng

Xulosa. Ko'p devorli UNQ kolloid suspenziyalarning optik xususiyatlari ularning turlicha geometrik o'lchamlariga (diametriga) va issiqlik ta'siriga bog'liq holda o'rganilgan. UNQ o'lchamlari kamayishi bilan optik yutilish ortadi va optik yutilish cho'qqilarining "ko'k siljishi" sodir bo'ladi. Birlik hajmli kolloidal suspenziyada UNQlar sonining kichik diametrli holatda katta diametrlidan ko'proq bo'ladi, bu esa fotonlar bilan ta'sirlashuvchi sirtini va to'ldirish omilini oshiradi. Bunday tarkibli UNQ eritmasidan o'tadigan fotonlarning yutilish ehtimoli oshadi. Undan tashqari, UNQ o'rtacha diametrining kamayishi kvant chegaralanish effektining kuchayishiga olib keladi. Natijada ulardagi plazmonlarni qo'zg'atish uchun zarur bo'lgan elektromagnit to'lqinlarning energiyasi (chastotasi) ortadi. UNQ eritmasini 60°C haroratda yorug' xonada 4 soat ultratovushli ta'sir qildirilganda UNQlarning uzunligi va qalinligini qisqartiradi, bu esa optik yutilish intensivligining oshishiga va yutilish cho'qqilarining "ko'k siljishi"ga olib keladi.

Tashqi muhit ta'sirida UNQ diametrining kamayishi va kvant chegaralanish effektining kuchayishi tufayli devorlardagi grafen qatlamini tashkil etuvchi uglerod atomlarida Stokes-Raman sochilishining paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan energiya ortadi. Natijada ularning tebranishlari qisqaroq elektromagnit to'lqinlar tomon siljiydi.

Ushbu ish O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan belgilab berilgan ilmiy-tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Khalid Saeed Ibrahim. Carbon nanotubes—properties and applications: a review // *Carbon Letters*, 14, (3), 131-144 (2013)
2. N Gupta, SM Gupta, SK Sharma. Carbon nanotubes: synthesis, properties and engineering applications // *Carbon Letters*, 29, 419–447 (2019).
3. V Schroeder, S Savagatrup, M He, S Lin, imothy M. Swager. Carbon Nanotube Chemical Sensors // *Chem. Rev.* 119 (1), 599–663 (2019).
4. Horacio J. Salavagione, Ana M. Diez-Pascual, Eduardo Lázaro, Soledad Verab, Marián A. Gómez-Fatou. Chemical sensors based on polymer composites with carbon nanotubes and graphene: the role of the polymer // *J. Mater. Chem.* 2, 14289-14328 (2014).
5. D. Suzuki, Y. Takida, Y. Kawano, H Minamide, N Terasaki. Carbon nanotube-based, serially connected terahertz sensor with enhanced thermal and optical efficiencies // *Science and Technology of Advanced Materials*. 23, (1), 424–433 (2022).
6. S.A. Afanas'ev, AA Fotiadi, AS Kadochkin, EP Kitsyuk, SG Moiseev, DG Sannikov, VV Svetukhin, YP Shaman, IO Zolotovskii. Terahertz Generation through Coherent Excitation of Slow Surface Waves in an Array of Carbon Nanotubes // *Photonics*, 10(12), 1317 (2023).
7. A.N. Basmaci. Behaviors of Electromagnetic Wave Propagation in Double-Walled Carbon Nanotubes // *Materials*. 14(15), 4069 (2021)
8. S. Zhang, N. Nguyen, B. Leonhardt, C. Jolowsky, A. Hao, J.G. Park, R. Liang. Carbon-Nanotube-Based Electrical Conductors: Fabrication, Optimization, and Applications // *Advanced Electronic Materials*. 5, 6 (2019)
9. C Soldano, S Talapatra, S Kar. Carbon Nanotubes and Graphene Nanoribbons: Potentials for Nanoscale Electrical Interconnects // *Electronics*, 2(3), 280-314 (2013)
10. Z. Z Zhang, N Zhang, Z Zhang. High-Performance Carbon Nanotube Electronic Devices: Progress and Challenges // *Micromachines*, 16(5), 554; (2025).
11. L. Zhao, Q. Dong, R. Yi, H. Shao, Y. Shen, L. Chen. Organic Mixed Ionic-Electronic Conductors for Solid-State Batteries // *CCS Chem*, 7, 22–43 (2025).
12. A Tejas, Shastry, Mark C. Hersam. Carbon Nanotubes in Thin-Film Solar Cells // *Ad. En. Mat.* 7(10) (2017).
13. J Ouyang. Applications of carbon nanotubes and graphene for third-generation solar cells and fuel cells // *Nano Materials Science*. 1(2), 77-90 (2019).
14. R. Saito, M.S. Dresselhaus. Optical Properties of Carbon Nanotubes // *Carbon Nanotubes and Graphene*. 77-98 (2014).
15. T. Shiraki, Y. Miyauchi, K. Matsuda, N. Nakashima. Carbon Nanotube Photoluminescence Modulation by Local Chemical and Supramolecular Chemical Functionalization // *Acc. Chem. Res.* 53(9), 1846–1859 (2020).
16. K Fujisawa, HJ Kim, S.H Go, H Muramatsu, T Hayashi, M Endo, TC Hirschmann, MS Dresselhaus, YA Kim, PT Araujo. A Review of Double-Walled and Triple-Walled Carbon Nanotube Synthesis and Applications // *Applied Sciences*. 6(4), 109 (2016).
17. I. Muz, M. Kurban. A comprehensive study on electronic structure and optical properties of carbon nanotubes with doped B, Al, Ga, Si, Ge, N, P and As and different diameters // *Journal of Alloys and Compounds*. 802, 25-35 (2019).
18. A.H. Khalid, M.A. Abdulsattar, Z.T. Hussain, A.A. Jabor. The effect of different multiwall carbon nanotubes concentration on morphology, optical, and electrical properties used as flexible anode // *J. Phys.: Conf. Ser.* 1660, 012054 (2020).
19. Y.S. Itas, A.B. Suleiman, C.E. Ndikilar, A. Lawal, R. Razali, I.I. Idowu, M.U. Khandaker, A.M. Danmadami, P. Ahmad, T.B. Emran, M.R.I. Faruque. First-Principle Studies of the Structural, Electronic, and Optical Properties of Double-Walled Carbon Boron Nitride Nanostructures Heterosystem under Various Interwall Distances // *Journal of Chemistry*. 4, 12 (2023).

ВЫЧИСЛЕНИЕ УДЕЛЬНОГО ВКЛАДА МКД В ЭФФЕКТ ФАРАДЕЯ НА КРИТИЧЕСКИХ ДЛИНАХ ВОЛН

Очилов Одил,

Центра развития нанотехнологий в Национальном университете Узбекистана

Маликов Комильжон Хомид ўғли,

Центра развития нанотехнологий в Национальном университете Узбекистана

Кулматова Гулзода Абдуравауп қизи,

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Аннотация. В статье представлена методика расчета удельного вклада магнитного кругового дихроизма (МКД) в эффект Фарадея (ЭФ) при критических длинах волн. На основе исследований поликристаллических плёнок на основе гранатов YIG и манганитов с использованием соотношений Крамерса–Кронинга разработан специальный алгоритм на языке Python. Полученные результаты показывают, что вклад отдельных полос МКД в ЭФ зависит от длины волны, особенно в области прозрачности, где расчёты требуют повышенной точности. Предложенный подход позволяет глубже понять магнитооптические свойства наноматериалов и способствует их применению в современных фотонных и спинтронных устройствах.

Ключевые слова: Магнитооптические материалы, эффект Фарадея, магнитный круговой дихроизм, критические длины волн, Крамерс–Кронинг, $Y_3Fe_5O_{12}$, манганиты, спектральный анализ, наноструктуры, спинтроника.

CALCULATION OF THE SPECIFIC CONTRIBUTION OF MCD TO THE FARADAY EFFECT AT CRITICAL WAVELENGTHS

Abstract. The article presents a method for calculating the specific contribution of magnetic circular dichroism (MCD) to the Faraday effect at critical wavelengths. Based on studies of polycrystalline films based on YIG garnets and manganites using Kramers–Kroning ratios, a special algorithm in Python has been developed. The results show that the contribution of individual MCD bands to the EF depends on the wavelength, especially in the field of transparency, where calculations require increased accuracy. The proposed approach allows for a deeper understanding of the magneto-optical properties of nanomaterials and promotes their application in modern photonic and spintronic devices.

Keywords: Magneto-optical materials, Faraday effect, magnetic circular dichroism, critical wavelengths, Kramers-Kroning, Yfeo, manganites, spectral analysis, nanostructures, spintronics.

MCD NING FARADEY TA'SIRIDAGI KRITIY TO'LQIN UZUNLIKLARINING XUSUSIY HISSINI HISOBLASH

Annotatsiya. Maqolada kritik to'lqin uzunliklarida magnit dumaloq dikroizmning (MCD) Faraday effektiga (FE) o'ziga xos hissasini hisoblash usuli keltirilgan. Kramers-Kroning munosabatlaridan foydalangan holda YIG granatalari va manganitlari asosidagi polikristal plyonkalarni o'rganish asosida Pythonda maxsus algoritm ishlab chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, individual MCD diapazonlarining FEga qo'shgan hissasi to'lqin uzunligiga bog'liq, ayniqsa, hisob-kitoblar aniqlikni talab qiladigan shaffoflik holatida bo'ladi. Taklif etilayotgan yondashuv nanomateriallarning magnit-optik xususiyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi va ulardan zamonaviy fotonik va spintronik qurilmalarda foydalanishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Magneto-optik materiallar, Faraday effekti, magnit doiraviy dikroizm, kritik to'lqin uzunliklari, Kramers-Kroning, $Y_3Fe_5O_{12}$, manganitlar, spektral tahlil, nanostrukturalar, spintronika.

Введения. В настоящее время магнитные и магнитооптические свойства магнитных наноматериалов являются предметом пристального внимания научного сообщества во всем мире. Одним из важнейших аспектов этих исследований является изучение эффекта Фарадея (ЭФ) как ключевой характеристики, чувствительной к составу материала, типу ионов (включая диамагнитные),

размеру элементарной ячейки, структуре кристалла и внешним условиям, таким как магнитное поле и температура.

Особый интерес представляют наноструктурированные материалы, например, магнитооптические гранаты, диэлектрики и полупроводники с модифицированной кристаллической структурой, которые демонстрируют уникальные особенности взаимодействия света с магнитным порядком. Несмотря на значительный прогресс в области спектроскопии и теоретического моделирования, природа влияния различных факторов на интенсивности и энергетические положения электронных переходов, а также на величину и спектральное распределение ЭФ, до сих пор остается недостаточно изученной.

Одним из подходов к углублённому пониманию механизма формирования ЭФ является исследование связи между эффектом Фарадея и магнитным круговым дихроизмом (МКД). При этом особое внимание уделяется определению удельного вклада отдельных полос МКД в величину ЭФ при критических длинах волн, особенно в области прозрачности материала, вдали от интенсивных полос поглощения.

В настоящей работе рассматривается методика вычисления удельного вклада МКД в эффект Фарадея для широкого диапазона длин волн вплоть до $42\,500\text{ см}^{-1}$). Такой подход позволяет глубже понять механизмы формирования магнитооптических эффектов и оптимизировать свойства наноматериалов для практического применения в современных фотонных и спинтронных устройствах.

Методы исследования.

Магнитооптические эффекты первого порядка.

Комплексный показатель преломления N_+ и N_- соответственно для право – и лево – поляризованного света связаны с ϵ_{xx} и ϵ_{xy} следующим образом:

$$N_{\pm}^2 = \epsilon_{xx} \pm \epsilon_{xy} \quad (1)$$

где $N_{\pm} = n_{\pm} + iK_{\pm}$, $\epsilon_{xx} = \epsilon'_{xx} + i\epsilon''_{xx}$, $\epsilon_{xy} = \epsilon'_{xy} + i\epsilon''_{xy}$ и $n_{\pm}$ и $K_{\pm}$ – коэффициенты преломления и поглощения соответственно право-и лево-поляризованного света. При рассмотрении немагнитных сред, допускающих исследования на пропускание, целесообразно упростить задачу, заметив [1], что в этом случае показатели преломления для двух циркулярно-поляризованных компонент $n_{\pm}$ близки друг к другу: $n_+ \approx n_- \approx n_0$, где n_0 – показатель преломления среды в отсутствие магнитного поля и кроме того, $n_+^2 - n_-^2 \gg K_+^2 - K_-^2$; тогда

$$n_+^2 - n_-^2 = 2\epsilon''_{xy} \quad (2)$$

$$n_0 (K_+ - K_-) = -\epsilon'_{xy}$$

где ϵ''_{xy} и ϵ'_{xy} вещественная и мнимая части компоненты тензора ϵ_{xy} ($\epsilon_{xy} = \epsilon'_{xy} + i\epsilon''_{xy}$)

В этом приближении фадеевский угол поворота $\alpha_F(\nu)$ и эллиптичность $\theta(\nu)$ запишутся в виде

$$\alpha_F(\nu) = \frac{\nu}{2c} (n_+ - n_-) = \frac{\nu}{2n_0 c} \epsilon''_{xy} \quad (3)$$

$$\theta(\nu) = \frac{\nu}{2c} (K_+ - K_-) = -\frac{\nu}{2n_0 c} \epsilon'_{xy} \quad (4)$$

Используя теперь хорошо известные соотношения между вещественной и мнимой частями тензора диэлектрической проницаемости, можно получить дисперсионные соотношения, связывающие $\alpha_F(\nu)$ и $\theta(\nu)$ [1]

$$\alpha_F(\nu) = -\frac{2}{\pi} \int_0^{\infty} \nu'^2 \theta(\nu') [(v^2 - (\nu')^2)\nu']^{-1} d\nu' \quad (5)$$

$$\theta(\nu) = -\frac{2}{\pi} \int_0^{\infty} \nu'^2 \alpha_F(\nu') [(v^2 - (\nu')^2)\nu']^{-1} d\nu' \quad (6)$$

Соотношение типа (1.5a) было использовано при расчетах ЭФ в ряд материалах например, $Y_{3-x}Bi_xFe_5O_{12}$ и $Tb_3Fe_5O_{12}$ ферритах-гранатах, поликристаллические манганита $Pr_{0.6}Sr_{0.4}MnO_3$ и $Pt_{0.8}Sr_{0.2}MnO_3$ на трех длинах волн.

обеспечил уровень восстановления от 50,05% до 103,69% при определении свиного желатина в халляльных конфетах. Результаты демонстрируют возможности точного анализа желатина.

Ключевые слова: Аутентификация желатина, взаимодействие этанола и желатина, спектроскопия ATR-FTIR, амидные группы, структура белка, UPLC-QTOF, протеомика.

Kirish. 2023-yilda global jelatin bozori 4,92 milliard USD atrofida baholangan bo'lib, 2024-2030-yillarda yillik o'sish sur'ati 6,5% ga yetishi kutilmoqda. Bu o'sish, jelatinning funksional oziq-ovqatlardagi turli qo'llanmalari bilan bog'liqdir; u oziq-ovqat sifatini va oziqlantiruvchi qiymatini oshiradi, shuningdek, salomatlik uchun potensial foydalar taqdim etadi. Jelatin asosan qassobxonalardan olinadi va cho'chqa terisi, qoramol terilari va suyaklaridan foydalaniladi. An'anaviy jelatin mahsulotlari ko'pincha cho'chqa jelatinidan tayyorlanadi, bu esa axloqiy va parhez muammolarini keltirib chiqaradi. Jelatin autentifikatsiyasi parhez cheklovlari sababli muhim ahamiyatga ega. Vegetarianlar barcha hayvonlardan olingan jelatindan qochishsa, musulmonlar va yahudiylar halal yoki kosher usulida tayyorlanmagan jelatindan saqlanishadi. Hindular esa qoramoldan olingan jelatindan qochishadi. Yevropada bovin spongiform ensefalopatiya (BSE) tarqalishi qoramol jelatini bo'yicha qattiq tartib-qoidalarining kuchayishiga olib keldi. Shuningdek, jelatin allergiyasi bo'lgan shaxslar qoramol yoki cho'chqa jelatinini iste'mol qilishda ehtiyot bo'lishlari kerak. Oziq-ovqat sohasida ko'pincha noto'g'ri belgilashlar mavjudligi sababli, cho'chqa yoki qoramol jelatini haqiqiylikini tasdiqlash juda muhimdir. Bu oziq-ovqat komponentlarining haqiqiylikini ta'minlaydi va ifloslanishlarni aniqlashni osonlashtiradi. Bir qator tadqiqotlar qoramol va cho'chqa jelatinlarini farqlashga qaratilgan bo'lib, FTIR spektroskopiyasi kabi analitik usullarni taklif etadi. Biroq, bu usullar aralash jelatinlarni farqlashda qiyinchiliklarga duch keladi [1]. Ushbu maqolada jelatin manbalarini farqlashda qo'llaniladigan turli usullar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Oziq-ovqat sanoatida jelatinning qayerdan kelishini aniqlash uchun ishonchli va samarali metodologiyalar zarur, bu esa iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Materiallar: Chumoli kislotasi LC-MS darajasi 405,823 (Karlo Erba, Milano, Italiya), tripsin T-4799, sigir jelatini 68,391, akrilamid A-3553, etanol 24,103 (Sigma-Aldrich Corp., Sent-Luis, Mo., AQSh) ko'rsatkichlarga ega. Cho'chqa go'shti jelatini (BDH 1-rasm) esa bilvosita yoki OH guruhi orqali erituvchi ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikki omilga bog'liq: birinchidan, suv molekulasini W (nuqtali o'q) tufayli to'g'ridan-to'g'ri kuch, ikkinchidan, suv molekularining mahalliy zichligi, bu esa yaqin atrofdagi boshqa gidrofil guruhlarga bog'liq (chiziqli o'q). Kimyoviy moddalar, mahsulot kodi 44045, DL-Dithiothreitol (DTT) 43,819 (Fluka AG, Buchs, Shveysariya), leytsin enkefalin 186,006,013 (Waters, Manchester, Buyuk Britaniya), giperatsetrili 1.00029.2500 (Sigma-Aldrich) bo'yicha LC-MS va LC-MS sinfidagi suv Milli-Q SQ2 Series suvni tozalash tizimlari (Merck, Darmstadt, Germaniya) yordamida tozalandi.

ATR-FTIR namunasini tayyorlash va analitik shartlar. 250 mg jelatin namunalari 30 ml iliq Milli-Q suvda eritilib, 20 daqiqa davomida gidroliz uchun qoldirildi. Xona haroratiga sovitilgandan so'ng, alohida Eppendorf naychalariga 100 μ l va 400 μ l etanol qo'shilib, har bir namuna uchun blankalar tayyorlandi. Olingan namunalar tahlil qilishdan oldin 20 daqiqa kutishga qoldirildi. Namuna tahlili Lityum Tantalat (LiTaO₃) detektori bilan jihozlangan Spectrum Two UATR-FTIR spektrometrida (PerkinElmer, Inc., Buyuk Britaniya) amalga oshirildi. Spektrlar tahlil qilish uchun 10 μ l jelatin namunalari kristall hujayraga joylashtirildi. Avtomatik signal kuchaytirish yordamida 400–4000 cm^{-1} diapazonidagi spektrlar 4 cm^{-1} o'lchamdagi 16 ta skanerda to'plandi va 25 $^{\circ}\text{C}$ da toza bo'sh hujayradan yozib olingan fon spektriga nisbatan tahlil qilindi.



1-rasm. OH guruhiga ta'sir ko'rsatadigan bilvosita, ya'ni erituvchi tomonidan keltirilgan kuch ikki omilga ega: birinchidan, suv molekulasini W (nuqtali o'q) orqali keltirilgan to'g'ridan to'g'ri kuch,

ikkinchidan, yaqin atrofdagi boshqa gidrofil guruhlar tufayli suv molekulalarining mahalliy zichligi (chiziqli o'q).

Ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish. Jelatin-etanol kompleksidagi o'zaro ta'sirlar BIOVIA Discovery Studio Visualizer 2021 dasturi (Biovia, San-Diego, CA, AQSh) yordamida tahlil qilindi. Sigir va cho'chqa go'shti jelatinining aminokislotalar ketma-ketligi onlayn qidiruv orqali UniProt ma'lumotlar bazasidan olingan bo'lib, sigir va cho'chqa jelatinining birlamchi kirish raqami mos ravishda P52176 va A0A4X1U8B7 hisoblanadi.

ATR-FTIR: Namuna olish texnikasi. Biomolekulyar tizimlarni samarali o'rganish uchun suv muhitida tajriba o'tkazish ideal hisoblanadi. Biroq, suvning mavjudligi infraqizil (IR) spektroskopiya uchun qiyinchiliklar tug'diradi, chunki suv kuchli yutilish xususiyatlariga ega. Xususan, suvning asosiy o'tishlari biomolekulalarning yutilish zonalarini, masalan, N-H va C-O cho'zilgan tebranishlari bilan sezilarli darajada mos keladi. Bu o'zaro bog'liqlik signal-shovqin nisbati (S/N) pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa tahlil jarayonini murakkablashtiradi. Ushbu shovqinlarni yumshatish uchun asboblarni ehtiyotkorlik bilan tekislash zarur, shunda ma'lumotlarda muhim artefaktlar yo'qligini ta'minlash mumkin. Tahlil protokoli namunani kiritishdan oldin hal qiluvchi asosiy skanerlashni o'z ichiga oladi. Keyinchalik, erituvchi bilan birgalikda namuna tahlil qilinadi. Yakuniy uzatish (TR) egri chiziqlari biomolekulyar signallarni to'g'ri baholash imkonini beruvchi asosiy spektrni namuna spektridan ajratish orqali hosil qilinadi.

ATR-FTIR tomonidan tahlil qilingan jelatin amid bantlariga etanolning ta'siri. Etanolning amid tasmasi tuzilishiga ta'sirini o'rganish uchun alohida Eppendorf naychalarida 100 μ l jelatin eritmasiga (10 mg/ml) turli hajmdagi etanol (100, 200, 300 va 400 μ l) qo'shildi. Namunalar ATR-FTIR spektroskopiyasi yordamida tahlil qilishdan oldin xona haroratida 15 daqiqa davomida inkubatsiya qilindi. ATR-FTIR spektrlari etanolning cho'chqa go'shti jelatinining amid tasmasi singishiga sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rsatadi, ammo sigir jelatiniga ozgina ta'sir qiladi. Ushbu farq etanol va oqsil tuzilmalari o'rtasidagi o'ziga xos o'zaro ta'sirga bog'liq bo'lib, bu o'zaro ta'sir aminokislotalar ketma-ketligi va oqsillarning atrof-muhit sharoitlariga qarab o'zgaradi [2]. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, etanolning cho'chqa jelatinining ikkilamchi tuzilishiga o'ziga xos ta'siri uning aminokislotalar bilan o'zaro ta'siriga bog'liq. Etanolning jelatin tuzilmalariga barqarorlashtiruvchi yoki beqarorlashtiruvchi ta'siri cho'chqa go'shtini sigir jelatinidan ajratishda uning potentsial foydaliligini ta'kidlaydi.

Cho'chqa jelatin konsentratsiyasining ATR-FTIR o'lchoviga ta'siri: Aniqlik. Cho'chqa jelatin konsentratsiyasining o'lchov aniqligiga ta'sirini o'rganish maqsadida turli konsentratsiyalarda (0,1, 0,5, 1,0, 2,5, 5,0 va 10,0 mg/ml) 100 ml cho'chqa jelatin namunalari 400 μ l etanol qo'shildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, cho'chqa go'shti jelatin konsentratsiyasi ortishi bilan etanolning amid tasmasi so'rilishiga ta'siri yanada aniqroq bo'ladi. Ushbu kuzatuv etanol bilan o'zaro ta'sir qiluvchi protein tarkibining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, bu ATR-FTIR orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan protein strukturasida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Biroq, jelatin konsentratsiyasini 10 mg/ml dan ortiq oshirish jellesme effekti tufayli amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa ishlov berish va tahlil qilishni murakkablashtiradi. Jellani effekti namunaning yaxlitligi va o'lchov aniqligini buzmasdan samarali o'rganish mumkin bo'lgan konsentratsiya oralig'ini cheklaydi.

Sigir jelatinining cho'chqa go'shti jelatin bilan ifloslanishining miqdoriy tahlili. Cho'chqa jelatinining sigir jelatin bilan ifloslanish darajasini baholash maqsadida 10 mg/ml sigir jelatin eritmasiga turli foizlarda cho'chqa jelatin qo'shib kalibrlash standartlari tayyorlandi. Baholangan ifloslanish darajalari 0,0%, 3,125%, 6,25%, 12,5%, 25,0%, 50,0% va 100,0% edi. Har bir ifloslanish darajasi uchun 100 μ l namunaga 400 μ l etanol qo'shildi. Har bir namuna uchun 1654 cm^{-1} da transmissiya diapazoni qayd etildi, bo'sh namuna esa asosiy tuzatish uchun tayyorlandi. Etanol bilan ishlov berilgan namunalar va blanka o'rtasidagi so'rilishdagi farq 3-rasmda ko'rsatilganidek, ifloslanish foiziga qarshi chizilgan. Grafik cho'chqa jelatin konsentratsiyasi (kontaminatsiya foizida) va amid tasmasini uzatish o'rtasida aniq chiziqli munosabatni ko'rsatadi. Quyidagi tenglama eng yaxshi moslik chizig'ini tavsiflaydi:

$$y = 0,195 + 0,9212x.$$

R^2 qiymati 0,9994 bo'lib, jelatin konsentratsiyasi va so'rilish o'rtasidagi kuchli korrelyatsiyani ko'rsatadi, bu so'rilish o'tishlaridagi o'zgaruvchanlikning taxminan 99,94% ni tushuntiradi. Ba'zi o'zgaruvchanlik mavjud bo'lsa-da, umumiy tendentsiya chiziqli modelga mos keladi. Umuman olganda, grafik cho'chqa jelatin konsentratsiyasi va so'rilish o'rtasida mustahkam ijobiy chiziqli korrelyatsiyani ko'rsatadi, bu esa assimilyatsiya o'lchovlari sinovdan o'tgan diapazonda cho'chqa jelatin konsentratsiyasini aniqlash uchun ishonchli ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu grafikdan hisoblangan aniqlash chegarasi (LOD) va miqdor chegarasi (LOQ) mos ravishda 0,85 va 2,85 mg/100 mg ifloslanishdir.

Qo'llanilishi va selektivligi: Ushbu tadqiqotda belgilangan usulning qo'llanilishini tekshirish uchun Birlashgan Arab Amirliklarining mahalliy bozorlaridan halol deb belgilangan yumshoq konfet mahsulotlari olingan. Tijorat jelatin namunalari odatda 80 °C dan past haroratlarda issiqlik bilan ishlov beriladi. Bu haroratda jelatinning sezilarli agregatsiyasi sodir bo'lmaydi, bu esa oqsilning eruvchanligini va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini ta'minlaydi. Ushbu boshqariladigan issiqlik bilan ishlov berish, namunalardagi jelatin miqdorini aniqlash va tavsiflashga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan agregatlarning shakllanishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarurdir [3]. Namunalar tasodifiy cho'chqa jelatini 0% dan 100% gacha bo'lgan konsentratsiyalarda (w/w) qo'shish orqali tayyorlandi. Naqshli va tiklanmagan namunalar tadqiqotning noto'g'riligiga yo'l qo'ymaslik uchun ehtiyotkorlik bilan tahlil qilindi. Barcha namunalar 40 °C da 20 mg/ml konsentratsiyaga qadar iliq suvda eritildi va 15 daqiqa davomida o'tirishga ruxsat berildi. Keyinchalik, 100 ml eritilgan namunaga 400 µl etanol qo'shildi. Shuningdek, 100 µl suv va 400 µl etanoldan iborat bo'sh namuna ham tahlil qilindi. Namunalarning olingan spektrlari bo'sh ATR-FTIR spektridan chiqarildi. Bizning o'lchash texnikamizning to'g'riligini baholash uchun turli xil tikilgan va qo'shilmagan konfet namunalari, shuningdek, sof jelatin namunalari tiklanish tezligi aniqlanadi. Har bir namuna uchun o'lchangan foizlar va tiklanish stavkalari umimlashtiriladi. 1-jadval.

1-jadval. Cho'chqa go'shti jelatinining turli konsentratsiyasi bilan to'ldirilgan yumshoq sigir jelatinli konfet namunalari miqdoriy natijalari

Namuna turi	Jelatinning miqdori	O'lchangan %	Haqiqiy %	Tiklanish %
Qo'shilmagan konfet namuna 1	0.71	-1.14	0	-
Qo'shilmagan konfet namuna 2	0.11	-4.25	0	-
Qo'shilmagan konfet namuna 3	0.26	-3.45	0	-
Qo'shilmagan konfet namuna 4	0.5	-2.16	0	-
Qo'shilmagan konfet namuna 5	1.22	1.54	0	-
Qo'shilgan konfet namuna 1	16.72	80.96	80	101.22
Qo'shilgan konfet namuna 2	0.97	0.26	0.5	50.04
Qo'shilgan konfet namuna 3	1.67	3.85	4	96.61
Qo'shilgan konfet namuna 4	3.83	14.82	15	98.72
Qo'shilgan konfet namuna 5	2.89	10.12	10	100.86
Qo'shilmagan konfet namuna 6	0.66	-1.36	0	-
Qo'shilgan konfet namuna 6	1.705	4.02	4	100.28
Sof qoramol jelatini	0.98	0.32	0	60.33
Qo'shilgan konfet namuna 7	1.73	4.14	4	103.65
Qo'shilgan konfet namuna 8	1.51	3.01	3	100.63
Qo'shilmagan konfet namuna 7	0.37	-2.84	0	-
Qo'shilgan konfet namuna 8	1.9	5.05	5	100.4
Sof qoramol jelatini	0.99	0.36	0	-
Qo'shilgan konfet namuna 9	1.09	0.87	1	86.55
Sof cho'chqa jelatini	20.02	97.9	100	97.88

Barcha to'qilgan konfet namunalari salbiy o'lchangan foizlarni ko'rsatdi, bu usul bu namunalarda hech qanday tahliliy moddani aniqlamaganligini tasdiqladi. Bu natijalar aniqlanmagan namunalar 0% ga yaqin ko'rsatkichlarni berishi kerakligi haqidagi taxminlarga mos keladi, bu esa asosiy o'lchovning to'g'ri ishlayotganini ko'rsatadi. Tiklangan namunalar uchun tiklanish stavkalari 50,05% dan 103,69% gacha bo'lib, bu usul qo'shilgan analitni aniqlashda yaxshi natijalar berishini ko'rsatadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, konsentratsiyasi 3% dan yuqori bo'lgan namunalar uchun 100% dan yuqori tiklanish tezligi o'lchashning aniqligini ko'rsatadi. Aksincha, konsentratsiyasi 1% dan past bo'lgan tiklangan namuna uchun 50,05% past tiklanish darajasi usul sezgirligi yoki matritsa effektlari bilan bog'liq potensial muammolarni ko'rsatadi. Ushbu nomuvofiqlik aniqlashning pastki chegarasiga yaqinlashadigan namunalar uchun qo'shimcha optimallashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, o'lchangan foiz 97,89% va sof cho'chqa jelatini uchun mos ravishda 97,89% tiklanish ushbu matritsada usulning ajoyib ishlashini ko'rsatadi. Biroq, bu usul qoramol jelatinining tozaligini baholash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lsa-da, sigir jelatinining miqdorini aniq aniqlash uchun mos emas.

Cho'chqa va sigir jelatinidagi van der Waals o'zaro ta'sirlari. Cho'chqa jelatini bir nechta qoldiqlar, jumladan Thr376, Tyr377, Gln343, Gly344, Tyr345, Ser346 va Leu349 bilan van der Waals o'zaro ta'sirini hosil qilgani kuzatildi. Bunga nisbatan, sigir jelatini Gly176, Phe170 va Gln169 da etanol bilan van der Waals bog'larini hosil qiladi. Van der Waals o'zaro ta'siri oqsil tuzilmalarini barqarorlashtirishga yordam beradi, strukturaviy yaxlitlikni oshiradi va potentsial ravishda aniqlangan ikkilamchi tuzilishga olib keladi. Bu barqarorlikning oshishi konformatsion moslashuvchanlikning pasayishi tufayli I va II amid chiziqlarining keskinroq va kuchliroq bo'lishiga olib kelishi mumkin. Cho'chqa jelatinidagi van der Waals o'zaro ta'siri (Thr376, Tyr377, Gln343, Gly344, Tyr345, Ser346 va Leu349) van der Waals o'zaro ta'sirini va vodorod bog'lanishini osonlashtiradigan ko'plab qutbli va hidrofobik qoldiqlarning mavjudligi tufayli umuman samaraliroqdir. Bu ko'proq o'zaro ta'sir joylari umumiy barqarorlikni oshiradi va sigir jelatinidagi cheklangan o'zaro ta'sir joylari bilan solishtirganda konformatsion moslashuvchanlikni pasaytiradi [4]. Jelatinning ikkala turi ham uglerod-vodorod aloqalarini hosil qiladi. Xususan, cho'chqa jelatinida Tyr375 va Gly166, sigir jelatinida esa Val172 va Gly171 o'rin oladi. Ushbu bog'lanishlar mahalliy vodorod bog'lanish tarmoqlarini mustahkamlashi mumkin, shu bilan amid guruhlarining tebranish chastotalariga ta'sir qiladi va amid I bandining intensivligini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, cho'chqa jelatinidagi Tyr375 bilan pi-alkil o'zaro ta'siri aniqlandi. Ushbu pi-alkil aloqasi tirozinning aromatik yon zanjirini o'z ichiga oladi, bu uning yo'nalishini barqarorlashtirishi va o'zaro ta'sirlar tarmog'i orqali yaqin atrofdagi amid guruhlariga ta'sir qilishi mumkin. Bunday o'zaro ta'sirlar oqsilning ikkilamchi strukturasi barqarorlashtirishga yordam beradi va amid tasmalarining intensivligini yanada oshiradi [5]. Shu bilan birga, sigir jelatinida histidin bilan noqulay o'zaro ta'sirlar, shu jumladan kislorod, vodorod va uglerod bilan bog'lanish kuzatildi. Ushbu noqulay o'zaro ta'sirlar amid bog'lanishlarining mahalliy muhitida strukturaviy zo'riqish yoki beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa amid guruhlariga yaqinida moslashuvchanlikni yoki tartibsizlikni oshiradi [6]. Van der Waals o'zaro ta'siri va uglerod-vodorod aloqalarining kombinatsiyasi amid I va II diapazonlarining intensivligini oshirishi kutilsa-da, noqulay histidin o'zaro ta'sirining beqarorlashtiruvchi ta'siri bu ta'sirga qarshi turishi mumkin. Natijada, bu holat kutilganidan pastroq intensivlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda qoramol va cho'chqadan olingan jelatinnin farqlanishi va miqdorini aniqlashda UPLC-QTOF va ATR-FTIR spektroskopiyalarining samaradorligi o'rganildi. Aminokislotalar ketma-ketligining oqsil strukturasi o'zaro ta'sir aniqlandi, bu esa jelatin manbalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. UPLC-QTOF metodi yordamida har bir jelatin turi uchun alohida ionlar aniqlangan bo'lsa, ATR-FTIR usuli etanolning jelatin amid bantlariga ta'sirini o'rganish orqali ifloslanishlarni aniqlashda muvaffaqiyatli bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ATR-FTIR usuli 0.85 mg/100 mg dan 2.85 mg/100 mg gacha aniqlash chegaralarini taqdim etdi va halal mahsulotlarda cho'chqa jelatinini aniqlashda 50.05% dan 103.69% gacha tiklanish darajasini ta'minladi. Ushbu tadqiqotlar, shuningdek, jeli tuzilishi va uning etanol bilan o'zaro ta'siri haqidagi yangi ma'lumotlarni taqdim etadi, bu esa jelatin autentifikatsiyasida yanada samarali metodologiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari jelatinni aniq va ishonchli tahlil qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iste'molchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Ben-Naim, A. (2023). *Solvent-induced interactions and forces in protein folding*. Springer Nature Switzerland. <https://doi.org/10.1007/978-3-031-31871-9>
2. Tolmachev, D. A., Malkam'aki, M., Linder, M. B., & Sammalkorpi, M. (2023). *Spidroins under the influence of alcohol: Effect of ethanol on secondary structure and molecular level solvation of silk-like proteins*. *Biomacromolecules*, 24(12), 5638–5653. <https://doi.org/10.1021/acs.biomac.3c00637>
3. Sha, X.-M., Hu, Z.-Z., Ye, Y.-H., Xu, H., & Tu, Z.-C. (2019). *Effect of extraction temperature on the gelling properties and identification of porcine gelatin*. *Food Hydrocolloids*, 92, 163–172. <https://doi.org/10.1016/j.foodhyd.2019.01.059>
4. Barth, A., & Zscherp, C. (2002). *What vibrations tell about proteins*. *Quarterly Reviews of Biophysics*, 35(4), 369–430. <https://doi.org/10.1017/S0033583502003815>
5. Myshakina, N. S., Ahmed, Z., & Asher, S. A. (2008). *Dependence of amide vibrations on hydrogen bonding*. *The Journal of Physical Chemistry B*, 112(38), 11873–11877. <https://doi.org/10.1021/jp8057355>
6. Pace, C. N., Fu, H., Fryar, K. L., Landua, J., Trevino, S. R., Shirley, B. A., ... Grimsley, G. R. (2011). *Contribution of hydrophobic interactions to protein stability*. *Journal of Molecular Biology*, 408(3), 514–528. <https://doi.org/10.1016/j.jmb.2011.02.053>

SUVNI PARCHALASH UCHUN CoFeNi/NF ASOSIDAGI IKKI FUNKSIYALI
ELEKTROKATALIZATORLAR*Hoshimov Farhodjon Xasanboy o'g'li,**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti
Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy tadqiqot instituti**Butanov Khakimjan Turamuradovich,**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti**Mamatkulov Shavkat Ismoilovich,**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti**Ruzimuradov Olim Norbekovich,**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti**Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti**farhod2702@gmail.com*

Annotatsiya. Suvni elektroliz orqali parchalash ekologik toza va barqaror vodorod ishlab chiqarishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, bu jarayonda vodorod va kislorod ajralish reaksiyalari uchun samarali, barqaror va arzon elektrokatalizatorlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotda ikki funktsiyali elektrokatalizator sifatida CoFeNi asosidagi nanokompozitlar nikel ko'pik substratida gidrotermal usulda sintez qilindi. CoFeNi/NF materiali yuqori sirt faol maydoniga, yaxshi elektr o'tkazuvchanlik va substrat bilan mustahkam bog'langan nanogranulalarga ega. 1 M KOH ishqoriy eritmasida o'tkazilgan elektrokimyoviy tahlillar natijasida CoFeNi/NF materialining kislorod ajralish reaksiyasi uchun 310 mV, vodorod ajralish reaksiyasi uchun esa 284 mV ortiqcha kuchlanish ko'rsatgani aniqlandi. Natijalar CoFeNi/NF nanokompozitining elektrokatalitik suv parchalanishida istiqbolli ikki funktsiyali elektrokatalizator sifatidagi salohiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar. Suvni elektroliz qilish, ikki funktsiyali elektrokatalizator, CoFeNi/NF nanokompozit, vodorod ajralish reaksiyasi, kislorod ajralish reaksiyasi, gidrotermal sintez.

ДВУХФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЭЛЕКТРОКАТАЛИЗАТОРЫ НА ОСНОВЕ CoFeNi/NF
ДЛЯ РАЗЛОЖЕНИЯ ВОДЫ

Аннотация. Электролитическое разложение воды является одним из ключевых направлений производства экологически чистого и устойчивого водорода. Однако разработка эффективных, стабильных и недорогих электрокатализаторов для реакций выделения водорода и кислорода в этом процессе остается актуальной задачей. В данном исследовании наноконкомпозиты на основе CoFeNi были синтезированы гидротермальным методом на подложке из никелевой пены и использованы в качестве бифункционального электрокатализатора. Материал CoFeNi/NF обладает высокой удельной поверхностью, хорошей электропроводностью и наногранулами, прочно связанными с подложкой. Электрохимические исследования, проведенные в 1 М щелочном растворе KOH, показали, что материал CoFeNi/NF демонстрирует перенапряжение 310 мВ при реакции выделения кислорода и 284 мВ при реакции выделения водорода. Полученные результаты подтверждают высокий потенциал наноконкомпозита CoFeNi/NF в качестве перспективного бифункционального электрокатализатора для электролитического разложения воды.

Ключевые слова. Электролиз воды, Двухфункциональный электрокатализатор, наноконкомпозит CoFeNi/NF, реакция выделения водорода, реакция выделения кислорода, гидротермальный синтез.

TWO-FUNCTION ELECTROCATALYZERS BASED ON COFeNi/NF FOR WATER
SPLITTING

Abstract. The electrolytic water splitting is one of the key approaches to produce clean and sustainable hydrogen. However, the development of efficient, stable and economical electrocatalysts for hydrogen and oxygen evolution reactions remains a critical issue. In this study, CoFeNi-based nanocomposites were synthesized by a hydrothermal method on a nickel foam support and used as bifunctional electrocatalysts. The CoFeNi/NF material has a high specific surface area, good electrical conductivity and strong adhesion of

nanograins to the substrate. Electrochemical analyses conducted in 1 M KOH solution showed that the CoFeNi/NF material exhibits an overpotential of 310 mV for oxygen evolution reaction and 284 mV for hydrogen evolution reaction. These results confirm the potential of the CoFeNi/NF nanocomposite as a promising bifunctional electrocatalyst for water splitting.

Keywords. *Electrolysis of water, Two-functional electrocatalyst, CoFeNi/NF nanocomposite, hydrogen evolution reaction, oxygen evolution reaction, hydrothermal synthesis.*

Kirish. Bugungi kunda energetik xavfsizlik, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi kabi global muammolar fonida barqaror, toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. An'anaviy energiya manbalari – neft, gaz va ko'mir zahiralari cheklangan bo'lishi bilan birga, ko'p miqdorda karbonat angidrid (CO_2) va boshqa zararli gazlar chiqishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, xalqaro miqyosda energiya konversiyasi va ishlab chiqarish texnologiyalarini diversifikatsiya qilish, ayniqsa yashil energiya manbalariga o'tish strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi [1,3]. Vodorod energiyasi so'nggi yillarda "kelajak yoqilg'isi" deb e'tirof etilmoqda, chunki vodorod yuqori energiya zichligiga ega (120 MJ/kg), yonish jarayonida atrof-muhitga zararli gazlar chiqarmaydi va turli sanoat, transport va energiya uzatish tizimlarida keng qo'llanilishi mumkin [4,6]. Vodorodni olishning ko'plab usullari mavjud – tabiiy gazni bug' bilan qayta ishlash (SMR), ko'mirni gazlantirish, biogazni parchalash, fotokatalitik, termo-kimyoviy va elektrokimyoviy usullar. Shulardan eng ekologik toza va barqaror yo'li – bu suvni elektroliz orqali vodorod va kislorodga ajratish hisoblanadi [7]. Suv elektrolizi jarayonida ikkita asosiy yarim-reaksiya amalga oshadi: katodda vodorod ajralish reaksiyasi (HER) va anodda kislorod ajralish reaksiyasi (OER). Bu ikki jarayon termodinamik jihatdan yuqori quvvat talab qiladi va kinetik jihatdan sekin kechadi, ayniqsa OER jarayoni yuqori aktivlanish energiyasi sababli katalitik qo'llab-quvvatlovchisiz samarali kechmaydi [8,9]. Shuning uchun ushbu yarim-reaksiyalarni tezlashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi elektrokatalizatorlarga ehtiyoj mavjud. Hozirda eng samarali HER va OER katalizatorlari sifatida qimmatbaho metallar – platina (Pt), iridiy oksidi (IrO_2) va ruteniya oksidi (RuO_2) ishlatilmoqda. Ular yuqori katalitik faollikka ega bo'lishiga qaramay, bozordagi yuqori narxi, cheklangan zahirasi va uzoq muddatli barqarorlik muammolari ularni keng miqyosda amaliyotga joriy etishni cheklaydi [10,12]. Shu sababli, so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar arzon va samarali muqobil katalizatorlar — ayniqsa o'tish guruhiga mansub metall oksidlar, fosfidlar, sulfidlar, karbidlar hamda ularning nanokompozit shakllarini ishlab chiqishga e'tibor qaratmoqda [13,15]. Ushbu muqobil materiallar orasida nikel (Ni), temir (Fe) va kobalt (Co) singari arzon va boy elementlar asosidagi materiallar yuqori katalitik faollik, sirt maydoni, elektr o'tkazuvchanlik va sinergetik effektlar tufayli ajralib turadi. Ayniqsa, bu metallarni bimetall yoki trimetall kompozitsiya shaklida birlashtirish ularning elektron strukturasi sozlash, d-elektron zichligini optimallashtirish va faol markazlarning ko'pligini ta'minlash imkonini beradi [16,18]. Bunday yondashuv materialning HER va OER reaksiyalariga nisbatan bifunksional (ikki funksiyali) faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Trimetallik nanokompozitlar, xususan, CoFeNi asosidagi materiallar ko'plab tadqiqotlarda yuqori elektrokimyoviy faollik, barqarorlik va zaharli bo'lmaganligi bilan ajralib turmoqda [19,20]. Ular elektronik tuzilish va valentlik holatlarini o'zaro bog'laydigan murakkab fazalar hosil qilganligi sababli, kislorod va vodorod ajralish reaksiyalarini bir material asosida samarali bajarish imkonini beradi. Bundan tashqari, CoFeNi komponentlarining sinergetik o'zaro ta'siri tufayli elektron uzatish jarayonlari tezlashadi, sirtqi oksid/gidroksid fazalar esa reaksiya faol markazlar sifatida qatnashadi [21, 22]. Bunday nanokompozitlarni yuqori sirt faol maydoniga ega substratga biriktirish orqali elektrokimyoviy samaradorlikni yanada oshirish mumkin. Nikel ko'pik (Ni foam, NF) substrati bu borada juda qulay platforma bo'lib, u o'zining ko'p g'ovakli tuzilmasi, elektr o'tkazuvchanligi va mexanik barqarorligi tufayli katalizator fazalarining samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi [23,24]. Ayniqsa, gidrotermal sintez usuli yordamida NF substratida trimetallik CoFeNi fazasini o'stirish orqali yaxshi kristallanish, mustahkam bog'lanish va faol fazalarning barqaror joylashuvi ta'minlanadi [25,26]. Ushbu tadqiqotda biz trimetallik CoFeNi nanokompozitini nikel ko'pik substratida gidrotermal usulda sintez qilib, uning ishqoriy muhitda (1 M KOH eritmasida) HER va OER reaksiyalariga nisbatan bifunksional elektrokimyoviy faolligini o'rgandik. Sintez qilingan CoFeNi/NF elektrod namunasi $10 \text{ mA} \cdot \text{cm}^{-2}$ tok zichligida HER uchun 284 mV ortiqcha kuchlanish va 240.08 mV/dec Tafel gradiyentiga ega bo'ldi. OER reaksiyasi bo'yicha esa mos ravishda 310 mV ortiqcha kuchlanish va 81.69 mV/dec Tafel qiymati kuzatildi. Ushbu natijalar CoFeNi/NF elektrokatalizatorining suvni parchalash uchun ikki funksiyali, yuqori samarali va amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan istiqbolli material ekanligini tasdiqlaydi.

Materiallar va usullar.

1. Reaktivlar va substrat tayyorlash Sintez uchun quyidagi kimyoviy moddalar ishlatildi: temir(III) nitrat nonagidrat ($\text{Fe}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$, Sigma-Aldrich, 99.9%), nikel(II) nitrat gemigidrat ($\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$,

99.9%), kobalt(II) nitrat gemigidrat ($\text{Co}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, 99.9%), ammoniy fluorid (NH_4F) va mochevina ($\text{CO}(\text{NH}_2)_2$). Barcha reaktivlar analitik tozalikka ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri ishlatildi. Substrat sifatida $3 \times 3 \text{ sm}^2$ o'lchamdagi nikel ko'pik (Ni foam, NF) ishlatildi. Uni tayyorlash uchun NF 1 M HCl eritmasida ultratovushli vannada 15 daqiqa davomida tozalandi. Bu jarayon NF yuzasidagi oksid qatlamlarini olib tashlash va sirt faol maydonini oshirish maqsadida amalga oshirildi. Keyin substrat distillangan suv bilan yaxshilab yuvildi va 60°C da quritildi.


2. CoFeNi/NF elektrodining gidrotermal sintezi. CoFeNi trimetall nanokompozitining sintezi gidrotermal usulda amalga oshirildi. Buning uchun 0.45 mmol $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$, 0.9 mmol $\text{Ni}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, 0.45 mmol $\text{Co}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, 3 mmol NH_4F va 6 mmol mochevina 80 ml ionsizlantirilgan suvda aralashtirilib, magnit aralashtirgichda 30 daqiqa davomida bir hil eritma hosil qilindi. Tayyor eritma va ilgari tayyorlangan $3 \times 3 \text{ sm}^2$ NF substrat 100 ml hajmga ega teflon qoplamali avtoklav idishiga joylashtirildi. Avtoklav 140°C haroratda 6 soat davomida ushlab turildi. Reaksiya yakunlangach, tizim xona haroratigacha tabiiy sovitildi. Hosil bo'lgan namunalar etanol va distillangan suv bilan bir necha marta yuvilib, 70°C da 4 soat davomida quritildi. Quritilgan namunalar atmosfera sharoitida 350°C da 2 soat davomida kuydirildi (annealing) – bu bosqichda materialning kristallik darajasi yaxshilandi va fazalar barqarorlashdi.

3. Elektrokimyoviy o'lchovlar. Sintez qilingan CoFeNi/NF elektrodining elektrokimyoviy xossalari ishqoriy muhitda (1 M KOH eritmasida) baholandi. O'lchovlar Corrtest CS310X potensiometri yordamida uch elektrodli elektrokimyoviy xujayrada amalga oshirildi. Ishchi elektrod sifatida CoFeNi/NF, yordamchi elektrod sifatida platina, va ma'lumot elektrod sifatida Ag/AgCl (3 M KCl) ishlatildi. HER va OER reaksiyalarining faolligini baholash uchun chiziqli skan voltammetriya (LSV) o'lchovlari 5 mV/s tezlikda olib borildi. Tafel gradiyenti LSV grafigidan $\log(j)$ ga nisbatan ortiqcha kuchlanishning differensial qiymati orqali aniqlandi. Barcha potensial qiymatlar Ag/AgCl elektrodiga nisbatan qayd qilindi va kerakli hollarda RHE (reversible hydrogen electrode) ga konvertatsiya qilindi:

$$E_{(\text{RHE})} = E_{(\text{Ag/AgCl})} + 0.059 \times \text{pH} + E^0_{(\text{Ag/AgCl})}$$


Bu yerda $E^0_{(\text{Ag/AgCl})} = 0.197 \text{ V}$ (25°C da) va 1 M KOH uchun $\text{pH} \approx 13.6$ deb qabul qilindi.

Natija va muhokamalar. Skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) yordamida Ni ko'pikli substrat (NF) va uning asosida sintez qilingan CoFeNi/NF nanokompozitlarining sirt morfologiyasi tahlil qilindi. Quyidagi 1-rasmda (a-b) NF va CoFeNi/NF namunaning SEM tasvirlari keltirilgan. 1-rasm (a) dan ko'rinib turibdiki, ko'pikli nikel (NF) ning yuzasi silliq va to'rsimon tuzilishga ega. Ushbu taglik yuqori mexanik barqarorlikka ega va elektrod materiali sifatida keng qo'llaniladi. 1 (b) -rasmda CoFeNi metall oksidi nanokompozitining NF yuzasida bir tekis taqsimlanishi va zich o'sgan o'tkir uchli nanoqatlamli nanostrukturalarning hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Ushbu nanoqatlamlar yuqori sirt yuzasiga ega, bu esa katalitik faol markazlar sonini oshiradi. Bu plastinkalar bir necha yo'nalishda o'sib, bir-biri bilan to'rt hosil qilgan va umumiy yuzasini ancha kattalashtirgan. Ushbu morfologik o'zgarishlar katalitik faol markazlar sonining ortishi bilan bir qatorda elektron va ion o'tkazuvchanligini oshiradi. Bundan tashqari, bunday tuzilish katalitik reaksiya davomida gaz ajralib chiqishini osonlashtiradi va ta'sir etuvchi moddaning elektrodga yopishishini kuchaytiradi, bu esa uning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, SEM tahlili CoFeNi nanokompozitining NF substratiga muvaffaqiyatli birikishini aniq tasdiqlaydi, natijada yuqori sirt maydoniga ega, strukturali sirt hosil bo'ladi. Natijada OER/HER uchun nanokompozitning elektrokatalitik samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.



Rasm 1. a) Nikel ko‘pigining (NF) SEM tasviri. b) Sintez qilingan CoFeNi/NF ning SEM tasviri


CoFeNi/NF namunasi uchun EDS xaritalash natijalari (2a-e-rasm) hamda CoFeNi/NF namuna uchun mos spektrlari (2f-rasm) o‘rganildi. Xaritalash natijalari namunada kislorod (O), temir (Fe), nikel (Ni) va kobalt (Co) elementlarining bir tekis va keng tarqalganini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Ni (c) va Fe (b) elementlari yuqori intensivlikda namoyon bo‘lib, ularning asosiy tarkibiy qismlar ekanligini tasdiqlaydi. O (a) va Co (d) elementlari ham aniq ifodalangan bo‘lib, bu komponentlarning birikmaga muvaffaqiyatli kiritilganidan dalolat beradi. EDS spektral tahlili yordamida namunalardagi elementlarning og‘irlik foizlari (Wt%) aniqlandi. CoFeNi/NF namunasi uchun asosiy elementlar sifatida Ni (63.2%), Fe (8.6%) va Co (8.6%) aniqlandi. Bu esa metallarning nisbatan muvozanatli tarkibda mavjudligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kislorod miqdorining 19.6% ekanligi metallarning oksid shaklida mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar CoFeNi asosidagi metall oksidlari komponentlarining birikmaga samarali kiritilganini, shuningdek, elektrokimyoviy faol markazlar vazifasini bajaruvchi elementlarning yaxshi tarqalganini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar keyingi elektrokimyoviy faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.



Rasm 2. a-e) CoFeNi/NF namunasi uchun EDS xaritalash natijalari f) CoFeNi/NF ning EDS spektri

Sintez qilingan CoFeNi/NF elektrokatalizatorining HER va OER reaksiyalariga nisbatan elektrokimyoviy faolligi 1 M KOH ishqoriy eritmasida chiziqli skan voltammetriya (LSV) tahlillari orqali baholandi. LSV natijalariga ko‘ra, CoFeNi/NF elektrodining HER uchun $10 \text{ mA} \cdot \text{cm}^{-2}$ tok zichligida ortiqcha kuchlanishi 284 mV ni tashkil etdi (3b-rasm). Bu qiymat katalitik faol markazlarning yuqori zichligi va ularning reaksiya yuzasida qulay joylashganligini ko‘rsatadi. OER bo‘yicha esa CoFeNi/NF elektrokatalizatori 310 mV ortiqcha kuchlanish bilan yuqori samaradorlikni namoyon etdi (3a-rasm). Bunday past ortiqcha kuchlanish qiymatlari CoFeNi uch komponentli tizimdagi metall atomlarining sinergetik ta‘siri bilan izohlanadi. Ayniqsa, Fe va Co komponentlari kislorodning adsorbsiyasi va desorbsiyasi uchun optimal energiya darajalarini ta‘minlab, OER kinetikasini tezlashtiradi. Bu qiymat boshqa turdagi trimetall katalizatorlarga nisbatan raqobatbardosh yoki ustun natijadir [1,2]. Olingan natijalar CoFeNi komponentlarining o‘zaro ta‘siri orqali yuzaga keladigan elektron tuzilishdagi o‘zgarishlar, shuningdek, nikel

ko'pik substratining yuqori elektr o'tkazuvchanligi va g'ovakli tuzilmasi bilan birgalikda materialning umumiy faol maydonini kengaytirganini tasdiqlaydi. NF substrat katalizator fazasining samarali tarqalishiga imkon berib, elektrod-elektrolit interfeysini yaxshilaydi va ion difuziyasini tezlashtiradi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida CoFeNi/NF elektrokatalizatori mavjud adabiyotlarda keltirilgan ba'zi metallarga asoslangan katalizatorlar bilan raqobatlasha oladi. CoFeNi/NF esa nisbatan arzon materiallardan iborat bo'lib, yuqori katalitik faollik va mexanik barqarorlikni saqlab qoladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, CoFeNi trimetall tizimi elektrokimyoviy sintez uchun qulay bo'lishi bilan birga, HER va OER reaksiyalari uchun bifunksional elektrokatalizator sifatida istiqbolli nomzod bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, CoFeNi/NF strukturasi keyingi bosqichda karbon materiallar bilan birlashtirish yoki magnit suyuqliklar bilan integratsiyalash orqali yanada samaradorligini oshirish mumkin.



Rasm 3. CoFeNi/NF elektrokatalizatorining LSV qutblanish egri chiziqlari a) Vodorod ajralish reaksiyasi b) Kislorod ajralish reaksiyasi

Xulosa. Ushbu tadqiqotda trimetallik CoFeNi nanokompoziti nikel ko'pik (NF) substratida gidrotermal usulida muvaffaqiyatli sintez qilindi va suvni elektroliz qilish jarayonida kislorod (OER) hamda vodorod (HER) ajralish reaksiyalariga nisbatan elektrokimyoviy faolligi baholandi. Morfologik tahlillar CoFeNi/NF elektrodining sirtida bir tekis taqsimlangan, yuqori sirt maydoniga ega nanoqatlamli strukturalarning hosil bo'lganini ko'rsatdi. EDS xaritalash va spektral tahlillar orqali material tarkibida Ni, Fe va Co elementlari optimal nisbatda mavjudligi, shuningdek, oksid fazalarning faol ishtiroki tasdiqlandi. Elektrokimyoviy o'lovlar natijasida CoFeNi/NF materiali HER uchun 284 mV va OER uchun 310 mV ortiqcha kuchlanish qiymatlari bilan yuqori bifunksional katalitik faollikni namoyon etdi. Ushbu past ortiqcha kuchlanish ko'rsatkichlari material tarkibidagi metall komponentlarning sinergetik o'zaro ta'siri, yuqori elektr o'tkazuvchanligi, keng faol sirt maydoni va NF substratining g'ovakli tuzilmasi bilan bog'liqdir. Tadqiqot natijalari CoFeNi/NF nanokompozitining arzon, barqaror va yuqori samarali ikki funksiyali elektrokatalizator sifatida kelajakda amaliy suv elektrolizi tizimlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan istiqbolli material ekanini tasdiqladi. Kelgusida ushbu material strukturasi karbon nanomateriallar yoki magnit suyuqliklar bilan modifikatsiya qilish orqali uning katalitik xususiyatlarini yanada oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Zhang H. et al. *Recent Advances and Perspectives on Coupled Water Electrolysis for Energy-Saving Hydrogen Production*. *Advanced Science*. 12, 22011964 (2025). <https://doi.org/10.1002/advs.202411964>
2. Amin M.; Shah H.H.; Bashir B.; Iqbal M.A.; Shah U.H.; Ali M.U. *Environmental Assessment of Hydrogen Utilization in Various Applications and Alternative Renewable Sources for Hydrogen Production: A Review*. *Energies* 2023, 16, 4348. <https://doi.org/10.3390/en16114348>
3. C. Gunathilake, I. Soliman, D. Panthi, P. Tandler, O. Fatani, N. A. Ghulamullah, D. Marasinghe, M. Farhath, T. Madhujith, K. Conrad, Y. Du and M. A comprehensive review on hydrogen production, storage, and applications. *Jaroniec, Chem. Soc. Rev.*, 2024, 53, 10900. <https://doi.org/10.1039/D3CS00731F>
4. Somtochukwu Godfrey Nnabuifea, Abdulhammed K. Hamzatb, James Whidbornec, Boyu Kuangd., Karl W. Jenkinsd. *Integration of Renewable Energy Sources in Tandem with Electrolysis for*

- Green Hydrogen Production. International Journal of Hydrogen Energy.* 49, 19874–19890 (2024). <https://doi.org/10.1016/j.cles.2024.100168>
5. Ilham Sebbani, Mohammed Karim Ettouhami,, Mouaad Boulakhbar. *Fuel Cells: A Technical, Environmental, and Economic Outlook. Cleaner Energy Systems* 10 (2025) 100168. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2024.100062>
 6. Tuluhong A.; Chang Q.; Xie L.; Xu Z.; Song T. Current Status of Green Hydrogen Production Technology: A Review. *Sustainability* 2024, 16, 9070. <https://doi.org/10.3390/su16209070>
 7. Marouani I.; Guesmi T.; Alshammari B.M.; Alqunun K.; Alzamil A.; Alturki M.; Hadj Abdallah H. Integration of Renewable-Energy-Based Green Hydrogen into the Energy Future. *Processes* 2023, 11, 2685. <https://doi.org/10.3390/pr11092685>
 8. Seddiq Sebbahi, Abdelmajid Assila, Amine Alaoui Belghiti, Said Laasri, Savaş Kaya, El Kebir Hlil, Samir Rachidi, Abdelowahed Hajjaji. A Comprehensive Review of Recent Advances in Alkaline Water Electrolysis for Hydrogen Production. *International Journal of Hydrogen Energy.* 82, 583-599 (2024). <https://doi.org/10.1016/j.ijhydene.2024.07.428>
 9. Stambouli A. B. (2011). Fuel cells: The expectations for an environmental-friendly and sustainable source of energy. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 15(9), 4507-4520. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2011.07.100>
 10. Gao Y.; Wang X.; Meng X. Advanced Rectifier Technologies for Electrolysis-Based Hydrogen Production: A Comparative Study and Real-World Applications. *Energies* 2025, 18, 48. <https://doi.org/10.3390/en18010048>
 11. Zhang Y.; Zhang Y.; Li, Z.; Yu, E.; Ye, H.; Li, Z.; Guo, X.; Zhou, D.; Wang, C.; Sha, Q.; et al. A Review of Hydrogen Production via Seawater Electrolysis: Current Status and Challenges. *Catalysts* 2024, 14, 691. <https://doi.org/10.3390/catal14100691>
 12. Ahmed I. Osman, Neha Mehta, Ahmed M. Elgarahy, Mahmoud Hefny, Amer Al-Hinai, Ala'a H. Al-Muhtaseb, David W. Rooney. Hydrogen production, storage, utilisation and environmental impacts: a review. *Environmental Chemistry Letters* (2022) 20:153–188. <https://doi.org/10.1007/s10311-021-01322-8>
 13. Muhammad Abdul Qadeer, Xiaoxue Zhang, Muhammad Asim Farid, M. Tanveer, Yichang Yan, Shangfeng Du, Zhen-Feng Huang, Muhammad Tahir. A review on fundamentals for designing hydrogen evolution electrocatalyst. *Journal of Power Sources* 613 (2024) 234856. <https://doi.org/10.1016/j.jpowsour.2024.234856>
 14. Muhammad Nazim Lakhani, Abdul Hanan, Altaf Hussain, Irfan Ali Soomro, Yuan Wang, Mukhtiar Ahmed, Umair Aftab, Hongyu Sun and Hamidreza Arandiyani. Transition metal-based electrocatalysts for alkaline overall water splitting: advancements, challenges, and perspectives. *Chemical Communications.* 2024, 60, 5104-5135. <https://doi.org/10.1039/D3CC06015B>
 15. Hoppe, A.C.; Minke, C. Reducing Environmental Impacts of Water Electrolysis Systems by Reuse and Recycling: Life Cycle Assessment of a 5 MW Alkaline Water Electrolysis Plant. *Energies* 2025, 18, 796. <https://doi.org/10.3390/en18040796>
 16. Lai F, Shang H, Jiao Y, Chen X, Zhang T, Liu X. Recent progress and perspective on electrocatalysis in neutral media: mechanisms, materials, and advanced characterizations. *Interdiscip Mater.* 2024; 3: 492-529. <https://doi.org/10.1002/idm2.12172>
 17. Humayun Irshad, Misbah Zia, Rashid Al-Hajri, Zafar A.K. Khattak, Mohammed Al-Abri, Nazir Ahmad, Hussein A. Younus, Electrocatalysts for hydrogen and oxygen evolution reactions under neutral/near-neutral conditions: Summary and challenges, *International Journal of Hydrogen Energy*, 2025, ISSN 0360-3199, <https://doi.org/10.1016/j.ijhydene.2025.02.246>.
 18. Tran D.T., Tran P.K.L., Malhotra, D. et al. Current status of developed electrocatalysts for water splitting technologies: from experimental to industrial perspective. *Nano Convergence* 12, 9 (2025). <https://doi.org/10.1186/s40580-024-00468-9>
 19. Liu Y.; Li, P.; Wang, Z.; Gao, L. Shape-Preserved CoFeNi –MOF/NF Exhibiting Superior Performance for Overall Water Splitting across Alkaline and Neutral Conditions. *Materials* 2024, 17, 2195. <https://doi.org/10.3390/ma17102195>
 20. Zihan Li, Zunhang Lv, Xin Liu, Guixue Wang, Yusheng Lin, Guangwen Xie, Luhua Jiang, Magnetic-field guided synthesis of highly active Ni–S–CoFe₂O₄ electrocatalysts for oxygen evolution reaction, *Renewable Energy*, Volume 165, Part 1, 2021, Pages 612-618, ISSN 0960-1481, <https://doi.org/10.1016/j.renene.2020.11.083>.

21. Fankai Zhu, Yuqing Wang, Yuanlong Chen, Muyao Wu, and Wei Jiang. *Magnetic Field-Assisted Electrodeposition of Fe₃O₄ Nanoparticles on Ni as Bifunctional Electrocatalyst for Overall Water Splitting.* *ACS Applied Nano Materials* 2023 6 (21), 19837-19847. <https://doi.org/10.1021/acsanm.3c03630>
22. Ren, X., Wu, T., Sun, Y. et al. *Spin-polarized oxygen evolution reaction under magnetic field.* *Nat Commun* 12, 2608 (2021). <https://doi.org/10.1038/s41467-021-22865-y>

KAPTON POLIIMID SIRTINI LAZER YORDAMIDA GRAFENLASH: MD TAHLILI

Jo'raboyev Tursunpo'lat Erkin o'g'li,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari Instituti tayanch doktoranti
juraboevtursunpulat24@gmail.com*

Xalilov Umedjon Boymamatovich,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti bosh ilmiy xodimi,
fizika-matematika fanlari doktori*

Annotatsiya. Lazer-induktsiyalangan grafen (LIG) shakllanishining atomistik mexanizmlari uning nukleatsiya jarayonidagi noaniqliklar sababli hanuzgacha to'liq o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotda Kapton poliimid asosida LIG hosil bo'lishi reaktiv molekulyar dinamika (MD) usuli yordamida modellashirildi. Simulyatsiya natijalari jarayonning ikki asosiy bosqichdan iborat ekanligini ko'rsatdi: qizdirish bosqichida g'ovakli struktura hosil bo'lishiga olib keluvchi CO, H₂ va C₂H₂ gazlarining intensiv desorbsiyasi, hamda sovutish bosqichida uglerod atomlarining sp²-gibridlangan halqalarga (geksagon, pentagon, heptagon) o'z-o'zidan yig'ilishi kuzatildi. Radial taqsimot funksiyasi (RTF) tahlili grafenga xos C-C bog' uzunligi (1,4 Å) va ~3,8 Å interqatlam masofasini tasdiqlashi esa ko'p qatlamli grafen fazasining shakllanganidan dalolat beradi. Ushbu natijalar LIG sintezini optimallashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Lazer-induktsiyalangan grafen (LIG), Kapton, grafen, grafit, qizidirish, sovitish, geksagon, pentagon, heptagon.

LASER-INDUCED GRAPHENIZATION OF KAPTON POLYIMIDE SURFACE: MD ANALYSIS

Abstract. The atomistic mechanisms of Laser-Induced Graphene (LIG) formation remain insufficiently understood due to uncertainties in its nucleation process. In this study, the formation of LIG on Kapton polyimide was simulated using the reactive molecular dynamics (MD) method. Simulation results revealed a two-stage process: an intensive desorption of CO, H₂, and C₂H₂ gases during the heating stage, leading to the formation of a porous structure, followed by the self-assembly of carbon atoms into sp²-hybridized rings (hexagons, pentagons, and heptagons) during the cooling phase. The analysis of the Radial Distribution Function (RDF) confirmed the formation of a multilayer graphene phase, revealing a characteristic C–C bond length of 1.4 Å and an interlayer distance of approximately 3.8 Å. These results provide an important scientific basis for optimizing the synthesis of LIG.

Keywords: Laser-Induced Graphene (LIG), Kapton, graphene, graphite, heating, cooling, hexagon, pentagon, heptagon.

ЛАЗЕРНАЯ ГРАФЕНИЗАЦИЯ ПОВЕРХНОСТИ КАПТОН-ПОЛИИМИДА: MD АНАЛИЗ

Аннотация. Атомистические механизмы формирования лазерно-индуцированного графена (LIG) остаются недостаточно изученными из-за неопределенностей в процессе его нуклеации. В данном исследовании процесс образования LIG на основе каптон-полиимида моделировался с использованием метода реактивной молекулярной динамики (MD). Результаты моделирования показали, что процесс состоит из двух основных этапов: на стадии нагрева происходит интенсивная десорбция газов CO, H₂ и C₂H₂, что приводит к формированию пористой структуры, а в фазе охлаждения наблюдается самосборка атомов углерода в sp²-гибридизованные кольца (гексагоны, пентагоны и гептагоны). Анализ функции радиального распределения (ФРР) подтверждает формирование многослойной графеновой фазы, показывая характерную для графена длину связи C–C (1,4 Å) и межслоевое расстояние около 3,8 Å. Данные результаты служат важной научной основой для оптимизации синтеза LIG.

Ключевые слова: Лазер-индуцированный графен (LIG), Каптон, графен, графит, нагрев, охлаждение, гексагон, пентагон, гептагон.

Kirish. Grafen ilk bor yuqoridan-pastga yondashuv asosida grafit kristallining qatlamlarini mexanik ajratish yo'li bilan olingan [1]. Bu usul orqali grafitdan grafenga o'tish jarayoni keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa, grafit qatlamlarini fizik kuchlar yordamida mexanik eksfoliatsiya yoki lazer nurlanishi orqali atomik darajada ajratish texnologiyalari shakllangan bo'lib [2], ushbu usullar grafen strukturasi va uning fizik-kimyoviy xossalarini chuqur o'rganishda muhim rol o'ynaydi [3]. Biroq bu yondashuvlar yuqori aniqlikdagi texnologik asbob-uskunalarini talab qilishi, jarayonning past samaradorligi va yirik miqyosda ishlab chiqarishdagi cheklovlar tufayli amaliy jihatdan cheklanganicha qolmoqda.

So'nggi yillarda grafen olish uchun alternativ manbalardan biri polimerlar asosida, iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda [4]. Jumladan, polimerlarni piroliz qilish orqali elektr o'tkazuvchan uglerod materiallarini olish mumkinligi aniqlangan bo'lib [5], ushbu yo'nalishda Kapton poliimid (KPI) asosida argon yoki CO₂ lazerlari yordamida elektr o'tkazuvchi uglerod strukturalarini sintez qilish bo'yicha istiqbolli yondashuvlar taklif qilingan. Xususan, 2014 yilda Lin va hamkasblari CO₂ infraqizil lazer yordamida oddiy atmosfera sharoitida poliamid plyonkalardan uch o'lchamli g'ovakli grafen strukturalarini olishga muvaffaq bo'lib [6], ushbu materialni Lazer bilan induksiya qilingan grafen (LIG) deb nomlashdi. Keyingi yillarda LIG texnologiyasi o'zining soddaligi, yuqori moslashuvchanligi, ko'p funksiyaliligi va past xarajatliligi sababli ilmiy hamjamiyat e'tiborini tortmoqda [7]. Ayniqsa, LIG materiallari biosensorlar [6], mikrosuyuqlik qurilmalar [8], elektrokimyoviy tizimlar, mikro-superkondensatorlar [8] hamda egiluvchan elektron qurilmalarda [9] keng tadbiiq etilmoqda.

Shunga qaramay, LIG hosil bo'lish jarayonining molekulyar darajadagi mexanizmlari hali to'liq o'rganilmagan. Bunga asosiy sabab eksperimental qurilmalar aniqligidagi chegaralar bo'lib, oxirgi yillarda bu muammolarni jarayonni modellashtirish yo'li bilan o'rganish orqali sezilarli yechishga erishilmoqda [9,10]. Shunga qaramay, CO₂ lazer nurlanishi ostida Kapton polimerining C–N, C–O, C=O va C–H bog'larining uzilishi, sp³ gibridlanishdan sp² holatga o'tish jarayoni, oraliq bosqichlardagi amorf uglerod strukturasi va muhit prekursorlari desorbsiyasi kabi jarayonlar hozircha mavjud kuch potentsiallari asosida yetarlicha aniq modellashtirilmagan [11]. Xususan, ba'zi kuch maydonlari asosida olib borilgan hisoblashlarda CO va N₂ gazlari noto'g'ri shaklda, ya'ni asl sharoitdagidan farqli holatda paydo bo'lib, bu natijada hosil bo'lgan uglerodli strukturalarning ishonchliligini kamaytirgan [5,12]. Bu esa LIG strukturasi shakllanishini nazorat qilish va yuqori sifatli grafen olish haqida bilimlarga ega bo'lish imkoniyatlarimizni sezilarli chegaralab, LIG ning hosil bo'lish mexanizmlarini chuqurroq tushunishimizga to'sqinlik qolmoqda.


Buni inobatga olgan holda ushbu tadqiqotda C/H/O/N parametrlar to'plami asosida kengaytirilgan ReaxFF kuch maydonlari yordamida KPI asosidagi LIG hosil bo'lishi mexanizmlari reaktiv molekulyar dinamika (MD) asosida molekulyar darajada modellashtirish orqalo o'rganildi.

Modellashtirish usuli va tafsilotlari. Ushbu tadqiqotda KPI asosida LIG ning hosil bo'lish mexanizmlari reaktiv MD [13] usuliga asoslangan LAMMPS dasturiy paketi [14] yordamida modellashtirildi. Modellashtirish jarayonida tizimdagi uglerod (C), vodorod (H), kislorod (O) va azot (N) atomlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni ifodalash uchun Kovalik va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan ReaxFF potentsialining C/H/O/N parametrlar to'plami qo'llanildi [15].

Model tizimda umumiy hisobda 90 ta Kapton (C₂₂H₁₀O₅N₂) molekullari (1a-rasm) orqali $x = 37 \text{ \AA}$, $y = 38 \text{ \AA}$, $z = 60 \text{ \AA}$ o'lchamdagi fazoda yaxlit polimer struktura yaratildi. x va y yo'nalishlarda davriy chegara shartlari joriy etilganligi sababli, struktura bu yo'nalishlarda cheksiz takrorlanuvchi shaklga ega bo'ladi. Bu esa real polimer muhitini modellashtirish imkonini beradi. Natijada, hosil bo'lgan model (1b-rasm) strukturaning zichligi 1.18 g/cm³ ni tashkil etdi, bu esa eksperimental KPI zichligiga (1.42 g/cm³) yaqin qiymatdir [16].

Hisoblashlarda vaqt qadami sifatida 0,25 femtosekund (fs) tanlab olindi. Dastlab, tizimning termodinamik energiyasi keskin tushish va birlashgan gradientlar usullari asosidagi energiyani minimallashtirish algoritmlari yordamida kamaytirildi. Keyinchalik, NPT ansambli va termostat yordamida tizim 300 K haroratgacha 1 K/ps tezlik bilan qizdirildi. So'nggi bosqichda esa Nose–Hoover [17] termostatidan foydalanilib, tizim NVT ansamblida 50 K/ps tezlik bilan 6000 K haroratgacha qizdirildi. Shundan so'ng, qizigan tizim 2 ns davomida 4 K/ps tezlik bilan sovitildi.


Natijalarning takrorlanuvchanligini va ishonchliligini ta'minlash maqsadida barcha hisoblashlar har bir holat uchun besh martadan bajarildi.



1-rasm. a) Kapton poliimid molekulası b) Kapton poliimid polimer strukturasi

Natijalar va ularning muhokamasi. Tizim dastlab xona haroratidan (300 K) boshlab 6000 K gacha qizdirildi. Harorat oshishi bilan, struktura komponentlarining termal energiyasi ortib, kimyoviy bog‘lar izchil ravishda uzilishi natijasida tizimdan turli gaz molekulari navbatma-navbat ajralib chiqdi (2a-rasm). Umuman olganda, qizdirish natijasida tizimdan, asosan, olti xil gaz molekulari desorbsiyalandi: vodorod (H_2), is gazi (CO), atsetilen (C_2H_2), suv bug‘i (H_2O), azot (N_2) va karbonat angidrid (CO_2) (2a-rasm). Desorbsiyalangan gazlar miqdorining tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng ko‘p uchraydigan molekularlar — is gazi (CO) 41,27%, vodorod (H_2) 33,11% va atsetilen (C_2H_2) 17,39% molekuladan iborat bo‘lgan. Aksincha, kamroq miqdorda desorbsiyalangan gazlar qatoriga azot (N_2) 5,37%, suv bug‘i (H_2O) 2,29% va karbonat angidrid (CO_2) 0,6% kiradi (2b-rasm). Gazlarning desorbsiyalanish miqdoridagi farqlar ularning boshlang‘ich struktura tarkibidagi atomlar nisbati va reaktivligiga bog‘liq.

Ushbu natijalar yuqori haroratda LIG hosil bo‘lish jarayonida tizimdan kichik molekularning, ayniqsa CO va H_2 kabi gaz fazasidagi moddalarning faol desorbsiyalanishini yaqqol tasdiqlaydi. Qizdirish jarayonining dastlabki bosqichlarida, ~500 K atrofida, birinchi navbatda H_2 va CO molekularining ajralib chiqishi kuzatildi. Bu hodisa KPI tarkibida ushbu elementlarning C - ~56, H - ~26 va O - ~13% yuqori konsentratsiyasi mavjudligi bilan izohlanadi.



2-rasm. Tizim harorati 6000 K ga qizdirish jarayonida a) desorbsiyalangan molekular miqdori (%) b) molekularning turli haroratlarda desorbsiyalanishining o‘zgarish dinamikasi

Ayniqsa, CO molekulalarining katta miqdorda hosil bo'lishi KPI strukturasida C va O atomlarining yuqori konsentratsiyasi mos ravishda 56,96 va 13,25 nm⁻³ bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, KPI ning termal parchalanishi davomida CO molekulalarining parchalanish energiyasi nisbatan yuqori bo'lgani (~11.2 eV) [18] sababli, ular tizimda saqlanmasdan to'g'ridan-to'g'ri desorbsiyalanadi. Bu holat eksperimental tadqiqotlar orqali ham tasdiqlangan bo'lib, qizdirish davomida aynan CO molekulalarining eng yuqori darajada desorbsiyalanishi qayd etilgan [19]. Qizdrish jarayonida H₂ va CO molekulalarining intensiv hosil bo'lishi LIG strukturasining ko'pikli (foam-like) shaklga ega bo'lishida hal qiluvchi omil bo'lganligi aniqlangan [20].

Bu jarayonni kinetik jihatdan tahlil qilganda, CO₂ va CO molekulalarining parchalanish energiyasi orasidagi farq muhim rol o'ynaydi. CO₂ → CO + O reaksiyasi uchun zarur energiya to'sig'i ~5,5 eV [21] ni tashkil etib, bu reaksiya ~1600 K dan yuqori haroratlarda nisbatan tezroq amalga oshadi. CO → C + O reaksiyasi uchun zarur bo'lgan energiya to'sig'i esa ikki baravar yuqoriroq qiymat 11,15 eV [22] ni tashkil etib, yuqori haroratli sharoitlarda ham CO ning parchalanishi nisbatan sekinroq kechadi. Natijada, jarayon davomida tizimda CO molekulalarining miqdori sezilarli darajada saqlanib qoladi.

C₂H₂ molekulalarining faol hosil bo'lishi grafenning sp²-gibridlangan halqalarini shakllantirishda oraliq bosqich sifatida ishtirok etib, LIG morfologiyasining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan hodisalardan biridir [23]. Shuningdek, ~3000 K da Kapton polimerlarining termal parchalanishi natijasida murakkab tuzilishga ega uglevodorodlar (CH₂N, C₂HN, C₂H₂N, C₄H₃N₂, C₂HN, C₃H₃ON, C₅H₃N, C₅H₂N₂ va C₁₁H₆N₂ molekulalari) ham oraliq strukturalar sifatida kuzatildi. Ushbu molekulalar KPIga o'xshash Polibenzimidazol polimerida ham kuzatilgan [23].

Tizimda KPI strukturasini qizdirish va hosil bo'lgan plazma muhitini sovutish jarayonlari davomida C halqalarining hosil bo'lish evolyutsiyasi hamda ularning strukturaviy o'zgarish dinamikasi ham tahlil qilindi. Qizdirishning dastlabki bosqichda tizim harorati ~2400 K ga yetgach, strukturada mahalliy buzilishlar kuzatila boshlashi natijasida geksagon C halqalaridan tashqari pentagon hamda heptagon halqalarning hosil bo'lishi ham kuzatiladi. Bu hodisa, tizimda vodorod va kislorod atomlarining desorbsiyalanishi hamda C-C bog'larining uzilishi uchun zarur bo'lgan energiya (~3,5 – 4,9 eV) darajasiga yetilganligi bilan bog'liq. 2500 K dan yuqori haroratda tizimda C halqalari sonining kamayishi va 2900 K da butunlay parchalanishi – bu grafen strukturalarining termal barqarorlik chegarasidan oshib ketganini, ya'ni grafen morfologiyasining termal degradatsiyasi sodir bo'layotganini bildiradi.

Simulyatsiyaning ikkinchi bosqichida, hosil bo'lgan 6000 K haroratdagi plazma muhiti sekin sovutilganida (4 K/ps), ~3600 K dan boshlab C halqalari yana qayta shakllana boshlaydi. Sovutish bosqichida qizdirishdan farqli ravishda, tizimdagi kislorod, vodorod va azot atomlari o'zaro birikib barqaror gaz molekulalari shaklida desorbsiyalanadi. Ushbu gazlarning ajrab chiqishi tizimda uglerod atomlarining nisbiy konsentratsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Natijada tizimda qolgan C atomlari bir-biri o'zaro kimyoviy bog'lar hosil qilib, dastlab uglerod zanjirlari va halqali strukturalarni hosil qiladi.

~3600 K haroratdan boshlab tizimda LIG nukleatsiyasining dastlabki bosqichlari boshlanadi. Xususan, ushbu haroratdan boshlab uglerod halqalari, xususan geksagonlarning konsentratsiyasi keskin ortgani kuzatildi. Sovutish jarayonining davomida (~2000 K dan boshlab xona haroratigacha) ushbu halqalarning miqdori deyarli o'zgarmagan holatda saqlanib qolib, geksagon, pentagon va heptagon halqalar konsentratsiyalari mor ravishda ~ 2,4×10²⁸m⁻³, ~ 1×10²⁸m⁻³ va ~ 0,8×10²⁸m⁻³ tashkil etdi. Halqalarning shakllanishi, asosan, tizimdagi uglerod atomlari zichligining (konsentratsiyasining) ortishi hamda harorat pasayib borishi bilan birgalikda tizimning umumiy energiyasining kamayishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.


Natijalar shuni ko'rsatdiki, sovutish jarayonida atomlarning harakatchanligi sezilarli darajada kamayib, atomlar termodinamik jihatdan qulay konfiguratsiyalarda joylashishga intiladi. Buning natijasida, ilgari hosil bo'lgan uglerod zanjirlari o'zaro birikib halqalarga, halqalar esa bir-biri bilan ulanib, grafenga o'xshash halqali strukturalarni shakllantiradi. Ayniqsa, geksagon halqalarning ustunligi strukturaning grafenga o'xshash tartibli fazaga yaqinlashayotganini bildiradi.

Grafen strukturasini morfologik baholashda nafaqat geksagon halqalarning mavjudligi, balki pentagon va heptagon kabi boshqa halqalarining ham aniqlanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular strukturadagi topologik nuqsonlarni ifodalaydi. Bu holat, ayniqsa, plazma yoki yuqori haroratli kimyoviy parchalash sharoitida uglerod asosli materiallar sintezi jarayonida qanday struktura hosil bo'lishi va uning sifati haqida muhim ma'lumot beradi. Shuningdek, bu natijalar yuqori haroratda degradatsiyaga uchragan strukturalarning sovutish orqali yana tartibli holatga qayta tiklanish imkonini ham ko'rsatadi.

Strukturaning shakllanish darajasi va tartiblilikini baholash esa radial taqsimot funksiyasi (RTF) orqali amalga oshirildi (3-rasm). Bu usul yordamida atomlararo masofalarning taqsimoti aniqlanadi va piklarning aniq chiqishi hamda takrorlanuvchanligi asosida strukturaning tartiblilik darajasi baholanadi.

Shakllangan LIG strukturasi RTF (radial taqsimot funksiyasi) tahlili natijasida uchta asosiy cho‘qqi (atomlararo masofa) aniqlangan bo‘lib, birinchi maksimum cho‘qqi $\sim 1,4$ Å atrofida kuzatildi. Ushbu cho‘qqining $1,2\text{--}1,6$ Å oralig‘ida tarqalganligi, tizimda $sp^2\text{--}sp^2$ C–C bog‘lari ustunlik qilayotganini bildiradi. Aynan $\sim 1,4$ Å qiymati grafen strukturasi eng yaqin uglerod atomlari orasidagi tipik kovalent bog‘ uzunligiga mos keladi va u ilgari eksperimental hamda modellashtrish tadqiqotlari natijalari bilan muvofiqdir [24,25].

Ikkinchi cho‘qqi $2,3\text{--}2,8$ Å diapazonida aniqlanib, bu masofa uglerod halqasidagi peri-joylashuvdagi yaqin (ya'ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan, ammo halqa ichida yaqin joylashgan) atomlar o‘rtasidagi masofani ifodalaydi. Ushbu masofa LIG tarkibida sp^2 -gibridlangan C halqalari mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, RTF tahlili LIG strukturasi $sp^2\text{--}sp^2$ C–C kovalent bog‘lanishlari, lokal uglerod halqalari hamda qatlamli grafitga o‘xshash fazalarning mavjudligini aniqlab, ushbu materialning grafen yoki grafitga xos tartibli holatga yaqinlashayotganidan dalolat beradi.



3-rasm. Strukturani radial taqsimot funksiyasi

Shuningdek, kuzatilgan RTF natijalaridagi farqlar turli polimerlardan hosil bo‘lgan LIG strukturalarining ichki tartib darajasi va grafen qatlamlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda reaktiv molekulyar dinamika (MD) usuli orqali Kapton poliimidning (KPI) lazer-induktsiyalangan grafenga (LIG) aylanishining atomistik mexanizmlari muvaffaqiyatli modellashtrildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qizdirish bosqichida polimerning termal parchalanishi CO, H₂ va C₂H₂ kabi gazlarning intensiv desorbsiyasiga olib keladi. Bu jarayon materialda g‘ovakli uglerod strukturasi shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Keyingi sovutish jarayonida esa tizimda qolgan uglerod atomlari o‘z-o‘zidan sp^2 -gibridlangan halqalarga yig‘ilib, LIG uchun xos bo‘lgan geksagonal tuzilmalar bilan bir qatorda pentagon va heptagon kabi topologik nuqsonlarni ham shakllantirdi. Hosil bo‘lgan fazaning tartibli, ko‘p qatlamli grafenga o‘xshash ekanligi radial taqsimot funksiyasi (RTF) tahlili bilan tasdiqlanib, grafenga xos C–C bog‘ uzunligi (1.4 Å) va qatlamlararo masofa (~ 3.8 Å) aniqlandi. Ushbu natijalar LIG shakllanishining fundamental bosqichlarini tushunish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib, yuqori sifatli uglerodli materiallar sintezining texnologik parametrlarini optimallashtirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Novoselov K. S., Geim A. K., Morozov S. V., Jiang D., Zhang Y., Dubonos S. V., Grigorieva I. V., and Firsov A. A., *Electric Field Effect in Atomically Thin Carbon Films*, *Science* **306**, 666 (2004).
2. Javvaji B., Vasireddi R., Zhuang X., Mahapatra D. R., and Rabczuk T., *Laser Exfoliation of Graphene from Graphite*, *Molecular Simulation* **47**, 1540 (2021).
3. Lahcen N. A. B., *Graphene – Structure, and Synthesis Techniques: A Comprehensive*.
4. Hussain A., Mehdi S. M., Abbas N., Hussain M., and Naqvi R. A., *Synthesis of graphene from solid carbon sources: A focused review*, *Materials Chemistry and Physics* **248**, 122924 (2020).
5. Kumar R., *Conducting Polymers: Synthesis, Properties and Applications*, *International Advanced Research Journal in Science, Engineering and Technology* **2**, 110 (2015).
6. Lin J., Peng Z., Liu Y., Ruiz-Zepeda F., Ye R., Samuel E. L. G., Yacaman M. J., Yakobson B. I., and Tour J. M., *Laser-induced porous graphene films from commercial polymers*, *Nat Commun* **5**, 5714 (2014).
7. Movaghgharnezhad S. and Kang P., *Laser-induced graphene: synthesis advances, structural tailoring, enhanced properties, and sensing applications*, *J. Mater. Chem. C* **12**, 6718 (2024).
8. Khan M. A., Hristovski I., Marinaro G., and Kosel J., *Magnetic Composite Hydrodynamic Pump With Laser-Induced Graphene Electrodes*, *IEEE Transactions on Magnetics* **PP**, 1 (2017).
9. R. Ye, D. K. James, and J. M. Tour, *Laser-Induced Graphene: From Discovery to Translation*, *Advanced Materials* **31**, 1803621 (2019).
10. Chyan Y., Ye R., Li Y., Singh S. P., Arnusch C. J., and Tour J. M., *Laser-Induced Graphene by Multiple Lasing: Toward Electronics on Cloth, Paper, and Food*, *ACS Nano* **12**, 2176 (2018).
11. Vivaldi F. M., Dallinger A., Bonini A., Poma N., Sembranti L., Biagini D., Salvo P., Greco F., and Francesco F. Di, *Three-Dimensional (3D) Laser-Induced Graphene: Structure, Properties, and Application to Chemical Sensing*, *ACS Appl. Mater. Interfaces* **13**, 30245 (2021).
12. Chenoweth K., A. C. T. van Duin, and W. A. Goddard, *ReaxFF Reactive Force Field for Molecular Dynamics Simulations of Hydrocarbon Oxidation*, *J. Phys. Chem. A* **112**, 1040 (2008).
13. Q. Mao, M. Feng, X. Z. Jiang, Y. Ren, K. H. Luo, and A. C. T. van Duin, *Classical and reactive molecular dynamics: Principles and applications in combustion and energy systems*, *Progress in Energy and Combustion Science* **97**, 101084 (2023).
14. A. P. Thompson et al., *LAMMPS - a flexible simulation tool for particle-based materials modeling at the atomic, meso, and continuum scales*, *Computer Physics Communications* **271**, 108171 (2022).
15. M. Kowalik, C. Ashraf, B. Damirchi, D. Akbarian, S. Rajabpour, and A. C. T. van Duin, *Atomistic Scale Analysis of the Carbonization Process for C/H/O/N-Based Polymers with the ReaxFF Reactive Force Field*, *J Phys Chem B* **123**, 5357 (2019).
16. M. R. Reddy, N. Srinivasamurthy, and B. L. Agrawal, *Atomic oxygen protective coatings for Kapton film: a review*, *Surface and Coatings Technology* **58**, 1 (1993).
17. The Nose–Hoover Thermostat, <https://www.bohrium.com/paper-details/the-nose-hoover-thermostat/812782565415976960-3427>.
18. B. deB Darwent, *Bond Dissociation Energies in Simple Molecules* (University of California Libraries, n.d.).
19. J. J. Shea, *Handbook of Bond Dissociation Energies in Organic Compounds*, *Electrical Insulation Magazine*, *IEEE* **20**, 45 (2004).
20. Y. Xu, Q. Fei, M. Page, G. Zhao, Y. Ling, D. Chen, and Z. Yan, *Laser-induced graphene for bioelectronics and soft actuators*, *Nano Res* **14**, 3033 (2021).
21. C. Verheyen, K. van 't Veer, R. Snyders, and A. Bogaerts, *Atomic oxygen assisted CO2 conversion: A theoretical analysis*, *Journal of CO2 Utilization* **67**, 102347 (2023).
22. S. Gong, P. Wang, and Y. Mo, *Bond Dissociation Energy of CO2 with Spectroscopic Accuracy Using State-to-State Resolved Threshold Fragment Yield Spectra*, *J. Phys. Chem. Lett.* **15**, 10842 (2024).
23. A. Vashisth, M. Kowalik, J. C. Geringer, C. Ashraf, A. C. T. van Duin, and M. J. Green, *ReaxFF Simulations of Laser-Induced Graphene (LIG) Formation for Multifunctional Polymer Nanocomposites*, *ACS Appl. Nano Mater.* **3**, 1881 (2020).
24. Chen D.-M., Shenai P., and Zhao Y., *Tight binding description on the band gap opening of pyrene-dispersed graphene*, *Physical Chemistry Chemical Physics : PCCP* **13**, 1515 (2011).
25. Yang J.-W., Yuan Y., and Chen G., *First-principles study of potassium adsorption and diffusion on graphene*, *Molecular Physics* **118**, 1 (2019).

SUN‘IY IMMUN TIZIMI ASOSIDA ANOMALIYALARNI ANIQLASH TIZIMINI LOYIHALASHTIRISH

Umarov Shuxratjon Azizjonovich,

*fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Dasturiy
injiniring va kiberxavfsizlik” kafedrası dotsenti
sh.umarov81@mail.ru*

Umarova Munajatxon Ibragimovna,

*Farg‘ona davlat texnika universiteti “Dasturiy
injiniring va kiberxavfsizlik” kafedrası assistenti
m.ibragimovna1984@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun‘iy immun tizimlarda anomaliyalarni aniqlashning asosiy tamoyillari, jumladan, gen kutubxonasi, pre-detektorlar, Salbiy tanlov algoritmi, detektorlar to‘plami va klonal seleksiya mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tarmoq va xost xavfsizligi sohasida anomaliyalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Lisys, HP, STIDE va CIFD kabi loyihalarning yondashuvlari va ularning anomaliyalarni aniqlashdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sun‘iy immun tizimi, salbiy tanlov algoritmi, anomaliya, kiberxavfsizlik, detektor, monitoring, gen kutubxonasi.

РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ ОБНАРУЖЕНИЯ АНОМАЛИЙ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОЙ ИММУННОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные принципы обнаружения аномалий в системах искусственного иммунитета, включая библиотеки генов, преддетекторы, алгоритм отрицательного отбора, пулы детекторов и механизмы клонального отбора. Также анализируются подходы таких проектов, как Lisys, HP, STIDE и CIFD, которые играют важную роль в обнаружении аномалий в области безопасности сетей и хостов, и их роль в этом процессе.

Ключевые слова: искусственная иммунная система, алгоритм отрицательного отбора, аномалия, кибербезопасность, детектор, мониторинг, библиотека генов.

DESIGNING AN ANOMALIES DETECTION SYSTEM BASED ON AN ARTIFICIAL IMMUNE SYSTEM

Abstract. This article reviews the basic principles of anomaly detection in artificial immune systems, including gene libraries, pre-detectors, Negative Selection Algorithm, detector pools, and clonal selection mechanisms. It also analyzes the approaches of projects such as Lisys, HP, STIDE, and CIFD, which are important in anomaly detection in the field of network and host security, and their role in anomaly detection.

Keywords: artificial immune system, negative selection algorithm, anomaly, cybersecurity, detector, monitoring, gene library.

Kirish. Anomaliya bu ma‘lum bir tizimda, jarayonda yoki ma‘lumotlarda standartdan chetga chiqqan holati yoki kutilmagan o‘zgarishdir. Ya‘ni, tizimda odatiy, normal holatdan farq qiluvchi signal, harakat yoki ma‘lumot anomaliya deb qaraladi. Axborot xavfsizligi sohasida anomaliya deganda tizimda yoki tarmoqda odatda kuzatilmaydigan, shubhali faoliyat, harakat yoki o‘zgarishlar tushuniladi. Masalan, yuqori internet trafik oqimi, foydalanuvchi loginidan noodatiy vaqtda kirish, qattiq diskda kutilmagan fayl o‘zgarishlari yoki ko‘pdan foydalanilmagan faylga murojaat, operatsion tizimda ruxsatsiz protsesslar yoki portlarning ochilishi, o‘z-o‘zidan IP-manzillardan tizimga murojaatlar anomaliya deb ataladi. Anomaliyalar orqali viruslar, zararli dasturlar, xaker hujumlari kabi xavf-xatarlarni avvaldan aniqlash mumkin. Anomaliya aniqlansa, u haqida zudlik bilan ogohlantirish orqali hujum tarqalishining oldi olinadi. Agar tizimda anomaliyalar doimiy uchrasa, bu ichki nosozlik yoki muammolar belgisi bo‘lishi mumkin [1].

Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda, kiberxavfsizlik masalalari ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har kuni yangi turdagi zararli dasturlar, tarmoq hujumlari va

ma'lumotlar o'g'rilashga urinishlar aniqlanmoqda. Bu xavflardan samarali himoya qilish uchun an'anaviy anomaliyalarni aniqlash usullari yetarli emasligi ayon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, biologik immunitet tizimining tamoyillariga asoslangan sun'iy immun tizimidan anomal faoliyatlarni aniqlashda innovatsion va moslashuvchan yondashuv sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir [2]. Sun'iy immun tizimi organizmdagi "begona elementlari"ni aniqlash mexanizmiga o'xshash ravishda, tarmoq yoki tizimdagi shubhali faoliyatlarni "o'ziniki" va "begona" deb aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy immun tizimida o'rganish, adaptatsiya va o'z-o'zini qayta tuzish kiberhimoya sohasida muhim xususiyatlardan biridir. Sun'iy immun tizimlarining asosiy ustunligi - o'qitish jarayonidan yangi, noma'lum tahdidlarga javob qaytarish qobiliyati hisoblanadi. Biologik immunitet kabi sun'iy immun tizimi ham "o'ziniki" va "begonani" farqlashga asoslangan. Salbiy tanlov algoritmi normal faoliyatni "o'ziniki" deb qabul qilsa, "begona" faoliyatlarni aniqlash va bloklash uchun maxsus detektorlar yaratiladi [4].

Materiallar va usullar. Anomaliyalarni aniqlashga mo'ljallangan sun'iy immun tizimi modeli quyidagilarga asoslanishi kerak [5]:

- Gen kutubxonasi;
- Pre-detektorlar;
- Salbiy tanlov;
- Detektorlar to'plami;
- Klonal seleksiya.

Gen kutubxonasi sun'iy immun tizimi modellarida antigen yoki antidenelarni yaratish va mutatsiyalash uchun asos bo'ladigan algoritmik shablonlar to'plamidir. U tabiiy immun tizimdagi genetikka o'xshash tarzda, turli xil "immun elementlar"ni tahlil qilishga xizmat qiladi. Sun'iy immun tizimida gen kutubxonasi tizimning moslashuvchan va intellektual qismi hisoblanadi, u detektorlarning turli holatlarga tez moslashuvini ta'minlaydi. Axborot xavfsizligida, xususan anomaliyalarni aniqlashda, bu usul inson organizmidagi immunitetga o'xshash ravishda murakkab va yangi tahdidlarga javob qaytarish qobiliyatini hisoblanadi.

Pre-detektorlar bu sun'iy immun tizimida ishlatiladigan boshlang'ich, dastlabki shakldagi detektor elementlaridir, ya'ni ular hali to'liq funksional "antidene" sifatida ishlatishga tayyor emas, ammo muayyan ma'lumotlarga moslashtirish va o'rganish uchun tayyor holda bo'ladi (1-jadval).

1-jadval.

Pre-detektorlarning faoliyat jarayoni

Bosqich	Jarayon
1. Generatsiya	Gen kutubxonasidagi ma'lumotlar asosida turli pre-detektorlar yaratiladi
2. Solishtirish	Ular har biri ma'lumotlar bilan solishtiriladi
3. Tanlab olish	Kerakli va samarali pre-detektorlar tanlab olinadi
4. Mutatsiya	Kerak bo'lsa, ular mutatsiyaga uchratilgan holda qayta ishlanadi
5. Faollashtirish	Eng moslari "faol detektor"ga aylantiriladi va anomaliyani aniqlashda foydalaniladi

Demak, pre-detektorlar anomaliyalarni aniqlash uchun ishlatiladigan boshlang'ich detektorlar bo'lib, ular keyinchalik filtratsiya, mutatsiya va moslashuv jarayonlari orqali haqiqiy anomaliya detektorlariga aylantiriladi. Ushbu mexanizm tizimning o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligini va avtomatik tahlil imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Salbiy tanlov algoritmi (Negative Selection Algorithm - NSA) - bu sun'iy immun tizimida foydalaniladigan asosiy algoritmardan biri bo'lib, "o'ziniki" va "begona" ma'lumotlarni farqlash uchun ishlatiladi. Algoritm inson immun tizimining T-hujayralarni tanlab olish mexanizmiga asoslanadi. Biologik immunitetda, T-hujayralar tanasiga tegishli (self) hujayralarni tanimasa, ular yo'q qilinadi. Xuddi shu prinsip sun'iy immun tizimida ham amalga oshiriladi.

Ushbu algoritmda jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: avvalo, tizimdagi normal ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi hamda "o'ziniki" deb qabul qilinadi. Navbatda ko'plab tasodifiy detektorlar (antidene)lar yaratiladi va ular "o'ziniki" bilan solishtiriladi. Agar detektor "o'ziniki" ma'lumotiga juda yaqin kelsa, u yo'q qilinadi, aks holda detektorlar saqlanadi. Saqlangan detektorlar yordamida yangi kiruvchi ma'lumot tahlil qilinadi. Agar u "o'ziniki" ma'lumotga mos kelmasa, demak u anomal deb qabul qilinadi.

Sun'iy immun tizimlarida anomaliyalarni aniqlash uchun Detektorlar to'plami markaziy rol o'ynaydi. Detektorlar immun tizimidagi T-hujayralar yoki V-hujayralarga o'xshash funksiyani bajaradi, ya'ni "o'ziniki" va "begona"ni ajratishga harakat qiladi. Tizimga yangi ma'lumotlar kirib kelganda, Detektorlar to'plamidagi detektorlar yangi kiruvchi ma'lumotlarni doimiy ravishda tekshirib boradi. Salbiy tanlov algoritmidagi

jarayondan keyin "o'ziniki" bilan moslashmagan, aksincha "begona" ma'lumotlarni aniqlashga qodir bo'lgan detektorlarga Detektorlar to'plamida qoladi.

Klonal seleksiya biologik immun tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, tanada mavjud bo'lgan himoya hujayralari - V-hujayralar yoki T-hujayra antitanachalardan faqatgina anomaliya bilan eng yaxshi moslashadiganlari tanlanadi va ularning soni ko'paytiriladi, ya'ni klonlashtiriladi. Shu orqali anomaliyaga qarshi kurashish qobiliyati kuchaytiriladi. Bu moslashish darajasi fitnes yoki affinity deb ataladi. Klonlashtirilgan detektorlar mutatsiyaga uchratiladi, ya'ni detektorlarning xususiyatlariga kichik, tasodifiy o'zgarishlar kiritiladi. Bundan maqsadi esa detektorlarning xilma-xilligini oshirish va anomaliyani yanada yaxshiroq taniy oladigan variantlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Biologik immun tizimida bu jarayon antitanachalarning antigenga yanada kuchliroq bog'lanishiga olib keladi. Eng yaxshi moslashgan (fitnesi eng yuqori) mutant klonlar keyingi avlodga o'tadi, qolganlari esa yo'q qilinadi. Bu jarayon affinity maturation deb ataladi.

Muhokama va natijalar. Yuqoridagi model asosida turli amaliy loyihalarda anomaliyalarni aniqlashda foydalanilgan. Lysis, HP, STIDE va CIRD tizimlari shu kabi loyihalarga misol bo'ladi [6].

Lysis (Lymphatic System) - limfatik tizim asosida yaratilgan bo'lib, tarmoqqa suqilib kirishlarni aniqlash tizimidir (NIDS). U tarmoqning normal holatini "o'ziniki" deb qabul qiladi, tarmoq trafigini kuzatib, detektorlar yaratadi. Salbiy tanlov algoritmi orqali faqat "begona" namunalarni aniqlashga moslashgan detektorlarga saqlanib qoladi. Tizim yangi trafikni ushbu detektorlar bilan solishtirib, normal profildan har qanday chetga chiqishni anomaliya sifatida aniqlaydi [7].

HP (Host-based Protection/Policing) - himoya va nazorat yondashuvi asosida anomaliyalarni aniqlashga muvofiqlashtirilgan. Bunda foydalanuvchi yoki jarayonning normal profili yaratiladi. Ular fayl tizimiga kirish, jarayonlarning borio'i yoki tarmoq faoliyatidagi harakatlarni kuzatadi. Agar kuzatilgan ma'lumotlar normal profildan sezilarli darajada farq qilsa, bu anomaliya sifatida belgilanadi. Bu turdagi tizimlar ruxsatsiz kirish, zararli dasturlar yoki imtiyozlarni oshirishga urinishlarni aniqlashda foydalidir [8].

STIDE (State Transition-based Intrusion Detection) tizimda sodir bo'ladigan hodisalarning ketma-ketligini tahlil qiladi. STIDE tizimning normal faoliyati davomida dasturlarning ishlash ketma-ketligi, fayl operatsiyalari o'rganiladi va ularni holatlar grafi yoki ketma-ketligi modellashtiradi. Kuzatilayotgan hodisalar normal holat o'tishlariga mos kelmasa, u anomaliya sifatida qabul qilinadi. STIDE oldindan ma'lum bo'lmagan, yangi turdagi hujumlarni aniqlashda samarali hisoblanadi [9].

CIRD (Clustering-based Intrusion and Fraud Detection) klasterlashga asoslangan kirib kelish va firibgarlikni aniqlash tizimi hisoblanadi. U katta hajmdagi ma'lumotlar ichidagi o'xshash namunalarni guruhlash uchun mashinali o'qitish (Machine Learning)ning klasterlash usullaridan foydalanadi. CIRD ma'lumotlarni xususiyatlariga ko'ra klasterlarga ajratadi. Normal harakatlar odatda zich va katta klasterlarni tashkil etadi. Klasterlardan uzoqda joylashgan, hech qaysi klasterga aniq tegishli bo'lmagan ma'lumot nuqtalari anomaliya sifatida aniqlanadi [10].

2-jadval.

Lysis, HP, STIDE va CIRD tizimlarining solishtirma tahlili

Loyiha nomi	Asosiy yondashuv	Afzalliklari (kuchli tomonlari)	Kamchiliklari (zaif tomonlari)
Lysis	Salbiy tanlov algoritimga asoslangan	- Zero-day attacks aniqlashga qodir; - Dinamik moslashuvchanlik.	- Xatolik darajasi (False Positives); - O'rgatish vaqti; - Resurslarga yuqori talab.
HP (Host-based Protection/Policing)	Xostda profillashga asoslangan himoya tizimi	- Mayda tafsilotlarga e'tibor; - Ichki tahdidlarni aniqlash; - Aniqlik.	- Avvaldan profillash imkonsiz; - O'ta yuqori ma'muriy yuklama; - Keng qamrovli emas.
STIDE (State Transition-based Intrusion Detection)	Holat o'tishlarini tahlil qilishga asoslangan	- Zero-day attacks aniqlashga qodir; - Logik hujumlarni aniqlash; - Ma'noga ega anomaliyalar.	- Holatlarning murakkabligi; - Hisoblash yuklamasi; - Boshlang'ich o'rgatish.
CIRD (Clustering-based Intrusion and Fraud Detection)	Klasterlashga asoslangan	- Nazoratsiz o'rganish; - Yashirin namunalarni oppish. - Keng qo'llanish sohasi	- Optimal klaster soni; - Klasterlash algoritmi; - Tafsir qilish qiyinchiligi.

Xulosa. Sun'iy immun tizimlari anomaliyalarni aniqlash sohasida juda istiqbolli yondashuvlarni taklif etadi. Detektorlar to'plami va Klonal seleksiya kabi biologik ilhomlangan mexanizmlar tizimlarga noma'lum tahdidlarni aniqlash, moslashuvchanlik va o'zini-o'zi takomillashtirish imkoniyatini beradi. Lisys, HP, STIDE va CIFD kabi loyihalar bu nazariy yondashuvlarning amaliy qo'llanilishiga yorqin misol bo'lib, har biri anomaliyalarni aniqlash uchun o'ziga xos afzalliklarga ega. Kelgusida SITlarning boshqa mashinaviy o'rganish va sun'iy intellekt usullari bilan integratsiyasi anomaliyalarni aniqlash tizimlarining samaradorligini yanada oshirishi kutilmoqda. Detektorlar soni va xotira optimallashtirilsa, noto'g'ri signallar kamayadi. Aniqlik 95% gacha yetib boradi.

ADABIYOTLAR:

1. Azizjonovich, U. S., & Azizovich, U. B. (2024). Bioidentifikatsiya tizimlarini intellektuallashtirish mohiyati. *Science and innovation*, 3(Special Issue 50), 205-209.
2. Dostonbek, T., & Jamshid, M. (2023). Use of artificial intelligence opportunities for early detection of threats to information systems. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(4), 93-98.
3. Хусанова, М. К., & Абдулхамидова, Н. К. (2024). Проблемы, Связанные С Аномалиями В Сетевом Трафике. *Miasto Przyszłości*, 55, 190-194.
4. Azizjonovich U. S. Kriptobardoshli kriptografik tizimlar va ularning klassifikatsiyasi //Al-Farg'oniy avlodlari. – 2023. – T. I. – №. 4. – C. 15-21.
5. Sadirova, X. X. (2025). IDS orqali tarmoqda bo'ladigan hujumlarni aqinlash usullari va tahlili. *Miasto Przyszłości*, 56, 298-302.
6. Azizjonovich, U. S., & Abdulhay, A. (2024). Axborot xavfsizligi tizimlarini intellektuallashtirish masalalari. *Al-Farg'oniy avlodlari*, 1(1), 4-10.
7. Liu, C. M., Zhang, Y., Hu, Z., & Xie, C. (2024). Artificial Immune Detection for Network Intrusion Data Based on Quantitative Matching Method. *Computers, Materials & Continua*, 78(2).
8. Liu, X., Yang, G., Wang, L., Fu, J., & Wang, Q. (2024). A novel immune detector training method for network anomaly detection. *Applied Intelligence*, 54(2), 2009-2030.
9. Umarov S. Study of necessary conditions of perfectly stable encryption algorithms //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2024. – T. 3147. – №. 1. – C. 030007.
10. Torquato, M., Maciel, P., & Vieira, M. (2025). Evaluation of time-based virtual machine migration as moving target defense against host-based attacks. *Journal of Systems and Software*, 219, 112222.
11. Barsha, N. K., & Hubballi, N. (2024). Anomaly detection in scada systems: A state transition modeling. *IEEE Transactions on Network and Service Management*.
12. Khan, A. Q., El Jaouhari, S., Tamani, N., & Mroueh, L. (2024). Knowledge-based anomaly detection: Survey, challenges, and future directions. *Engineering Applications of Artificial Intelligence*, 136, 108996.
13. Umarov S. A. et al. The need and importance of using antiviral defense systems based on artificial immune systems //Miasto Przyszłości. – 2025. – T. 61. – C. 543-548.

IKKI KOMPONENTALI MUHITLARDA DIVERGENT KROSS-DIFFUZIYA
MASALALARINI SONLI MODELLASHTIRISH

Nizomiddinova Guli Sadriddin qizi,

Qarshi davlat universiteti, Matematika va kompyuter ilmlari fakulteti,
Amaliy matematika (sohalar bo'yicha) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikki komponentali muhitlarda kuzatiladigan divergent shakldagi kross-diffuziya jarayonlari matematik modellashtirish asosida tahlil qilingan. Bunday tizimlar komponentlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni nolinear differensial tenglamalar orqali ifodalaydi. Modellashtirish jarayonida sonli usullar, jumladan, markaziy farqlar va chegaralangan hajmlar metodikasi asosida yechimlar ishlab chiqilgan. Sxemalarning barqarorligi, yaqinlashuv darajasi va fizik qonunlarga mosligi sinovdan o'tkazilgan. Kompyuterda o'tkazilgan simulyatsiyalar orqali komponentlarning harakati, konsentratsiyaning fazoviy-taqsimlanishi hamda diffuzion oqimlar evolyutsiyasi modellashtirilgan. Tadqiqot davomida to'liqlikni strukturaviy naqshlar va chegaraviy shartlarga sezuvchanlik kabi xususiyatlar aniqlangan. Olingan natijalar real muhitdagi diffuziya jarayonlarini, xususan, ekologik, biologik va kimyoviy tizimlarni o'rganishda qo'llash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: divergent diffuziya, kross-diffuziya, sonli modellashtirish, ikki komponentali muhit, differensial tenglamalar, finite volume usuli, markaziy farqlar metodi, barqarorlik tahlili, simulyatsiya natijalari, fizikaviy modellar.

ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЗАДАЧ ДИВЕРГЕНТНОЙ КРОСС-ДИФФУЗИИ В
ДВУХКОМПОНЕНТНЫХ СРЕДАХ

Аннотация. В данной статье на основе математического моделирования анализируются дивергентные кросс-диффузионные процессы, наблюдаемые в двухкомпонентных средах. Такие системы описывают взаимосвязь компонентов посредством нелинейных дифференциальных уравнений. В процессе моделирования были разработаны решения на основе численных методов, включая метод центральных разностей и метод конечных объемов. Были проверены устойчивость схем, степень сходимости и соответствие физическим законам. Движение компонентов, пространственное распределение концентрации и эволюция диффузионных потоков моделировались с помощью компьютерного моделирования. В ходе исследования были выявлены такие особенности, как волнообразные структурные структуры и чувствительность к граничным условиям. Полученные результаты позволяют изучать диффузионные процессы в реальных средах, в частности, в экологических, биологических и химических системах.

Ключевые слова: Дивергентная диффузия, кросс-диффузия, численное моделирование, двухкомпонентная среда, дифференциальные уравнения, метод конечных объемов, метод центральных разностей, анализ устойчивости, результаты моделирования, физические модели.

NUMERICAL MODELING OF DIVERGENT CROSS-DIFFUSION PROBLEMS IN TWO-
COMPONENT MEDIA

Abstract. In this article, divergent cross-diffusion processes observed in two-component media are analyzed based on mathematical modeling. Such systems represent the interrelationship between components through nonlinear differential equations. During the modeling process, solutions were developed based on numerical methods, including the central difference and finite volume methods. The stability of the schemes, the degree of convergence, and compliance with physical laws were tested. The motion of components, the spatial distribution of concentration, and the evolution of diffusion flows were modeled through computer simulations. During the study, features such as wave-like structural patterns and sensitivity to boundary conditions were identified. The results obtained allow for the study of diffusion processes in real environments, in particular, ecological, biological, and chemical systems.

Keywords: Divergent diffusion, cross-diffusion, numerical modeling, two-component medium, differential equations, finite volume method, central difference method, stability analysis, simulation results, physical models.

Kirish. Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarda diffuziya jarayonlarining modellashtirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa, ikki yoki undan ortiq komponentali muhitlarda. Kimyo, biologiya, ekologiya, neft-gaz sanoatida ko'p komponentali tizimlarda modda almashinuvi — kross-diffuziya — jarayonlari ko'plab murakkab holatlarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, divergent shakldagi kross-diffuziya modeli an'anaviy diffuziya tenglamalaridan farq qiladi, chunki bu holatda har bir komponentning diffuziyasi faqat o'zining gradientiga emas, balki boshqa komponentlarning gradientiga ham bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ilm-fan rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, fundamental fanlarning – matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi sohalarning chuqur o'rganilishi va ularning real hayotdagi amaliy masalalarni yechishga xizmat qiladigan yo'nalishlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, biofizik, kimyoviy, biologik va seysmologik jarayonlarning chuqur mohiyatini tushunish va ularni matematik modellashtirish orqali tahlil etish, hamda ushbu jarayonlarga oid noxiziqli matematik modellarning sonli va analitik yechimlarini ishlab chiqish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda [1; 759–792-b].

Shuningdek, to'liqlar tarqalishi, suyuqliklarning filtratsiyasi, biologik populyatsiyalarning o'zgarishi va issiqlik o'tkazuvchanlik kabi murakkab fizik-biologik hodisalarni matematik vositalar orqali modellashtirish hamda bunday modellarga asoslangan yechimlar ustida sonli va analitik tadqiqotlar olib borish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu borada erishilgan ilmiy natijalar nafaqat nazariy jihatdan ahamiyatli, balki amaliyotda qo'llanilishi orqali ham dolzarbligini namoyon etmoqda.

Ayni vaqtda Respublikamizda “Matematik fizika, amaliy matematika va matematik modellashtirish” kabi fan yo'nalishlari bo'yicha xalqaro ilmiy mezonlarga mos tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning asosiy vazifasi – nazariy modellarni yaratish va ularni amaliy muhitda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, yuqori aniqlikdagi sonli algoritmlar yordamida real jarayonlarni modellashtirishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatni shakllantirishdan iborat. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilayotgan ishlar nafaqat Respublika miqyosida, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu esa O'zbekiston ilm-fan sohasining global maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Qaror qabul qilingan davlat hayotining barcha jabhalarida, xususan, fan, ta'lim, innovatsiya va axborot texnologiyalari sohasini zamon talablari asosida takomillashtirishni nazarda tutadi. Mazkur strategik hujjat, ayniqsa, ilg'or ilmiy yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga keng yo'l ochdi.

Shu bilan birga, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaror orqali Fanlar akademiyasi faoliyatini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqotlarni boshqarish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa ilmiy izlanishlarning sifatli va natijador bo'lishiga turtki berdi.

Oliy ta'lim tizimining islohotlarini belgilovchi yana bir muhim hujjat — 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaror bo'lib, unda oliy ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish borasida amaliy choralar nazarda tutilgan. Ushbu hujjatlar doirasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsad qilingan. Shuningdek, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaror orqali innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish tizimi takomillashtirilgan bo'lib, bu qaror ham tadqiqotimiz mazmuniga to'g'ridan-to'g'ri taalluqlidir.

Matematika fanining davlat siyosatidagi o'rni va ahamiyati 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorda alohida ko'rsatib o'tilgan. Unda matematika sohasida ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangani, biz olib borayotgan matematik modellashtirishga doir izlanishlar uchun muhim me'yoriy asosdir.

Bundan tashqari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorda axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini takomillashtirish, IT sohasini ilmiy tadqiqotlar bilan integratsiya qilish, zamonaviy raqamli innovatsiyalarni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Yuqorida tilga olingan barcha normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar mazkur ilmiy maqolada ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini oshiribgina qolmay, uni amalga oshirishda nazariy va amaliy jihatdan tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada divergent kross-diffuziya tenglamalarini ikki komponentali muhitda sonli modellashirish usullari ko'rib chiqiladi. Masalaning matematik modeli, yechimni aniqlashda foydalanilgan differensial sxemalar, ularning barqarorligi, shuningdek, kompyuterda tajriba natijalari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi metodologiyalar asosida olib borildi:

Matematik model: Divergent kross-diffuziya quyidagi PDE (qisqartirilgan) tizimi orqali ifodalanadi:

$$\begin{aligned}\partial u / \partial t &= \nabla \cdot (D11(u, v) \nabla u + D12(u, v) \nabla v) + f(u, v), \\ \partial v / \partial t &= \nabla \cdot (D21(u, v) \nabla u + D22(u, v) \nabla v) + g(u, v)\end{aligned}$$

bu yerda $u(x, t)$ va $v(x, t)$ — komponent konsentratsiyalari, — diffuziya koeffitsiyentlari.

Sonli usul: Masalani sonli yechishda sonli to'r qurildi. Vaqt bo'yicha Euler yoki Crank-Nicolson sxemasi, fazo bo'yicha Markaziy differensial sxemalar tanlandi.

Barqarorlik tahlili: Von Neumann usuli orqali sxemaning barqarorligi va yaqinlashuv sharti tekshirildi.

Python/Matlab dasturiy vositalarida simulyatsiya: Ilmiy hisoblashlar uchun kod yozilib, natijalar grafik va jadval shaklida chiqarildi [3; 1201–1227-b].

Shuni ham aytish joizki, gaz aralashmalaridagi har bir komponentning tarqalishi yoki diffuziyasi bir nechta omillar, xususan binar diffuziya koeffitsiyentlari orqali belgilanadi. Ushbu koeffitsiyentlar har bir ikki komponent orasidagi molekulyar o'zaro ta'sirni, ya'ni ularning bir-biriga qarshilik ko'rsatishini (drag kuchi) aks ettiradi. O'rta bosim ostidagi gaz aralashmalarida bu koeffitsiyentlar odatda aralashmaning tarkibidan mustaqil bo'ladi. Shuning uchun ular tizimdagi komponentlar o'zaro qanday harakatlanishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Bu boradagi mashhur tajribalardan biri 1962-yilda Duncan va Toor tomonidan o'tkazilgan. Ular vodorod (H_2), azot (N_2) va karbonat angidrid (CO_2) dan iborat ideal uch komponentli gaz aralashmasida komponentlarning tarqalishini o'rganganlar. Ushbu tajribada gazlar yopiq sistemada joylashtirilgan bo'lib, har bir komponent juftlikdagi boshqa gaz bilan turlicha diffuzivlikka ega ekani aniqlangan. Aniq raqamlar quyidagicha:

$$\begin{aligned}H_2-N_2 \text{ uchun: } D_{12} &= 83.3 \text{ mm}^2/\text{s} \\ H_2-CO_2 \text{ uchun: } D_{13} &= 68.0 \text{ mm}^2/\text{s} \\ N_2-CO_2 \text{ uchun: } D_{23} &= 16.8 \text{ mm}^2/\text{s}\end{aligned}$$

Ko'rinib turibdiki, karbonat angidrid va azot o'rtasidagi diffuziya eng sust kechadi, ya'ni ular orasidagi molekulyar qarshilik (friksion kuch) kuchliroq.

Tajribada azotning dastlabki konsentratsiyasi butun qurilma bo'ylab bir xil holatda saqlanadi, ammo vodorod va karbonat angidrid gazlari keskin konsentratsiya farqlari bilan joylashtirilgan. Bu katta gradientlar sababli, aynan H_2 va CO_2 tez harakatlanadi va kuchli diffuziya oqimlarini yuzaga keltiradi. E'tiborlisi shundaki, karbonat angidrid o'zining kuchli molekulyar qarshiligi sababli, deyarli harakatsiz turgan azotni o'zi bilan tortib ketadi. Bu hodisa "tepaga yo'nalgan diffuziya" deb nomlanadi — ya'ni gaz konsentratsiyasi kam bo'lgan hududdan ko'p bo'lgan hududga qarab harakat qiladi, bu esa klassik Fik qonuniga zid. Tepaga yo'nalgan diffuziya natijasida azot o'zining konsentratsiyasi doimiy bo'lishiga qaramasdan, CO_2 bilan birga oqib boradi. Vaqt o'tishi bilan bu oqimlar susayadi va tizim "diffuziya to'sig'i" deb ataluvchi holatga yetadi. Bu holatda azotning konsentratsiya gradienti va uni tortib ketayotgan CO_2 oqimi muvozanatga keladi.

Diffuziya to'sig'idan o'tgach, yana odatiy diffuziya hukmron bo'la boshlaydi: gazlar yuqori konsentratsiyali joydan past konsentratsiyali tomonga qarab harakat qiladi. Natijada, aralashma asta-sekin muvozanat holatiga yaqinlashadi.

Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, klassik Fik qonuni barcha holatlarda to'g'ri natija bermaydi, ayniqsa ko'p komponentli aralashmalarda. Chunki u har bir komponentning harakatiga ta'sir qiluvchi friksion kuchlarni hisobga olmaydi. Shu sababli, bunday sistemalarni to'g'ri modellashirish uchun komponentlar orasidagi molekulyar o'zaro ta'sirni, ya'ni bir-birini tortishish xususiyatlarini e'tiborga olish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda kross-diffuziya tizimlarini matematik modellashirishga oid izlanishlar ancha faollashgan. Xususan, ikki yoki undan ortiq komponentli muhitlardagi modda almashinuvi va ularning o'zaro ta'sirini ifodalovchi noan'anaviy differensial tenglamalar tizimlarini aniqlash va sonli jihatdan yechish muhim masalaga aylangan. Ayniqsa, divergent tuzilishdagi diffuziya modellarining aniqligi va barqarorligini ta'minlaydigan matematik yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, Jünger, Portisch va Zurek tomonidan taqdim etilgan ilmiy ishda ko'p komponentli biologik tizimlarda kuzatiladigan noan'anaviy diffuziya harakatlarini tasvirlash uchun nolokal kross-diffuziya tizimi

taklif etilgan. Ushbu modelga asoslangan finite-volume (chegaralangan hajmlar) yondashuvi yordamida ularning yechimi sonli jihatdan tahlil qilingan. Bu usulning afzalligi shundaki, u massani saqlash, yechimni cheklash va fizik realizm tamoyillarini buzmasdan, yaqinlashuv kafolatini beradi. Bu holat maqolamizda ishlab chiqilgan differensial sxemalarning asoslanishini mustahkamlaydi.

Boshqa bir qiziqarli yondashuv Cancès va uning hamkorlari tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular harakatlanuvchi interfeyslar bilan bog'langan kross-diffuziya sistemalarini ko'rib chiqishgan. Ushbu yondashuv, ayniqsa, fazoviy chegaralari vaqt bo'yicha o'zgarib boruvchi muhitlarda komponentlarning o'zaro tarqalishini aniq modellashtirishga imkon beradi. Bu yondashuv bizning ishimizda ko'zda tutilgan chegaraviy shartlar va real muhitdagi fizik chegaralarni inobatga olishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, Dabaghi va Ehrlacher tomonidan taklif etilgan strukturani saqlovchi kamaytirilgan model (structure-preserving ROM) esa parametrik kross-diffuziya tizimlarida hisoblash samaradorligi va aniqligini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ular taklif qilgan metodika an'anaviy to'liq modellar bilan solishtirganda tezroq va resurs tejankor hisoblash imkonini beradi. Bu yondashuv maqolamizda ilgari surilgan differensial tenglamalarning amaliy ilovalarda real vaqtda modellashtirilishi uchun foydali asos bo'la oladi.

Yana bir dolzarb manba —Acta Applicandae Mathematicae jurnalidagi maqola bo'lib, unda eko-gidrologik muhitlarda kross-diffuziya jarayonlarining matematik asoslari va ularni numerik tahlil qilish usullari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqot biologik va gidrologik tizimlar modellarining murakkab tuzilmalarini ifodalash imkonini beruvchi yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Bu esa maqolamiz mavzusiga yaqin bo'lgan biologik populyatsiyalar, modda oqimi va ekologik tenglik bilan bog'liq tizimlarga ham tatbiq qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu tahlil qilingan adabiyotlar divergent kross-diffuziya modellarining matematik shakllanishi, yechim topish algoritmlari, fizik interpretatsiyasi va kompyuter orqali realizatsiyasi borasida maqolamizga mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi. Bu yondashuvlar maqolada taqdim etilgan modellashtirish sxemalarining dolzarbligini yanada kuchaytiradi va ularni xalqaro metodologiyalar bilan uyg'unlashtiradi.

Muhokama va natijalar. Sonli simulyatsiya orqali quyidagi asosiy kuzatishlar aniqlandi:

Komponentlar o'zaro ta'siri natijasida diffuziya yo'nalishlari o'zgaradi, bu esa an'anaviy diffuziya modellarida ko'rinmaydigan murakkab strukturaviy naqshlarni hosil qiladi.

Dastlabki va chegara shartlariga juda sezuvchan bo'lib, ba'zi hollarda noaniq to'liq shakllari paydo bo'ladi.

Sonli sxema barqarorligi uchun Courant–Friedrichs–Lewy (CFL) sharti bajarilishi lozim:

$$\Delta t \leq h^2 / (2 \cdot \max(D_{ij}))$$

Ya'ni ikki komponentali muhitlardagi divergent shakldagi kross-diffuziya jarayonlarini matematik modellashtirish orqali ularning murakkab xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. O'rganilgan model komponentlar orasida yuzaga keluvchi o'zaro ta'sirlar va ularning fazodagi tarqalish dinamikasini ifodalovchi differensial tenglamalar tizimiga asoslangan. An'anaviy diffuziya modellaridan farqli o'laroq, bu yondashuv kross-diffuziya effekti sababli yuzaga keladigan nooddiy naqshlar va beqaror strukturaviy holatlarni ham qamrab oldi [9; 679–696-b].

Sonli hisoblashlar uchun tanlangan metodik yondashuvlar – xususan, markaziy farqlar va finite volume sxemalari – modelning yechimlarini aniq va barqaror olishda muhim rol o'ynadi. Ushbu usullarning tahlili natijasida sxemalarning barqarorligi Courant–Friedrichs–Lewy (CFL) sharti asosida sinovdan o'tkazildi va talab etilgan parametrlar oraliqlarida matematik jihatdan barqaror va fizikaviy moslikka ega bo'lishi isbotlandi.

Simulyatsiya natijalariga ko'ra, komponentlar orasida kross-ta'sir kuchaygan sari ularning konsentratsiya maydonida beqarorliklar, o'zgaruvchan strukturalar va fazoviy ajralishlar kuzatildi. Bu esa real tizimlarda, ayniqsa, biologik populyatsiyalar yoki kimyoviy reaksiyalarda kuzatiladigan holatlarga o'xshash model xatti-harakatlarini tasdiqlaydi. Grafik ko'rinishdagi natijalar komponentlarning vaqt davomida qanday tarqalishini, konsentratsiya gradientlari qanday shakllanishini va ular qanday to'liqlik naqshlar hosil qilishini aniq tasvirlab berdi. Tadqiqot davomida shuningdek, dastlabki va chegara shartlarning o'zgartirilishi modellashtirilayotgan tizim xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirildi. Masalan, chegara shartlar asimmetrik berilganda komponentlar fazoda turlicha harakatlanib, tizimda o'ziga xos yo'nalishli oqimlar yuzaga keldi. Bu esa bunday modelda parametrlar tanlovi va fizik shartlarni to'g'ri belgilash zarurligini yana bir bor ko'rsatdi.

Umumlashtirilganda, divergent shakldagi kross-diffuziya modellarini sonli usullar asosida tahlil qilish komponentlar o'zaro ta'sirining murakkab tabiati haqida chuqurroq tasavvur hosil qilishga yordam berdi. Ushbu model va usullar ekologik muhitlar, reaksiya-diffuziya tizimlari va boshqa ko'p komponentali fizik

jarayonlarda keng qo'llanishi mumkin. Tadqiqot natijalari bu modellarni real amaliyotda qo'llash uchun puxta nazariy asos va sonli algoritmik yechimlar berishini ko'rsatdi [10; 1108–1117-b].

Xulosa. Ikki komponentali muhitlarda divergent shakldagi kross-diffuziya jarayonlarini modellashtirish masalasi ko'plab real hayotiy hodisalarni tushunishda kalit bo'la oladi. Tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

Divergent kross-diffuziya tizimlari oddiy diffuziya modellariga qaraganda ko'proq nolinear xatti-harakatlarga ega. Sonli metodlar yordamida bunday modellarni barqaror va aniq modellashtirish mumkin, lekin parametrlarning mos tanlanishi katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, ikki komponentali muhitlarda sodir bo'ladigan divergent kross-diffuziya jarayonlarini modellashtirish nafaqat nazariy matematik qiziqish, balki amaliy muammolarning samarali yechimidir. Ushbu modellar yordamida komponentlar orasidagi murakkab o'zaro ta'sirlar, ularning fazoviy va vaqtinchalik tarqalish xususiyatlari aniq va chuqur tahlil etildi. Kross-diffuziya effektining mavjudligi komponentlar harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa bir komponentning tarqalishi boshqa komponentning konsentratsiya gradientiga bog'liqligini isbotlaydi.

Tadqiqotda qo'llangan sonli metodlar — markaziy farqlar va chegaralangan hajmlar yondashuvi — modelning matematik barqarorligi, hisoblash aniqligi va fizik haqiqiylikni ta'minladi. Hisoblash natijalari orqali komponentlar o'rtasidagi kuchli kross-ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan murakkab naqshlar, zonaviy taqsimotlar va konsentratsiya to'liqlari ochib berildi. Bu kabi holatlar real hayotdagi ko'plab tizimlarda, masalan, biologik to'qimalar, ekologik muhitlar, kimyoviy reaksiyalar yoki hatto iqtisodiy model tizimlarida uchrashi mumkin. Dastlabki va chegara shartlarning tizim xatti-harakatiga ta'siri alohida o'rganildi. Bu shartlarning ozgina o'zgarishi ham umumiy modellashtirish natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi isbotlandi. Shu jihatdan, parametrlarni to'g'ri tanlash va ular ustida sezuvchanlik tahlilini olib borish modellashtirishning muhim bosqichidir.

Tadqiqotning natijalari va yondashuvlari kelgusida ko'p komponentali, nolinear va stoxastik tizimlarni chuqur o'rganish uchun tayanch vazifasini bajaradi. Bu esa nafaqat fundamental ilm-fan rivojiga, balki real muammolarni hal qilishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu model ekologiya, biotexnologiya va boshqa sohalarida qo'llanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modellarni ko'p o'lchovli holatga umumlashtirish, shuningdek, noaniqlik ostida modellashtirish (stoxastik diffuziya) yo'nalishlarida ishlash rejalashtirilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Jünger A., Portisch S., Zurek A. *A convergent finite-volume scheme for nonlocal cross-diffusion systems for multi-species populations* // *ESAIM: Mathematical Modelling and Numerical Analysis*, Vol. 58, No. 2, 2024. – B. 759–792. DOI: 10.1051/m2an/2024016
2. Cancès C., Cauvin-Vila J., Chainais-Hillairet C., Ehrlacher V. *Cross-diffusion systems coupled via a moving interface* // *arXiv*, submitted July 22, 2024. – 25 b. arXiv:2407.15457
3. Dabaghi J., Ehrlacher V. *Structure-preserving reduced order model for parametric cross-diffusion systems* // *ESAIM: M2AN*, Vol. 58, No. 3, 2024. – B. 1201–1227. DOI: 10.1051/m2an/2024026
4. Röhrig-Zöllner M., Zurek A. *On a Cross-Diffusion Model in Ecohydrology: Theory and Numerics* // *Acta Applicandae Mathematicae*, 2025. – 21 b. DOI: 10.1007/s10440-025-00708-y
5. Murillo J., García-Navarro P. *Robust and accurate modeling of two-component systems using advanced finite volume techniques* // *Journal of Computational Physics*, Vol. 442, 2021. – B. 110481. DOI: 10.1016/j.jcp.2021.110481
6. Liu Y., Sun H. *Stability and convergence of numerical schemes for strongly coupled cross-diffusion systems* // *Applied Mathematics and Computation*, Vol. 393, 2021. – B. 125734. DOI: 10.1016/j.amc.2020.125734
7. Wu M., Xie B. *Numerical analysis of nonlinear cross-diffusion models using splitting techniques* // *Mathematics and Computers in Simulation*, Vol. 197, 2022. – B. 489–504. DOI: 10.1016/j.matcom.2022.01.004
8. Chen L., Jünger A. *Analysis of cross-diffusion systems with entropy structure* // *Nonlinear Analysis: Real World Applications*, Vol. 62, 2021. – B. 103384. DOI: 10.1016/j.nonrwa.2021.103384
9. Zhang Y., Li X. *Coupled reaction–cross-diffusion modeling in multiphase flow problems* // *Computational Geosciences*, Vol. 25, No. 3, 2021. – B. 679–696. DOI: 10.1007/s10596-020-10016-w
10. Ivanova N., Kuznetsov D. *Parallel computation of multicomponent diffusion problems using finite element methods* // *Procedia Computer Science*, Vol. 207, 2022. – B. 1108–1117. DOI: 10.1016/j.procs.2022.09.184

ТИПОЛОГИЯ И ОСНОВНЫЕ СОСТАВЛЯЮЩИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОРПУСОВ

Нигматова Лолахон Хамидовна,

DSc, профессор кафедры русского языка и литературы

Бухарский государственный университет

nigmatovalolaxon@gmail.com

Аннотация. В статье представлено всестороннее рассмотрение современных лингвистических корпусов, их разновидностей и ключевых компонентов. Описаны исторические предпосылки появления корпусной лингвистики как самостоятельного направления, а также ее связь с прикладной и вычислительной лингвистикой. Предлагается классификация корпусов по различным критериям (формат данных, языковая охватность, функциональное назначение, временной аспект, разметка и др.), основанная на работах авторитетных исследователей. Особое внимание уделяется составляющим корпуса, таким как репрезентативность, сбалансированность, метаданные и лингвистическая разметка, которые обеспечивают научную ценность и достоверность результатов при анализе корпуса.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, лингвистический корпус, типология корпусов, репрезентативность, сбалансированность, аннотация (разметка), метаданные, корпусные технологии, прикладная лингвистика.

TILSHUNOSLIK KORPUSLARINING TIPOLOGIYASI VA ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy lingvistik korpuslar, ularning turlari va asosiy tarkibiy qismlari atroflicha tahlil qilingan. Korpus tilshunosligining mustaqil yo'nalish sifatida paydo bo'lishining tarixiy shart-sharoitlari, shuningdek, uning amaliy va hisoblash tilshunosligi bilan aloqasi yoritib berilgan. Nufuzli tadqiqotchilarning ishlariga asosanib, korpuslarni turli mezonlar (ma'lumotlar formati, qamrab olingan tillar, funksional maqsadi, vaqt jihati, belgilash va boshqalar) bo'yicha tasniflash taklif etiladi. Korpusning reprezentativlik, muvozanatlilik, metama'lumotlar va lingvistik belgilash kabi tarkibiy qismlariga alohida e'tibor qaratilgan, chunki ular korpus tahlilida natijalarning ilmiy qiymati va ishonchliligini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: korpus tilshunosligi, lingvistik korpus, korpuslar tipologiyasi, reprezentativlik, muvozanatlilik, izohlash (belgilash), metama'lumotlar, korpus texnologiyalari, amaliy tilshunoslik.

TYPOLOGY AND MAIN COMPONENTS OF LINGUISTIC CORPORA

Abstract. The article presents a comprehensive examination of modern linguistic corpora, their varieties, and key components. It describes the historical prerequisites for the emergence of corpus linguistics as an independent field, as well as its connection with applied and computational linguistics. A classification of corpora based on various criteria (data format, language coverage, functional purpose, temporal aspect, annotation, etc.) is proposed, drawing on the works of authoritative researchers. Special attention is paid to corpus components such as representativeness, balance, metadata, and linguistic annotation, which ensure the scientific value and reliability of results in corpus analysis.

Keywords: corpus linguistics, linguistic corpus, corpus typology, representativeness, balance, annotation (markup), metadata, corpus technologies, applied linguistics.

Введение. «В последние десятилетия корпусная лингвистика сформировалась как динамично развивающаяся область прикладного языкознания, фокусирующаяся на изучении языковых закономерностей на основе больших массивов текстов» [1:198]. Несмотря на относительную молодость данной дисциплины, корпусный подход уже доказал свою эффективность в самых разных сферах: от теоретических исследований до практического обучения языкам. Ещё в 1990-е годы шло активное осмысление того, является ли корпусная лингвистика самостоятельной отраслью или частью вычислительной лингвистики. Как отмечает Т.В.Толстова, «термин «корпусная лингвистика» часто упоминается наряду с понятиями «прикладная лингвистика», «компьютерная (вычислительная) лингвистика», «инженерная лингвистика» и др.» [2:65], что подчёркивает междисциплинарный характер нового направления. Толстова акцентирует практическую ориентированность корпусной

лингвистики на решение конкретных задач, например, в преподавании делового английского языка, что сближает её с прикладным языкознанием. Аналогично А.С.Сырчина видит главную задачу корпусной лингвистики в «разработке общих принципов создания и структурирования корпусов текстов для их практического использования» [3:722].

Возникновение корпусной лингвистики связано с глобальной информатизацией: О.В.Нагель и А.В.Гуслякова отмечают, что «понятие «информационное общество», появившееся в 1960-х гг. в Японии и популяризированное у нас лекциями С.Гринбаума, подготовило почву для корпусных методов» [4:12]. К концу XX в. стало очевидно, что традиционные интуитивные подходы и работа с единичными примерами ограничены. Корпусная лингвистика предложила эмпирическое обследование больших массивов реальных текстов. Как подчеркивал Дж.Синклер, «корпус - это искусственно собранная исследователем совокупность зафиксированных речевых произведений множества людей, позволяющая объективно выявлять типичные языковые закономерности» [5: 61].

Методы и источники исследования. Исследование основано на систематическом анализе русско-, англо- и узбекоязычных работ по корпусной и компьютерной лингвистике, использованы сравнительно-типологический, индуктивный и описательно-аналитический методы, а динамика роста корпусов представлена графически. Теоретическую базу формируют труды В.П.Захарова, Н.В.Козловой, Г.Кеннеди, М.Солнышкиной, К.В.Копотева, Д.В.Сичинавы и др., эмпирическую - проекты Brown Corpus, LOB, Британский национальный корпус, Google Books Ngram. Источники включают учебники (Захаров; Kennedy).

Результаты исследования. Корпус - «собрание текстов одного или нескольких языков, связанных между собой определёнными параметрами» [6:82]. «Он хранится только в электронном виде, отбирается по правилам репрезентативности, снабжается унифицированной аннотацией и управляется программным менеджером» [7:73]. Его структура включает текстовый массив, метаданные, разметку и инструменты анализа.

Классификации опираются на ряд пересекающихся критериев В.П.Захарова, К.В.Копотева, Д.В.Сичинавы. По типу данных различают письменные и устные корпуса. Смешанный BNC содержит ≈ 90% письменных и 10% устных текстов. По языковой базе: монолингвальные (Национальный корпус русского языка), многоязычные и параллельные, такие как Parallel English-Russian Corpus. По жанру: референсные, специализированные (корпус юридических текстов), обучающий корпус, диахронические. По размеру: от 1 млн слов (Brown Corpus, LOB) через мега-корпусы второго поколения в 100 млн (BNC, Bank of English) к гига-корпусам третьего поколения в миллиарды слов (iWeb ≈ 14 млрд; NOW > 16 млрд). По доступности: открытые (Sketch Engine версии РНК), частично открытые (BNC), закрытые коммерческие. По аннотации: неразмеченные и размеченные; стандарты TEI обеспечивают единообразный XML-код.



Рис. 1. Рост объёма корпусов (в миллионах слов, логарифмическая шкала)

Динамика объёма демонстрирует экспоненциальный рост: от Brown Corpus (1961, 1 млн) к BNC (1994, 100 млн) и далее к iWeb/NOW, что, по Г.Кеннеди, отметило «переход ко второму поколению исследований» [8:112], а М.И.Солнышкина и Г.М.Гатиятуллина выделяют «нынешнее «третье»

поколение гига-корпусов» [9:136]. При этом специализированные средние по объёму проекты остаются востребованными, если обеспечивают высокое качество разметки и сбалансированность.

Обсуждение. Корпусная лингвистика переворачивает традиционный порядок «от теории к фактам». По В.В.Рыкову «она изучает язык не как систему, а в реальных реализациях; количественные методы подтверждают интуиции, а большие данные раскрывают скрытые коллокации» [7:27] - то, что, по словам Дж.Синклера, «ускользает» от отдельного читателя.

Репрезентативность и баланс критичны: корпус - уменьшённая копия языка. Потому Brown Corpus (1 млн слов) быстро уступил место BNC (100 млн) и гига-корпусам вроде NOW. Жанры распределяют пропорционально, а для анализа молодёжного сленга предпочтительнее специальный корпус твитов, нежели НКРЯ.

Ключевое отличие корпуса от простой коллекции - ТЕI-ориентированные метаданные и лингвистическая разметка (морфологическая, синтаксическая, семантическая и др.), позволяющие, мгновенно извлекать «говором» как сущ. тв.п. и тем самым обеспечивать воспроизводимость исследований.

Следует подчеркнуть, что разработчики придерживаются общих принципов маркировки, стремясь к совместимости меток разных корпусов. Первые инициативы стандартизации восходят к проекту ТЕI (с 1987 г.), объединившему специалистов по электронному представлению текстов. Благодаря этому сегодня корпусные форматы достаточно унифицированы. Широко используются стандартные теги <doc>, <head>, <p> для структуры, единая кодировка символов (Unicode), универсальные наборы частеречных тегов (UPOS для разных языков). Это позволяет использовать единые инструменты для разных корпусов. Впрочем, идеального единства нет, каждая команда создаёт разметку исходя из целей, но ведётся работа по согласованию стандартов (инициатива Universal Dependencies для синтаксиса и др.).

«На рубеже XX–XXI вв. наблюдается настоящий «корпусный бум» в лингвистике: во многих странах созданы национальные корпуса (британский, американский, российский, чешский, украинский и др.), специализированные корпуса профессиональных дискурсов, параллельные корпуса для переводов» [10:39]. В цифровую эпоху возникла идея использовать в качестве корпуса сам Интернет («web as corpus»). С одной стороны, сеть действительно предоставляет колоссальный объём текстов по запросу; с другой - как отмечают исследователи, нерегулируемое веб-пространство не обеспечивает воспроизводимости и точности лингвистических запросов. Поэтому сегодня подход трансформируется в концепцию «корпус как сеть», когда интернет-данные привлекаются, но проходят фильтрацию и структурирование, становясь частью корпуса. Разработаны инструменты вроде BootCaT - программного комплекса для автоматического сбора текстов из веб-поиска по заданным ключевым словам. Так можно быстро создать специализированный мини-корпус текстов по определённой тематике. Существуют и онлайн-конкордансеры, напрямую работающие с интернетом (WebCorp, Google Books Ngram Viewer и др.), позволяющие получать частотные данные из всего индекса сети. Однако из-за шумности веб-материалов (наличие опечаток, дублирования, нерабочих ссылок) такие методы требуют осторожности. Тем не менее, интеграция веб-технологий с корпусными постепенно углубляется.

Другой важный тренд, гуманизация интерфейса корпусных ресурсов. Если раньше корпуса были инструментом узких специалистов и имели аскетичные интерфейсы, то теперь разрабатываются удобные веб-платформы с визуализацией данных. Платформа Sketch Engine предлагает пользователям гибкие настройки отображения результатов: разные цвета для частей речи, опции форматирования вывода, экспорт графиков и таблиц частот. Такие функции делают работу с корпусом интуитивно понятной и привлекательной для широкой аудитории. Более того, корпуса выходят на мобильные устройства, отмечены успешные примеры мобильных приложений, основанных на корпусных данных, для изучения языков («Learn English Grammar» от Британского Совета и др.). По наблюдениям К.Джонса и Д.Валлера, «использование корпусов в формате MALU (Mobile-Assisted Language Use) открывает новые возможности самостоятельного обучения, позволяя учащимся прямо со смартфона обращаться к языковым примерам и статистике из корпусов» [11:41]. Всё это свидетельствует о том, что корпуса становятся всё более ориентированными на человека в плане удобства и пользы.

Наконец, отметим развитие корпусной лингвистики в Узбекистане. Если мировые языки давно обзавелись национальными корпусами, то Национальный корпус узбекского языка пока находится в стадии становления. Тем не менее, ведутся активные работы: создан опытный авторский корпус узбекской литературы, разрабатываются программы автоматического морфологического анализа узбекских текстов. В 2020 году запущен проект по конструированию узбекского национального корпуса (сайт uzbekcorpora.uz), где уже реализованы алгоритмы токенизации, лемматизации и части

речи. Ожидается, что полноценный узбекский корпус станет важным ресурсом для лингвистов и облегчит создание словарей и учебных материалов на национальном языке.

Закключение. Корпусная лингвистика стала признанным инструментом современных исследований. Компьютеры позволили перейти от единичных примеров к анализу больших электронных корпусов, отражающих реальное речевое использование. Разнообразие корпусов удовлетворяет как академические, так и прикладные нужды, от грамматики до машинного перевода. Ключевые компоненты - сбалансированные тексты, метаданные и лингвистическая разметка - обеспечивают репрезентативность и точность анализа. Корпусные методы дополняют традиционные, повышая объективность выводов и открывая новые языковые явления. С ростом объёмов данных и упрощением доступа корпусный подход будет распространяться ещё шире, укрепляя эмпирическую и количественную основу языкознания.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Чилингарян К. П. *Корпусная лингвистика: теория vs методология* //Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2021. – Т. 12. – №. 1. – С. 196-218.
2. Толстова Т. В. *Корпусная лингвистика в обучении английскому языку делового общения* //Вопросы прикладной лингвистики: сборник научных трудов.–М.: Российский университет дружбы народов. – 2009. – С. 63-67.
3. Сырчина А. С. *Возможности использования методов корпусной лингвистики при переводе* //Экономика и социум. – 2016. – №. 4-2 (23). – С. 720-724.
4. Гусякова А. *Информационные технологии и лингвистика XXI века.* – Litres, 2017.
5. Sinclair J. *Corpus, concordance, collocation* //(No Title). – 1991.
6. Козлова Н. В. *Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология* //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2013. – Т. 11. – №. 1. – С. 79-89.
7. Рыков В. В. *Корпус текстов как новый тип словесного единства* //Труды Международного семинара Диалог-2003.–М.: Наука. – 2003.
8. Kennedy G. *An introduction to corpus linguistics.* – Routledge, 2014.
9. Солнышкина М. И., Гатиятуллина Г. М. *История развития корпусной лингвистики (на примере англоязычных корпусов)* //Вестник Томского государственного университета. Филология. – 2020. – №. 63. – С. 132-160.
10. Solnyshkina M. I., Gatiyatullina G. M. *The history of corpus linguistics (on the example of the english language corpora)* //SCOPUS19986645-2020-63-SID85087067769. – 2020.
11. Jones C., Waller D. *Corpus linguistics for grammar: A guide for research.* – Routledge, 2015.

SHODMON SULAYMON SHE‘RIYATIDAGI AYRIM TURG‘UN VA ERKIN
O‘XSHATISHLAR TADQIQI

Mavlonov Shavkat Shuhratovich,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası

mustaqil tadqiqotchisi,

Asadov To‘lqin Hamroyevich,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada buxorolik iste‘dodli shoir Shodmon Sulaymon ijodidagi bir qancha turg‘un hamda erkin o‘xshatishlar tahlilga tortilgan. Dastlab o‘xshatish hodisasining jahon hamda o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi haqida qarashlar bayon etilgan. So‘ngra o‘xsahtish hodisasining turlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, Shodmon Sulaymon she‘riyatidagi o‘xshatishlar va ularning yigirmaga yaqin mavzuiy guruhlar tuzib chiqilgan, har bir guruh yetarli misollar bilan dalillangan, asosli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, badiiy tasvir vositasi, tashbeh, turg‘un o‘xshatish, erkin o‘xshatish, o‘xshatish subyekti, o‘xshatish asosi, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish vositasi.

A STUDY OF SOME STATISTICAL AND FREE SIMILITIES IN THE POETRY OF
SHADMON SULAIMON

Abstract. This article analyzes a number of stable and free similes in the work of the talented Bukhara poet Shodmon Sulaymon. First, views on the study of the phenomenon of simile in world and Uzbek linguistics are presented. Then, the types of the phenomenon of simile and its specific features are theoretically revealed. Also, similes in the poetry of Shodmon Sulaymon and their about twenty thematic groups are compiled, each group is substantiated with sufficient examples, and reasonable conclusions are drawn.

Keywords: simile, means of artistic depiction, allegory, stable simile, free simile, subject of simile, basis of simile, standard of simile, means of simile.

ИССЛЕДОВАНИЕ НЕКОТОРЫХ СТАТИСТИЧЕСКИХ И СВОБОДНЫХ ПОДОБИЙ В
ПОЭЗИИ ШАДМОНА СУЛАЙМОНА

Аннотация. В данной статье анализируется ряд устойчивых и свободных сравнений в творчестве талантливого бухарского поэта Шодмона Сулаймона. Вначале излагаются взгляды на изучение феномена сравнения в мировой и узбекской лингвистике. Затем теоретически раскрываются виды феномена сравнения и его особенности. Также выделяются сравнения в поэзии Шодмона Сулаймона и их около двадцати тематических групп, каждая из которых обосновывается достаточным количеством примеров, и делаются обоснованные выводы.

Ключевые слова: сравнение, средства художественного изображения, аллегория, устойчивое сравнение, свободное сравнение, субъект сравнения, основа сравнения, эталон сравнения, средства сравнения.

Kirish. Tilshunoslikda o‘xshatish hodisasi, uning nazariy jihatlari, lingvistik tabiati bir qator olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Mazkur hodisa jahon tilshunosligida V.Vinogradov, D.Ashurova, V.Obrazsova, S.Nevelova, E.Nekrasova [1;11;12;13;15], o‘zbek tilshunosligida esa Atoullloh Husayniy, A.Fitrat, R.Qo‘ng‘urov, A.Hojiahmedov, M.Mukarramov, Y.Is‘hoqov, N.Mahmudov, M.Yoqubbekova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan [2;3;4;5;7;8;10;14;16]. O‘xsahtish va u bilan bog‘liq ilmiy-amaliy tadqiqotlar bugungi kunda ham faol davom etmoqda. O‘zbek leksikografiyasida o‘xsahtishlar izohli lug‘atining yaratilgani ham mazkur hodisa bilan bog‘liq ishlarning tadrijiy rivojini ko‘rsatuvchi muhim dalil bo‘la oladi [6].

Ikki va undan ortiq narsa yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida foydalanilgan o‘xshatish inson faoliyati, turmushining barcha jabhalarida kuzatiladi, aslida. Bu tarzda

mantiqiy kategoriya tilda ham o'z aksini topadiki, buni tadqiq etish ko'pgina fanlar qatori filologiya fani oldidagi vazifalardan biri sanaladi.

Asosiy qism. O'xshatish hodisasi o'zbek tilida quyidagi yo'llar orqali yuzaga kelishi manbalarda keng izohlanadi: a) o'xshatish vositalarisiz hosil bo'lish; b) morfologik (grammatik) usul bilan hosil bo'lish; d) leksik usul bilan hosil bo'lish; e) sintaktik usul bilan hosil bo'lish. Biz bu o'rinda Shodmon Sulaymon she'riyati misolida o'xshatishning morfologik (grammatik) hamda leksik usul bilan hosil bo'lishiga to'xtalamiz. Agglyutinativ tabiatli o'zbek tilida qo'shimcha shakllar orqali yuzaga kelgan o'xshatishlar sifat va miqdor jihatdan o'ziga xos tabiatga ega. Bunda *-day*, *-dek*, *-dayin*, *-simon*, *-namo*, *-larcha*, *-ona* kabi o'xshatish, qiyoslashni yuzaga keltiruvchi shakllar borki, manbalarda ular "sifatlovchi affiksalar" tarzida baholanadi. Bularning *kabi*, *singari* va boshqa o'xshatish mazmunidagi leksik vositalar bilan sinonimlikka kirisha olishi ham ularni o'xshatishning morfologik vositalari deb xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi.

O'xshatishlarni hosil qiluvchi leksik vositalarga *kabi*, *singari*, *misli*, *misoli*, *bamisoli*, *yanglig'*, *sifat*, *shakl* kabi ko'makchilar (sof yoki vazifadosh ko'makchilar); *go'yo*, *go'yoki* bog'lovchilari; *xuddi*, *naq* yuklamalari; o'xshamoq fe'li, *shakl* oti, *teng* sifati ishtirok etadi. Umuman, o'xshatish leksik vositalarining erkin o'xshatish etaloniga munosabati jihatidan ikkiga bo'lib o'rganish mumkin: a) o'xshatish vositasidagi yordamchi leksemalar; b) o'xshatish vositasidagi mustaqil leksemalar. Ayrim o'xshatish vositalari bugungi kunda eskirgan, masalan, *baqyni* so'zi bunga misol bo'la oladi.

O'xshatish tasviriy vosita sifatida ham tilshunoslikda, ham adabiyotshunoslikda keng o'rganilgan bo'lib, mazkur hodisa badiiy va so'zlashuv nutqida bayon qilinayotgan narsa-hodisa haqida tinglovchiga yanada kengroq ma'lumot berish, predmet-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat ostidagi ma'no va tushunchaning kengroq ko'lamdagi obrazini chizishga xizmat qila olishi bilan xarakterlanadi. Badiiy asarda tashbeh (ya'ni *arabcha* – o'xshatish) uning matndagi mas'uliyati yanada yuqoriroq bo'ladi, bunda o'xshatishlar obraz yaratishga xizmat qiladi. Nutqning ta'sirchanligi, ifodaviyligi, obrazlilikini oshirib, shoir va yozuvchilarning iste'dodi o'z asarlarida o'xshatishlardan sifat va miqdor jihatdan o'rinli foydalanganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

Yana bir holat borki, bu o'xshatishlarning ifodaviyligi bilan uyg'un. Obraz yaratish, ifodaviylikka erishish nuqtayi nazaridan an'anaviy, turg'un o'xshatishlar doim ham yuqori mavqega ega bo'lavermaydi, ya'ni yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o'xshatishlar borki, ular allaqachon ham emotsionallik, ham baholash qimmatini bir qadar yo'qotgan [14,42]. Bu kabi turg'un, barqaror, an'anaviy o'xshatishlar lisoniy hodisa sifatida lug'atlar qamrovida bo'lib, ideomalashgan birliklar safidan o'rin olgan. Ularning ta'sirchanlik imkoniyati erkin o'xshatishlarga nisbatan susaygan bo'ladi.

Erkin o'xshatishlar bevosita muallif nutqi neologizmlari (individual-uslubiy neologizmlari) ning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bilamizki, badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida tadqiqotchi oldida ijodkor qalamiga mansub individual jihatlar, ijodkor individual uslubiga xos bo'lgan struktural o'zgarishlar, ijodkorning individual nutq uslubini ochib berish vazifasi ham ko'ndalang turadi. Badiiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiy qimmatini belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir. Agar asar uslubida individuallik sezilmasa, badiiy asar trafaret, badiiy sayoz asar sifatida tasavvur qilinadi [17,33]. Shu jihatdan qarasak, o'xshatishlarning bir turi sanaladigan muallif o'xshatishlari – erkin o'xshatishlar badiiy asar uchun yuqori mavqe egallaydi. Ular ijodkorning nafaqat shoir va yozuvchi sifatidagi iste'dodini, til bilimlaridan foydalanib asar yaratishdagi mahoratini, balki keng dunyoqarashi, mushohadasini ham ko'rsatib turuvchi omil sanaladi. Aslida, ijodkor uchun til yaratishdan murakkab yumush yo'q. Vaholanki, muallif nutqi neologizmlari sanaladigan yangi-yangi nutqiy yasama so'zlar, iboralar, tasviriy ifodalar, ko'chimlar, troplar, o'xshatishlar o'zining ohorlilik, betakrorligi bilan badiiy asar tili uchun qudratli kuch sanaladi.

Buxoro zaminidan ko'plab iste'dodli shoir va yozuvchilar yetishib chiqqanligini keng izohlashga hojat yo'q. Shunday ijodkorlardan biri Shodmon Sulaymonov bo'lib, u yaratgan badiiy asar namunalari keng kitobxonlarga ma'lum va mashhurdir. Shoir Shodmon Sulaymon adabiyotshunos olim bo'lishi bilan birga, tom ma'noda tilshunos hamda tilsevar ijodkor ham. Uning ijodidan bahramand bo'lgan har bir kitobxon bunga amin bo'lgan hamda bu haqiqatni e'tirof etgan. Biz bu o'rinda shoir qo'llagan o'xshatishlardan ayrimlarini tahlilga tortishni maqsad qildik.

Shodmon Sulaymon she'riyatida ham turg'un, ham erkin (novator) o'xshatishlardan o'rinli foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Ayrim misollarni kuzatamiz: 1. *Sen shoirni tushun, nogahon/ Kulfat uni etganda ta'qib/ Zir yugurib izlasa imkon/ Tish qayrama misoli* raqib. ("Muhammad Yusuf") 2. *Kuzgi yaproq misol titrab turibman/ Jonim, o'zing meni hayotga qaytar.* ("Kuz xayoli") 3. *Sen bahorsan, tillari biyron/ Beg'uborsan, ko'kday bepoyon/ Kexsa tutga suyangan rayhon...* ("Sen va men") 4. *She'riyat misoli* kapalak – *Puflasang, singaydir qanoti.* ("She'riyat") 5. *Sen otamning ko'ksidagi mangu og'riq/ O'g'lim tutgan bayroq kabi* azizdarsan/ *Mangu orzu, mangu matlab, mangu armon/ Yodginangdan aylanayin, Buxorojon.* ("Aylanayin, Buxorojon") 6. *Sen pokiza qaldirg'ochimsan/ Onam taqqan ko'zmunchog'imsan/ Ishqdek* toza

ovunchog'imsan... ("Sen va men") Ko'rinadiki, shoir turg'un, ya'ni an'anaviy o'xshatishlardan o'rinli foydalanish bilan birga, ijodkor sifatida o'zi ham yangi-yangi o'xshatishlar yaratgan. Mazkur 1-,2-,3-misollardagi o'xshatishlar barqaror o'xshatishlar sanalsa, 4-,5-, 6- misolarda esa muallif yaratgan yangicha o'xshatishlarga guvoh bo'lamiz. She'riyatning *kapalakka*, ona zamin – Buxoroning *bayroqqa*, seviklining *ishqqa* qiyosi o'ziga xos yangicha, navator o'xshatish sanaladi. Mazkur qiyoslarning o'xshatishlar lug'atida [6] mavjud emasligi ham ularning nutqiy hosila ekanligidan dalolat beradi. Masalan, 4-,5-parchalarni kuzatadigan bo'lsak, undagi o'xshatish konstruksiyasi quyidagicha: o'xshatish subyekti – *she'riyat*, o'xshatish asosi – *nafislik*, *noziklik*, o'xshatish etaloni – *kapalak*, o'xshatish vositasi – *misoli* ko'makchisi; 5-misolda: o'xshatish subyekti – *Buxoro*, o'xshatish asosi – *azizlik*, *muqaddaslik*, o'xshatish etaloni – *bayroq*, o'xshatish vositasi – *kabi* ko'makchisi. Bir dalil ahamiyatli, 4-misolda qo'llangan o'xshatish konstruksida o'xshatish asosi implitsit, 5-misolda esa eksplitsit (*aziz* so'zi) tarzda ifoda etilgan. Bu holatni shoirning badiiy niyati sifatida baholash mumkin, nazarimizda.

Erkin o'xshatishlar ijodkorlar tomonidan favqulodda yaratilgan nutqiy hosilalar hisoblanib, okkazional xarakterda bo'ladi. Ular vaqt o'tishi bilan umumiste'moldagi o'xshatishlarga aylanishi, lug'atlardan o'rin egallashi mumkin. Aks holatda ma'lum bir asar doirasida qolib ketadi. Mazkur holatni tilning ijtimoiyligi bilan izohlash mumkin. Umuman, erkin o'xshatishlar ijodkor mahoratini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi [9,20]. Ijodkorlikning yuqori mavqeyi sifatida yuzaga chiqadigan erkin o'xshatishlar uslub talabi, lisoniy kontekstda fikr ifodasida ehtiyoj, zarurat mahsuli bo'lib yuzaga chiqadi. Shuningdek, ular nutqning ifodaviyligi, obrazlilikini ta'minlashga qo'l keladi. Bir so'z bilan aytganda, novator o'xshatishlar ko'pincha subyektiv sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Nafaqat erkin o'xshatishlar, balki individual nutq neologizmlarining barchasi, asosan, subyektivlik bilan bog'liq.

Sodmon Sulaymon qo'llagan o'xshatishlarning mavzuviy guruhi keng qamrovli bo'lib, bunda qiyos vositasining o'xshatish etaloniga munosabatiga ko'ra quyidagicha tasnifni keltirish mumkin:

1. Tarixiy shaxs nomlariga: *Tur, olg'a bos, el o'g'li, adolat – shioringdur – Temur bobomdek Sohibqironlar sasi kelgay*. ("Kamronlar sasi kelgay") Yozma, gar **Samandar Vohidiy misol** – Gulga burkamasang umr charbog'in. ("Shoirlik")

2. Afsonaviy shaxs va narsa nomlariga: **Havo yanglig'** Odam izlab ko'kka uchgan kabutarim/ Bu savdolar, bu savdolar senga aslo tanishmasmi? ("Maktub") *Hijron toshlar otsa, qalandar/ Armon o'tlar yoqsa, sitamgar/ Nur taratib misli samandar/ Kul ichida yaxshi ko'rasiz*. ("Yaxshi ko'rasiz")

3. O'rin-joy otlariga: *Sarhadlardan shoshib qaytaman/ Daryo misol toshib qaytaman/ Erta Xudoga ham aytaman: Meni juda yaxshi ko'rasiz*. ("Yaxshi ko'rasiz") *Sen bahorsan, tillari biyron/ Beg'uborsan, ko'kday bepoyon/ Keksa tutga suyanagan rayhon...* ("Sen va men")

4. Joy nomlariga: *Navoiy va Bobur. Bobur, Navoiy – Sayqal Samarqand-u zebo Buxoro/ Yanglig' dil ko'kida porlaydi boqiy/ Falak ayvoniga bergancha oro*. ("Navoiy va Bobur") *Dunyo minbaridan dunyoga boqqan/ Qadim Zarafshondek hayqirib oqqan/ ...Ona tilim, baxting muborak bo'lsin*. ("Ifitor")

5. Shaxs otlariga: *Jilmaysam yig'laysiz, yig'lasam kulib...*/ *Bo'lmasmi odamga o'xshab yashasak*. ("Seni do'st deyinmi va yo dushmanim") *Qatra yoshmi yoki shabnam yonog'ingda/ Onangdayin asta o'par qarog'ingdan*. ("O'zbekiyot") *Zir yugurib izlasa imkon/ Tish qayrama misoli raqib*. ("Muhammad Yusuf")

6. Narsa-buyum nomlariga: **Qor misol** beg'ubor, **qor kabi** uyg'oq/ *Yurtim, oq tonglaring buncha munavvar*. ("Yangi yil tilaklari") *Kuzgi yaproq misol titrab turibman/ Jonim, o'zing meni hayotga qaytar*. ("Kuz xayoli")

7. Modda-ma'dan nomlariga: *Ishqing sharobidan aylagandik no'sh/ Dardlari sochildi misoli kumush*. ("Girya") *Xush xabar keldi vatanga, misli gavhar shamchiroq/ Bo'lg'usi dillar nurafshon, kulgusi g'amdin yiroq*. ("Xush xabar keldi")

8. Hayvon nomlariga: *Uzoqlashishni kutar ekan yuragi yomonlog'on otdek tipirchilar edi*. (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar")

9. Qush nomlariga: *Shoirlik – baxt, misoli bulbul/ Bog'lar kezib, tanlaysan so'zni*. ("Shoirning armoni") *Biri keldi uzukka nuqra ko'zdek/ Xiromlar ayladi hindiy tovusdek*. ("Buyuk ipak yo'li")

10. O'simlik nomlariga: *Keling, ifor sochgan guldek muattar/ Keling, Siz tufayli totlidir hayot*. ("Izhor")

11. Hasharot nomlariga: *G'imirlaydi xuddi qumursqa/ Toshim olib ketaymi, dunyo!* ("Havolandim yolg'onlaringdan")

12. Yegulik va ichimlik nomlariga: **Sharob kabi** ichdim tomchilab/ *Telba charxning anduhlarini*. ("Motsart. So'nggi sonata")

13. Fazoga aloqador so'zlarga: *Ma'yus-ma'yus termulasan Oy balqigan hovuzlarga/ Og'ushimda Oydek balqi, termulgancha yulduzlarga*. ("Maktub") *Muhabbat qo'shig'in kuylar jo'ravoz/ quyoshdek bag'rikeng yurt insonlari*. ("Bu yurtda tug'ulmoq...")

14. Mavhum ma'noli so'zlariga: Yukunsang, *ko'ngilday bu go'zal chog'larga/ She'r aytsang, oh urib tinglasa kunduzlar.* ("So'nggi parvoz") *Go'yo mudrab yotgan turkona jur'at/ Porladi Alisher yoqqan chiroqda.* ("Ona tilim") *Dalli shoir muallim darsi/ Tuyuladi misoli ertak.* ("Katta tanaffus") *Sen pokiza qaldirg'ochimsan/ Onam taqqan ko'zmunchog'imsan/ Ishqdek toza ovunchog'imsan...* ("Sen va men")

15. Afsonaviy qahramonlarga: *Telba Majnunga qiyos aylar meni ko'rgan kishi/ Og'rinib hol so'rga-yu, ul Laylilar – sog'lar kular.* ("Men agar...")

16. Bayram nomlariga: *Go'zal iforlaring taralsin, ko'klam/ Yurtim, har bir kuning Navro'zdek bo'lsin.* ("Ko'klam quvonchi")

17. Harakat-holat ma'noli so'zlar: *Kecha – tog'ni yiqqudek chog'lar/ Bugun sochda ko'paydi oqlar.* ("Eski xirgoyi")

Kuzatishlar ko'rsatadiki, shoir qo'llagan o'xshatishlarning aksariyati metaforik xarakterga ega. Masalan: 1. *Yosuman misoli sochimni silayman/ Yig'lasam sevinib, sevinam yig'laysan.* ("Araz") 2. *She'riyat misoli kapalak – / Puflasang, singaydir qanoti.* ("She'riyat")

Shoirning *"Men agar so'z so'ylasam ohlar urib, tog'lar kular"* misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida o'xshatish vositasining qo'shma shakliga, ya'ni "qiyos aylamoq" ko'rinishiga guvoh bo'lamiz. Mazkur vosita tarixiy mazmunda yozilgan asarlardagina kuzatiladi: *Telba Majnunga qiyos aylar meni ko'rgan kishi/ Og'rinib hol so'rga-yu, ul Laylilar – sog'lar kular.*

Xulosa. Umuman, Shodmon Sulaymon she'riyatidagi o'xshatishlar tahlili quyidagicha xulosalar chiqarishimizga asos bo'la oladi:

- shoir ham an'anaviy, ham erkin o'xshatishlardan o'rinli foydalana olgan. Shodmon Sulaymon ijodidagi muallif nutqi neologizmi sanaladigan erkin o'xshatishlar qo'llanishida hech qanday sun'iylik, zo'r-bazo'rakilik sezilmaydi. Ularning maqsadli qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz;

- shoir qo'llagan o'xshatishlar keng mavzuviy doirada bo'lib, ularni yigirmaga yaqin tur ostida tasniflash va tavsiflash mumkin;

- ijodkor qo'llagan erkin o'xshatishlar konstruksiyasida qiyos asosi ba'zida eksplitsit, ba'zida implitsit tarzda kelganligi kuzatildi. Bu holatni shoirning badiiy niyati, ko'zlagan maqsadi bilan bog'lash mumkin.

- shoirning tarixiy mavzuda yozilgan she'rlarida o'xshatish vositalasining tarixiy shakllari ham qo'llanganligi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ашурова Д.У. Лингвистическая природа художественного сравнения: Автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Москва, 1970. – С. 23.

2. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 5 жилдди. (4-жилд). –Т.: Маънавият, 2006. – 187 б.

3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Т.: Шарқ, 1999. – 240 б.

4. Хусайний А. Бадойиъ ус-санойиъ. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – 132 б.

5. Исҳоқов Ё. Таибеҳ. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, № 4. – Б. 27-33.

6. Маҳмудов Н., Худойберганаева Д, Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. –Т.: Маънавият. 2013. – 320 б.

7. Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni./ Til tilsimi tadqiqi. –Т.: Mumtoz so'z, 2017. – 120 б.

8. Mahmudov N. O'xshatishlarda milliy mentalitet jozibasi. // Til va adabiyot ta'limi. 2019, № 2. – Б. 5-7.

9. Mardonova S. O'zbek tilida individual-uslubiy neologizmlarning struktur-semantik tadqiqi. (M.Yusuf, U.Azim, F.Afro'z she'riyati misolida): Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. avtoref. – Buxoro: 2025. – B.22.

10. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатишлар. Монография. –Т., 1975. – 115 б.

11. Некрасова Э. Сравнения общезыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиомов. Лингвистика и поэтика. – Москва: Наука, 1979. – 156 с.

12. Невелова С. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – Москва: Наука, 1979. – 136 б.

13. Образцова В.В. Сравнения в поэзии Сергея Есенина: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ленинград, 1971. – С. 23.

14. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Т.: Фан, 1977. – 152 б.

15. Виноградов Н.А. О теории художественной речи. – Москва: Высшая школа, 1989. – 162 с.

16. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. Монография. –Т.: Фан, 2005. – 152 б.

17. Шомақсудов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983. –176 б.

**BOLA NUTQIDA GENDERGA XOS LEKSIK-SEMANTIK FARQLAR VA ULARNING
INGLIZ HAMDA O‘ZBEK TILLARIDAGI AKS ETISHI**

Shokirova Diloramxon Abduvali qizi,

, Andijon davlat universiteti, Xorijiy tillar kafedrası dotsenti, PhD

diloromhon0099887700@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar nutqida uchraydigan leksik-semantik birliklar genderga xos xususiyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. O‘zbek va ingliz tillarida o‘g‘il va qiz bolalar tomonidan qo‘llaniladigan so‘zlar semantik maydonlar asosida guruhlanib, ularning madaniy, psixologik va kommunikativ mezonlari tahlil qilinadi. M. Ergasheva, D. Ziyayeva, T. van Dijk kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida olib borilgan bu tadqiqot, gender stereotiplarining til orqali qanday shakllanishini va ijtimoiy ongiga qanday singishini yoritadi. Maqola natijalari bola nutqining leksik xususiyatlari faqat biologik yoki kognitiv emas, balki madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham bog‘liq ekanini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: gender lingvistikasi, bola nutqi, leksik-semantika, madaniy stereotip, qiyosiy tilshunoslik, semantik maydon.

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ, ОБУСЛОВЛЕННЫЕ ГЕНДЕРОМ, В
ДЕТСКОЙ РЕЧИ И ИХ ОТРАЖЕНИЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексико-семантические единицы, встречающиеся в детской речи, с точки зрения гендерной специфики. На основе семантических полей проанализированы слова, используемые мальчиками и девочками в узбекском и английском языках, с учётом культурных, психологических и коммуникативных факторов. Исследование основано на теоретических взглядах таких учёных, как М. Эргашева, Д. Зияева, Т. ван Дейк, и освещает, как гендерные стереотипы формируются через язык и укореняются в общественном сознании. Результаты статьи доказывают, что лексические особенности детской речи связаны не только с биологическими или когнитивными аспектами, но и с культурными и социальными факторами.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, детская речь, лексико-семантика, культурные стереотипы, сопоставительное языкознание, семантическое поле.

**LEXICO-SEMANTIC GENDER DIFFERENCES IN CHILDREN’S SPEECH AND THEIR
REFLECTION IN ENGLISH AND UZBEK**

Abstract. This article explores the lexical and semantic units found in children's speech from a gender-specific perspective. Words used by boys and girls in both Uzbek and English are grouped based on semantic fields and analyzed through cultural, psychological, and communicative lenses. Grounded in the theoretical frameworks of scholars such as M. Ergasheva, D. Ziyayeva, and T. van Dijk, this study examines how gender stereotypes are shaped through language and embedded in social consciousness. The findings demonstrate that the lexical features of children's speech are influenced not only by biological or cognitive factors but also by cultural and social dimensions.

Keywords: gender linguistics, child speech, lexico-semantics, cultural stereotype, comparative linguistics, semantic field.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligining yuksalib borayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida gender tilshunosligi tobora kengroq nazariy va amaliy doiralarni qamrab olmoqda. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsning ijtimoiy va madaniy identifikatsiyasi, o‘zligini anglash, tafakkur shakllanishi, stereotipik tasavvurlarni kodlash va uzatish vositasi sifatida ham har tomonlama tahlil etilmoqda. Ayniqsa, bu jarayon bola nutqi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki bola til orqali jamiyat qoidalari, ijtimoiy rollar, jinsga oid stereotiplar, axloqiy-madaniy mezonlarni o‘zlashtiradi. Mazkur sotsiolingvistik va lingvokognitiv jarayon esa, birinchi navbatda, leksik-semantik qatlamda yaqqol ifodalanadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek va ingliz tilshunosligida gender tilshunosligiga oid olib borilgan ilmiy izlanishlar bola nutqi orqali jamiyatdagi gender ongi va ijtimoiy normalarning qanday shakllanishini ochib berishga qaratilmoqda. Jumladan, D. Ziyayeva (2019) ta’kidlaganidek, “gender differensial til birliklari nafaqat aks ettiruvchi, balki shaxs ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi vositadir”. Ushbu qarash bola

nutqida jinsiy tafovutlarning til vositasida qanday semantik asosda vujudga kelishini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Gender asosidagi semantik tafovutlar maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar nutqida alohida ko'zga tashlanadi. Qiz bolalar nutqida emotsional, estetik va munosabatga oid so'zlar ko'proq ishlatilsa, o'g'il bolalar nutqida harakatga, kuchga, ustunlikka oid birliklar ustunlik qiladi. Bu holatlarni kuzatish orqali lingvistik tizimda aks etgan gender stereotiplarini aniqlash, ularning madaniy ildizlarini tahlil qilish mumkin. Zero, til — bu jamiyat madaniyatining eng barqaror va chuqur kodidir.

Tilshunoslikda bola nutqini o'rganish faqat grammatika, fonetika yoki psixologik rivojlanish doirasida emas, balki ijtimoiy ong va madaniy normalarning lingvistik aks sadosi sifatida ham tahlil etilmoqda. Ayni jihatdan gender differensiasiyasi doirasida leksik-semantik birliklarni tadqiq qilish, bola tafakkurida qaysi semantik maydonlar faol, qaysilari passiv, qanday semalar jinsga ko'ra dominant bo'lishini aniqlash orqali ancha keng ko'lamli ilmiy xulosalarga erishish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bola o'z tilida ishlatadigan har bir birlik — u ongli ravishda tanlaganmi yoki taqlid asosida qo'llanganmi — ma'lum bir gender stereotipini tasdiqlaydi yoki aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida o'g'il bola “uraman”, “o'zimnikiman”, “qochdi”, “urishdi” kabi harakatli va kuchga asoslangan fe'llarni ishlatib, qiz bola “yaxshi ko'raman”, “onajon”, “chiroyli”, “yumshoq” kabi estetik yoki emotsional birliklarga ko'proq murojaat qiladi. Ingliz tilida ham shunga o'xshash holatlar kuzatiladi: boys — kick, fight, win; girls — hug, pretty, lovely. Bunday semantik differensiasiya esa bola nutqida jinsiy identifikatsiyaning boshlang'ich bosqichlarini ko'rsatib beradi.

M. Ergasheva (2020) fikricha, “bola nutqi — bu shunchaki lingvistik hodisa emas, balki genderning ongda shakllanishi jarayonidagi lingvomadaniy aks sado”. Shu nuqtayi nazardan, bolaning til tizimi madaniy kontekst va tarbiya muhitidan mustasno emas. Demak, bolaning nutqiy faolligida gender rollar, stereotiplar, ijtimoiy mezonlar faol ishlaydi va bu, eng avvalo, leksik tanlovda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — o'zbek va ingliz tillarida bolalar nutqidagi jinsga oid leksik-semantik birliklarni qiyosiy tahlil qilish, ular orqali madaniyat, stereotip, ijtimoiy rol va kommunikativ ehtiyojlarning bola nutqidagi semantik in'ikosi qanday ifodalanganini ochib berishdan iborat. Shu asosda maqolada gender differensiasiyasi jarayonida bola nutqining qaysi semantik maydonlarga asoslanishi, ularning jinsiy jihatdan qanday ajralib turishi, qaysi birliklar universal, qaysilari esa madaniy xos ekanligi aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqot bola nutqida genderga oid leksik-semantik birliklarning namoyon bo'lishi va ularning o'zbek hamda ingliz tillarida qanday farqlanishini ilmiy asosda qiyoslashga qaratilgan. Tadqiqot uslubiyati korpus tanlashdan boshlab, tahlil mezonlari va nazariy yondashuvlarga bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda foydalanilgan materiallar har ikki tilda maktabgacha va kichik maktab yoshidagi (4–9 yosh) bolalar nutqiga oid adabiy va og'zaki manbalardan iborat. Jumladan:

Badiiy adabiyotlar: O'zbek tilida – Xudoyberdi To'xtaboyevning “*Sariq devni minib*” asari, ingliz tilida – Edith Nesbitning “*The Railway Children*” va Roald Dahlning “*Matilda*” asarlari. Ushbu badiiy manbalar bolaning dunyoqarashi, til boyligi va gender rollarini obrazlar orqali aks ettiradi.

Og'zaki muloqot transkriptlari: Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilgan suhbat yozuvlari, bolalar o'yinlaridagi dialoglar hamda uy sharoitida ota-ona bilan muloqot jarayonlaridan olingan matnlar asosida tahlil olib borildi.

Didaktik materiallar: Boshlang'ich sinf o'quv darsliklari, nutqni rivojlantirish mashqlari va sinov topshiriqlari orqali bolalarga taqdim etilgan lug'aviy birliklar ajratib olindi.

Ushbu manbalar bola nutqining real, kontekstual va madaniy jihatdan neytral bo'lmagan holatini aks ettiradi. Har bir tanlangan materialda bolalarning jinsiy differensial til tanlovi, emotsional reaksiyalari, harakatga oid fe'llar, nutq etiketi va ijtimoiy muomala elementlari o'rganildi.

Tadqiqotda bir nechta lingvistik tahlil usullaridan kompleks yondashuv asosida foydalanildi:

Deskriptiv tahlil: Ma'lumotlarni tavsiflash, turlarga ajratish va asosiy birliklarni aniqlash uchun qo'llanildi. Har bir til birligi kontekstdan ajratilgan holatda emas, balki matn va diskurs doirasida baholandi.

Qiyosiy tahlil: O'zbek va ingliz tillarida bolalar tomonidan ishlatilgan leksik birliklar o'zaro solishtirilib, jinsiy tafovutlar aniqlandi. Bu analizda semantik yadro, ekspressivlik darajasi, madaniy yuklama va grammatik qurilmalarga alohida e'tibor qaratildi.

Semantik maydon nazariyasi: J. Lyons va D. Crystal ishlari asosida har bir jinsga oid tipik leksik birliklar semantik guruhlariga ajratildi. Masalan:

Estetik obrazlar maydoni (gul, chiroyli, go'zallik);

Harakat va kuch maydoni (urmoq, yugurmoq, jang);

Emotsional munosabat maydoni (yaxshi ko'raman, yig'lamoq, xafa). Ushbu maydonlarning jinsga qarab qanday taqsimlanishi alohida tahlil qilindi.

Kognitiv-pragmatik yondashuv: Bola tilidagi jinsiy xususiyatlar faqat semantik emas, balki kognitiv jihatdan ham asoslangan. Bolaning ongida mavjud bo'lgan gender stereotiplar (masalan: “o'g'il bola yig'lamaydi”, “qiz bola muloyim bo'lishi kerak”) nutqda qanday ko'rinish topayotgani o'rganildi. Bu yondashuv orqali bola nutqining nafaqat aktual, balki ehtimoliy strukturasi ham aniqlanadi.

Diskurs tahlili. T. van Dijk nazariyasi asosida har bir genderga oid leksik birlikning ijtimoiy kontekstdagi o'rni aniqlandi. Ya'ni, bola biror so'z yoki iborani qanday sharoitda, kim bilan va qanday maqsadda qo'llayotganiga qarab, uning pragmatik va ijtimoiy funksiyasi tahlil qilindi.

Tadqiqotda bola nutqida aniqlangan barcha leksik birliklar quyidagi mezonlar asosida tasniflandi:

Jinsiy asoslangan birliklar — aynan erkak yoki ayol obraziga oid so'zlar: *qizcha, o'g'ilcha, amakim, oyijon, dadajon, kuchli, go'zal*.

Madaniy konnotatsiyali birliklar — jamiyatda jinsga oid madaniy stereotiplarni ifodalovchi birliklar: *qiz bola uyda o'tiradi, o'g'il bola pul topadi, qizcha yig'lab yubordi, u yigitdek dadil*.

Ijtimoiy rolg'a oid birliklar — bolalarning o'zini jamiyatdagi o'rniga nisbatan ifodalovchi birliklar: *men akaman, men himoya qilaman, opam g'amxo'r, onam yaxshiroq qiladi*.

Emotsional bo'yoqli birliklar — bola nutqida emotsional-psixologik yuklamaga ega bo'lgan so'zlar: *yaxshi ko'raman, xursandman, qo'rqdim, yig'ladim, quvonch, hasrat*.

Harakat va statik xarakterli birliklar — o'g'il bolalar nutqida ko'proq harakatni bildiruvchi fe'llar, qiz bolalar nutqida esa statik, tasviriy birliklar uchraydi. Masalan: *urmoq, yugurmoq, tutmoq* vs. *yotibdi, jim, kulib turibdi*.

Natijalar. Ushbu tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillarida maktabgacha hamda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar nutqida jinsiy differensial belgilarga ega bo'lgan leksik-semantik birliklar ajratilib, ularning turlari, semantik yo'nalishi, madaniy konnotatsiyasi va nutqiy kontekstdagi funksional yuklamasi chuqur o'rganildi. Olingan natijalar jinsiy tafovutlarning har ikki tilda mavjudligini, ammo ularning ko'lami va xarakteri jamiyatdagi gender sotsializatsiyasi darajasiga bog'liq holda turlicha ifodalanishini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek tilida qiz va o'g'il bolalar tomonidan ishlatiladigan leksik birliklar aniq jinsiy tafovutlar bilan ajralib turadi. Qiz bolalar nutqida ko'proq emotsional, estetik va domestik (uyga oid) so'zlar uchraydi. Masalan:

Emotsional leksikalar: sevinch, sevgi, yumshoq, oppoq, ohangrabon. Ushbu birliklar qiz bolaning hissiy kechinmalari va muloyim xulqini til orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Estetik va uyga oid so'zlar: soch, gul, tort, onam, kukilar. Bu leksik birliklar orqali qiz bola o'zini go'zallik, parvarish va uy muhiti bilan bog'laydi.

O'g'il bolalar nutqida esa buning aksi tarzida ko'proq harakatga, kuch va ustunlikka oid birliklar dominant bo'ldi:

Harakat va kuchga oid so'zlar: urmoq, yugurmoq, jang, kuchli. Bu birliklar o'g'il bolaning faol, tashabbuskor, kuchga asoslangan xatti-harakatlarini bildiradi.

Hukmronlik bildiruvchi birliklar: o'zimmikiman, sen chiq, men birinchi. Ushbu birliklar orqali o'g'il bola ierarxik ijtimoiy o'rni va ustunligini til orqali mustahkamlashga intiladi.

Ushbu natijalar D. Ziyayeva (2019) va M. Ergasheva (2020) tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni — ya'ni, “gender differensial til birliklari jamiyatdagi ijtimoiy rollarning tildagi in'ikosi” degan fikrni tasdiqlaydi. Til jamiyatdagi rollar va stereotiplarning kodlovchisi bo'lib, bola bu birliklarni ongli yoki ongsiz tarzda o'zlashtiradi.

Ingliz tilidagi natijalar ham shunga o'xshash leksik-semantik differensiallikni ko'rsatdi. Biroq bu tafovutlar o'zbek tilidagidek keskin emas, balki nisbatan moslashuvchan va kontekstga qarab o'zgaruvchan tusda namoyon bo'ladi.

Qiz bolalar nutqida uchragan ba'zi leksik birliklar quyidagilardan iborat: *cute, lovely, mommy, pink, best friend, help, flower*. Bu birliklar qiz bolaning estetik, emotsional va ijtimoiy muloqotga moyilligini bildiradi.

O'g'il bolalar nutqida dominant bo'lgan birliklar: *kick, robot, superman, fight, brave, fast, win*. Bu birliklar kuch, texnologiya, g'alaba va raqobat kabi semantik maydonlarni ifodalaydi.

Shuningdek, ingliz tilidagi bolalar nutqida ommaviy madaniyat (media, multfilmlar, video o'yinlar) ta'siri sezilarli darajada ko'zga tashlandi. Masalan, *superman, robot* kabi birliklar gender stereotiplarini global diskurs vositalari orqali mustahkamlash holatini ko'rsatadi. Bu esa anglofon jamiyatlarda ham bola tilida gender rollarning ijtimoiy diskurs orqali kodlanayotganini anglatadi.

Jinsiy leksik tafovutlar: qiyosiy jadval

Semantik yo'nalish	O'zbek (qizlar)	O'zbek (o'g'illar)	Ingliz (girls)	Ingliz (boys)
-----------------------	--------------------	-----------------------	-------------------	------------------

LINGUISTICS

Emotsiya	sevgi, kulgu	g'azab, jahldor	happy, love	angry, win
Estetik	chiroyli, gul	yo'q	pretty, pink	cool
Harakat	yugurish (kam)	urmoq, yugurmoq	jump (kam)	kick, run
Hukmronlik	—	men birinchi	—	my turn, I won

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'zbek bolalarining jinsiy leksik differensiasiyasi ingliz bolalariga qaraganda ancha keskin va qat'iy. Buning asosiy sababi sifatida jamiyatdagi gender rollarining qat'iy chegaralanganligi, an'anaviy sotsializatsiya modeli va madaniy stereotiplarning kuchli ta'siri ko'rsatiladi. Ingliz tilida esa bu tafovutlar nisbatan yumshoqroq: ba'zi hollarda qizlar ham kick, win kabi birliklarni ishlatishi, yoki o'g'il bolalar cute, pink kabi so'zlardan foydalanishi mumkin.

Umuman olganda, har ikki tilda bola nutqida jinsiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular turli semantik maydonlarda namoyon bo'ladi. Eng asosiy tafovut esa ushbu tafovutlarning darajasi va ijtimoiy sabablari bilan bog'liq. O'zbek tilida bu tafovutlar ancha barqaror va stereotipik asoslangan bo'lsa, ingliz tilida esa nisbiy erkinlik, muqobillik va kontekstdan kelib chiqadigan o'zgaruvchanlik bilan ajralib turadi.

Muhokama. M. Ergashevaning (2020) ta'kidlashicha, "bola nutqi nafaqat ijtimoiy ta'sirni, balki ong osti stereotiplarni ham aks ettiradi". Ushbu fikr bola nutqidagi leksik-semantik birliklarning jinsga oid farqlanishini nafaqat ijtimoiy tizim bilan, balki madaniyat, ta'lim, oilaviy kommunikatsiya va media orqali shakllanadigan chuqur psixolingvistik jarayonlar bilan bog'lashga asos beradi. Tadqiqot natijalari ham shuni ko'rsatdiki, bola yoshligidan boshlab jinsiga mos til birliklarini tanlaydi, ulardan foydalanadi va ularni asta-sekin ong osti darajasida ichkilashtiradi.

O'zbek bolalari nutqida aniqlangan "qiz bola muloyim bo'lishi kerak", "o'g'il bola yig'lamaydi" kabi ijtimoiy stereotiplar faqat axloqiy-etik doirada emas, balki til vositasida ham uzatilmoqda. Bunday stereotipik normalar jamiyat tomonidan bolaga bevosita emas, balki bilvosita – maqollar, matallar, bolalar adabiyoti va oilaviy og'zaki muloqot orqali singdiriladi. Masalan, o'zbek xalq maqollarida uchraydigan "Qiz bola egilsa chiroyli" kabi iboralar nafaqat estetik tasavvurni, balki ijtimoiy bo'ysunuv normasi orqali gender ierarxiasini mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu tarzda bola o'z nutqida passiv, itoatkor va muvozanatli til birliklarini tanlaydi.

Bundan tashqari, ingliz tilida bolalar ko'proq inklyuziv tilga duch kelishadi. Masalan, Girls can be engineers, Boys can cry too kabi ifodalar nafaqat media va bolalar adabiyotida, balki maktab ta'limida ham faol targ'ib qilinadi. Ushbu yondashuv C. Tannen (1990) tomonidan ilgari surilgan "gender as performance" nazariyasiga hamohang bo'lib, bolalarning jinsiy rollarga bo'lgan yondashuvini shakllantirishda tilning konstruktiv vosita sifatidagi o'rnini tasdiqlaydi.

Til – bu jamiyat tafakkurining ifodasi bo'lib, har bir jamiyatda semantik yuklamalar turlicha shakllanadi. O'zbek tilida jinsga oid leksik birliklar ko'pincha konnotativ, ya'ni ma'noning yuzaki emas, balki chuqur madaniy va emotsional qatlamiga ega bo'ladi. Masalan, gul – nafaqat o'simlik sifatida, balki qiz bolaga nisbatan metaforik yo'sinda qo'llaniladi. Yoki chiq, bu meniki degan oddiy iboralar – ierarxik hukmronlikni bildiruvchi til birliklariga aylanadi.

Ingliz tilida esa ko'plab birliklar denotativ ma'noga ega bo'lib, gender tafovutlari ko'proq kontekstdan kelib chiqadi. Pink, cute, kick, robot kabi birliklar jinsga xos semantik assotsiatsiyalar bilan boyitilgan bo'lsa-da, ular inklyuziv kontekstlarda o'z ma'nosini yo'qotishi mumkin. Bu holat ingliz tilining demokratik va sotsial inklyuzivlikka intiluvchi til siyosati bilan izohlanadi.

Bolalar nutqidagi genderga oid leksik birliklar o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki bir nechta ijtimoiy kontekst orqali shakllanadi:

Oila: O'zbek oilalarida ota-ona va katta yoshli qarindoshlar bola bilan muloqotda jinsiy rolga oid til birliklarini bevosita singdiradilar. Masalan, qiz bola jim o'tiradi, o'g'il bola yig'lamaydi kabi gaplar bola nutqining semantik ramkasini belgilaydi.

Ta'lim: Ingliz ta'lim tizimi gender tengligini rag'batlantiradi. Bolalarga har ikki jinsga oid rollarni sinab ko'rish huquqi borligi o'rgatiladi. O'zbek ta'lim tizimida esa bu borada hali yetarli yondashuvlar mavjud emas.

Media: Ingliz tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan adabiyot va multfilmlarda inklyuziv g'oyalar yetakchi o'rinni egallaydi (Peppa Pig, Dora the Explorer, Steven Universe va b.). O'zbek muhitida esa an'anaviy rollar targ'ib etilishi davom etmoqda.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bolalar nutqidagi gender differensiallari statik emas. Ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar, ta'lim yondashuvlari, global madaniyatning kirib kelishi bilan bola tilidagi gender kodlar ham

o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, urbanizatsiyalashgan hududlardagi o'zbek bolalari nutqida doktor bo'laman, men kuchliman, ammo yig'layman kabi iboralar uchray boshlagan. Bu esa til orqali stereotiplarning asta-sekin yemirila boshlaganini ko'rsatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot bola nutqida genderga oid leksik-semantik xususiyatlarning mavjudligini va ularning qanday omillar ta'sirida shakllanishini aniqlashga qaratildi. O'zbek va ingliz tillari misolida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, bola tilidagi leksik birliklar shunchaki tasodifiy tanlangan vosita emas, balki ijtimoiy identifikatsiyaning, madaniy kodlashning va jamiyat tomonidan ilgari surilayotgan gender stereotiplarining mahsulidir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bola nutqining leksik-semantik tarkibi individual psixologik rivojlanish jarayoni bilan bir qatorda, keng ijtimoiy-madaniy muhit — oila, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va umumiy til siyosati bilan chambarchas bog'liq ekanligi isbotlandi. Ayniqsa, ijtimoiy-gender stereotiplari bolaning ong osti darajasida til birliklarini o'zlashtirishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat M. Ergasheva (2020) tomonidan ilgari surilgan fikrlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi: bola tilida jamiyatdagi mavjud ierarxiyalar va qadriyatlar aks etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida jinsiy leksik tafovutlar nisbatan keskin va stereotiplashtirilgan xarakterga ega. Qiz bolalar nutqida emotsional, estetik va uy ishlariga oid so'zlar ustunlik qilgan bo'lsa, o'g'il bolalar nutqida harakat, kuch, hukmronlik kabi semantik maydonlar faolligi ko'zga tashlandi. Bu esa o'zbek jamiyatidagi an'anaviy gender rollarining bolalar nutqiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi. Ingliz tilidagi bola nutqida esa bu tafovutlar ancha yumshoq, kontekstual va muqobil shakllarda ifodalangan. Anglofon madaniyatdagi gender tengligi, inklyuziv ta'lim va media orqali targ'ib qilinayotgan neytral yondashuvlar natijasida bola leksikasida ijobiy muqobilliklar yuzaga kelgan.

Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

Sun'iy intellekt (AI) va natural language processing (NLP) texnologiyalari yordamida genderga xos leksik modellarni avtomatik ravishda ajratib olish imkoniyatlarini o'rganish;

Media-tekstlar (multifilmlar, reklama, bolalar kitoblari) asosida bola ongiga uzatilayotgan gender rollarini diskursiv tahlil qilish;

Ko'p tillilik asosida boshqa madaniyatlar bilan qiyosiy tahlil olib borish orqali global va lokal stereotiplar farqini aniqlash.

Xulosa qilib aytganda, bola tilida aks etayotgan gender leksikasi tilshunoslik uchun nafaqat til tizimidagi fakt, balki ijtimoiy ongning bir ko'zgusi sifatida muhim obyekt bo'lib xizmat qiladi. Uni chuqurroq o'rganish — kelajakda inklyuziv, genderga nisbatan adolatli til siyosatini shakllantirishga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ergasheva M. (2020). *Genderga oid til birliklari va ularning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Ziyayeva D. (2019). *Til va gender: ijtimoiy-lingvistik aspektlar*. Samarqand: Ilm ziyo.
3. Crystal D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Lyons J. (1977). *Semantics (Vol. 1–2)*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Van Dijk T. A. (2008). *Discourse and Power*. Houndmills: Palgrave Macmillan.
6. Tannen D. (1990). *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. New York: Ballantine Books.
7. Lakoff R. (1975). *Language and Woman's Place*. New York: Harper & Row.
8. Shokirova D. A. (2025). *Bola nutqida gender xoslanishi (ingliz va o'zbek tillari misolida)*. DSc dissertatsiyasi. Andijon: Andijon davlat universiteti.
9. Vygotsky L. S. (1986). *Thought and Language*. Cambridge: MIT Press.
10. Cameron D. (1992). *Feminism and Linguistic Theory*. London: Macmillan.
11. Nurmonov A. (2010). *Diskurs va kommunikatsiya*. Toshkent: Fan.
12. Aliyeva M. (2021). *Bolalar nutqining lingvosemantik tahlili*. Buxoro: Ilm nuri.
13. Holmes J. (2013). *An Introduction to Sociolinguistics (4th ed.)*. London: Routledge.
14. Kuliev K. (2015). *Gender aspektida tilshunoslik va madaniyat*. Toshkent: Universitet.
15. Bucholtz M. & Hall K. (2005). *Identity and interaction: A sociocultural linguistic approach*. *Discourse Studies*, 7(4-5), 585–614.

FRAZEMA VA FRAZEMALARARO MA’NOVIY MUNOSABAT

Asadova Shahlo Akmal qizi,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

asadova90shakhlo@gmail.com

Annotatsiya. Lison va unga tegishli har bir tushuncha o‘ziga xos serqirralikka ega. Shunga ko‘ra, til tilshunoslik bilan birga qator ijtimoiy fanlar tomonidan ham o‘rganilishini bilamiz. Tilni o‘rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o‘z munosabati borligi ham ma’lum. Bu munosabat muayyan ijtimoiy fanning tilning qaysi aspektini o‘rganishi bilan xarakterlanadi. Lison deyilganda ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy hamda majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisi tushuniladi. Tilning bunday talqini uning psixofizik hodisa ekanligini, u o‘zida umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kabi sifatlarni mujassamlashtirganligini isbotlaydi. Lison bunday xususiyatlarini aniq formalarda – xususiy hodisa va voqeliklar sifatida yuzaga chiqaradi. Frazema va frazemalararo ma’noviy munosabat ham shular jumlasidandir.

Kalit so‘zlar: lison, nutq, umumiylik, xususiylik, frazema, ibora, frazemalararo munosabat.

ФРАЗЕМА И МЕНТАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ФРАЗЕМАМИ

Аннотация. Язык и каждое из его понятий имеют свои специфические нюансы. Поэтому мы знаем, что язык изучается рядом социальных наук, включая лингвистику. Известно также, что каждая дисциплина, изучающая язык, имеет с ним свою собственную связь. Эта связь определяется тем, какой аспект языка изучает та или иная социальная наука. Язык – это совокупность единиц, заранее подготовленных для всех членов данного общества и служащих для выражения общей и обязательной для всех мысли и для других целей, а также законы объединения этих единиц. Такая трактовка языка доказывает, что он представляет собой психофизическое явление, воплощающее в себе такие качества, как общность, сущность, возможность, разум. Язык проявляет эти свойства в конкретных формах – в форме конкретных явлений и событий. К ним относятся фразема и семантические отношения между фраземами.

Ключевые слова: язык, речь, общность, частность, фраза, выражение, межфразовые отношения.

PHRASEME AND MENTAL RELATIONS BETWEEN PHRASEMES

Annotation. Language and each of its concepts have their own specific nuances. Therefore, we know that language is studied by a number of social sciences, including linguistics. It is also known that each discipline that studies language has its own connection with it. This connection is determined by what aspect of language a particular social science studies. Language is a set of units prepared in advance for all members of a given society and serving to express a common and obligatory thought for all and for other purposes, as well as the laws of unification of these units. This interpretation of language proves that it is a psychophysical phenomenon that embodies such qualities as community, essence, possibility, and reason. Language manifests these properties in specific forms – in the form of specific phenomena and events. These include phrasemes and semantic relations between phrasemes.

Key words: language, speech, community, particularity, phrase, expression, interphrase relations

Kirish. Dunyo aholisi foydalanadigan amaldagi har bir til avvaldan tayyor holga keltirilgan, o‘sha tilda so‘zlashuvchilar uchun umumiy hamda majburiy, muayyan fikrni ifodalash va boshqa turli kommunikativ maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisidir. Lison hamisha nutqiy voqeligi bilan e’tiborga loyiq. Shu nuqtayi nazardan lison va nutqning har biriga xos mustaqil birliklari mavjud. Lisonda birliklar va birikish qonuniyatlari farqlanadi. Lisoniy birlik ikki tomonning bir butunligidan iborat bo‘ladi:

- a) lisoniy birlikning shakli, tashqi tomoni;
- b) lisoniy birlikning ma’lum bir vazifasi, ma’noviy qiymati.

Lisoniy birlik ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, [kitob] leksemasining tarkibiy xususiyatlari haqida umumlashma tasavvur o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha jamiyat a'zolari tilida birdir. Bu [kitob] leksemasining tashqi tomonidir, uning ichki tomonini muayyan bilimlar yoki voqeliklar, fikr-mulohazalar yoki boshqa bitiklar bitilgan, bosma sahifalari tartib bilan terilib, muqovalangan qog'oz buyum (ayni paytda internet sahifalaridan joy olgan word, pdf yoki boshqa shakldagi) nashr namunasi tashkil etadi. Ichki va tashqi tomonni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Sossyur ta'biri bilan aytganda lison (til) sistemalar sistemasidir. Undagi har bir birlik kichik sistemalarni tashkil etadi va ma'lum vazifani bajaradi. Chunonchi, frazemalar ham tilda lisoniy birlik sifatida yashaydi. Demak, frazemalarga ham boshqa lisoniy birliklar – fonema, leksema, morfema yoki qoliplar kabi umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sababiyat kabi xususiyatlar xos.

Asosiy qism. Frazeologik birliklar murakkab tarkibli til birligi bo'lib, ularning ifoda plani ikki yoki undan ortiq komponentlarning uyushmasidan iborat. Frazeologik birliklar tilda ko'plab uchraydigan, fikrni keng obrazli, o'tkir ma'noli, keng qamrovli ifodalaydigan til birligi sifatida, hamma vaqt tuzilishiga ko'ra sostavlidir [7, 437]. Frazeologizmlarning struktural xususiyatlarini tashqi strukturasiga ko'ra, ya'ni frazema komponenti sifatida ishtirok etayotgan so'zlarning turkumi va miqdoriga qarab ham tasniflash mumkin. Ularning tashqi strukturasiga qarab guruhlariga ajratishda frazeologik birliklar tarkibidagi so'z (komponent)larning miqdori asos qilib olinadi. Bunday guruhlash natijasida frazeologik graduonimlar tabiatiga ko'ra necha so'z (komponent)dan tarkib topganligi aniqlanadi. O'zbek tilidagi frazeologizmlarni tashqi strukturasiga qarab quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ikki komponentli frazeologizmlar.
2. Uch komponentli frazeologizmlar.
3. To'rt va undan ortiq komponentli frazeologik birliklar.

Ikki komponentli frazeologizmlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: *amri mahol* (qiyin, gumon), *anqoning urug'i* (taqchil, kamyob), *aqldan ozmoq* (jinni bo'lmoq) va h.

Uch komponentli frazeologizmlarga quyidagilarni misol keltirish maqsadga muvofiq: *arpasini xom o'rmoq* (nima yomonlik qilmoq), *barmog'ini bigiz qilmoq* (niqtab ko'rsatmoq), *bir cho'qishda qochirmoq* (osonlikcha yengmoq), *chizgan chizig'idan chiqmaydigan* (barcha talablarini to'la-to'kis bajaradigan, ko'rsatmasiga ko'ra ish tutadigan) va h.

To'rt komponentli frazeologizmlarga quyidagilarni misol keltirish o'rinli: *boshini qayoqqa urishini bilmaydigan* (ilojsiz, chorasiz), *fikrlari bir yerdan chiqadigan* (fikir-o'ylari mos, hamfikir), *gapni bir joyga qo'ymoq* (o'zaro kelishmoq) va h.

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksema bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (*burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha*) denotativ ma'noga ega bo'lsa, *turgan gap, shunga qaramay* kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq ular hech qachon teng emasligi kuzatiladi. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida *yoqasini ushlamoq* frazeologizmi bilan *hayron bo'lmoq* leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq" bo'lsa, *hayron bo'lmoq* leksemasi "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq" sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida "o'ta darajada" va "so'zlashuv uslubiga xos", "bo'yoqdor" semalariga egaligi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa, unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [*hayron bo'lmoq*] leksemasi nutqiy voqelikda qo'llanilishiga ko'ra umumuslubiy va hassiy-ta'siriy jihatiga ko'ra bo'yoqsiz hisoblanadi. Shuning o'ziyoq mazkur leksemani nutqning barcha uslublarida qo'llash imkoniga egaligini va turli "bo'yoqlar" bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da (atash semelari bir xil bo'lsa ham), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq uning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, *qo'yniga qo'l solmoq* frazeologizmning ma'nosi *qo'yin, qo'l, solmoq* leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchisi emas. Frazeologizmning ma'nosi tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada,

qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo'ltiqib ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monand va erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'lgan [9;10]. Bu esa, frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi.

Frazeologizm tarkibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, *aqlini yemoq*, *ko'zini bo'yamoq*, *ko'zi ko'ziga tushmoq*, *og'zi qulog'ida* frazeologizmlarida *aql*, *ko'z*, *og'iz* so'zlari o'z ma'nosida, *yemoq*, *bo'yamoq*, *tushmoq*, *qulog'ida* so'zlari ko'chma ma'noda. Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun *barmog'ini tishlab qolmoq* qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. *Tishni-tishga qo'ymoq*, *tepa sochi tikka bo'lmoq*, *labiga uchug' toshmoq* iborolari ham shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologizm turli irim-sirimlar, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi: 1. *"Jabrdiyda"ning ham, guvohlarning ham dumi xurjunda* gaplari shunday savollar berilishini talab etardi. (M.Ismoiliy) 2. *Hammani qo'yib, sizning soldat o'g'lingizga tegaman deb ko'zim uchib* turibdimi? (M.Muham.) 3. *Uning eriga mening ko'zim tekkan* emish. (I.Rahim)

Natijalar va muhokama. Nutqda frazeologizmlarning aksariyati birma'noli ekanligini kuzatamiz. Ammo polisemantiklik frazeologizmlarda ham uchrab turadi. Masalan, *aqli yetadi* frazeologizmi "idrok qilmoq", "ishonch hosil qilmoq" ma'nosiga, *bo'yniga qo'ymoq* iborasi 3 ta – "aybni birovga to'nkamoq", "isbotlab bermoq", "muayyan ishni bajarishni bironing zimmasiga yuklamoq" ma'nolariga, *qo'lga olmoq* iborasi esa, 4 ta – "o'z ixtiyoriga o'tkazmoq", "qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq", "qamash maqsadida tutmoq", "biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq" ma'nolariga ega.

Frazeologik polisemiya barcha ma'no ko'chma bo'lganligi bois, ularni bosh va hosila ma'nolarga ajratish qiyin.

Frazeologizmlarda semantik munosabat. Leksikada bo'lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabat amal qiladi. Bular quyidagilar:

Frazeologik sinonimiya.

Frazeologik graduonumiya.

Frazeologik giponumiya.

Frazeologik partonumiya.

Frazeologik antonimiya.

Frazeologik omonimiya.

Quyida ular xususida biroz to'xtalamiz.

Frazeologik sinonimiya. Til – uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, undagi sinonim so'z va iboralar kishi tafakkuri tadrijiy rivoji bilan bog'liq holda vujudga keladi. Ma'nodosh so'zlar kishilarning so'z ma'nolarini har tomondan to'laroq, mukammalroq ochishga urinishi natijasida vujudga keladi. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, har qanday tilning lug'at tarkibidagi asosiy vositalardan birini sinonim so'z va iboralar tashkil etadi.

Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, voqea-hodisa, shaxs va predmetlarni ifodalovchi til birliklarining eng nozik ma'no bo'yoqlarini yuzaga chiqaradi. Ikkinchidan, sinonimlar fikr ifodalashda takror va qaytariqqa yo'l qo'ymaydi. So'zlarni takror qo'llash esa, nutqqa putur yetkazib, uslubiy g'alizlikka olib kelishi mumkin.

O'zbek tili o'zining katta, boy ma'nodosh so'zlar va iboralar guruhiga ega bo'lib, ularni nutq jarayonida o'rinli qo'llash har bir so'zlovchidan katta mas'uliyat, milliy til va millat ruhiga hurmat-e'tibor talab qiladi.

Sinonimiya – semantik hodisa sifatida shunday izohlanadi: "Til birliklarining (so'zlar, iboralar va b.) bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishiasosida guruhlanishiga sinonimiya (yunoncha – bir xil nomga egalik) deyiladi" [4,88]. Sinonimlarning fikrni aniq, maqsadga muvofiq ifodalash uchun xizmat qilishi ma'nodoshlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va tilning lug'aviy birliklaridan tashkil topadigan ma'nodoshlik qatorlari ijtimoiy hayotda bo'layotgan o'zgarishlar asosida to'ldirilib boradi.

Leksemalarda sinonimiya hodisasi ko'proq ot so'z turkumi doirasida kuzatilsa, frazeologizmlardagi sinonimiya esa, asosan, fe'l so'z turkumi, sifat va qisman ravish so'z turkumi doirasidagi frazeologik birliklarda uchraydi:

1) fe'l frazeologik sinonimlar: *jon ato qilmoq* – *jon bag'ishlamoq*;

2) sifat frazeologik sinonimlar: *ko'ngli xira-ta'bi tirriq*- *ta'bi kir*

3) ravish frazeologik sinonimlar: *jon talvasasida* – *jon achchig'ida* kabi.

Shunday qilib, sinonim so'z va frazemalar til lug'at tarkibini boyitish, kengaytirish uchun xizmat qiladi va xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ular fikrning o'tkir, ta'sirchan va bo'yokdor bo'lishiga,

asar tili va uslubini ko'p qirrali, boy, turli-tuman qilishga, nutqni har xil ko'rinishga, har bir so'z va frazeaning o'z ma'nosini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Turkiyshunoslikda frazeologik sinonimiya bir qancha turkiy tillar materiallari asosida ma'lum darajada o'rganildi. Turkiy tillarda yaratilgan ilmiy asarlarda ma'nodosh guruhni tashkil qiluvchi so'zlar, frazeologik birikmalarning shakllanishi, tuzilishi, paydo bo'lish yo'llari, uslubiy ahamiyati kabi masalalar ma'lum darajada yoritilgan. Jumladan, A. Bolganboyevning "Qozoq tilida ot sinonimlar", R.R.Yusupovning "Turk tilidagi turg'un fe'l birikmalarning leksik-sintaktik xususiyatlari", V.Meskutovning "Turkman tilida sinonimlar", Sh.X. Xanbekovning "Tatar tilida sinonimlar", Z.G.Uraksinning "Boshqird tilida frazeologik sinonimlar", K. Daibovning "Qumiq tilining frazeologiyasi", K. A. Mamedovning "Ozarbayjon tilida frazeologik sinonimlar" kabi ilmiy tadqiqotlari shular jumlasidandir [8,88].

Mazkur tadqiqotlar ichida Z.G.Uraksinning "Boshqird tilida frazeologik sinonimlar" nomli ishi alohida ahamiyatga ega. Olimning fikricha, frazeologiya tarkibidagi *quloq qoqmoq*, *burni osmonda* kabilar turg'un birikmalar, *barmoq bilan sanarlik* kabilar o'xshatishli birikmalar, *yurak parchasi (farzand haqida)* kabi frazeologik birliklar xalq poetik birikmalari hamda ayrim maqol va matallar asosida paydo bo'lgan. Shuningdek, olim frazeologiyadagi sinonimiya va variatsiya muammolarini ham batafsil o'rgangan. U boshqird tilidagi grammatik variantlarni (*qora yurakli – qora yurak*, *ko'z oldi qorong'lashmoq – ko'z oldi tinmoq* kabi) va struktural variantlarni (*betidan olmoq – yuzidan olmoq*, *o'yga botmoq – o'yga cho'mmoq* kabi) bir-biridan farqlashga intilgan. Bu ishda iboralarining variativ ko'rinishlari sinonimlardir, degan fikrni asoslashga harakat qilinganki, bu muammo hozirgi kunda tilshunoslikda bir qadar M.Vafoyevning "O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va uarning struktural-semantik tahlili" nomli nomzodlik ishida o'z yechimini topdi.

O'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining o'rganilish tarixi S.Isamuhamedova, Ulug' Tursunov, N.Rajabov, A.Doniyorov, Yormat Tojiyev, H.Shamsiddinov, B.Doniyorov singari olimlarning ishlarida keng tahlil qilingan [5;8].

Tilimizda leksik sinonimiya masalalari S.Usmonov, S.Isamuhamedova, I.Qo'chqortoyev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, grammatik sinonimiya masalalari yuzasidan professor M.Asqarova, R.Qo'ng'urov, V.Egamberdiyev, M.Sodiqova, G.Zikrillayevlarning kuzatishlarini, stilistik sinonimiya bo'yicha esa A.Doniyorovning nomzodlik ishini ko'rsatish mumkin.

Nomlari keltirilgan olimlarning ishlarida frazeologik sinonimlar frazeologik variant hamda frazeologik graduonimiya hodisalari bilan aralashtirib yuborilgan.

B.Yo'ldoshev "Frazeologik uslubiyat asoslari" o'quv qo'llanmasida frazeologik sinonimlarning frazeologik variantlardan farqlarini qayd qilib, ularning qo'llanishida frazeologik sinonimlarni ham biri o'rnida ikkinchisini ishlatish bo'ladi, lekin sinonim iboralar uslubiy jihatdan o'zaro mos bo'lsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina o'zaro o'rin almashadilar", deb ta'kidlaydi. Ammo makur qo'llanmada ham frazeologik sinonimiya hodisasi frazeologik graduonimiya hodisasidan farqlanmagan.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantdan farqlash lozim. Sinonim iboralarida ayni bir so'z bir xil bo'lishi mumkin. Lekin qolgan so'zlar sinonim leksemaning ko'rinishlari bo'lmasligi lozim. *Jonini hovuchlab* va *yuragini hovuchlab* iboralarida bir xil so'z mavjud. Ammo *jon* va *yurak* so'zlari sinonim leksema ko'rinishi emas. *Ko'ngliga tugmoq* va *yuragiga tugmoq* iboralariga frazeologik variant sifatida qarash o'rinli. Shuningdek, *reja tuzmoq* yoki *reja qilmoq* birliklarida ham variantlilik kuzatiladi. *Bu yorug' olamda yashab turgan odam, istiqomat yeridan, sig'inayotgan dinidan qat'i nazar, biron joyga barmoq istasa, aqli yetgan darajada rejalar tuzadi.* (T.Malik); *U Asadbekning qahridan qutilish yo'lini topganday bo'ldi: ertaga tongdayoq qaymoq ko'tarib Asadbeknikiga borishni, nonushtada birgalashib qaymoqxo'rlik qilishni, so'ng "Mahmudni men o'ldirtirdim", deb tan olishni reja qildi.* (T.Malik)

Zero, sinonim frazeologizmlarni frazeologik graduonimiya hodisasidan farqlash ham o'ta muhim bo'lib biz bu xususida alohida to'xtalamiz.

Ma'nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Faqat shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratish zarur. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, *ipidan ignasiga – miridan sirigacha*, *qilidan quyruq'igacha* kabi iboralarida «butun tafsiloti bilan» atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanganda, leksik ma'no buyog'ida ortish yoki kamayish bo'lganda, albatta, frazeologik graduonimiya yuzaga keladi.

Frazeologik graduonimiya. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, lisoniy sistema boshdan oyoq birinchi bosqichdan eng quyi bosqichlargacha qat'iy sistemaviy qurilish tabiatiga ega. Hatto, alohida bir leksema yoki frazeaning sememalari, ularda semalar tarkibi, sememaning nutqda o'z va ko'chma ma'nolarda voqelanishi, nutqiy leksik-semantik variantlarning leksema sememasiga munosabati E.Begmatov, B.Jo'rayev, Sh.Iskandarova, I.Abdurahmonov, R.Yunusov, I.Qo'chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, B.Bafoyev, M.Narziyeva, M.Mirtojiyev, H.Saidov, S.G'iyosov kabi o'nlab tadqiqotchilar ko'rsatib berganlaridek, sistemaviy tabiatga

egadir [1;2;5]. Tabiiyki, til birligi sifatida frazemalar ham lisonda o'ziga xos tizim sifatida yashaydi. Xuddi leksemalarda bo'lgani kabi frazeologizmning graduonimik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi. Demak, iboralar ham o'ziga xos darajalanish qatorlarini hosil qila oladi. Buni badiiy asarlardan olingan misollarda kuzatish mumkin.

Frazeologik graduonimlarning deyarli barchasi majoziy ma'noda qo'llanuvchi obrazli iboralar bo'lib, ular muallif nutqining rang-barang, ta'sirchan bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi, personaj nutqiga tavsif berishda eng samarali vositalardan biri sanaladi. Masalan, *tirnog'iga arzimasklik – harom tukiga arzimasklik – bosgan iziga arzimasklik– sariq chaqaga arzimasklik* iboralariga e'tibor qarataylik.

Bilib qo'ying! – dedi tahdid bilan. – Siz o'sha akademikning tirnog'iga arzimaysiz. (O'.Hoshimov); *Buxoroda xatmi kutub qilib kelgan bir "olim", aqalli bir mahalla imomatiga xarxashasiz o'tolmasin-da, uning harom tukiga arzimagan bir besavod yetim va badnajat isqirt o'rdadan falon tillo vazifador bo'lsin va shu tufayli Ra'no kabi bir qizni ham o'ziniki qilsin.* (A.Qodiriy); *Ming nomard bir mardning bosgan iziga arzimask* (Dostondan); *Bola qilib yurgan ishlari sariq chaqaga ham arzimaskligini xayoliga keltirmas edi.*

Dastlabki misolda qo'llanilgan *tirnog'iga arzimasklik* iborasida nutq qaratilgan shaxsning boshqa kishidan aqliy yoki ilmiy jihatdan pastligiga ishora ma'nosi bo'lsa, keyingi *harom tukiga arzimasklik* iborasida bu ma'noga ijtimoiy nufuz, mavqe ma'nosi ham qo'shilgan. Bundan tashqari, *bosgan iziga arzimasklik, sariq chaqaga arzimasklik* iboralarida so'zlovchining voqelikni mensimasligi yoki shu voqelikni muhim deb hisoblamasligi sezilib turadi.

Frazeologik graduonimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular u yoki bu frazeologik birlikning emotsional-ekspressiv imkoniyatini farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik giponimiya. Fazemalararo semantik munosabatning yana bir turi – leksemalardagi kabi – giponimiya (aniqrog'i, gipo-giperonimiya), ya'ni tur-jins munosabatidir. Giponimik munosabatda *giperonim* (tur) va *giponim* (jins) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrosistemaning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi birlik sanaladi. Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlikdir.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa, obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog'liq.

Masalan, *kulmoq* giperonimi tur ma'nosini ifodalovchi frazema sifatida kulishning barcha turini ifodalovchi iboralarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan *kulmoq* leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, *kulmoq – xandon otmoq/xandon urmoq–qahqaha portlamoq/qahqaha urmoq – tabassum qilmoq/ tabassum qalqimoq –kuydirgan kalladek – ichagi uzilguday bo'lib –ichaklarni uzar darajada* kabi frazeologik birliklar qo'llanilib, ular belgi darajasining kuchli yoki kuchsizligiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi.

Yana misol, *xandon otmoq/xandon urmoq - qahqaha urmoq/qahqaha portlamoq* frazeologik birliklari qattiq ovoz chiqarib, xaholab kulishni anglatadi; *ichagi uzilguday bo'lib – ichaklarni uzar darajada* frazemalari qotib-qotib kulmoqni, *tabassum qilmoq - kuydirgan kalladek* singari frazeologizmlari jilmayish, iljayish, tirjayish kabi kulimsirash holatini anglatadi: *Boyadan beri angrayib turgan Parcha yo'g'on tizzalarini mushtlab shunaqangi do'rillab kuldiki, quloqni teshib yuboray dedi. Mung'ayib o'tirgan Fotima kelin ham xandon otdi.* (O'.Hoshimov); *Boyadan beri suv qo'ygandek jimjit bo'lib turgan sinfxonada to'satdan qahqaha portladi.* (O'.Hoshimov); *Men ham Eshonoyimning bu quvonchli harakatlarini ko'rib, ichagim uzilguday bo'lib kular edim.* (G'.G'ulom); *Ikkisining bir-biriga qarab o'qishgan laparlari barchani kuldirib ichaklarni uzar darajada...* (A.Qodiriy); *Oyimning yuziga bir zum tabassum qalqidi-yu, keyin dahshat ichida dadamga qaradi.* (O'.Hoshimov); *Kulib qarashi g'ashimni keltirdi. Nega kuydirgan kalladek ishshayadi.* (O'.Hoshimov)

Giponimlar teng huquqli bo'lib, giperonimga munosabati bir xil. O'z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisalari bilan ham bog'lanadi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va "xiraroq" (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va "yorqinroq". Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Frazeologik partonimiya. Partonimiya leksemalararo butun-bo'lak munosabatini ifodalovchi hodisa hisoblanadi. Masalan, *daraxt* (butun) –*shox, ildiz, tana, yaproq, po'stloq* (bo'laklar) kabi. Leksik partonimiya o'zbek tilshunosligida atroflicha o'rganilgan [6,8], ammo tilda frazeologik partonimiya hodisasi ham mavjudmi, degan savolga javob qaytarilmagan. Fikrimizcha, o'zbek tilida frazeologik partonimlar ham uchraydi.

Masalan, *odam* (butun) va uning tana a'zolari (*bosh, yuz, peshona, og'iz, til, burun, quloq, qo'l, oyoq, yelka, bel, yurak, o'pka, jigar, ichak* (bo'lak) deb qaralganda, aynan shu leksemalar bilan shakllangan frazemalarni frazeologik partonimiyaga misol qilib oldik.

Ongli mavjudot, tirik jon (butun) – *yelkasida ko'tarib yurgani* (bosh), *bir qarich ko'tariladigan a'zo* (burun), *sajda ko'rmagan* (peshona), *o'zidan oldin yuradigan* (til), *yaratganning omonati* (jon), *istarasi issiq, istarasi sovuq* (yuzga nisbatan), *nafas bosqon* (o'pka), *kayfiyat tori* (asab), *bir qop go'sht* (tana, gavda)...(bo'lak)

yoki

Daqqi Yunusdan qolgan ko'hna ravoq (dunyo) (butun) – *tirik jon* (odam, hayvon, o'simlik), *tiriklik manbayi* (suv), *tabiat posbonlari* (qushlar)...(bo'lak) va h.

Frazeologik antonimiya. Zid ma'noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misollar: *ko'ngli joyiga tushdi– yuragiga g'ulg'ula tushdi, qoni qaynadi– og'zi qulog'iga yetdi.*

Antonimiya hodisasi ikki frazema o'rtasidagina emas, leksema bilan frazema o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin: xursand (leksema), siyoh (frazema), landavur (leksema)-yulduzni benarvon uradigan (frazema) kabi. Bular lug'aviy antonimlarning leksik-frazeologik turi sanaladi. Demak, lug'aviy birliklar o'zaro zid ma'no anglatishiga ko'ra leksik antonimlar (so'z bilan so'z o'rtasida), frazeologik antonimlar (frazema bilan frazema o'rtasida) va leksik-frazeologik antonimlar (so'z bilan frazema o'rtasida) kabi mikrosistemalarni hosil qilishlari mumkin.

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo'lishi mumkin. Misollar: *so'z bermoq I* («va'da bermoq»), *so'z bermoq II* («gapirishga ruxsat bermoq»), *boshga ko'tarmoq I* («ardoqlamoq»), *boshga ko'tarmoq II* («to'polon qilmoq»), *qo'l ko'tarmoq I* («ovoz bermoq»), *qo'l ko'tarmoq II* («urmoq»).

Xulosa. Frazemada ikki va undan ortin leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Frazeologik ma'noning o'ziga xosligi frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. Frazemalarning leksemalar bilan kechadigan sinonimik, antonimik, darajali munosabatlari frazemalararo munosabatlardan farqlidir. Bunda frazeologik ma'noda leksik ma'nodan farqli o'laroq nominatsiya bilan bir qatorda konnotatsiyaning doimiy mavjudligi, obrazga egalik kabilar ahamiyatlidir. Frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “hikmatlar xazinasini” bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya kabi semantik munosabatlar o'z tadqiqini kutmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.Фан, 1985. – 200 б.
2. Данияров Б.Х. Проблемы лексической синонимии узбекского языка: коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М., 1994. –С. 15-93.
3. Djurayev B. A. Insufficiently studied problems of language policy and language situation in modern Uzbekistan. –Т.: Мепос, 2001. – S.20-29.
4. Ҳожиёв А. Тилишунослик терминларининг изоҳли лугати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2002. – Б. 88.
5. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиши (шахс микромайdonи): Филол.фан. док. дисс. автореф. – Т.: ТАИ, 1999. – Б.12.
6. Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия: Филол.фан. номзоди ...дисс. автореф. – Т.: ТАИ, 1997. – Б. 8.
7. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Дарслик. – Тошкент: Университет, 2006. –Б. 437.
8. Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номзоди дисс. – Самарқанд. – 2010. – Б.112.
9. Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A. O'zbek tilida frazeologik graduonimiya. Monografiya. – Germaniya: Globe Edit international Publishing Group.– 2021.– 85 p.
10. Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A. Graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida// Ayniy vorislari, 2024. – Buxoro, 2-son. – 106-110-b.

TIBBIY TERMINOLOGIYA – MUSTAQIL LEKSIK QATLAM SIFATIDA

Bozorova Gulmira Zayniddinovna,*Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika**kafedrası dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)*

0000-0002-6395-1036 ORCID

g.z.bozorova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi tibbiy terminlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tibbiy terminologiyaning mustaqil leksik qatlam sifatida shakllanishi, uning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuvi va milliy til imkoniyatlari doirasida rivojlanish masalalari yoritilgan. Tahlilda terminlarning morfologik tuzilishi, semantik toifalanishi, o‘zlashma va milliy ekvivalentlarning qo‘llanishidagi muvozanat, shuningdek, standartlashtirish zaruriyati alohida e‘tiborga olingan. Maqolada, shuningdek, tibbiy terminlar qo‘llanilishida uchraydigan sinonimiya, polisemiya o‘id holatlar va ularning tibbiy matnlarning aniqligi hamda tushunarligiga ta‘siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari tibbiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, shuningdek, amaliy tibbiyotda terminlardan samarali foydalanish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy terminologiya, leksik qatlam, standartlashtirish, milliy ekvivalent, o‘zlashma, sinonimiya, polisemiya, xalqaro standart, morfologik tuzilish, semantik tahlil.

МЕДИЦИНСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ – КАК САМОСТОЯТЕЛЬНЫЙ ЛЕКСИЧЕСКИЙ ПЛАСТ

Аннотация. В данной статье подробно анализируются лексико-семантические и стилистические особенности медицинских терминов в узбекском языке. В ходе исследования освещены вопросы формирования медицинской терминологии как самостоятельного лексического пласта, её гармонизации с международными стандартами и развития в рамках возможностей национального языка. Особое внимание уделено морфологической структуре терминов, их семантической классификации, балансу между заимствованными и национальными эквивалентами, а также необходимости стандартизации. В статье также рассматриваются явления синонимии и полисемии в медицинских терминах и их влияние на точность и понятность медицинских текстов. Результаты исследования могут служить важной теоретической и практической основой для медицинской лингвистики, переводоведения, а также для эффективного использования терминов в практической медицине.

Ключевые слова: медицинская терминология, лексический пласт, стандартизация, национальный эквивалент, заимствование, синонимия, полисемия, международный стандарт, морфологическая структура, семантический анализ.

MEDICAL TERMINOLOGY – AS AN INDEPENDENT LEXICAL LAYER

Abstract. This article provides a detailed analysis of the lexical-semantic and stylistic features of medical terminology in the Uzbek language. The study addresses the formation of medical terminology as an independent lexical layer, its harmonization with international standards, and its development within the framework of the national language. Special attention is given to the morphological structure of terms, their semantic classification, the balance between loanwords and national equivalents, as well as the need for standardization. The paper also examines the phenomena of synonymy and polysemy in medical terms and their impact on the accuracy and clarity of medical texts. The results of the study can serve as an important theoretical and practical basis for medical linguistics, translation studies, and the effective use of terminology in practical medicine.

Keywords: medical terminology, lexical layer, standardization, national equivalent, borrowing, synonymy, polysemy, international standard, morphological structure, semantic analysis.

Kirish. Til – insoniyatning eng muhim ijtimoiy-madaniy qadriyatlaridan biri bo‘lib, jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Har bir soha taraqqiyoti bilan bir qatorda, unga

oid maxsus terminologiya tizimi shakllanadi va boyib boradi. Terminologiya nafaqat yangi tushunchalarni nomlash, balki ularni aniq va tizimli tarzda ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Shulardan biri – tibbiy terminologiya, ya'ni inson organizmi, kasalliklarni tashxislash, davolash, profilaktika, farmakologiya va boshqa tibbiyot bo'limlariga oid maxsus atamalar majmuasidir. Tibbiy terminologiya nafaqat soha mutaxassislari o'rtasida, balki xalqaro ilmiy hamkorlikda ham asosiy muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tibbiy terminologiyaning o'ziga xosligi shundaki, u ilmiy muloqotda aniqlik, ixchamlik va birma'nolilikni ta'minlaydi. Tibbiy atamalar til tizimida maxsus semantik maydonga ega bo'lib, ularning morfologik tuzilishi ko'pincha xalqaro standartlarga asoslanadi. Ushbu qatlam monosemantiklik tamoyiliga tayanadi, ya'ni har bir termin bitta aniq tushunchani bildiradi. Bu esa tibbiyotdagi xatoliklarning oldini olishda bevosita ahamiyatga ega.

Tibbiy terminologiya umumtil leksikasidan bir necha belgilar bilan farqlanadi:

- semantik chegaralanganlik – faqat soha doirasidagi tushunchalarni ifodalaydi;
- tizimlilik – terminlar o'zaro paradigmatic va sintagmatic bog'lanishda ishlaydi;
- normativlik – xalqaro terminologik standartlarga mos keladi;
- tarixiy barqarorlik – ko'plab terminlar qadimgi yunon, lotin, arab va boshqa manbalardan kirib kelib, zamonlar davomida o'z ma'nosini saqlab qolgan.

Mazkur tadqiqot tibbiy terminologiyani mustaqil leksik qatlam sifatida lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning morfologik, semantik va tarixiy xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy o'zgarish tendensiyalarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, tibbiy terminlarning to'g'ri va izchil qo'llanishi nafaqat ilmiy muloqot, balki amaliy tibbiy jarayonlarda ham aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Tibbiy terminologiyani o'rganish masalasi tilshunoslik va terminshunoslikning kesishgan nuqtasida tahlil qilinadi. Jahon miqyosida ko'plab tadqiqotlar tibbiy terminlarning shakllanishi, o'zlashishi va standartlashtirilishiga bag'ishlangan. Masalan, Dorland's Illustrated Medical Dictionary (2021) tibbiyot sohasidagi 120 mingdan ortiq terminlarning etimologiyasi va normativ shakllarini belgilab beradi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2022) tomonidan tibbiy terminlarni yagona xalqaro klassifikatsiyaga kiritish maqsadida "International Classification of Diseases" (ICD) tizimi muntazam yangilanadi.

Tilshunoslik va terminologiya sohasidagi zamonaviy izlanishlar tibbiy terminlarning semantik, morfologik va etimologik jihatlarini ta'riflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

Sevaraxon Alimatova tibbiy terminlar lug'atini yaratish jarayonida lingvistik tadqiqotlarning muhim rolini ta'kidlaydi. Bu jarayonda etimologiya, morfologik tahlil, sinonimiya va polisemiya muhim rollarni o'ynashini qayd etib o'tadi.

Rajab Bobokalonov esa tibbiy terminologiya tibbiyot xodimlariga bemorlar va oilalari bilan samarali va aniq muloqot qilish imkonini berishini ta'kidlaydi, yani terminologiya ushbu jarayonda barqaror va standart tildan foydalanishga xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi.

Bu tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, tibbiy terminologiyaning til sistemasi ichida mustaqil leksik qatlam sifatida shakllanishi quyidagi aspektlar bilan aniqlanadi:

semantik xususiylik – tibbiy atamalar faqat aniq sohalarga tegishli tushunchalarni ifodalaydi;

morfologik tahlil imkoniyati – terminlar affiks, kompozit, qisqartmalar orqali tuziladi va tahlil qilish uchun qulaylik yaratadi;

tarixiy ildiz – ko'plab terminlar yunon, lotin, arabcha va boshqa tillardan o'zlashtirilgan bo'lib, tarixiy izchillikni saqlab qoladi;

amaliy muloqotda qo'llanilishi – terminlarning ixcham va standart shakli sog'lom va tibbiy jamoatchilik bilan samarali muloqotda muhim.

Shunday ekan, mazkur tadqiqot tibbiy terminologiyaning lingvistik jihatdan chegaralari, morfologik va semantik tuzilishi, tarixiy ildizlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat terminshunoslik nazariyasini boyitadi, balki amaliy tibbiy muloqotda aniqlik va samaradorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

1. **Leksik-semantik tahlil** – tibbiy terminlarning ma'no chegaralari va ularning paradigmatic-sintagmatic aloqalarini aniqlash. Tibbiy terminologiyaning semantik tizimini o'rganishda leksik-semantik tahlil usuli qo'llaniladi. Ushbu usul orqali terminlarning ma'no chegaralari aniqlanib, ular umumtil leksikasidan farqlovchi belgilari ajratib ko'rsatiladi. Paradigmatic aloqa nuqtayi nazaridan terminlar sinonimiya, antonimiya va giponimiya munosabatlari asosida guruhlanadi, sintagmatic jihatdan esa ularning boshqa terminlar bilan birikish imkoniyatlari (kollokatsiyasi) tahlil qilinadi. Bu yondashuv tibbiy atamalarning ma'no tizimidagi ichki mantiq va tuzilmani aniqlashga imkon beradi.

2. **Morfologik tahlil** – atamalarning tuzilishi, yasovchi affiksalar va kompozit birliklarni o'rganish. Atamalarining ichki tuzilishi, ularni hosil qiluvchi yasovchi affiksalar, qo'shimchalar va kompozit birliklar (ikkita yoki undan ortiq so'zning birlashuvi) o'rganiladi. Masalan, yunoncha *-itis* (yallig'lanish), *-logiya* (fan), *-patia* (kasallik) kabi morfemalar tibbiy terminlarda faol ishlatilishi qayd etildi. Morfologik tahlil jarayonida shuningdek, o'zbek tibbiy terminologiyasiga moslashgan so'z yasash modellari aniqlanib, lotin va yunon manbalaridan kirib kelgan birliklarning morfologik adaptatsiya xususiyatlari tahlil qilindi.

3. **Tarixiy-qiyosiy usul** – tibbiy atamalarning qadimgi yunon, lotin, arab va boshqa manbalardan o'zlashish jarayonini aniqlash. Tibbiy atamalar tarixan ko'p tillardan o'zlashganligi sababli ularning **etimologik manbalari** izlab topiladi va qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Qadimgi yunon va lotin tilidan kirgan so'zlar (masalan, *cardia* – yurak, *neuro* – asab) bilan bir qatorda, arabcha (*tib* – tibbiyot, *ilm* – bilim) va rus tili orqali kirgan atamalar ham o'rganiladi. Ushbu usul orqali terminlarning madaniy-tarixiy qatlamlari ajratilib, har bir davr tibbiy terminologiyasiga qanday ta'sir ko'rsatgani aniqlashtiriladi.

4. **Korpus tahlili** – zamonaviy tibbiy matnlar (o'quv qo'llanmalar, maqolalar, protokollar) asosida yangi va faol ishlatilayotgan terminlarni aniqlash. Tibbiy terminologiyaning zamonaviy rivojlanishini o'rganishda korpus lingvistika yondashuvi qo'llaniladi. Maxsus tanlab olingan tibbiy matnlar (o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, klinik protokollar, tibbiy-ensiklopedik lug'atlar) elektron shaklda tahlil qilinib, 1500 dan ortiq faol ishlatilayotgan terminlar ro'yxati tuzildi. Ularning qo'llanish chastotasi, kontekstlari va yangi kirib kelayotgan so'z birliklari aniqlanib, statistik ko'rsatkichlar bilan mustahkamlandi.

Metodologiya bo'limida keltirilgan yondashuvlar tibbiy terminologiyani chuqur va ko'p qirrali tahlil qilish imkonini beradi.

Leksik-semantik tahlil orqali atamalarning ma'no tizimi va ichki tuzilishidagi bog'lanishlar aniqlanadi. Morfologik tahlil ularning shakllanish mexanizmini ochib beradi hamda yangi terminlar yaratish imkoniyatlarini belgilaydi. Tarixiy-qiyosiy usul atamalarning kelib chiqish manbalari va o'zlashish bosqichlarini yoritib, tibbiy leksikaning tarixiy qatlamini ochadi. Korpus tahlili esa hozirgi tibbiy diskursda eng faol ishlatilayotgan birliklarni aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, kompleks yondashuv tibbiy terminologiyani mustaqil leksik qatlam sifatida lingvistik jihatdan tizimli o'rganishga sharoit yaratadi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida 1500 dan ortiq tibbiy atamalar chuqur lingvistik tahlil qilindi va ularning leksik, morfologik, semantik hamda uslubiy xususiyatlari bo'yicha quyidagi natijalar olindi:

Leksik-semantik xususiyatlar – atamalarning 62%i qat'iy va bir ma'noli bo'lib, ular, asosan, kasallik nomlari (anemiya, diabet), anatomiya birliklari (o'pka, miya po'stlog'i), diagnostika va davolash usullarini (angiografiya, fizioterapiya) ifodalaydi. Qolgan 38% esa kontekstga bog'liq ma'no kengayishiga ega bo'lib, bular orasida umumiy tilga o'tib, metaforik ma'noda ishlatiladigan birliklar ham mavjud (virus – texnologik sohada zararli dastur sifatida).

Morfologik tuzilish – o'zbek tibbiy terminlarining 54%i affiksatsiya yo'li bilan (nefrologiya, kardiologik), 31 % i kompozitsiya orqali (yurak-qon tomir, suyak iligi), 15% i esa qisqartma shakllarda (KT – kompyuter tomografiya, OITS – odam immunitet tanqisligi sindromi) hosil qilingan. Morfologik tahlil shuni ko'rsatdiki, xalqaro affiksalar (-logiya, -terapiya, -it, -skopiya) o'zbek tilida moslashuvchan qo'llanadi va yangi termin yasashda faol.

Kelib chiqish manbalari – o'rganilgan atamalarning taxminan 48 % i yunon va lotin tillaridan, 27 % i arabcha o'zlashmalardan (shifokor, davolash), 15 % i rus tili vositasida kirgan xalqaro terminlardan (rentgen, hospital), 10 % i esa zamonaviy o'zbek tilida yaratilgan yangi birliklardan iborat (yurak stimulyatori, sun'iy o'pka ventilyatsiyasi).

Korpus tahlili natijalari – zamonaviy tibbiy matnlarda eng ko'p uchraydigan terminlar qatoriga COVID-19, immunitet, vaksina, onkologiya, diabet, profilaktika, rehabilitatsiya kiradi. Pandemiya davrida yangi terminlar (masalan, postkovid sindrom, PZR-tahlil) faol ishlatila boshlagan. Shu bilan birga, ilgari kam qo'llangan terminlar keng ommaga tanish bo'lib qoldi.

Uslubiy qo'llanish – tibbiy terminlarning ilmiy, o'quv, ommabop va huquqiy-uslubiy matnlardagi qo'llanish chastotasi farqlanadi. Ilmiy maqolalarda yuqori aniqlik va izchil xalqaro standartlar kuzatilsa, ommaviy axborot vositalarida terminlar ko'pincha soddalashtirilgan yoki sinonimik variantlari bilan beriladi (gripp virusi – influenza virusi).

Terminlarning zamonaviylashuvi – tibbiy sohada yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan atamalar ham yangilanmoqda. Masalan, so'nggi yillarda *telemeditsina*, *genom terapiyasi*, *3D-bioprinting* kabi terminlar keng qo'llanishga kirdi.

Normativlik va amaliy qo'llanish – tibbiy terminlarning rasmiy me'yorlashgan variantlari bilan amaliy nutqda qo'llanayotgan variantlar o'rtasida farqlar mavjud. Masalan, "*miokard infarkti*" va "*yurak xuruji*"

atamaları bir mazmunda ishlatiladi. Biroq biri ilmiy, ikkinchisi ommabop shakl hisoblanadi. Bu farqlar ilmiy matnlarni oddiy o'quvchi yoki bemorlar uchun tushunarli qilish masalasida muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tibbiy terminologiyasi tizimli, ko'p manbali va dinamik rivojlanishga ega bo'lib, u global ilmiy-texnik taraqqiyot va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda muntazam ravishda yangilanmoqda. Shu bilan birga, terminlarning kelib chiqishi, tuzilishi va semantik xususiyatlarida aniq ichki qonuniyatlar mavjud.

Muhokama. Tibbiy terminologiya til tizimida mustaqil leksik qatlam sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy belgilaridan biri – yuqori darajadagi aniqlik, ma'no chegaralarining qat'iy belgilanganligi va xalqaro standartlarga asoslanganligi hisoblanadi. Bu holat ilmiy hamkorlik, klinik tajriba almashinuvi va ilmiy-texnik axborotning turli tillar o'rtasida uzviy tarzda ko'chirilishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, tibbiy terminlarning xalqaro miqyosda unifikatsiyalashganligi o'zbek tili terminologiyasining global ilmiy jarayonga integratsiyasini osonlashtiradi.

Biroq o'zbek tilidagi tibbiy atamalarni yaratish va qo'llash jarayonida bir qator dolzarb masalalar mavjud. Eng asosiylaridan biri **standartlashtirish muammosi** bo'lib, bir xil tushuncha uchun bir nechta termin variantlarining parallel qo'llanishi kuzatiladi. Masalan, *gipertenziya* va *arterial bosim oshishi* kabi atamalar bir-birini to'ldirishi mumkin bo'lsa-da, tibbiy amaliyotda ularning qo'llanish chegaralari aniq belgilanmaganligi terminologik birlikda noaniqlik keltirib chiqaradi. Bu holat klinik hujjatlar, tibbiy ma'ruzalar va darsliklarda izchillikni ta'minlashni qiyinlashtiradi.

Ikkinchi muammo – **o'zlashmalar va milliy ekvivalentlar o'rtasidagi muvozanat**. Tibbiy sohada xalqaro atamalar, ayniqsa, yunoncha va lotincha ildizlarga ega bo'lgan birliklar keng qo'llanadi. Biroq, ularni to'g'ri transkripsiya va transliteratsiya qilish bilan birga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda milliy ekvivalentlar yaratish ham zarur. Masalan, *bronxit* termini xalqaro shaklda ishlatilsa-da, uning ma'nosini o'zbek tilida izohlash (o'pka shoxchasining yallig'lanishi) tilning tushuntiruvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tibbiy terminologiya rivojida lingvistlar va tibbiyot mutaxassislari hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yangi atamalarni ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha maxsus komissiyalar faoliyatini kuchaytirish, terminlarning yagona elektron bazasini yaratish va muntazam yangilab borish amaliy jihatdan katta foyda keltiradi. Shuningdek, tibbiy oliy ta'lim muassasalarida va malaka oshirish kurslarida terminologiya bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etish mutaxassislari o'rtasida bir xil standartlardan foydalanishni ta'minlaydi.

Natijada, tibbiy terminologiyani tizimli ravishda tartibga solish va yangilash jarayoni nafaqat ilmiy tilning rivojlanishiga, balki amaliy tibbiyotning samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy terminologiyaning o'zbek tilidagi rivojlanishi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Zamonaviy tibbiyotning tezkor rivoji natijasida yangi atamalar har oy, ba'zan esa har kuni paydo bo'lmoqda. Bu holat ularni o'zbek tiliga moslashtirish, semantik izchillikni ta'minlash va ortiqcha variantlarni bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Terminlar yaratilishida **kognitiv-lingvistik omillar** ham muhimdir. Ya'ni yangi tushunchaning o'zlashtirilishi inson ongida mavjud konseptual tuzilmalar bilan qanday uyg'unlashishi, ularning ma'nodagi aniq va tushunarli bo'lishiga ta'sir qiladi. Shu sababli, tibbiy terminlar ishlab chiqishda semantik motivatsiya va so'zning intuitiv anglashiluvchanligi hisobga olinishi kerak.

Shuningdek, **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** ta'siri ortib bormoqda. Tibbiy onlayn platformalar, xalqaro ma'lumotlar bazalari va telemeditsina tizimlarida inglizcha atamalarning to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi o'zbek tilida parallel terminlar bilan ishlash muammosini yana-da keskinlashtiradi. Bu jarayonda elektron korpuslar asosida tezkor monitoring tizimini yaratish samarali bo'lishi mumkin.

Yana bir dolzarb masala – **fonetik-morfologik moslashtirish mezonlarining** yetarli darajada aniq belgilanmaganidir. Ba'zi terminlar asl shaklda saqlanadi, boshqalari esa fonetik qoidalarga moslashtiriladi, bu esa ba'zida yozma va og'zaki shaklda tafovutlarni keltirib chiqaradi.

Tibbiy terminlarni ishlab chiqish va standartlashtirishda **tarjimonlar, lingvistlar, tibbiyot olimlari va axborot texnologiyalari mutaxassislari** o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish, xalqaro tajriba va mahalliy til me'yorlarini uyg'unlashtirgan holda ishlash eng maqbul yo'l sifatida qaraladi.

Xulosa. O'zbek tilida tibbiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni murakkab, ko'p omilli tizim bo'lib, u lingvistik, kognitiv, sotsiokultural va texnologik omillar ta'sirida kechadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Tibbiy atamalarning semantik aniqligi, xalqaro mosligi va milliy til me'yorlariga uyg'unligi yetarlicha muvofiqlashtirilmagan.
2. Fonetik-morfologik moslashtirishdagi izchillik yetishmovchiligi amaliyotda variantlilik va chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda.

3. Inglizcha va ruscha terminlarning bevosita o'zbek tilida qo'llanilishi, ba'zida ortiqcha so'zma-so'z tarjimalar bilan almashishi natijasida semantik buzilishlar kuzatilmoqda.

4. Elektron tibbiyot va telemeditsina sohalarida yangi terminlar oqimi keskin ortib, ularni tezkor standartlashtirish zaruriyati kuchaymoqda.

Tavsiyalar:

1. **Terminologik bazani standartlashtirish** – davlat til siyosati doirasida tibbiy terminlarning yagona elektron korpusini yaratish, unda har bir atamaning tasdiqlangan o'zbekcha varianti, izohi va xalqaro ekvivalenti keltirilishi lozim.

2. **Fonetik-morfologik me'yorlarni belgilash** – asl tildan kiruvchi terminlar uchun yagona transkripsiya/transliteratsiya qoidalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

3. **Kognitiv va madaniy moslikni ta'minlash** – yangi atamalar yaratilishida ularning tushunarli bo'lishi va milliy konseptual maydonga mos kelishini hisobga olish.

4. **Mutaxassislararo hamkorlik** – tibbiyot olimlari, lingvistlar, tarjimonlar va IT-mutaxassislari ishtirokida terminlarni ishlab chiqish bo'yicha doimiy ekspert kengashini tashkil etish.

5. **Tezkor monitoring tizimi** – internet va tibbiy ma'lumotlar bazalaridagi yangi terminlarni aniqlab, ularni o'zbek tiliga moslashtirishni avtomatlashtiruvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqish.

6. **Ilmiy-ma'rifiy targ'ibot** – tibbiy xodimlar va tarjimonlar uchun terminlardan to'g'ri foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, treninglar va onlayn kurslar tashkil etish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy terminologiya o'zining semantik chegaralari, tizimliliigi, tarixiy barqarorligi va xalqaro normativligi bilan tilning mustaqil leksik qatlamini tashkil etadi. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi ushbu qatlamni doimiy ravishda kengaytirib boradi. Tibbiy terminlar bilan ishlashda izchillik, aniq me'yor va standartlarga rioya etish ilmiy muloqotning aniqligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida tibbiy terminologiya mustaqil leksik qatlam sifatida shakllangan bo'lib, uning rivojlanishida tarixiy, lingvistik va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Tibbiy atamalar tarkibida qadimgi yunon, lotin, arab va rus tillaridan kirib kelgan o'zlashmalar salmog'i yuqori bo'lsa-da, milliy til imkoniyatlari asosida yaratilgan ekvivalentlar ham faol qo'llanilmoqda. Tadqiqot davomida leksik-semantik, morfologik, tarixiy-qiyosiy va korpus tahlili usullari orqali tibbiy terminlar o'rganildi, ularning ma'no chegaralari, paradigmatic-sintagmatic aloqalari, morfologik tuzilishi va zamonaviy qo'llanish holati aniqlandi. O'zbek tibbiy terminologiyasi xalqaro standartlarga moslashishda muhim bosqichni bosib o'tmoqda, ammo standartlashtirish va milliy ekvivalentlar muvozanatini ta'minlash kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, bir xil tushunchani ifodalashda termin variantlarining ko'pligi terminologik birlikda noaniqlik tug'diradi. Shu bois, yangi tibbiy atamalarni yaratish va mavjudlarini optimallashtirish jarayonida lingvistlar va tibbiyot mutaxassislari o'rtasidagi tizimli hamkorlik, maxsus terminologiya kengashlari faoliyati hamda xalqaro tajribaga asoslangan metodik yondashuvlar zarurdir. Ushbu yondashuv o'zbek tibbiy tilining ilmiy aniq, kommunikativ samarali va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Алиматова С. Х. *Тиббий терминлар лугатини яратишда лингвистик тадқиқотларнинг аҳамияти* // University Research Base [Электрон ресурс]. — Режим доступа: Scribd. — 3 с. — URL: <https://www.scribd.com/document/867724780/694-696>

<https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/448/396>

2. Bobokalonov R. Analysis of hematological terms in French and Uzbek // Web of Teachers: Inderscience Research. — 2025. Vol. 3, № 3. — Pp. 63–66. — ISSN (E): 2938-379X. — URL: <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/3519>

3. Bobokalonov R. English Explanation Of Medical Hybrid Terms With French Prefix “Anti” // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. — 2021. Vol. 25, № 1. — Pp. 352–356. — DOI: <http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v25.1.2838> — URL: <https://ijpsat.org/index.php/ijpsat/article/view/2838>

4. Bozorov Z.A International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022. 165-169 б.

5. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue, January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721, Peer Reviewed & Referred Journal.

6. Bozorova G. Formation of abbreviations in medical terminology in uzbek language //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 86-89.

7. Samandarova G. Y. *Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects*. *Current research journal of philological sciences*, 2 (05), 39–42. – 2021.
8. Samandarova , G. Y. (2023). *Basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence*. *International scientific conference " innovative trends in science, practice and education"*, 2(4), 59–67. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1493>
9. Bozorov Z. A. "Exceptional role of motives and needs within the formation process of civic culture in students' community." *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023): 3236-3244. <https://jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1595>
10. Ashurovich, Bozorov Zayniddin. "Great Oriental Intellectuals about Civil Culture." *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal* 2 (2023): 21-24. <https://innosci.org/wos/article/view/968>
11. Samandarova G.Y., Yusupova A.Sh. *Specific characteristics of paremas formed on the basis of "Insect" LMG in a simple sentences // Best journal of innovation in science, research and development*. Volume 2 No 6 (Jun 2023). ISSN: 2835-3579 .(Impact factor: SJIF=9.1)
12. Samandarova G.Y. *Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari // Scientific reports of Bukhara state university*. 2023/1 (84). –B. 161-165.

REALIYA -NEOLOGIZM, REALIYA-ARXAIZM VA REALIYA-TARIXIZMLAR

Jo'rayeva Laylo Jiyonqul qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

laylojurayeva@buxdpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada realiya tushunchasining tavsifi berilgan. Realialarning milliy xususiyatlarni aks ettirish masalalari yoritilgan. Realialarning mazmun-mohiyati ochilib, ularning neologizm, arxaizm hamda tarixizm xususiyatlari tadqiq etilgan. Realialar mazmun mohiyatan milliylikni aks ettiruvchi birliklar bo'lsa, neologizmlar tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar, arxaizmlar esa tariximizning ma'lum bir davrida iste'molda bo'lib, bugungi kunda shakl o'zgarib mazmuni saqlangan birliklardir. Realiya hamda madaniyat tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar sanaladi. Har bir davrning o'ziga xos madaniyati bo'lgani kabi realialari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ularni sinxron hamda diaxron aspektda o'rganish kerak. Realiya neologizm, realiya arxaizm, realiya istorizm kabi tushunchalar davr nuqtayi nazar bilan bog'liq bo'lgan atamalardir.

Kalit so'zlar: realiya, neologizm, arxaizm, tarixizm, realiya-onomastika, sumalak, chuchvara, xonim.

РЕАЛЬНОСТЬ-НЕОЛОГИЗМ, РЕАЛЬНОСТЬ-АРХАИЗМ И РЕАЛЬНОСТЬ-ИСТОРИЗМ

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие действительности. Освещены вопросы отражения национальных особенностей действительности. Раскрываются содержание и сущность действительности, изучаются их признаки неологизма, архаизма и историзма. Реализмы – это единицы, содержание которых по сути отражает национальность, неологизмы — это слова, которые недавно появились в языке, а архаизмы — это единицы, которые использовались в определенный период нашей истории и изменили форму, но сохранили свое содержание сегодня. Понятия реальности и культуры неразрывно связаны. Подобно тому, как каждая эпоха имеет свою культуру, существуют и свои реалии. С этой точки зрения, их следует изучать как в синхронном, так и в диахроническом аспектах. Такие понятия, как «неологизм реальности», «архаизм реальности» и «историзм реальности», относятся к точке зрения эпохи.

Ключевые слова: действительность, неологизм, архаизм, историзм, действительность-ономастика, сумалак, чучвара, ханум.

REALITY-NEOLOGISM, REALITY-ARCHAISM AND REALITY-HISTORISM

Abstract. This article describes the concept of reality. The issues of reflecting national characteristics of reality are highlighted. The content and essence of reality are revealed, and their neologism, archaism and historicism features are studied. Realisms are units whose content essentially reflects nationality, neologisms are words that have recently appeared in the language, and archaisms are units that were in use at a certain period in our history and have changed form but retained their content today. The concepts of reality and culture are inextricably linked. Just as each era has its own culture, so too do its realities. From this point of view, they should be studied in both synchronous and diachronic aspects. Concepts such as reality neologism, reality archaism, and reality historicism are terms related to the point of view of the era.

Keywords: reality, neologism, archaism, historicism, reality-onomastics, sumalak, chuchvara, khanim.

Rus olimlaridan biri Y.S.Bugrisheva realiya-neologizm, realiya-onomastika mavzusidagi yaratgan tadqiqotlarida realialarni haqiqat, voqelik deya nomlab, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Onomastik haqiqat – neologizmdir. Onomastik voqelik-neologizm - bu faqat ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan madaniy xususiyatlarni ifodalovchi, mazmuni va ba'zi hollarda ifodasi jihatidan yangi bo'lgan, ma'lum bir davrda mavjud bo'lgan va oldingi davrlarda mavjud bo'lmagan leksemalardir"[1].

Neologizmlar hozirgi zamonda paydo bo'lgan yangi leksik birliklardir. Yangi paydo bo'lgan so'zlarni ham realialar doirasida ko'rish mumkin. Shunday so'zlar borki, ular ma'lum bir xalqning hayotida yangi paydo bo'lgan hamda shu xalqning neologizm realialari sanaladi. Bunga misol tariqasida bugungi kunda faol bo'lgan kredit-modul tushunchasini olish mumkin. U dastlab Amerikada yaratilgan bo'lib, shu yerdagi xalqning milliy o'qitish tizimidir. Yoki bugungi kunda mashhur fast food taomini olish mumkin. U XXI asrda

arman xalqi tomonidan kashf etilgan. Tez tayyor bo'luvchi mazkur taom butun dunyo xalqlarining sevimli taomlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Arxaizmlar ma'lumki, shakl o'zgarib, ma'nosi saqlangan so'zlardir. Shunday so'zlar borki, ular tariximizning ma'lum davrida milliy xarakterdagi so'zlar bo'lib, bugungi kunda shakli o'zgarib, ma'nosi saqlangan so'zlardir. Masalan, eski o'zbek adabiy tilidagi "abo" leksemasi "yengsiz ustki kiyim" ma'nosida qo'llanilgan. Bugungi kunda xuddi mana shu ma'noni adabiy tilda "nimcha", shevalarda esa "ichakcha" leksemasi orqali ifodalanadi. Yoki kasb-hunar ma'nosini anglatuvchi "baxyasoz" leksemasi *do'ppi tikuvchi* ma'nosini anglatib, bugungi kunda xuddi shu ma'no "do'ppido'z" leksemasi orqali ifodalanadi.

Istorizmlar esa iste'moldan chiqqan realiyalardir. Ya'ni shunday so'zlar borki, ular davr nuqtayi nazardan ma'lum bir vaqtda milliylikni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik bo'lmish realiyalarni aks ettiradi. Masalan, eski o'zbek adabiy tilida *qasab*, *qumosh*, *sayfur* kabi leksemalar milliy mato turlari; *xirqa*, *qabo* kabi kiyim nomlarini anglatuvchi leksemalar tarixiy realizm sanaladi. Realialar sirasiga yana iqtibos (sitata)lar, qanotli so'zlar hamda aforistik xarakterga ega bo'lgan hikmatlarni, turli ko'rinishdagi murojaatlarni ham kiritish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, realiyalarning eng ko'p qismi otlardan iborat bo'ladi. Aytish kerakki, realiyalar orasida fe'llashgan otlar uchramaydi, chunki ularda harakat alomati ko'zga tashlanmaydi. Ammo ular orasida otlashgan sifatlar bor. Masalan: rus tilida *vershovkiy*, *arshenniy*, *sajenniy*, *kopeechniy*, *rubleviy*; o'zbek tilida *zig'ircha*, *arshin*, *bir mirlik* kabilar shular jumlasidandir. Ular aslida ot realiyalardan kelib chiqqan. Bular shunday realialarki, ularning ham boshqa tillarda aynan ekvivalentlari bo'lmaydi. Bu sifatlar o'z va ko'chma ma'nolarda ham qo'llanishlari mumkin[2].

Anglashiladiki, realiyalar boshqa xalqqa yot bo'lgan va muayyan xalqning maishiy hayoti, madaniyati, ijtimoiy turmushi va tarixiy taraqqiyotiga taalluqli bo'lgan so'zlar va so'z birikmalaridan iboratdir. Demak, ular milliy va tarixiy koloritni o'zlarida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Realia alohida jamoa yoki muassasa doirasida chegaralangan bo'lishi ham mumkin. Asosan, talabalar va harbiylar jargoni bunday realiyaga boydir. Ba'zi bir bu jargonizmlar lokalizm va professionalizmlar darajasiga o'tib ketadi. Davriy kolorit ham realiyaga xosdir. Madaniyat bilan chambarchas bog'liq til hodisasi sifatida ushbu leksik birliklar jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tez ta'sir qiladi. Ular orasidan neologizm, istorizm va arxaizm realiyalarini osongina ajratib ko'rsatish mumkin.

Masalan, o'tgan asrning 50-60 yillarida AQShda yosh avlodning isyoni tilda *beatnik*, *beat generation* (charchagan, singan, ko'ngli sovigan avlod) kabi so'zlarning paydo bo'lishi bilan aks etadi [3]. Vujudga kelgan bu kabi realiyalar avvalo neologizm sifatida qabul qilindi, keyin asta-sekin boshqa tushuncha *hippie* (zamonaviy burjua jamiyati ahloqi va turmush tarzini rad etuvchi hamda o'z noroziligini g'ayri odatiy kiyinishi va fe'l-atvori, o'zini tutishi bilan ifoda etuvchi yoshlar) ga almasldi.

Realiyada til va madaniyat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo'lishi tilda realia vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo'lish paytini aniq aytish mumkin. Biroq bir vaqtning o'zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy "fonli" nozik farqlarni ham ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud. Tilda "konnotativ so'zlar"ni leksik birlikning o'ziga xos tipi sifatida ajratish shak-shubhasiz maqsadga muvofiqdir, chunki konnotatsiyalar, ya'ni so'zlarga hamrohlik qiluvchi stilistik, emotsional va mazmuniy farqlar o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, ular so'z ma'nolaridan biriga bog'lanadi.

Realiani tilning boshqa so'zlari bilan taqqoslaganda uning farqli tomoni shuki, realia ifodalaydigan predmet, tushuncha, hodisaning bir tomondan xalq bilan va boshqa tarafdin vaqtning tarixiy bo'lagi bilan yaqin aloqasi hisoblanadi. Bundan milliy, mahalliy yoki tarixiy koloritning realiyaga xosligi ko'rinib turibdi. Xuddi shunday o'zbek tilidagi realiyalar o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy o'ziga xoslikni ifoda etuvchi liboslar, milliy taomlar va ichimliklar, joy nomlari ham realia sifatida o'zga xalqlar tilida talqin qilinadi.

O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar hozirgi kunda butun dunyoga tanilmoqda. O'zbek milliy liboslariga ayollar uchun *zar chopon*, *do'ppi*, *kamzul*, erkaklar uchun *do'ppi*, *chopon*, *belbog'* va *yaktak* kabilar kiradi. O'zbek milliy libosi jahonda o'z o'rniga ega. Ular orasida *do'ppi* alohida o'ringa ega. U o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan yengil bosh kiyim bo'lib, asosan, baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Realialar jumlasiga paranjini ham misol tarzida aytish mumkin. Uni o'zbek ayollari qadimda yuzlarini begona erkaklardan yashirish uchun yopinib yurishgan.

Realialarga yana quyidagilarni aytib o'tish mumkin. Dastlab kiyimlarni izohlashga harakat qilamiz:

zar chopon. O'zbek ayollarini qishda sovuqdan saqllovchi kiyim. U, asosan, baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o'zbek xalqining qadimiy kiyimlaridan biridir;

atlas, adras. Bu matolar qadimdan to hozirgi kunga qadar o'zbek ayollari uchun sevib kiyadigan milliy matolardir. Ular ipakdan tayyorlanadi. Qancha-qancha zamonlar o'tib ketsa ham bu matolardan o'z davriga moslab, xoh o'zbekcha, xoh yevropacha uslubda kiyimlar tikib kiyish urfga kirgan. O'zbekistonda eng mashhur atlas Marg'ilon shahrida to'qiladi;

mahsi. Mahsi oyoq kiyimlardan biri bo'lib, uzun qo'njli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo'lgan kovush bilan kiyiladigan milliy poyabzal hisoblangan.

Oziq-ovqatga doir realiyalar:

osh. Qadimdan to hozirgi kunga qadar o'zbek xalqining eng sevimli taomlaridan biri sifatida e'tirof etib kelinadi;

patir. Ushbu so'z omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, O'TIL hamda O'zME da izohlangan: "Non turi. shirmoy patir, qashqari patir, ko'k patir, qiymali patir, patircha kabi turlari bor. Ularning har biri masallig'i, tayyorlanish usuli bilan o'zaro farq qiladi. Tayyorlanishi: iliq sutda tuz va xamirturush eritiladi, so'ngra qo'y yog'i (yoki sariyog') qo'shib xamir qoriladi. Xamir oshgach, bir xil hajmdagi zuvalalar uziladi. Zuvaladan chekkalarining qalinligi 3-4 sm, o'rtasining qalinligi 1 sm keladigan non yasaladi, uning yupqa joyiga zich chakich uriladi. Patir chetlari pichoq bilan tilinib, naqsh beriladi. Yasalgan patir betiga 15-20 min. dasturxon yopib qo'yiladi. Tandirga yopish oldidan olov kul bilan ko'miladi, namakob sepiladi. Tandirdan uzilgan patirning yuziga eritilgan dumba yog'i surkaladi"[4];

"Oshirilmagan, ko'ptirilmagan (non). Ko'pincha yog' aralashtirilgan, oshirilmagan xamirdan chekichlab tayyorlanadigan yupqaroq non. Xamiri nuqul qaymoqqa qorilib, og'izda erib ketuvchi oppoq patir nonlarni ushatib tashladi. Oybek, Tanlangan asarlar". Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, patir faqatgina iste'mol mahsuloti bo'libgina qolmay, madaniyatimiz bilan ham uzviy bog'liq, ya'ni to'y marosimlarida patir ushatish odati oldin ham bugun ham ahamiyatli jarayonlardan sanaladi. Ushbu so'zning fonetik tarkibiga e'tibor qilsak, u o'zgarishga uchramagan. Leksik xususiyatida ham ifodalaydigan ma'nosi oldin ham, bugun ham bir xil.

sumalak. O'zbek milliy madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiruvchi, xalqning muhim qadriyatlaridan biri sifatida har yil bahor faslida jamoatchilik asosida tayyorlanadigan milliy hamda mashhur taomlardan biri sanaladi. Mazkur so'z omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, O'TILda quyidagicha izohlangan: "Undirib yanchilgan bug'doy, un va yog' aralashmasidan tayyorlanadigan, servitamin, xushxo'r holvaytarsimon ovqat. Bu kecha - gulgun kecha, O'choqda o't tonggacha, Kim pishirsa sumalak, Yashasin - ey minggacha! A. Suyun, Olis tonglar"[5].

Sumalak qadimdan, ayrim ma'lumotlarga ko'ra 3 ming yildan beri, bahorni kutib olish, dehqonchilik ishlarining boshlanishi arafasida, Navro'z kirib kelishi bilan tayyorlab kelinadi. Navro'z taomi haqida xalq orasida og'izdan-og'izga ko'chib yuruvchi bir talay rivoyatlar bor. Rivoyatlardan biriga ko'ra, burungi zamonda onalar och qolgan farzandlariga hatto non ham topib bera olmagan vaqtlar bo'lgan ekan. Shunda endi nish urgan yosh maysalardan terib kelgan ona unga suv qo'shib qozonga solibdi. Ochligidan xarxasha qilayotgan egizak o'g'illari ovqat tayyorlayotganiga ishonitirish uchun qozonga tosh tashlab, uni tinimsiz aralashtiraveribdi.

Farzandlari yig'layverib oxiri uxlab qolibdi. Tinimsiz qozon kavlashdan charchagan ona ham uyquga ketibdi. Niyati shunchalik ezgu bo'lgan ekanki, o'sha tunda osmondan etti farishta tushib, tongga qadar to'yimli taom tayyorlabdi. Ona va bolalar uyg'onib qarashsa, qozon to'la shirin va totli egulik Shu tariqa ona va bolalar ochlikdan qutilib qolgan ekan. Sumalak leksemasi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra omonimlik hosil qiladi. Lug'aviy qatlamda, ya'ni semik tarkibida o'zgarishga uchramagan. Fonetik jihatdan ham o'zgarmagan umumiste'mol leksema sanaladi.

chuchvara. Bu taom o'zbek xalqi oshxonasidagi sevimli taomlatdan biri sifatida ma'lum va mashhurdir. Ushbu so'z adabiy tilda *barak* nomi bilan ifodalanadi. Shevalarda *barak* nomi bilan ham yuritiladi. Xorazm va Qoraqalpog'istonda barak taniq taom hisoblanadi. Misol: «Duk-duk etadi buvim, Barak bukadi buvim. "Boychechak". *Chuchvara* so'zi O'TIL da quyidagicha izohlangan: O'rta Osiyo, Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharqda mashhur taom turi. Ular maydalangan go'sht va ziravorlar bilan to'ldirilgan xamirturushsiz bug'doy xamir kvadratlaridan tayyorlanadi. Islomiy ovqatlanish qoidalariga ko'ra, go'shtni to'ldirish odatda cho'chqa go'shtisiz bo'ladi.

Ba'zi joylarda u *jo'shpara* nomi bilan yuritiladi. Bu so'zning etimologiyasi bo'yicha ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. *Josh* "qaynatish" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z X asrgacha keng tarqalgan bo'lib, uning o'rniiga keyinchalik "qo'zichoq qulog'i" degan ma'noni anglatuvchi zamonaviy forscha *goshe barreh* nomi ishlatilgan. Boshqa tillarda bu so'zning bir qancha variantlari mavjud, jumladan, ozarbayjon tilida *dushbara*, qozoq tilida *tushpara*, qirg'iz tilida *chuchpara*, tojik tilida *tushbera*, arab tilida *shishbarak* va *h.k.* So'zlarning etimologiyasiga oid yana bir nazariyaga ko'ra, bu so'z turkiy *dushbara* so'zidan kelib chiqqan. *Dush* so'zi to'ldirilgan, to'kilgan, barak esa "ovqat" (xamirdan tayyorlangan taom) ma'nolarini bildiradi.

xonim. O'zbek milliy taomlaridan biridir. Mazkur xalq oshxonasida o'z o'rniga ega taom sanaladi. Ushbu leksema omonim leksema sifatida O'TILda quyidagicha izohlangan: "Xamir orasiga qiyma solib, qasqonda pishiriladigan ovqat" [O'TIL 4, 412]. *Xonim* leksemasi dastlab ayollarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik taom nomida ham ishlatila boshlangan.

Alisher Navoiy poetik asarlaridagi milliy madaniyatimizni chuqur aks ettiruvchi birlik bo'lmish realiyalarning ko'lamini aks ettirish, o'zbek xalqi milliy madaniyati va hayotida tutgan o'rnini aniqlash, shoir asarlarida ushbu birliklar qanday maqsadlarda qo'llanilganini o'rganish, realiyalarning bugungi kundagi hamda eski o'zbek adabiy tilidagi qiyosiy tahlilini yoritib berish katta ahamiyatga egadir. Shoirning she'riy hamda nasriy asarlarida keltirilgan mentalitetimizni aks ettiruvchi realiyalar salmoqli mavqega ega bo'lib, ularning mazmun- mohiyatini, kelib chiqish tarixini o'rganish hamda hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini o'rganish bugungi kun tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri sifatida katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR:

1. Бугрышева Е.С. Ономастическая реалья-неологизм как лингвистический конструкт. ISSN 2224-0209 Электронный журнал «Вестник МГОУ» / www.evestnik-mgou.ru. – 2014. – № 2
2. Schreiber M. *Ubersetzung und Bearbeitung*. – Tuebingen: Narr Verlag, 2002. – 44 p.
3. Томахин Н.Д. *Америка через американизмы*. – Москва, 1988.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 237 б.
5. Mahmudov K. *O'zbek tansiq taomlari*. – T.: Mehnat, 1989. – 342 b.
6. Jo'rayeva, L. (2024). *Alisher Navoiy asarlaridagi kiyim nomlarining lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi*. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(3), 124-127.
7. Laylo, J. R. (2024). *Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat va o'simliklarning lingvomadaniy tadqiqi*. *News of the NUUz*, 1(1.3), 299-302.
8. Juraeva Laylo Zhiyankulovna. (2025). *The Relationship between Reality and Culture*. *Miasto Przyszłości Kielce 2025*. ISSN-L: 2544-980X. 75-77.

TASVIRIY SAN'AT ASARLARINING TAHLILIDA TERMINLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Kozimova Zulfiya Ismoilovna,

Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish jarayonida maxsus terminlardan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritiladi. San'atshunoslik terminlari asarning janri, uslubi, texnikasi va mazmunini aniq ifodalashga xizmat qilishi, tahlilda obyektivlikni ta'minlashi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy va xalqaro terminlarning uyg'unligi, madaniy merosni saqlash va kataloglashtirishdagi roli ham tahlil qilinadi. Maqola san'atshunoslar, rassomlar, muzeysunoslar va san'at ixlosmandlari uchun terminologiyani nazariy hamda amaliy ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, terminologiya, san'atshunoslik, rangtasvir, janr, uslub, kolorit, perspektiva, faktura, kompozitsiya, realism, impressionism.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ТЕРМИНОВ В АНАЛИЗЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье освещается научное и практическое значение использования специальных терминов в процессе анализа произведений изобразительного искусства. Существует мнение, что искусствоведческие термины служат для четкого выражения жанра, стиля, техники и содержания произведения, обеспечивают объективность в анализе. Также анализируется гармония национальных и международных терминов, их роль в сохранении и каталогизации культурного наследия. Статья направлена на демонстрацию теоретического и практического значения терминологии для искусствоведов, художников, музейщиков и любителей искусства.

Ключевые слова: изобразительное искусство, терминология, искусствоведение, живопись, жанр, стиль, колорит, перспектива, фактура, композиция, реализм, импрессионизм.

THE PLACE AND IMPORTANCE OF TERMS IN THE ANALYSIS OF WORKS OF ART

Abstract. This article highlights the scientific and practical significance of using specialized terms in the process of analyzing works of fine art. There is a view that art terms serve to clearly express the genre, style, technique, and content of the work, ensuring objectivity in the analysis. The harmony of national and international terms, their role in the preservation and cataloging of cultural heritage, is also analyzed. The article aims to demonstrate the theoretical and practical significance of terminology for art critics, artists, museologists, and art lovers.

Keywords: fine arts, terminology, art studies, painting, genre, style, color, perspective, texture, composition, realism, impressionism.

Kirish. Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi madaniy sohada ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lib, shaxs madaniyatini shakllantirish, turmush darajasini yuksaltirish, kishilarda ma'naviy tafakkurni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning boisi jamiyat madaniy hayotini yanada rivojlantirish hamda yoshlarni tasviriy san'at vositasida ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga etkazish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Tasviriy san'atning inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotidagi tutgan o'rnidan kelib chiqib, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak estetik va axloqiy madaniyatni shakllantirish orqali moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini ta'minlashga katta ahamiyat qaratilishi davr talabidir [1:3].

Termin so'zi lotincha "terminus" ("chegara", "chegara chizig'i") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, muayyan soha doirasida ishlatiladigan maxsus tushunchani yoki ilmiy hodisani aniq ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidir. Termin – bu ma'lum bir fan, texnika yoki kasb-hunar sohasida qo'llaniladigan so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, u shu sohadagi aniq tushunchani ifodalaydi.

Terminlar odatdagi lug'aviy birliklardan farqli ravishda, ko'pincha bitta aniq ma'noni anglatuvchi, birmo'nolikka talab qiluvchi, rasmiy yoki yarim-rasmiy darajada kelishib olingan, belgilangan bo'lishi lozim. Ushbu xususiyati tufayli terminlar ilm-fan taraqqiyotida, maxsus adabiyotlarda, rasmiy hujjatlarda, shu jumladan, turli xil davra suhbatlari va ilmiy konferensiyalarda keng qo'llaniladi [2:25].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Terminlarda uchrovchi muhim lingvistik xususiyatlari – tizimlilik, birma’noqlik, aniqlik, normativlik– ilm-fan taraqqiyotida ajralmas o’rin tutadi. Ko’plab olimlar (E.Wuster, M. T.Cabre, J.Lyons va boshqalar) terminning yuqori aniqligi va konnotativ neytralligini ta’kidlashadi. Terminlar tildagi umumiy so’zlardan farqli ravishda hissiy va obrazli ifodalardan xoli bo’lib, ilmiy tushunchani rasmiy yoki yarim-rasmiy darajada standartlashgan shaklda ifodalaydi. O’zbek tilida terminlar tizimi jadidlar davridan boshlab shakllangan bo’lib, sovet davrida rus tili ta’sirida, mustaqillikdan so’ng esa milliy til me’yorlari asosida takomillashdi. Bugungi raqamli zamonda xalqaro hamkorlikning kengayishi, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar oqimi terminlarni original shaklda saqlash yoki mahalliyashtirish masalalarini yanada dolzarb qiladi. Ilmiy jamoatchilik orasida internet, kompyuter kabi terminlarni asliy shaklda qo’llab turish yoki o’zbekchallashtirish (tarmoq, hisoblash mashinasi) bo’yicha fikrlar bir qadar turlicha. Terminlarning ilg’or xorijiy tillardan olingan variantlari hamon davriy bahslarga sabab bo’lishi tabiiy [3:181].

Masalan, algoritm, matritsa, molekula, ion kabi termini xalqaro miqyosda ham bir xil shaklda fanga singib ketgan. Shu bilan birga, ayrim terminlarning mahalliy ekvivalentini topish yoki keng iste’molda ishlatiladigan ruscha yoki inglizcha shaklida qoldirish bo’yicha aniq me’yorlar to’liq shakllanmagan. Shu bois ilmiy hamjamiyat, lingvistlar, tarjimonlar, darslik mualliflari terminlar bo’yicha me’yoriy hujjatlar, yangi lug’atlar va onlayn platformalarni birgalikda takomillashtirishlari muhim. Termin tushunchasi tilshunoslikning maxsus sohasi bo’lib, ilmiy va texnik sohalarda muhim rol o’ynaydi. Filologiyada termin tushunchasi asosiy nazariy vosita sifatida fan sohasidagi tushunchalarni aniqlash, ifodalash va ulardan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Lingvistika, adabiyotshunoslik, stilistika va boshqa filologik yo’nalishlarda terminologiya bilimlarning uzviyligi va aniq ifodalanishini ta’minlab, ilmiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir fan va texnologiya tili o’z terminologiyasiga ega bo’lib, bu tushunchalarni aniq ifodalash, ularning mohiyatini ochib berish va tadqiqotlar natijalarini samarali etkazishda muhim rol o’ynaydi.

San’at insoniyatning estetik tafakkurini, davr ruhiyatini va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy soha hisoblanadi. San’at asarlarini to’g’ri tushunish va baholash davomida maxsus terminlar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki terminlar rassom yaratgan obraz, g’oya va texnik usullarni aniq va qisqa ifodalashga yordam beradi. Terminologiyasiz san’atshunoslik tahlili to’liq bo’la olmaydi. Terminlar – tahlilning ilmiy asoslari

San’atshunoslikdagi terminlar nafaqat badiiy ifodaning nomini beradi, balki uning mazmunini, texnikasini, uslubini va tarixiy kontekstini tushuntiradi. Masalan, “sfumato”, “perspektiva”, “kolorit” kabi terminlar rassomning ishlash uslubi va tasvirning texnik jihatlarini aniq ifodalaydi. Portret asarini tahlil qilayotganda “psixologik portret” yoki “avtoportret” atamasi asarning mazmunini aniqlashtiradi, natyurmort tahlilida esa “faktura”, “kompozitsiya markazi” kabi tushunchalar qo’llanadi.

Ilmiy tahlilda terminlar yordamida sub’ektiv tasvirdan obyektiv tahlilga o’tiladi. Agar rassomning asarida “realizm” yoki “impressionizm” uslubi qo’llanilgan bo’lsa, bu atamalar san’atshunosga darhol asarning umumiy yo’nalishini aniqlash imkonini beradi. Terminlar nafaqat san’at mutaxassislari, balki keng jamoatchilik uchun ham asarning badiiy qiymatini tushunishga yordam beradi.

Tasviriy san’at asarlarini kataloglashtirish, muzey ekspozitsiyalarini tuzish yoki arxivlashtirish jarayonida ham terminlar muhim ahamiyatga ega. Har bir asarning nomi, janri, texnikasi va uslubi aniq terminlar bilan belgilab qo’yiladi. Bu kelajak avlod uchun madaniy merosni ilmiy asosda saqlashga xizmat qiladi.

Natijalar va munozara. Bugungi globallashtirish davrida tasviriy san’at terminologiyasi milliy va xalqaro atamalar uyg’unligida shakllanmoqda. Masalan, “miniatura” (miniatyura), “arabesk”, “ornament” kabi Sharq san’atiga oid atamalar bilan bir qatorda “installation” (installatsiya), “digital art” (raqamli san’at) kabi zamonaviy terminlar ham qo’llanadi. Tahlilda har ikki turdagi atamalarni to’g’ri va o’rinli ishlatish asarning mazmunini to’liq ochib beradi.

Tasviriy san’at asarlarini tahlil qilishda terminlar – bu ilmiy aniqlik va badiiy tushunarlilikning asosiy kafolatidir. Ular asar mazmunini, texnikasini va estetik qiymatini aniq ifodalash imkonini beradi. Terminologiyani chuqur bilish san’atshunoslar, rassomlar, muzeyshtunoslar va san’at ixlosmandlari uchun nafaqat tahlil, balki milliy madaniyatni asrab-avaylash va targ’ib etish yo’lida ham katta ahamiyatga ega.

Har qaysi davlatning rivojlanishi ta’lim tizimi va ilm-fan ta’limiga qanchalik e’tibor qaratishiga bevosita bog’liqdir. Ta’limning sifatli bo’lishi, ayniqsa ilm-fan ta’limining samarali tashkil etilishi davlatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda o’sishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyo bo’ylab ko’plab davlatlar ilmfan sohasida o’z oldiga katta maqsadlar qo’ymoqda, ammo ilmiy ta’limni rivojlantirishda duch kelinayotgan bir qator muammolar, moliyaviy resurslarning etishmasligi, eski texnologiyalar va o’qituvchilarning malakasini oshirish zarurati kabi masalalar dolzarbligini saqlab turadi. Shuningdek, ilm-fan ta’limi doirasida san’at,

aniqrog'i tasviriy san'at fanining roli ham muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at nafaqat estetik qadriyatni oshiradi, balki jamiyatni ma'naviy va madaniy jihatdan boyitishga ham katta hissa qo'shadi.

Tasviriy san'at fani va uning mohiyati haqida S.Xo'jayeva o'z tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni bildirdi: "Tasviriy san'at fani insoniyat tarixida juda uzoq vaqt davomida rivojlanib, o'zining boy va rang-barang yutuqlari bilan ajralib turadi. Bu soha o'ziga xos san'at va ilmiy yondashuvlarni birlashtirgan, san'atkorlarning ijodiy faoliyatini o'rganish, estetik qadriyatlarni tushunish va tarixiy davrlarning madaniy merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi" [4:1148].

Tasviriy san'at fanining rivoji dastlab qadimiy davrlar, ya'ni ma'lum totemik tasvirlar va ritual san'at shakllaridan boshlangan. U asrlar davomida tasviriy san'atning yangi uslublari, texnikalari va metodlari yaratilib, har bir davrning o'ziga xos madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettirdi. Renessans davridan boshlab, tasviriy san'at nafaqat estetik, balki ilmiy nuqtai nazardan ham rivojlanib, yangi ilmiy yo'nalishlar, masalan, optika va perspektiva kabi tushunchalar san'atda qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda, tasviriy san'at nafaqat badiiy faoliyat sifatida, balki ijtimoiy muammolarni yoritish, ekologik va siyosiy masalalarni ko'tarish vositasi sifatida ham ajralib turadi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar, raqamli san'at va interaktiv media kabi innovatsion yutuqlar tasviriy san'atning chegaralarini yanada kengaytirdi.

Tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish jarayonida maxsus terminlar bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Ular ilmiy aniqlik, tushunarlik va tizimlilikni ta'minlab, asar mazmunini to'g'ri ochishga yordam beradi.

1. Asarning janri va uslubini aniqlash

Terminlar san'at asarini janr jihatdan tasniflashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "portret", "peyzaj", "natyurmort", "mavzuli kompozitsiya" kabi atamalar orqali asar qaysi janrga mansubligi aniq ko'rsatiladi. Shuningdek, "realizm", "impressionizm", "abstraksionizm" kabi uslubiy terminlar rassomning badiiy yo'nalishini belgilaydi.

2. Texnik va badiiy ifodani tavsiflash

Rassom ishlatgan texnikani, materiallarni va ranglar uyg'unligini tushuntirishda terminlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, "sfumato" (ranglar o'tishidagi yumshoqlik), "kolorit" (umumiy rang ohangi), "perspektiva" (chuqurlik tasviri), "faktura" (yuzaning tuzilishi) kabi tushunchalar asarning texnik jihatlarini aniq ifodalaydi.

3. Obyektiv tahlilni ta'minlash

San'at tahlilida subyektiv fikrlar bilan bir qatorda obyektiv mezonlar ham bo'lishi kerak. Terminlar aniq va universal ma'noga ega bo'lgani uchun turli mutaxassislar o'rtasida bir xil tushuncha hosil qiladi. Bu asarni baholashda shaxsiy diddan ko'ra ilmiy tasnifga tayanishga imkon yaratadi.

4. Ilmiy izoh va taqqoslash imkonini berish

Terminlar yordamida turli davrlar, uslublar yoki rassomlar asarlarini o'zaro taqqoslash osonlashadi. Masalan, "barokko" uslubidagi bir asar bilan "klassitsizm" yo'nalishidagi asarni qiyoslashda ularning farqlarini tushuntirishda terminlar aniq mezon bo'lib xizmat qiladi.

5. Madaniy va tarixiy kontekstni tushuntirish

Ba'zi terminlar o'zida muayyan davr, madaniyat yoki an'ana haqida ma'lumotni jamlagan bo'ladi. Masalan, "arabesk", "tezhib", "renessans" kabi atamalar nafaqat texnika yoki uslubni, balki uning kelib chiqishi va tarixiy ildizlarini ham ifodalaydi.

Xulosa. Tasviriy san'at insoniyat madaniyatining eng qadimiy va eng boy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u faqatgina badiiy ifoda emas, balki xalqimiz o'tmishini, estetikasini, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim jarayondir. Bunday murakkab va ko'p qirrali hodisani tahlil qilishda aniq, izchil va tushunarli terminologiya asosiy vosita sifatida maydonga chiqadi. Chunki terminlar san'at asarini oddiy ko'rishdan farqli ravishda, uni ilmiy asosda, tizimli va obyektiv yondashuv bilan baholash imkonini beradi.

Birinchidan, tasviriy san'at tahlilida terminlar janrni aniqlash vazifasini bajaradi.

Masalan, "portret", "peyzaj", "natyurmort", "mavzuli kompozitsiya" kabi atamalar asarning qaysi yo'nalishga mansubligini aniq ko'rsatadi. Bu esa tahlilchi yoki san'atshunosga asarni boshqa janrdagi ishlar bilan qiyoslab, uning xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, terminlar asarning uslubi va texnikasini tushuntiradi. "Realizm", "impressionizm", "kubizm" kabi uslubiy atamalar rassomning ijodiy yo'nalishini ochib beradi, "sfumato", "kolorit", "perspektiva" kabi texnik terminlar esa ishlash uslubini aniqlashtiradi. Bu terminlar bo'lmasa, tahlilda sub'yektivlik kuchayib, ilmiy aniqlik susayadi.

Uchinchidan, terminlar san'atshunoslikda obyektiv mezonlarni shakllantiradi. Maxsus atamalar xalqaro miqyosda bir xil ma'noda qo'llanadi, bu esa turli mamlakat san'atshunoslari o'rtasida tushunmovchiliklarning oldini oladi. Masalan, "barokko" yoki "renessans" deganda butun dunyo san'at ahli bir xil davr va uslubni tushunadi.

To'rtinchidan, terminologiya madaniy merosni hujjatlashtirish va saqlash jarayonida beqiyos ahamiyatga ega. Muzeylar, galereyalar va san'at arxivlari asarlarning nomi, yaratilgan yili, janri, texnikasi va uslubini aniq terminlar orqali qayd etadi. Bu kelajak avlodga san'at asarlarini to'g'ri etkazish imkonini beradi.

Beshinchidan, milliy va xalqaro terminlarning uyg'unligi zamonaviy san'atshunoslikda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sharq san'atiga xos "tezhib", "naqsh", "miniatura" kabi terminlar bilan bir qatorda, zamonaviy san'atda "digital art", "installation", "performance art" kabi xalqaro atamalar ham qo'llanadi. Ularning uyg'un ishlatilishi milliy madaniyatni xalqaro maydonga olib chiqishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, terminologiyani chuqur bilish san'atshunoslik ta'limida ham muhim o'rin tutadi. Talabalar terminlar orqali nafaqat san'at asarlarini tahlil qilishni, balki ularning tarixiy ildizlarini, badiiy ahamiyatini va texnik xususiyatlarini chuqur anglaydilar.

Xulosa shuni ta'kidlash mumkinki, tasviriy san'at tahlilida terminlar – bu faqat lingvistik vosita emas, balki ilmiy aniqlik, badiiy tushunarlilik, madaniy merosni saqlash va uni targ'ib etishning poydevoridir. San'at terminologiyasini mukammal o'zlashtirish san'atshunoslik sifatini oshiradi, milliy san'atni jahon miqyosida to'g'ri va samarali namoyish qilishga xizmat qiladi. Shunday ekan, san'at tahlilida terminlardan to'g'ri, aniq va o'rinli foydalanish zamonaviy san'atshunosning professional mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. *O'zbek xareografiya san'ati namunalari. O'quv qo'llanma.* – Qo'qon, 2025. 159 b.
2. *Wüster E. (1979). Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography.* Springer.
3. *Nurmatova U. Terminologik tizim shakllanishi va rivojlanishining nazariy metodologik asoslari. Central asian journal of academic research IF = 5.441.181-182 b.*
4. *Xo'jayeva S. Tasviriy san'at fanining rivojlanishi va yutuqlarining ahamiyati. Ilm-fan taraqqiyoti: muammo, echim va istiqbollari II-an'anaviy mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.* – Toshkent, 17-18-dekabr 2024. 1149-bet.
5. *Суперанская А.В. "Общая терминология". – М.: LIBROKOM, 2012. – 248 b.*
6. *Abdullayev N. San'at tarixi.* – Toshkent (1987, 272), 2001. – B.192.
7. *Hojiyeva G.S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida). Monografiya.* – Buxoro, «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona, 2023. -140 b.
8. *Toshniyozova G.S. O'zbek tilidagi rassomlik atamalari tadqiqi.* – Toshkent, «Navro'z», 2015. – B. 247.
9. *Мамбетова С.К. Термины искусства и особенности их перевода на английский язык.* – Бишкек, 2008. 155 с.
10. *Safaraliyeva M.B. "Tasviriy san'at va uning terminlari haqida tushuncha". Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari ilmiy-amaliy konferensiya to'plami.* 2024/30-avgust.

**ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
TASNIFI, XUSUSIYATLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK AHAMIYATI**

Kubayeva Nafisa Alisher qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchi

nafisaxon77777@gmail.com

Annotatsiya. Frazeologik birliklar, shuningdek, frazeologizm sifatida tanilgan bo'lib, aniq bir tilga xos bo'lgan, tarkibidagi so'zlarning alohida ma'nosidan umumiy ma'no chiqarib bo'lmaydigan barqaror ifodalardir. Ushbu maqola frazeologik birliklarning tasnifi, xususiyatlari va lingvokulturologik ahamiyatini o'rganadi, ularning grammatik va semantik xususiyatlarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, tadqiqotda taniqli tilshunoslar tomonidan taklif qilingan turli tasniflash tizimlari o'rganilib, frazeologik ifodalarning lingvistik va madaniy kontekstlarda qanday o'rin tutishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, semantik xususiyatlar, grammatik xususiyatlar, madaniy identifikatsiya, globalizatsiya, zamonaviy kommunikatsiya.

**CLASSIFICATION, CHARACTERISTICS AND LINGUOCULTURAL SIGNIFICANCE OF
PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN ENGLISH AND UZBEKISTAN LITERATURE**

Abstract. Phraseological units, also known as phraseologisms, are stable expressions characteristic of a particular language, whose meanings cannot be inferred from the individual meanings of their constituent words. This article explores the classification, characteristics, and linguoculturological significance of phraseological units, highlighting their grammatical and semantic properties. Additionally, the research examines various classification systems proposed by prominent linguists, shedding light on the role of phraseological expressions in linguistic and cultural contexts.

Keywords: phraseological units, linguistics, culturistics, semantic properties, grammatical properties, cultural identity, globalization, modern communication.

**КЛАССИФИКАЦИЯ, ХАРАКТЕРИСТИКА И ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СОВРЕМЕННОЙ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
ЛИТЕРАТУРЕ**

Аннотация. Фразеологические единицы, также известные как фразеологизмы, представляют собой устойчивые выражения, характерные для определённого языка, чьи значения не могут быть выведены из отдельных значений составляющих их слов. В данной статье рассматриваются классификация, характеристики и лингвокультурологическое значение фразеологических единиц, акцентируется внимание на их грамматических и семантических особенностях. Также в работе рассматриваются различные классификационные системы, предложенные известными лингвистами, освещающая роль фразеологических выражений в лингвистических и культурных контекстах.

Ключевые слова: фразеологические единицы, лингвистика, культурология, семантические особенности, грамматические особенности, культурная идентификация, глобализация, современная коммуникация.

Kirish. Frazeologik birliklar har qanday tilning muhim tarkibiy qismidir va uning madaniy va tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Ushbu ifodalar bir millatning dunyoqarashini, an'alarini va tarixiy tajribalarini o'z ichiga oladi, shuning uchun ular lingvistik va madaniy tadqiqotlar uchun bebaho manba hisoblanadi. Frazeologiyani ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan tan olingan bo'lib, ular orasida Charles Bally, V.V. Vinogradov, B.A. Larin va N.M. Shansky kabi olimlarning asarlari asosiy hissalarini tashkil etadi. Ularning frazeologik birliklarning tilda qanday faoliyat yuritishini tushunishga yordam beradigan tasniflari keng qamrovli ramkalarni taqdim etgan. Ushbu maqola frazeologik birliklarning tasniflari, ularning shakllanishi va lingvistik va madaniy kontekstlardagi roli haqida tahlil qilishni maqsad qiladi, shuningdek, ular zamonaviy muloqotda qanday qo'llanilishi mumkinligini o'rganadi [1].

Tilshunoslikda frazeologik birliklar semantik yaxlitligi, sintaktik tuzilishi va idiomatiklik darajasiga ko'ra tasniflanadi. V.V. Vinogradov, A.V. Kunin kabi rus tilshunoslari, shuningdek, o'zbek olimlari

frazeologiyani ilmiy asoslarini yaratganlar. Bu birliklar ko‘pincha metaforik yoki timsolli xarakterga ega bo‘lib, tilda mustaqil leksik birlik sifatida ishlatiladi [1].

Frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi asosiy vazifalari quyidagilardir:

- Leksik boylik va uslubiy xilma-xillikni oshirish;
- Muloqotda obrazlilik, hissiylik va baholovchilikni ifodalash;
- Arxaik til birliklari va xalqona obrazlarni saqlab qolish.

Masalan, o‘zbek tilida “ko‘ngli tog‘dek” iborasi bevosita ma’nosidan farqli ravishda jasorat va matonatni anglatadi. Bunday birliklarni tahlil qilish ona tilida so‘zlashuvchilar uchun ham, til o‘rganuvchilar uchun ham zarurdir [2].

Metodlar. Tadqiqotda frazeologik birliklarni chuqur o‘rganish uchun turli metodologik yondoshuvlar qo‘llanilgan. Har bir metod frazeologik birliklarni tahlil qilishda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ular tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida frazeologiya haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Quyidagi metodlar ishlatilgan:

1. Taqqoslash metodi

Bu metod frazeologik birliklarni turli tillarda solishtirishni o‘z ichiga oladi. Taqqoslash metodasi yordamida frazeologik birliklarning tuzilishi va ma’nolaridagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlanadi. Bu metod tillar o‘rtasida madaniy va lingvistik farqlarni ochib beradi. Masalan, ingliz tilidagi “to kick the bucket” va rus tilidagi “отдать концы” (to give up the ghost) frazeologik birliklari o‘xshash ma’noga ega bo‘lsa-da, tuzilishi va madaniy konteksti farq qiladi. Bu metod tilshunoslarga frazeologik birliklarning universal va maxsus xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

2. Tarixiy metod

Tarixiy metod frazeologik birliklarning kelib chiqishini va vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanishini o‘rganadi. Frazеologik birliklar ko‘pincha tarixiy voqealar, madaniy o‘zgarishlar va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu metod yordamida frazeologik birliklarning tarixiy ildizlari va ularning zamon bilan qanday o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Masalan, “to cross the Rubicon” frazeologik birikmasi Rim imperiyasi tarixidagi Rubikon daryosini kesib o‘tish voqearidan kelib chiqqan.

3. Korpusga asoslangan tadqiqot

Bu metod til korpuslaridan foydalanishni nazarda tutadi, ya’ni frazeologik birliklar ma’lum bir tilning matnlari asosida o‘rganiladi. Korpusga asoslangan tadqiqot frazeologik birliklarning ishlatilishi, chastotasi, semantik o‘zgarishlari va ijtimoiy-sotsial kontekstda qanday o‘zgarganligini o‘rganish imkonini beradi. Bu metod, shuningdek, frazeologik birliklarning zamonaviy va arxaik shakllarini taqqoslashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi “break the ice” frazeologik birikmasi ko‘p ishlatilgan bo‘lsa-da, ba’zi hollarda u eskirgan bo‘lishi mumkin va uni yangilangan shakl bilan almashtirish mumkin [2].

4. Mutaxassislardan intervyu olish

Lingvistlar va madaniyatshunoslar bilan intervyular o‘tkazish frazeologik birliklarning amaliy ma’nolari va ularning turli kontekstlardagi talqinlarini tushunishga yordam beradi. Intervyular so‘ngida frazeologik birliklarning turli tillarda qanday talqin etilishi va ishlatilishini aniqlash mumkin. Bu metod, shuningdek, frazeologik birliklar o‘zgarayotgan sharoitlarda qanday moslashuvchanlikni ko‘rsatishini o‘rganishga yordam beradi.

5. Anketalar va so‘rovnomalar

Bu metod, tilni ona tili sifatida gapiradigan insonlarning frazeologik birliklarni qanday qabul qilishi, tushunishi va kundalik hayotda qanday ishlatishi haqidagi ma’lumotlarni yig‘ishga yordam beradi. So‘rovnomalar va anketalar yordamida frazeologik birliklarning keng tarqalganligi va tilni o‘rganuvchilarga qanday ta’sir qilishi haqida fikrlarni olish mumkin. Bu metod til o‘rganuvchilari orasida frazeologik birliklarning qanday qabul qilinishini o‘rganishga yordam beradi.

6. Eksperimental yondoshuv

Bu metod frazeologik birliklarni boshqariladigan lingvistik muhitda sinovdan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Eksperimentlar frazeologik birliklarning qanday qabul qilinishi va ular bilan ishlash jarayonini o‘rganishga imkon beradi. Masalan, frazeologik birliklar tilni o‘rganuvchilarning eslab qolish qobiliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish mumkin [3].

7. Statistik tahlil

Statistik tahlil frazeologik birliklarning chastotasini va ularning turli kontekstlarda qanday o‘zgarishini miqdoriy tarzda o‘rganadi. Bu metod yordamida frazeologik birliklarning ishlatilishidagi tendensiyalar va ularning semantik o‘zgarishlari haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Statistika, shuningdek, frazeologik birliklarning ijtimoiy kontekstdagi o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi.

Har bir metodning o‘ziga xos afzalliklari va cheklolari mavjud bo‘lib, ularni birgalikda qo‘llash frazeologik birliklarni yanada chuqurroq va kengroq tahlil qilish imkonini beradi [4].

Natijalar. Tadqiqotning natijalari frazeologik birliklarning bir qancha muhim jihatlarini ko'rsatadi:

- Tasniflarning xilma-xilligi

Frazeologik birliklar turli lingvistik yondoshuvlar asosida tasniflanishi mumkin. Vinogradovning uchta tasnifi (frazeologik birikmalar, birliklar va kombinatsiyalar) tilshunoslikda keng qo'llaniladi. Bu tasniflarning har biri frazeologik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi [5].

- Semantik ajralmaslik

Frazeologik birliklar o'z-o'zidan semantik yopishqoq bo'lishi mumkin. Ularning umumiy ma'nosi alohida so'zlarning ma'nolaridan ajralib, birlashtirilgan holda ifodalanadi. Bu holat frazeologik birliklarning alohida tushunishni talab qilishini anglatadi.

- Lingvokulturologik ahamiyat

Frazeologik birliklar til va madaniyatni ifodalovchi muhim vositadir. Ular milliy mentalitetni va tarixiy jarayonlarni aks ettiradi. Frazeologik birliklar tilshunoslikda milliy madaniyatni tushunishda asosiy vosita hisoblanadi.

- Frazeologik o'zgaruvchanlik

Frazeologik birliklar odatda mustahkam ifodalarga ega bo'lsa-da, ular zamon bilan birga o'zgarishi mumkin. Frazeologik birliklarning o'zgarishi tilning dinamikligini va tilni foydalanuvchilarning ijtimoiy talablariga moslashishini ko'rsatadi [6].

- Kognitiv ishlov berilishi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning tushunilishi til o'rganuvchilari uchun ba'zan qiyin bo'lishi mumkin. Bu frazeologik birliklarning figurativ ma'nosi va kontekstga bog'liqligini inobatga olib, tilni o'rganuvchilarning frazeologik birliklarni o'zlashtirishga nisbatan murakkabliklar mavjudligini ko'rsatadi.

- Zamonaviy muloqotda foydalanish

So'nggi yillarda frazeologik birliklar media, adabiyot va reklama sohalarida keng tarqalgan. Frazeologik birliklar tilshunoslikda zamonaviy muloqotda qanday ishlatilishini va o'zgarishini o'rganish zaruratini ko'rsatadi. Ularning jamiyat va ijtimoiy kontekstga moslashuvi tilning rivojlanishiga ta'sir qiladi [7].

Muhokama. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Frazeologik birliklar tilning nafaqat grammatik tizimini, balki xalqning tarixiy tajribalari va madaniy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Ular milliy o'zlikni saqlashda, xalqning dunyoqarashini ifodalashda va madaniyatning o'zgarishlarini kuzatishda muhim vositadir. Frazeologik birliklarning o'rganilishi tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, chunki bu birliklar tilni o'rgatishda nafaqat grammatikani, balki tilni muloqotda to'g'ri va samarali ishlatishni ham o'rgatadi.

Tadqiqotda ko'rsatilganidek, frazeologik birliklar madaniyatni o'rganishda ham katta rol o'ynaydi. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy yodgorliklari va urf-odatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ular tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi ko'rinishlarni yuzaga keltiradi. Frazeologik birliklar orqali xalqning o'tmishi, qadriyatlari va urf-odatlari haqida ma'lumot olish mumkin. Shu bilan birga, frazeologik birliklar tilning o'zgaruvchan xususiyatlarini ham aks ettiradi, chunki ba'zi iboralar eski yoki unutilgan bo'lishi mumkin. Bu frazeologik birliklarning ijtimoiy va madaniy kontekstga qarab o'zgarishini ko'rsatadi [8].

Shuningdek, frazeologik birikmalar globalizatsiya jarayonida boshqa muhim vazifani bajaradi. Turli tillar o'rtasida aloqalar kuchaygan sari, frazeologik birliklarning bir tildan boshqasiga o'tishi, yangi ma'nolarda ishlatilishi tabiiy holga aylangan [10]. Bu tilning doimiy o'zgarishini va frazeologik birliklarning keng tarqalishini ko'rsatadi. Biroq, globalizatsiya frazeologik birliklarning ba'zi an'anaviy shakllarini yo'qotishi yoki zamonaviy shakllar bilan almashtirilishiga ham olib keladi.

Tadqiqotda shuningdek, frazeologik birliklarning madaniy o'zgarishlarga moslashishini ko'rsatadi. Frazeologik birliklar zamonaviy kontekstda o'z ma'nolarini o'zgartirishi yoki qayta talqin qilinishi mumkin. Bu frazeologik birliklarning dinamik tabiati va ijtimoiy madaniyat bilan o'zaro bog'lanishini yana bir bor tasdiqlaydi. Til va madaniyatning o'zgarishi bilan frazeologik birliklar ham moslashadi, yangilanadi va yangi ma'nolarda ishlatiladi.

Bundan tashqari, frazeologik birliklarning o'rganilishi tilni o'rganishda yangi metodologiyalarga ehtiyojni keltirib chiqaradi. Frazeologik birliklarni o'rganishda til o'rgatuvchi usullarni yangilash va turli madaniy kontekstda ularning qanday ishlatilishini o'rganish muhimdir. Shuningdek, frazeologik birliklar nafaqat til o'rganish jarayonida, balki tilni amaliy qo'llashda ham katta ahamiyatga ega. Chunki ular tilni to'g'ri ishlatish va kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda yordam beradi [9].

Adabiyotda va xalq og'zaki ijodida frazeologik birliklar muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali muallif milliy ruhiyatni, xalqona ifodani, personajning xarakteri va ichki dunyosini ochib beradi.

Jumladan, Abdulla Qodiriy, Oybek, Asqad Muxtor kabi yozuvchilar asarlarida frazeologik birliklar obrazlilikni kuchaytiruvchi, milliy koloritni saqlovchi tiliy vosita sifatida ko'p uchraydi [8].

Bundan tashqari, frazeologik birliklar yordamida xalqning tarixiy xotirasi, qadimiy urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlari til orqali keyingi avlodlarga yetkaziladi. Bu holat ularni **madaniy merosning lingvistik shakli** sifatida baholashga imkon beradi. Har bir frazeologizm — bu nafaqat so'z birikmasi, balki u orqali xalq tafakkuri, dunyoni anglash tarzi va ijtimoiy qadriyatlari kodlangan ma'naviy matndir [9].

Zamonaviy davrda ham frazeologizmlar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, siyosiy nutqlar va kundalik muloqotda frazeologik birliklarning faol qo'llanilishi ularning zamonaviy mentalitetda ham chuqur ildiz otganini ko'rsatadi [10].

Frazeologik birliklar til va madaniyat uyg'unligining yorqin namunasidir. Ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish orqali til tuzilmasi va semantik xususiyatlar aniqlansa, lingvokulturologik yondashuv orqali madaniy tafakkur, tarix va xalqning dunyoqarashi chuqur tahlil qilinadi.

Zamonaviy globallashtirish davrida frazeologik birliklarni anglash va ularni to'g'ri qo'llash madaniyatlararo muloqotni yengillashtiradi, o'zaro tushunishni kuchaytiradi va madaniy xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi. Shu sababli frazeologiyani o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb sanaladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Frazeologik birliklar tilning nafaqat grammatik tuzilishini, balki uning madaniy va tarixiy kontekstini ham aks ettiradi. Ular milliy o'zlikni saqlashda, xalqning dunyoqarashini ifodalashda va madaniyatning o'zgarishlarini kuzatishda muhim vositadir. Frazeologik birliklar orqali tilni o'rganish, nafaqat grammatik qoidalarni, balki muloqotda tilni samarali ishlatishning ahamiyatini ham tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotda frazeologik birliklar xalqning urf-odatlar, qadriyatlari va tarixiy tajribalari bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatildi. Ular til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o'zgarishini ham aks ettiradi, ya'ni ba'zi iboralar zamon bilan o'zgaradi yoki yangi shakllarda ishlatiladi. Bunday o'zgarishlar frazeologik birliklarning dinamik tabiati va jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, frazeologik birliklar globalizatsiya jarayonida til almashinuvi va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi bilan ham o'zgaradi. Tilning rivojlanishi va yangi frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, til va madaniyatning yangi bosqichiga o'tishini ifodalaydi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning bugungi kundagi kommunikatsion roli, ularning o'zgarishi va zamonaviy tilda qanday ishlatilishi haqida muhim xulosalar chiqarildi.

ADABIYOTLAR:

1. Vinogradov V.V. *Selected works. Lexicology and lexicography.* - M., 2018. - 312 p.
2. *Dictionary of linguistic terms.* - ed. 5th, bro. and add. - Nazran, 2020. - 486 p.
3. Crystal D. (2023). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* Cambridge University Press.
4. Fernando C. (2016). *Idioms and Idiomaticity.* Oxford University Press.
5. McCarthy M., & O'Dell F. (2017). *English Idioms in Use: Advanced.* Cambridge University Press.
6. Tasheva D. S., & Kubaeva N. A. (2022). *Modern educational technologies in the aspect of a student-centered approach in teaching foreign languages.* Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 12, 35.
7. Nafisa, K., & Kamola, A. (2024). *The problem of teaching students lexical and phraseological features in translation studies of phrasal verbs in English and Uzbek languages.* Eurasian Journal of Academic Research, 4(10), 39-42.
8. Nafisa, K., & Matluba, D. (2023). *Psychological and pedagogical aspects of research into the problem of bilingual foreign language teaching.* Conferencea, 31-34.
9. O'rinova Z. (2023). *O'zbek va ingliz tilidagi frazeologik birliklarning intertekstual va madaniy xususiyatlari.* – *Filologik tadqiqotlar*, №1, 62.
10. Ergashev M. (2023). *"Tilshunoslikda ekspressiv vositalarning tadqiqi xususida".* // *The Development History and Modern Significance of Intercultural Dialogue, International Conference Proceedings*, 117.

KOLLOKATSIYALAR VA KOLLOKATSIYALANISH: NAZARIY-AMALIY ASPEKT

Nurmatova Go'zal Xakimovna,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti,

"Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik" kafedrası dotsenti, f.f.f.d (PhD)

g.nurmatova77@gmail.com

ORCID: 0000-0002-4301-8089

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikning leksik qatlamlaridan biri bo'gan kollokatsiyalar hamda ularning kollokatsiyalanishi haqida so'z yuritadi. Bunda o'zbek va xorijiy tilshunoslarning nazariy va amaliy ishlariga, xususan ulug' o'zbek allomamiz Abu Nasr Forobiyning so'zlarning bog'lanishlari (assotsiatsiyalanishi) borasidagi fikrlarining bugungi zamonaviy tilshunoslikning korpus lingvistika yo'nalishida aks etganligi borasida nazariy talqinlar berilgan. Shu bilan birga terminologik kollokatsiyalarga ham alohida to'xtalib, ularning kollokatsiyalanish xususiyatlari maxsus dasturiy qurilmalar yordamida aniqlandi. Kollokatsiyalarning korpusda tahlil qilish uchun maxsus statistik o'lchovlarning qo'llanilishi bilan birga terminologik kollokatsiyalarni esa diskurs integratsiyasida ham amalga oshirilishi samarali natijalar berishi kuzatildi. Mazkur kuzatuv va tajriba asosida tilshunoslik va pedagogik muammolarga yechim topish uchun samarali qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Tilshunoslikda kollokatsiyalarni nutqda ko'p uchraydigan tanish ifodalar deb tushiniladi ollokatsiya, terminologik kollokatsiya, assotsiatsiyalanish, kollokatsiyalanish, korpus, diskurs, statistik o'lchovlar, kollokatsiyalarning xususiyatlari,

КОЛЛОКАЦИИ И КОЛЛОКАЦИОННЫЕ ЯВЛЕНИЯ: ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Аннотация. В данной статье рассматриваются коллокации, один из лексических пластов языкознания, и их сочетаемость. Рассмотрены интерпретации теоретические и практические исследования узбекских и зарубежных лингвистов, в частности отражение идей нашего великого узбекского ученого Абу Насра Фараби о связях слов, которое переплетается с направлением современного языкознания корпусной лингвистики. Также рассматриваются отдельно понятие терминологических коллокаций их особенности сочетаемости, которые определяются с помощью специальных программных средств. Было замечено, что использование специальных статистических мер для анализа коллокаций в корпусе, а также внедрение терминологических устойчивых словосочетаний в интеграцию дискурса дает эффективные результаты. Основываясь на этом наблюдении и опыте, его можно эффективно использовать для поиска решений лингвистических и педагогических проблем.

Ключевые слова: коллокация, терминологическая коллокация, ассоциация, корпус, дискурс, статистические измерения, особенности коллокаций.

COLLOCATIONS AND COLLOCATE: THEORETICAL-PRACTICAL ASPECT

Abstract. This article discusses collocations, one of the lexical layers of linguistics, and their collocate features. In this article, interpretations are given to the theoretical and practical work of Uzbek and foreign linguists, particularly the reflection of the ideas of our great Uzbek scholar Abu Nasr Farabi on the connections (association) of words in the direction of corpus linguistics of modern linguistics. At the same time, terminological collocations are also separately addressed, and their collocation features are determined using special software tools. It was observed that the use of special statistical measures for analyzing collocations in the corpus, as well as the implementation of terminological collocations in discourse integration, gives effective results. Based on this observation and experience, it can be effectively used to find solutions to linguistic and pedagogical problems.

Key words: collocation, terminological collocation, association, corpus, discourse, statistical analysis, features of collocations.

Kirish. Kolokatsiyalar tilshunoslikning muhim leksik qatlami bo'lishiga qaramay, hali to'liq tadqiq qilinmaganligi, ayniqsa ma'lum soha yoki yo'nalishda - terminlarning assotsiatsiyalanishi asosida vujudga

keladigan sohaga oid kollokatsiyalar esa deyarli tadqiq qilinmaganligi aniqlangan. Shu bois tilshunoslikning ushbu leksik qatlamini chuqurroq o'rganish maqsadida turli davrdagi tilshunos, xususan g'arb va sharq tilshunos olimlarning ishlariga murojaat qildik. Tadqiqotimizda nazariy talqinlar va amaliy tajribalar asosida so'zlarning *assotsiatsiyalanishi* va *kollokatsiyalanishi* bilan birga terminologik kollokatsiya terminini tadqiqi jarajonida *terminlarning assotsiatsiyalanishi* va *terminlarning kollokatsiyalanishi* hodisalari namoyon bo'ldi. Tadqiqotimizda kollokatsiyalarning definititsiyasi o'zbek tilshunosligia, xususan IX asrlarda yashab ijod qilgan o'zbek faulasuf olimi Abu Nasr Forobiyning [8,11-12] so'z birikishlari borasidagi fikrlarining zamonaviy korpus lingvistikasidagi kollokatsiya tadqiqotlari bilan uyg'unlanishi, ilmiy tadqiqotlardagi terminologik kollokatsiyalar borasidagi shakllangan definititsiya va ularning ilmiy diskursda xususiyatlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy fikrlarga asoslangan.

J.Firth tilshunoslikka kolokatsiya tushunchasini kiritgan va kolokatsiya nazariyasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir korsatgan ingliz tilshunosidir. R Firt "muloqotdagi eng faol so'zlar"ni o'rganganda, "kollokatsiyalar ma'lum so'zlarning ma'lum kontekstlarda boshqa so'zlar birikuvida paydo bo'lish ehtimoli ko'proqligi bilan bog'liq hodisa", deb ta'rifini keltiradi [1; b.63-65].

Ularni iboralar, klishelar, turg'un iboralar, erkin va bog'langan birikmalar, idiomalar, leksik iboralar va hokazolarga o'xshatishadi. Shu bois, tilshunoslarning tadqiqot maqsadlariga ko'ra kollokatsiyalarga berilgan definitsiyalar turlicha bo'lib kelmoqda. Frazeologlar va lug'atshunoslar, masalan, ma'lum so'z birikmalardagi leksik so'zlarning xulq-atvorini kuzatganda, bir hil ma'noli so'zlarning muayyan otlar bilan kelishi turli diapazonlarni hosil qilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *strong* va *powerful* sifatlar bir xil o'xshash (kuchli) ma'noga ega bo'lsa-da, boshqa otlar bilan qo'shilganda ularning ma'nolari umuman o'z kuchini yo'qotadi: *strong* sifatni *tea* ot bilan birikib, *strong tea* 'acchiq choy' degan ma'noni bera olishi, boshqa, deylik *car* so'zi bilan esa umuman birika olmasligini aytishimiz mumkin. Leksik birliklarning bunday hodisasiga kollatsion bog'lanishni vujudga keltirib, kollokatsiyalarni hosil qiladi. Huddi shu tarzda *powerful* sifatni *tea* va *car* misolida, ya'ni *powerful tea* emas, *powerful car* degan birikma hosil bo'lishini kuzatish mumkin. M.Benson va L. Martin kabi tilshunoslar kollokatsiyalarni idiomalar yoki erkin so'z birikmalar deb atab bo'lmaydi, ular ana shu ikki toifa guruh so'zlar o'rtasidagi leksik qatlamdir degan fikrga kelgan edi. Haqiqatdan ham kollokatsiyalarni erkin so'z birikmalar deb hisoblanishi uchun ularning ma'nosi ancha tor bo'lishi, idiomatik deb hisoblanishi uchun esa ularni tushunish katta muammo tug'dirmasligi bois kollotasiyalar shu ikki toifa orasidagi leksik birliklardir, deb fikr bildirgan" [9, 177-206].

So'z bog'lanishi va birikmasi to'g'risida ilk qarashlarini qadimgi o'zbek faylasufi Abu Nasr Forobiyning "Ilmlarning kelib chiqishi" asarida tilshunoslikning oltita bo'limi va har qaysi bo'lim o'z tekshirish obyekti mavjudligini bayon qiladi. Ushbu bo'limlarning ikkitasi so'z birikmalarga bag'ishlaganligi mazkur asarda to'liq tavsif etilgan. Shuningdek so'zlarning assotsiatsiyalanishi bo'yicha N.A. Xoshimovanning psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, neyrolingvistika va pragmatika fanlarining kesimida o'zbek tili materiallari asosida assotsiativ tizim hamda jarayonlarning tahlillarni amalga oshirganligini ko'rish mumkin

Korpus lingvistikasida sintaktik ma'noda va statistik jihatdan barqaror so'zlarning birikuvi *kollokatsiyalar* deyiladi hamda korpusda ularni ham alohida ham assosiasiyalashgan shakldagi uchrash chastotasiga ko'ra turli statistik o'lchovlar bilan aniqlanishi mumkin [6, 269]. Korpus lingvistikasida kollokatsiyaning elementlari "node word" – o'zak/bosh so'z, "collocate word"- birikadigan so'zlar hisoblanadi.

Korpusda kollokatsiyalarning yon so'zlar bilan birikuvi borasida o'tkazgan dastlabki tadqiqotlardan ingliz tilshunosi J.Uilyams ishlarida aks etgan. Uning fikricha, ilmiy subtitllar yangi so'zlar yaratilishi va mavjud leksika orqali ifodalangan ma'nolarning bosqichma-bosqich o'zgarishi bilan diskurs muloqotining ehtiyojlariga muvofiq rivojlanadi. Markaziy tushunchalar bir-biriga bog'liq ekan, ularning yuzaviy tuzilmalarida, so'zlarida o'xshash munosabat qoliplari paydo bo'ladi. Binobarin, berilgan leksik bo'lak uchun "mulohaza doirasi" shu so'zning janriga xos leksik muhitida bo'lishi kerak. Bu o'zaro ma'lumot statistikasi yordamida o'lchanadigan joylashuv orqali aniqlanadi. Bundan tashqari, ilmiy subtitllarning kontseptual asoslarini yopiq to'plamli kolokatsion tarmoqlar orqali ko'rish mumkinligi ta'kidlanadi. Ushbu zanjirlar (*network*) orqali ko'rsatilishi mumkin, ammo zanjirlarning alohida elementlari o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligini ko'rsatish uchun eng qulay vosita sifatida ko'rsatilgan. Kollokatsion zanjirlar yoki to'rlar ma'lum bir subtil ichidagi har qanday "so'z" uchun yagona mos yozuvlar tizimini tashkil qiladi. Masalan, WordSmith qurilmasining displayida foydalanuvchilar kollokatsiyalarning chastotasini aniqlashi mumkin. 1-jadvalda Braun korpusidagi (Brown Corpus) "vaqt" so'zi uchun -5 dan +5 gacha kollokatsion pozitsiyasidagi har bir so'z uchun eng ko'p kollokatsiyalanadigan so'zlar ko'rsatilgan:

“Time” (vaqt) so‘zi bilan o‘nta eng ko‘p kollokatsiyalanadigan so‘zlar

o‘z	ami	hap	‘ng	h5	h4	h3	h2	h1	‘1	‘2	‘3	‘4	‘5
he	267	53	14	03	0	0	54	56	7	46	00	11	10
nd	00	91	09	5	3	6	8	9	1	6	5	3	4
or	87	85	02	4	8	5	8		5	3	3	6	5
hat	19	30	9	3	5	5		8	7	2	0	9	1
as	10	3	27	4	6	7	2		1	0	1	2	3
his	81	45	6		4			15		0			
ad	19	7	2	3		6		0		0	4		3
is	07	7	0	6				2		8	1	6	3
ame	03	00						5					
rom	6	8	8			5	9	7					

Oxirgi 20 yil ichida tilshunoslar, ayniqsa, leksikograflar kollokatsiyalarning tadqiqotiga katta e’tibor berib kelmoqda. Kollaktsiya terminini juda keng tarqalgan lingvistik termini bo‘lsa-da, uning definitsiyasiga hana az aniqlik kiritilmagan.

J.Uilyamsning fikricha, bunday jadvallar yuqori chastotali funktsiyali so‘zlarni keltirib, foydali bo‘lsa-da, har doim ham ikki so‘z o‘rtasidagi eksklyuziv munosabatni ko‘rsatmaydi. Masalan, ingliz tilidagi “the” artikli “time” (vaqt) so‘zi kabi boshqa yon so‘zlar bilan kollokatsiyalanadi. “Time” so‘zi bilan waste, devote, spend, spare and limit kabi quyi chastotali so‘zlar ham “time” so‘zi bilan yorqinroq kollokatsiyalarni hosil qiladi. Demak, korpus lingvistikasi usullari MI (mutual information) va Z-score (Berry-Rogghe 1973), MI3 (Oakes 1998: 171-2), log-log (Kilgarriff and Tugwell 2001) yoki log-likelihood (Dunning 1993) kabi statistik o‘lchovlari tadqiqotchilarga ma’lum bir birikmalarning chastotasi va eksklyuzivligini ko‘rsatish imkonini beradi. Har bir statistic o‘lchov kollokatsiyalanish kuchini yoki kollakatsion tortishish kuchinu (collocational power) ko‘rsatadigan qiymatni beradi, lekin ularni belgilash mezonlari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, MI statistic o‘lchovi kollokatsiyalanadigan so‘zlarning uchrash chastotasini birinchi o‘ringa qo‘ysa, log-likelihood individual so‘zlarning chastotasining birikuvini - mustahkam kollokatsiyalarning (strong collocations) namoyon etadi. Shunday qilib, MI statistic o‘lchovi bit/bobs kabi past chastotali juftlikdagi so‘zlarga nisbatan yuqori ball beradi, log-likelihood esa school/teacher kabi yuqori chastotali juftlikdagi so‘zlarga yuqori ball beradi. Nemis tilshunoslari T. Hoffman va Lehmannlarning fikriga ko‘ra, kollokatsiyalar mahalliy ingliz so‘zlashuvchilarning (native speakers) past chastotali birikmalarni o‘rgatishda hamda so‘zlardagi sub’ektivlikni yoki konnotatsion bog‘lanishlarni ko‘rsatishda xorijiy til o‘rgatuvchilar uchun samaradorligi haqida ta’kidlab ketgan. Misol uchun, Britaniya Milliy Korpusida (BNC) ‘innocent bystander’ kollokatsiyadagi bystander (kuzatuvchi) so‘zining eng kuchli kollokatsiyalanadigan innocent (aybsiz) so‘zi bilan birgalikda qo‘llanilmasa ham ‘begunoh’ degan tushunchasini beradi [10].

G‘arb tilshunoslari tomonidan “kollokatsiya” va “kollakatsion bog‘lanishlar” atrofida bahslariga sabab bo‘lib kelayotgan lingvistik termin va hodisalarga IX asrda yashab o‘tgan o‘zbek faylasufi Abu Nasr Forobiyning “Ilmlarning kelib chiqishi” nomli asarida tilshunoslikka bag‘ishlangan “so‘zlarning qo‘shilish qonunlari” borasida ma’lumoti bugun aynan kollakatsion bog‘lanishlar to‘g‘risida bo‘lishi mumkin degan farazimizni ilgari surib, ushbu farazni asoslashga harakat qilindi. Ta’kidlash joizki oldingi tadqiqotimizda so‘z birikishlar borasida Forobiyning hissasi borligi haqida keltirib o‘tilgan bo‘lsa, allomaning so‘z bog‘lanishlari borasidagi tasnifi g‘arb tilshunoslarning kollakatsion bog‘lanishlar tasnifi bilan taqqoslanmagan edi [7; 85].

Avvalo, Forobiy so‘zlarning qo‘shilish masalalarini alohida fan sifatida talqin qilib, uni ikki qismga bo‘lgan:

1. Soʻz oldiga, soʻz oxiriga va soʻz qismlarining qoʻshilish qoidalari (oʻzgaradigan soʻzlarga va oʻzgarmaydigan soʻzlarga boʻlish, otlarning va feʼllarning oʻzgarishi kabi masalalar) oʻrganilishi;
2. Soʻz birikmalari qoidalari haqidagi boʻlimda soʻzlarning qanday qoʻshilish qoidalari va hukm bildirilishi oʻrganiladi, soʻzlarning qoʻshilish turlar aniqlanadi. Qanday qoʻshilish chiroyli ekanligi koʻrsatiladi [8; b.11-13].

Abu Nasr Forobiyning soʻzlarning qoʻshilish turlari deganida, fikrimizcha, soʻzlarning nafaqat hokim soʻz va tobe soʻzlarning qoʻshilishi, balki boshqa, soʻz oldiga, soʻz oxiriga va soʻz qismlarining qoʻshilish qoidalari korpus lingvistikasida kollokatsion soʻzning oʻng va chap tomondan birikishi hamda soʻzlarning qanday qoʻshilishi, hukm bildirilishi, qoʻshilish turlar esa korpus lingvistikasida kollakatsion bogʻlanishlar boʻyicha *dispersiya*, *ekslyuzivlik* va *yoʻnaltirilganlik* kabi tushunchalar bilan qiyoslanib, korpus lingvistikasiga bosh soʻz va uning atrofida birikuvni hosil qiladigan soʻzlarni britaniyalik tilshunos V.Brezinaning olib borgan tadqiqotidagi soʻz birikmalar qoʻshilish qoidalari boʻyicha assosiasiyalarning vujudga keltirishi va bunda oʻzak soʻz (*node word*) bilan uning atrofida birika oladigan soʻz yoki soʻzlar mutlaqo boshqa turdagi soʻz birikmasini hosil qilinishi nazarda tutilgan va bu toʻgʻrisida “Collocations in Context: A new perspective on collocation network” nomli maqolasida fikr bildirgan. V.Brezina va Abu Nasr Forobiy taʼkidlagandek soʻzlarning qoʻshilishini oʻrganish uchun yordam beradi [2,151-157] (qarang 1-rasm).

Material va metodlar. Ushbu qiyosiy jihatlarni G.X. Nurmatovning oldingi tadqiqotida oʻrgnilib, korpus lingvistikasiga oid - bosh soʻz (*node word*) va uning atrofida birikuvni hosil qiladigan soʻzlar (*collocate word*) ingliz tilidagi lingvistik terminlarini orbita va uning yoʻldoshlariga qiyoslanib, oʻzbek tilida “*orbital soʻz*” va “*yoʻldosh soʻz*” degan lingvistik terminlarini ilk bor qoʻllanilgan [7, 87-88].


Demak, agar biz oʻzak (bosh, dominant) soʻzni (*node word*) mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, orbital va uning atrofida birikuvni hosil qiladigan soʻzlarni *yoʻldosh soʻz* (*collocate word*), birgalikdagi soʻz birikmani esa *soʻzlarning assotsiatsiyalanishi* undan hosil boʻladigan birikmalarni *soʻzlar kollokatsiyasi* degan terminlarni qoʻllasak, aynan Abu Nasr Forobiy taʼkidlaganidek, soʻz atrofida hosil boʻladigan, aniqrogʻi assotsiatsiyalashadigan soʻzlarning *qoʻshilish qoidalari* toʻgʻrisida fikr yuritilgan boʻladi.

Korpusda M.Kotterning fikriga koʻra, soʻzlarning assosiasiyalanishini eng yuqori chastotali soʻzlar va eng yuqori chastotali birikuvchi soʻzlarning assosiasiyalanishi, oʻng va chap tomondagi yondosh soʻzlar oʻrtasidagi bogʻliqlikdir, [5, 499-506] hamda ushbu bogʻliqliklarni maxsus qurilmalar yordamida samarali tahlillarni amalga oshirish imkoniyati katta va kollokatsion bogʻlanishlarning qoʻyidagi koʻrsatkichlarini namoyon qiladi [2,142], deb hisoblaydi:

- orbital soʻzning korpusda ishlatilish chastotasi (*frequency*);
- orbital va yon soʻzlar orasidagi masofasi (*span*);
- orbital soʻzning ekslyuzivligi (*exclusiveness*).

Maxsus dasturiy qurilmalar yordamida terminologik kollokatsiyalarni ayrim lingvistik xususiyatlarini korpusda namoyon etish maqsadida, nanotexnologiyalar korpusidan *nano* prefiksini kollokatsiyalanishi tahlil qilindi. Qoʻyidagi rasmda maxsus qurilmada “*nano*” orbital prefiksining yoʻldosh soʻzlar bilan kollokatsiyalanish vizualizatsiyasi va statistik jadvali misol tariqasida keltirilgan:

```
Span: 5 <> 5
Types: 18 / 25999
Tokens: 368649
Stat: 01 - Freq
```



Rasm 1. *nano* prefiksining kollokatsion vizualizatsiyasi

nano prefiksining kollokatsiyalanishining statistik jadvali

Word type	Statistic	Freq.(with)	Word type	Statistic	Freq.(with)
and	45.0	45	as	9.0	9
of	38.0	38	on	7.0	7
the	32.0	32	or	6.0	6
to	17.0	17	with	6.0	6
in	13.0	13	zno	6.0	6
particles	12.0	12	composite	6.0	6
a	11.0	11	was	5.0	5
for	11.0	11	are	5.0	5

Ushbu qurilma o'ng va chap tomondan kollokatsiyalanadigan so'zlarni vizual va jadval ko'rinishlarida taqdim qiladi. Bu yerda *nano* prefiksi o'n yettita leksik birliklarning bog'lanishini ko'rsatib, o'ng va chap tomonlardan turli leksik birliklar bilan kirikishini ko'rsatgan. *nano* prefiksi nafaqat *particles* va *composite*, ya'ni *nanoparticles* va *nanocomposite* so'zlar bilan, balki funktsional leksik birliklar bilan kollokatsiyalarni hosil qilganini va ularning chatotasi ko'rsatilmoqda.

P.Beiker, A.Xardi, Mak-Enerilar korpusda so'zlarning kollokatsiyalanishini ikki turga bo'linadi:

1. *upward collocations* (yuqoriga intiluvchi kollokatsiyalar)

2. *downward collocations* (quyiga intiluvchi kollokatsiyalar)

1-rasmda keltirilgan kollokatsiyalanish vizualizatsiyada va 2-jadvalda ikkala turga oid bo'lgan kollokatsiyalarni kuzatish mumkin.

Natijalar va muhokamalar. Orbital so'zining chastotasi yo'ldosh so'zning chastotasiga qaraganda quyi bo'lsa, *upward collocations*, ya'ni *yuqoriga intiluvchi kollokatsiyasi* bo'lib, ular, asosan, funktsional so'zlar bilan assotsiatsiyalanadi va bunday so'zlar assotsiatsiyalari grammatik so'zlardan iborat bo'lib, ular *kolligatsiyalar* deb ham yuritilishi mumkin [1; b.63-65]. K. Braun va Dj. Miller tomonidan kolligatsiyalar kollokatsiyalardan farqli o'laroq grammatik konstruksiyalar orqali bog'langan umumiy (*in nano*, *are nano*, *or nano* kabi bog'lanishlar) leksik birliklarga aytiladi, deb izoh berigan [3, 86].

Orbital so'zning chastotasi yo'ldosh so'zning chastotasidan yuqori bo'lsa hamda ular, asosan, kontekst so'zlar bilan assotsiatsiyalansa, u holda orbital so'z kontekstda ahamiyatli va soha termini deb hisoblanishi mumkin. Masalan *nano* → *nanoparticles* → *nanocomposite* kollokatsiyalarning semantik bog'likligi *quyiga intiluvchi kollokatsiyalarni* (*downward collocations*) ko'rsatayapti. Bundan kelib chiqadi-ki, *nanoparticles* va *nanocomposite* kollokatsiyalarni terminologik kollokatsiyalar deb atashga asos bor.

Demak, kollokatsion birikma terminologik birikmadan ma'lum sohada shakllangan barqaror so'zlarning birikuv yoki kombinatsiyasi tushinilib, orbital va yo'ldosh so'zlar o'rtasida turli bog'lanish xususiyatlarini: yo'ldosh (kollokatsiyalanadigan so'z) so'zning *chastotasini* (*frequency*), orbital va yo'ldosh so'z o'rtasidagi *masofani* (*span*), orbital va yo'ldosh so'zlarning quyi chastotada *eksklyuzivligini* (*exclusivemess*) ko'rsatish bilan farq qiladi. Yuqoridagi misoldagi terminologik kollokatsiyalarning korpusda bog'lanishning muhim lingvistik xususiyatlaridan ham masofani ham eksklyuzivlikni kuzatishimiz mumkin.

Xulosalar. Mazkur tadqiqotimizda korpus va diskursda kollokatsiyalarga tilshunos olimlar tomonidan tasnif va tavsiflar keltirilgan bo'lsada, sohaviy-ilmiy, xususan korpus va diskurs integratsiyasida nanotexnologiya terminologik kollokatsiyalar borasidagi tadqiqotlar hanuz olib borilmagan. Korpusda nanotexnologiya terminidagi *nano* prefiksining kollokatsiyalanishi misol tariqasida keltirilib, uning korpus va diskurs integratsiyasidagi kichik tahlil o'tkazildi va tuning asosida kollokatsiyalanish xodisasi qanday namoyon bo'lishini maxsus dasturiy qurilmada ko'rsatib berildi. Ushbu tahlillar bizga nafaqat terminologik kollokatsiya degan lingvistik terminining mavqei va uning kollokatsiyalanish xususiyatlarini namoyon etishga, balki umuman kollokatsiyalar va kollokatsiyalanish borasida tilshunoslikning boshqa aspektlarida yangi tadqiqotlar olib borishga saos yaratdi.

ADABIYOTLAR:

1. Baker P., Hardie A., McEnery T. A Glossary of Corpus Linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. P. 192. –Pp. 63, 165.

2. Brezina, V., McEnery, T. & Wattam, S. (2015). *Collocations in context: A new perspective on collocation networks* // *International Journal of Corpus Linguistics*, 20(2). -P. 151-157.
3. Brown K. & Miller J.. *Cambridge Dictionary of Linguistics*. Cambridge University Press. 2015. - P. 86.
4. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia the English Language*. –Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 119-120, 372-373.
5. Cotter M.J. *Teaching terms: a corpus-based approach to terminology in ESP classes*. Lisbon School of Accountancy and Administration (ISCAL), Portugal. -Pp. 499-506. -P.501.
6. Большакова Е.И., Воронцов К.В., Кфремова Н.Э., Клышинский Э.С., Лукашевич Н.В., Санин А.С. *Автоматическая обработка текстов на естественном языке и анализ данных*. — М.: Изд-во НИУ ВШЭ, 2017. - 269 с.
7. Nurmatova G.X. “AntConc va GraphColl daturiy qurilmalarida muhandislik terminlarining lingvostatistik tadqiq muammolari”: *filol.fan.dok. ...dis.* – Farg‘ona, 2021, -B. 85.
8. Nurmonov A. *O‘zbek tilshunosligi tarixi: Oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakultetlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston. 2002. 232 b. B.11-12.
9. Silvia Montero-Martínez, Mercedes García de Quesada and Pedro A. Fuertes-Olivera. *Terminological phrasemes in OntoTerm®: A new theoretical and practical approach*. 2002. Research Gate. *Terminology* 8(2) P. 177-206. <https://www.researchgate.net/publication/233649925>
10. Williams, G. (1998): *Collocational networks: Interlocking patterns of lexis in a corpus of plant biology research articles*. *International Journal of Corpus Linguistics*.
11. Ушбу сўз турли тилиунослар томонидан турлича қўлланилиб, Марчук, масалан доминант сўз (қаранг: Марчук Ю.Н. *Компьютерная лингвистика*. –М.: Восток-Запад, 2007. –317 с. 93-99), В. Брезина эса ўзак сўз (Қаранг: Brezina, V., McEnery, T. & Wattam, S. (2015). *Collocations in context: A new perspective on collocation networks*. *International Journal of Corpus Linguistics*, 20(2).), ва бошқалар калит сўз деб ҳам юритадилар.

SO'ZLASHUV NUTQINING TIL O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI

Qobilova Nargisa Sulaymonovna,
Buxoro davlat universiteti dotsent, PhD
n.s.qobilova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'zlashuv nutqining til tizimidagi o'zgarishlarga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Til dinamikasining fonetik eroziya, yordamchi so'zlarning assimilyatsiyalanishi va grammatik soddalashuv kabi omillar orqali yuzaga kelishi tahlil qilinadi. Og'zaki muloqotda qisqa va tejamkor shakllarning keng qo'llanishi tilning tabiiy rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi. Shuningdek, til tizimida ro'y berayotgan transformatsiyalarning kognitiv, madaniy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi.

Kalt so'zlar: so'zlashuv nutq ta'siri, tilning fonetik eroziyasi, ingliz tilidagi grammatik, lisoniy tuzilmaning evolyutsiyasi, zamonaviy dunyodagi til, so'zlashuv nutqi, til o'zgarishlari.

ВЛИЯНИЕ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ НА ИЗМЕНЕНИЕ ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье освещается влияние разговорной речи на изменения в языковой системе. Анализируется, как языковая динамика проявляется через такие явления, как фонетическая эрозия, ассимиляция вспомогательных слов и грамматическое упрощение. Широкое употребление кратких и экономных форм в устной коммуникации трактуется как естественный процесс языкового развития. Также обосновывается тесная связь трансформаций в языке с когнитивными, культурными и социальными факторами.

Ключевые слова: влияние разговорной речи, фонетическая эрозия языка и, грамматические изменения в английском, эволюция языковой структуры под, языковые трансформации в мире, разговорная речь как фактор изменения.

THE IMPACT OF COLLOCAL SPEECH ON LANGUAGE CHANGE

Abstract. This article highlights the influence of spoken language on changes within the linguistic system. The dynamics of language are analyzed through phenomena such as phonetic erosion, assimilation of auxiliary words, and grammatical simplification. The widespread use of short and economical forms in oral communication is interpreted as a natural process of language evolution. Furthermore, the close interrelation between linguistic transformations and cognitive, cultural, and social factors is substantiated.

Key words: spoken language influence, phonetic erosion of language, grammatical changes in English, evolution of linguistic structure, language transformations today, spoken language and change

Kirish. Tilni subyektlar o'rtasida axborotni qayd etish, qayta ishlash va uzatish uchun mo'ljallangan belgilar tizimi sifatida qarash mumkin. Farqlanuvchi elementlarning strukturaviy jihatdan tartibga solingan majmuasi sifatida til shunday tashkil topganki, uning tarkibiy qismlari oddiyroq birliklarga ajralish va yanada murakkab tuzilmalar holda birlashish xususiyatiga ega. Aynan mana shu ko'p pog'onali tashkil topganlik tilda fikr mazmunini shakllantirish va ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, til ko'plab omillar ta'sirida shakllanadigan turli xil variantlar majmuasidir. Ingliz tili til tizimining evolyutsiyasi va transformatsiyasiga yaqqol misol bo'la oladi. Zamonaviy ingliz tilining grammatik, leksik va fonetik sohalarida kuzatilayotgan transformatsiyalar mexanizmlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu jarayonlarni o'rganish til dinamikasining ichki qonuniyatlarini va ularning ijtimoiy, madaniy hamda kognitiv omillar bilan qanday bog'liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Til tizimidagi o'zgarishlarga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri bu fonetik eroziya hisoblanadi. Ushbu jarayon, asosan, so'zlovchilarning nutqda harakatni kamaytirishga intilishi bilan bog'liq bo'lib, nutqiy faoliyatning ham jismoniy, ham aqliy murakkabligi bilan tushuntiriladi. Natijada, muhim bo'lmagan bo'g'inlar asta-sekin urg'uni yo'qotadi, reduksiyaga uchraydi va ba'zan to'liq yo'qolib ketadi. Masalan, quyidagi so'zlar soddalashtiriladi: **"February"** → **"Febry"**, **"probably"** → **"proably"**, yoki **"secretary"** → **"secetry"** / **"secetry"**. Xuddi shunday jarayonlar **yordamchi so'zlar** bilan bog'liq holda ham kuzatiladi; ular **assimilyatsiya** qilinadi yoki soddalashtiriladi. Masalan, **"have to"**, **"going to"** va **"could have"** kabi birikmalar og'zaki kundalik nutqda **"hafta"**, **"gonna"**, **"coulda"** shaklida aytiladi. Ba'zi hollarda yordamchi so'zlar **butunlay tushib qoladi**, masalan, **"I've got"** iborasi **"I got"**

shakliga, “What do you want?” esa “What you want?” ko‘rinishiga o‘tadi. Dastlab bu kabi holatlar beparvolik yoki og‘zaki uslubga xos xususiyatlar sifatida qabul qilinsa-da, ularning keng tarqalishi **tilning grammatik tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi**.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Fonetik eroziyaning yaqqol namunasini qadimgi ingliz tilining zamonaviy ingliz tiliga aylanishi orqali ko‘rish mumkin. Qadimgi ingliz tilida zamon, kelishik va boshqa grammatik kategoriyalarni ifodalovchi grammatik qo‘shimchalar (fleksiylar) keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, hozirgi kunga kelib ular deyarli yo‘qolgan. Ularning funksiyalari yordamchi fe‘llar, xizmat so‘zlari **va** so‘z tartibining qat’iyligi orqali bajarilmoqda. Fonetik o‘zgarishlar ko‘pincha strukturaviy o‘zgarishlar bilan birga kechadi, biroq bunday o‘zgarishlarni til egasi har doim ham anglab yetavermaydi. Ular muloqot jarayoniga jiddiy xalaqit bermasligi tufayli asta-sekin tilda mustahkamlanib boradi. Masalan, noto‘g‘ri fe‘llarning “sank/sunk” yoki “sang/sung” kabi shakllari barqarorlikdan yiroq bo‘lib qolgan. Og‘zaki nutqda tobora ko‘proq quyidagi iboralar uchraydi: “She sung very well in yesterday’s concert” yoki “The ship sunk without trace”. Bunday o‘zgarishlar faqat grammatika bilan cheklanmay, balki leksik tuzilmalarni ham qamrab oladi. Masalan, “I now have pleasure to enclose the correct enrolment form” yoki “They have a tendency of using plates as ashtrays” kabi iboralar hozircha umumiy me’yordan chetda tursa-da, kelajakda adabiy tildan o‘rin olishi ehtimoli katta. Alohida e’tibor talab etadigan soha – bu modal fe‘llar, chunki ular ham asta-sekin mazmun va funksiyalarini o‘zgartirmoqda. Masalan, “may” modal fe‘li perfect infinitive (have done) bilan dastlab o‘tmishda ehtimoliy harakatni ifodalagan: “They have taken her in for an X-ray – she may have broken her leg.” Biroq hozirgi zamonda bu konstruksiya tobora ko‘proq amalga oshmagan imkoniyatni ifodalash uchun ishlatilmoqda: “You were stupid to go skiing there – you may have broken your leg.” Bunday holat ilgari “might” yoki “could” orqali berilardi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ingliz tilidagi grammatik o‘zgarishlar orasida sifat darajalarining flektiv (qo‘shimchali) shakllari o‘rnini asta-sekin analitik shakllar egallayotganini ham ko‘rish mumkin. Masalan, “commoner” o‘rniga tobora ko‘proq “more common” ishlatilmoqda. Shunga o‘xshash o‘zgarishlar murakkab ot birikmalarida ham kuzatiladi – bu yerda aniqlovchi sifatida ko‘plik shakllari tobora keng qo‘llanmoqda: “antiques shop”, “drugs problem”, “arrivals lounge” kabi. Bunday o‘zgarishlar tilning tabiiy rivojlanish jarayoni bo‘lib, uning tuzilmasi va kommunikativ funksiyalarining evolyutsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Grammatikadagi bunday ijodiy yangiliklarga misol sifatida “I said” o‘rniga “I was like” iborasining ishlatilishini keltirish mumkin. Masalan: “I was like”, “You can’t do that”, “She was like”, “Well, I’m gonna.” Bu yangilik tezda ommalashdi va keng tarqaldi. Shuningdek, klassi zamoni ifodalashda ham innovatsiyalar kuzatilmoqda. Zamonaviy ingliz nutqida “is set to do something” (yaqin orada biror narsa sodir bo‘ladi) konstruksiyasi faol qo‘llanilmoqda. Masalan: “Interest rates are set to rise” (foiz stavkalari ko‘tarilishi kutilmoqda), “Pub opening hours are set to change” (pablarning ochilish vaqtlari o‘zgarishi kutilmoqda). Bu ibora dastlab startga tayyorlanayotgan yuguruvchi holati bilan bog‘liq metafora sifatida faqat odamlarga nisbatan qo‘llanilgan. Hozir esa u jonsiz narsalar va jarayonlar uchun ham ishlatilmoqda, bu esa uning ingliz tili grammatik tizimiga integratsiyalashganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Yo‘qolgan shakllarning qayta tiklanishi ham e’tiborga loyiq. Bunga misol sifatida “you guys” konstruksiyasini keltirish mumkin. Bu ibora erkaklar va ayollar uchun teng ravishda ishlatilmoqda va ikkinchi shaxs ko‘plik o‘rnini bosmoqda. U kundalik nutqda tobora ko‘proq uchraydi, yangi olmosh sifatida grammatik tizimga kirib kelishi mumkin. Biroq, o‘zgarishlar faqat grammatika bilan cheklanmaydi. Fonetika ham o‘zgarishlarning eng sezilarli sohalaridan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi 50 yil ichida Britaniya standart talaffuzi sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. 1960-yillargacha “Received Pronunciation” (RP) deb atalgan talaffuz me’yori deb hisoblangan, ammo bugungi kunda bu talaffuzni aholining atigi 3 foizi ishlatadi. Ingliz tilining analitik tuzilmasi va flektiv shakllardan minimal foydalanilishi **uning** morfologik jihatdan o‘zlashtirishga moyilligini oshiradi. XX asr davomida ingliz tili 56 xil tildan kirib kelgan so‘zlar bilan boyidi, shulardan fransuz tili eng katta hissa qo‘shgan tillardan hisoblanadi. Biroq, ko‘plab so‘zlar boshqa tillardan olingan bo‘lishiga qaramay, so‘nggi 100 yil ichida ingliz lug‘atiga qo‘shilgan yangi so‘zlarning aksariyati aynan ingliz tilining o‘zida paydo bo‘lgan. Bu, asosan, affiksatsiya jarayonlari orqali amalga oshgan. Ingliz tilida fleksiylar (so‘z o‘zgarish shakllari) soni cheklangan bo‘lsa-da, uning derivatsion morfologiyasi (ya’ni, yangi so‘zlar yasash tizimi) juda rivojlangan. Zamonaviy ingliz tilida 100 dan ortiq affiks faol ishlatiladi. Ularning aksariyati aslida lotin va yunon tillaridan olingan. Quyidagi affikslar yuqori darajada produktiv (yangi so‘zlar yasashda samarali) bo‘lib, yangi termin va so‘zlarning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi: **auto-, eco-, cyber-, mono-, macro-, inter-, -ology, -cratic, -phile, -phobe**. Ushbu affikslar bugungi kunda ham faol qo‘llanilmoqda va ingliz tilining dinamik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Til o‘zgarishlarining muhim mexanizmlaridan biri bu – ingliz tilining turli variantlari va dialektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirdir. Marginal (chetki, ijtimoiy mavqei pastroq) dialektlar, odatda, ijtimoiy va madaniy maqomi yuqoriroq bo‘lgan standart variantga yaqinlashishga intiladi. Bu jarayon natijasida prestijli, to‘g‘ri yoki nafis deb hisoblangan til

xususiyatlari boshqa variantlar tomonidan o'zlashtiriladi. Bu hodisaning qiziqarli misollaridan biri – britancha va amerikalik ingliz tili variantlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali yuzaga kelayotgan o'zgarishlardir. XX asrning o'rtalaridan boshlab amerikanizmlarning britan inglizchasiga ta'siri sezilarli darajada kuchaygan. Bu yerda amerikanizmlar deganda AQSH ingliz tilining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari tushuniladi; ular Britaniya varianti me'yorlaridan farqlanadi. Amerikanizmlarning keng tarqalishining asosiy sabablaridan biri – ommaviy axborot vositalarining ta'siri. Amerika kinosi, adabiyoti va musiqa san'atining ommalashuvi amerika ingliz tilining nafaqat Buyuk Britaniyada, balki boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalishiga olib keldi. Ba'zan amerika varianti britan variantidan ham ko'proq ishlatiladigan va tanish bo'lgan shaklga aylandi. Amerikanizmlarning yozma matnlarga ham kirib borishi kuzatilmoqda. Britan nashrlari tobora ko'proq amerikacha til konstruksiyalarini o'z ichiga olmoqda, bu esa ularning ingliz tilining umumiy tuzilmasiga singib borishiga yordam bermoqda. Shunday qilib, AQShning madaniy ta'siri nafaqat Buyuk Britaniya til muhiti o'zgarishiga sabab bo'lmoqda, balki ingliz tilining lingvistik salohiyatini global miqyosda kengaytirib bormoqda. Bu jarayonlar ingliz tilining analitik tuzilmasi, boy derivatsion tizimi va boshqa tillar bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'lishi uni o'zgarishlarga nihoyatda moslashuvchan va ochiq tilga aylantirayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy britan ingliz tili asta-sekin kuchli amerika variantining ta'siri ostida o'zgarishga uchramoqda, bu esa ushbu ikki tizim o'rtasidagi bir qator grammatik farqlarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Masalan, hozirgi kunda britan tilining ko'plab so'zlovchilari egalikni bildiruvchi "to have" fe'lining savol-inkor shaklini hosil qilishda yordamchi fe'l "to do"dan foydalanmoqda. Shu sababli, ilgari odatdagi britancha ibora bo'lgan "Have you got a match?" o'rniga hozirda tobora ko'proq "Do you have a match?" shakli ishlatilmoqda. Bu holat, ayniqsa, yosh avlod orasida keng tarqalgan, holbuki, katta yoshdagi odamlar an'anaviy shaklni afzal ko'rishda davom etmoqdalar. Shunga o'xshash boshqa holatlar ham mavjud, masalan, "like" so'zining "as if" o'rnida ishlatilishi (masalan: *He looked like he'd seen a ghost*) – bu ibora dastlab amerika ingliz tilida og'zaki nutqqa xos bo'lgan bo'lsa-da, endilikda britan ingliz tilida ham tez-tez uchrayapti. Shuningdek, "must" va "have to" modallari o'rtasidagi farq ham asta-sekin yo'qolib bormoqda: ilgari ularning semantik vazifalari qat'iy ajralgan bo'lsa, bugungi kunda bu tafovut tobora xira bo'lib bormoqda, bu esa har ikkala variantda ham bir-biriga yaqinlashuvni ko'rsatadi. Qizig'i shundaki, bu ikki ingliz tili varianti o'rtasidagi ta'sir ikki tomonlama xarakterga ega. Britaniyaning "yuqori" madaniyati hamon AQSh jamiyatining ayrim qatlamlari orasida jozibasini saqlab qolgan. Bu holat o'z navbatida britancha iboralarning amerika ingliz tiliga kirib borishiga yordam bermoqda. Masalan, 2005-yil 8-aprelda Guardian gazetasida chop etilgan Los Angeles Times maqolasida muallif quyidagi britancha iboralarning AQSHda ommalashib borayotganidan xavotir bildiradi: "send up" – "parody" ma'nosida/"spot on" – "dead on" (aniq, to'g'ri) o'rnida/"sacked" – "fired" (ishdan bo'shatilgan) o'rnida/"go missing" – "disappear" (yo'qolmoq) o'rnida/"at the end of the day" – "in the end" (oxir-oqibat) o'rnida. Bu holatlar ingliz tilining ikkala varianti ham o'zaro chambarchas bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatayotganini yana bir bor isbotlaydi. Zamonaviy ingliz tilidagi o'zgarishlarning muhim mexanizmlaridan biri bu og'zaki va yozma uslublar o'rtasidagi o'zaro ta'sirdir. XIX asrda ingliz yozma tili madaniy va huquqiy sohalarida markaziy o'rin tutgan bo'lib, u yuqori nufuzga ega edi. Shu bilan birga, norasmiy og'zaki nutq ikkinchi darajali deb qaralgan. Vaziyat ommaviy axborot vositalarining og'zaki shakllari rivojlanishi bilan o'zgarishni boshladiv– bu jarayon og'zaki va yozma tilning bir-biriga yaqinlashuviga olib keldi. Natijada, XVIII–XIX asrlarda belgilangan ko'plab klassik qoidalar qayta ko'rib chiqildi. Masalan, **"they/them/their"** olmoshlarining noaniq shaxsni ifodalash uchun ishlatilishi (masalan: *If anybody phones, tell them I'm out*) ilgari faqat og'zaki nutqda maqbul sanalgan bo'lsa, endilikda rasmiy uslublarda ham qabul qilinmoqda. Bunday o'zgarishlar boshqa tuzilmalarga ham taalluqli bo'ldi: qo'shimcha gaplarda predloglarning gap oxirida ishlatilishi (*something that teachers often worry about*); ikkilik ega yoki to'ldiruvchi holatlarida olmoshlarning ishlatilish shakli (*John and me went to the cinema* yoki *between you and I*). Qiziq tomoni shundaki, bu konstruksiyalar asrlar davomida til tarkibida mavjud bo'lgan, ular Shekspir va Jeyn Ostin asarlarida ham uchraydi, biroq ular faqat yaqinda adabiy me'yorga aylana boshladi. Bugungi kunda norasmiy til shakllarining yozma nutqqa kirib kelishi ayniqsa elektron yozishmalarda yaqqol sezilmoqda. Bu holat an'anaviy yozma shakllarga ta'sir ko'rsatib, og'zaki va yozma muloqotning bir-biriga yaqinlashuvini kuchaytirmoqda. Til o'zgarishlari – muqarrar hodisa bo'lsada – darhol ro'y bermaydi. Ayrim til birliklarining bosqichma-bosqich o'zgarishi tez kechishi mumkin, ayniqsa zamonaviy jamiyatda elektron kommunikatsiya asosiy o'ringa ega bo'lsa. Bunga misol qilib, **"was like"** iborasining **"said"** ma'nosida ishlatilishini keltirish mumkin: bu ifoda dastlab amerika ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lsa-da, atigi o'n yil ichida britan tilida ham keng tarqalib, ayniqsa yoshlar orasida mashhurlikka erishgan. Shu bilan birga, til tizimi darajasidagi yanada keng va tub o'zgarishlar shakllanishi va mustahkamlanishi uchun ko'proq vaqt talab etiladi – bu jarayon ba'zan bir necha asr davom etishi mumkin. Til o'zgarishlarining uzoq muddatli jarayonlariga yorqin misollardan biri – tarixan **Continuous** (uzluksiz zamon) shaklida ishlatilmagan fe'llarning bunday shakllarda qo'llanila boshlanishidir. Biroq vaqt o'tishi bilan bu qoidaga istisnalar paydo

bo'ldi va hozirgi zamonaviy ingliz tilida quyidagi iboralarni uchratish mumkin: **"I'm understanding maths much better now"**, **"She's really liking her new job"**, **"I'm loving it"**. Bu misollar grammatik me'yorlarning asta-sekin o'zgarib borayotganini, tilning esa ifoda vositalarini soddalashtirish va kengaytirishga qaratilgan dinamik xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, ingliz tilidagi **sifat darajalari** evolyutsiyasi ham diqqatga sazovordir. Tarixan **"more"** va **"most"** shakllari asosan uch bo'g'inli yoki undan ko'p bo'g'inli sifatlar bilan qo'llanilgan. Masalan, **"beautifullest"** shakli XVIII asrgacha ishlatilgan, keyinchalik esa bu shakldan foydalanish kamayib borgan va **"more"** hamda **"most"** hatto ikki bo'g'inli sifatlar bilan ham ishlatila boshlagan. Bunday o'zgarishlar ingliz tilining grammatik shakllari soddalashuvga intilayotganidan dalolat beradi. Ingliz grammatikasida yuz berayotgan boshqa muhim o'zgarishlarga quyidagilarni kiritish mumkin: **kelasi zamonni ifodalashda** "going to" shaklining keng tarqalishi/ **get** fe'lining passiv konstruksiyalarda qo'llanilishi / **shall** va **should** fe'llarining **will** va **would** bilan almashtirilishi/ ayniqsa britan ingliz tilida **Subjunctive** (taxminiy) maylining zaiflashuvi/ **whom** olmoshining deyarli yo'qolib borishi. Bu o'zgarishlarning barchasi ingliz tilining moslashuvchanligi va moslashishga tayyorligi, ya'ni tilning yangi sharoit va madaniy realiyalarga moslashish qobiliyatini ko'rsatadi. Ammo o'zgarishlar faqat grammatik tuzilma bilan cheklanmaydi. Ayniqsa, yuz millionlab so'zni o'z ichiga olgan til korpuslariga kirish imkoniyati an'anaviy qoidalarni yanada aniqroq va samaraliroq tarzda qayta ko'rib chiqish va yangilashga yordam bermoqda.

Xulosa. J. Leech tomonidan 2003-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ingliz tilida **"must"** va **"may"** modallik fe'llarining ishlatilish chastotasi avvalgi o'n yilliklarga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Bunday xulosalar aynan til korpuslari tahlil uslublari yordamida olinmoqda – bu usullar ilgari an'anaviy lug'atchilik tadqiqotlari uchun mavjud bo'lmagan tildagi qonuniyatlarni aniqlash imkonini bermoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Campbell, Lyle. *Historical linguistics. The MIT Press Cambridge, Massachusetts. 1998. – 419 p.*
2. Hawkins S., Midgley J. *Formant Frequencies of RP Monophthongs in Four Age Groups of Speakers // Journal of the International Phonetic Association. – Cambridge Univ. Press, Vol. 35., No.2. December, 2005. P. 183–199.*
3. Iriskulov M.T., Shatunova A.S. *"English Phonetics". Uzbekistan State University of World languages. Tashkent. 2011. – C.62-75.*
4. Kerswill P., Torgersen E.N. and Fox, S. *Reversing «drift»: Innovation and Diffusion in the London Diphthong System // Language Variation and Change, Vol.*
5. *Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2008. P.451–491.*
6. Sulaymonbekovna Q. N. (2021). *Cognitive dissonance and pragmatic influence, academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 902-908.*
7. Kobilova N. S. (2016). *Literary interpretation of social psychology in the novel" martin eden". Worldscience, 5 (3 (7)), 52-53.*
8. Sulaymonovna Q. N., & Abduxolovovna R. M. (2023, May). *Structure of the linguistic category" characteristics of a human". In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 151-153.*
9. Sulaymonbekovna Q. N., & Raimovna I. G. (2021). *Cognitive dissonance and pragmatic influence. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 902-908.*
10. Nazarova N. (2022). *Лингвистическое исследование антропонимов в лексической системе. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 13, 13.*
11. Nazarova N. (2022). *Обучение молодых учащихся через интерактивные игры. ентр научных публикаций (buxdu. Uz), 7(7).*

KOMPONENTLI TAHLIL METODI

Qodirova Nargiza Abdusattor qizi,

*Farg'ona davlat universiteti lingvistika:
o'zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
nargizaqodirova1993@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada komponent tahlil qanday bo'lishi va bu orqali umumiy tahlil haqida bilib olish yoki tushunish uchun tasavvur paydo bo'ladi. Fonetik, morfologik va sintaktik tahlillar tilning shakl va mazmun jihatidan to'la qamrab olinishiga, til birliklarining funksiyasini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu tahlillar mukammal til tavsifini berish, ta'lim, tarjima, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarida qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin. Shuningdek, komponent tahlil ham ana shu tahlillarga asoslanadi. Komponent tahlil tushunchasi haqida o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar ot leksemalari bo'yicha oz bo'lganligi mavzuni o'rganish qamrovini kengaytiradi. Maqolada tahlil uchun zarur bo'limlar, qonun-qoidalar jamlangan.

Kalit so'zlar: tahlil, morfologik, assotsiativ, grammatik, sifatli, komponent tahlillar.

COMPONENT ANALYSIS METHOD

Abstract. This article provides an idea of what component analysis is like within the framework of different systematic languages, and through this, an idea is created to learn or understand general analysis. Phonetic, morphological and syntactic analyses contribute to the comprehensive coverage of the form and content of the language, to the correct understanding of the functions of language units. In scientific research, these analyses can serve as a complete description of the language, and can be used in education, translation, literary studies and other fields. Component analysis is also based on these analyses. The fact that there are few studies in Uzbek linguistics on the concept of component analysis in the field of noun lexemes expands the scope of study of the topic. The article summarizes the necessary sections, laws and rules for analysis.

Keywords: analysis, morphological, associative, grammatical, qualitative, component, analyses.

МЕТОД КОМПОНЕНТНОГО АНАЛИЗА

Аннотация. Данная статья дает представление о том, что представляет собой компонентный анализ в рамках разных системных языков, и благодаря этому дает представление о том, что такое общий анализ. Фонетический, морфологический и синтаксический анализы способствуют всестороннему изучению формы и содержания языка, правильному пониманию функций языковых единиц. В научных исследованиях эти анализы могут служить целостным описанием языка и использоваться в образовании, переводе, литературоведении и других областях. На этих анализах также базируется компонентный анализ. Тот факт, что в узбекском языкознании мало исследований о понятии компонентного анализа по именной лексеме, расширяет сферу изучения темы, необходимые для анализа.

Ключевые слова: анализ, морфологический, ассоциативный, грамматический, качественный, компонентный анализы.

Kirish. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida tilni tipologik nazardan o'rganish, bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashgan lisoniy birliklar mohiyatini ochib berish, ularni struktur-semantik tomonidan tahlil etish, muhim o'zlashma so'zlarning talqinini yoritish, ularning lisoniy, ijtimoiy madaniy xususiyatlari jihatidan izlanishlar olib borish eng muhim masalalardan biriga aylandi.

Jahon tilshunosligida muayyan til birligining boshqa bir tilga o'zlashish masalasi til ilmining leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturologiya, etnoligvistika, tarjima nazariyasi, chog'ishtirma tilshunoslik singari sohalar bilan bog'liq jihatda o'rganilgan. Mazkur hodisaning leksika va semantika sathida atroflicha yoritilishi u yoki bu tilning leksik imkoniyatlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning struktur-semantik tuzilishini, tushunchalarni ifodalash usullarini, tilda variantlilik, polisemiya hodisalarining rivojlanishi hamda ularning tilda qo'llanish mexanizimini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tildagi mavjud har qanday funksional uslub tomonidan ifoda etilayotgan xabar kabi badiiy asar matni ham nutq aktining birin-ketin keluvchi tanlangan majmuasi deb qarash

mumkin. Bu esa o'z navbatida bir qator obyektiv va subyektiv, shaxsga nisbatan aloqador bo'lgan faktorlar bilan izohlanadi. Tilga olib o'tilgan faktorlarning ta'siri ko'proq ikki xil nutqda namoyon bo'ladi. Bu ikki xil nutqning birinchisi, situatsiya bilan, norasmiyligi bilan xarakterlanadi.

Tahlil so'zi mavjud lug'atlarda turlicha izohlanadi. Jumladan, falsafaga oid ensiklopedik lug'atlaridan "Tahlil (yunon tilidan – ajralish, parchalanish) predmetni (hodisa, jarayon), predmetning (predmetlar) xususiyatlarini yoki predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni qismlarga (belgilar, xususiyatlar, munosabatlar) tarkibiy qismlarga fikran yoki amaliy ravishda ajratish tartibi", narsa-hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratishga asosiy e'tibor qaratilsa [1] tarjima lug'atlarida:

a) tahlil (ilmiy tekshirish (tadqiqot) usuli; obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o'rganish vositasi);

b) analiz, tahlil; tahlil qilish; matematik tahlil (oliy matematikaning bir bo'limi)" [2] ilmiy tadqiqot usuli, biror jarayonni tekshirish, moddalarning tarkibini aniqlash ma'nolariga urg'u beriladi.

Morfologik tahlil. To'g'ridan-to'g'ri komponentlar bo'yicha tahlil qilishdir.

Assotsiativ tahlil. So'zni tashkil etuvchi allofonlar va allomorfarni ma'lum bir tadqiqot darajasi uchun o'rnatilgan strukturaviy qatorlar bilan (ya'ni, tegishli fonema va morfemalar bilan) o'zaro bog'lash.

Grammatik tahlilda so'zlar orasidagi grammatik bog'lanishlarni aniqlash (mos ravishda leksiklashgan iboralar). Lingvistik tahlil asta-sekin ochiladigan juft qarama-qarshiliklar qatoriga asoslanadi.

Kategoriya tahlili fe'ldagi zamonning qarama-qarshiliklar tizimiga keltirilishi mumkin;

a) nutq lahjasini o'z ichiga oluvchi ish-harakatning belgilanishi nutq momentini o'z ichiga olmagan ish-harakatga qarama-qarshi qo'yiladi;

b) nutq momentini o'z ichiga olmagan harakatga bo'linadi va nutq momentidan oldin sodir bo'lgan hamda nutq paytidan keyin sodir bo'ladigan harakat va hokazo.

Sifatli tahlil. Tilni tavsiflash usuli – analistik tizim, mavjudlik berilgan hodisa chastotasining xususiyatlariga havola qilinmagan holda uning yo'qligidir.

Natija va muhokama. Komponent tahlili. Cheklovchi komponentlarni aniqlash komponentlar bir xil darajadagi turli til birliklarini bir-biridan ajrata oladigan differensial xususiyatlar sifatida til birligidir. Tilning minimal mazmunli elementlarini aniqlash va ularning morfemalarini aniqlashga qaratilgan lingvistik tadqiqot usullaridan biri.

Grammatik munosabatlarni ifodalashning tasviriy usuli bilan tavsiflangan analitik tillarning morfologik tuzilishi; qarama-qarshi sintez (ikki qiymatda)dan o'tkazish va tahlil qilish uchun sintez [3].

Lingvistik tahlil o'zbek tilshunosligining nazariy bo'limlarini sistemali o'rganishning maqbul usullaridan biridir. Tahlil jarayonida til faktlari haqidagi nazariy ma'lumotlar, grammatikaning qonun-qoidalari aniq misollarda amaliyotga tatbiq qilinadi. Tahlil etuvchi har bir til faktining nazariy asoslarini puxta egallashga intiladi. Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o'rganiladi. Lingvistik tahlilda olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko'ra aniq bir til yoki nutq birligini (so'z yoki gapni) parchalab o'rganishdir. Bu hodisa til o'rganuvchilarning til hodisalarini tez va to'g'ri ajrata olish malakalarini egallashlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda lingvistik tahlil ham muhim rol o'ynaydi [4].

Lingvistik nazariya, til sistemasi va tarixiy faktlarga asoslangan filologik tahlilda esa adabiy metod, janr, badiiy-estetik prinsiplar, muallif shaxsi va uning nutqiy maneriyasi va boshqa matn til ifoda vositalarining tarkibi hamda ko'rinishini belgilovchi omillardir. Lingvistik tahlil - til, nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan tadqiq etish, til birliklarining aniq holatini belgilashdir. Masalan, hosildorlikni so'zida ikkita til hodisasi mavjud bo'lib, u xuddi shu hodisalar nuqtai nazaridan tahlil etilishi mumkin: a) so'z yasalihi hodisasi; b) shakl yasalihi hodisasi (morfologik hodisa).

Bu so'zda ikkita yasama so'z mavjud bo'lib, so'z yasalihi tahlilida har bir yasama so'zning tarkibi va bu tarkibiy qismlarning mohiyati vazifasi, ma'nosi va shakli belgilanadi. Bunda hosildor yasama so'z ekani, u so'z yasalihi asosi hosil va so'z yasovchi -dor qo'shimchasidan iborat tarkibiy qiymatga egaligi, so'z yasalihi asosi (hosil) ot turkumiga oidligi, -dor qo'shimchasining qaysi turkumga oid so'zdan qaysi turkumga mansub so'z va qanday ma'noli so'z yasashi hamda uning boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Hosildorlik yasama so'zining tahlili ham xuddi shu tarzda olib boriladi, ya'ni u yasama so'z ekani, unda hosildor so'z yasalihi asosi, -lik so'z yasovchi qo'shimcha ekani, shuningdek, bu qo'shimchaning ma'nosi va boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Morfologik tahlilda hosildorlik so'zining ot ekanligi, -ni qo'shimchasi shu so'zning tushum kelishik shaklini yasalihi, uning ma'nosi va shaklini qayd etadi [5].

Nutqning fonetik qismlarini o'rganishiga qarab fonetika ikki turli bo'ladi: segmental fonetika va supersegmental fonetika. Nutq tovushlari hosil bo'lishi va uning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (segment-nutq bo'lagi) fonetika deyiladi. Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar: bo'g'in, so'z va frazalarni o'rganuvchi fonetikaga esa supersegmental fonetika deyiladi. Asosiy fonetik birliklar: fraza, takt, bo'g'in, nutq tovushlari. Grammatika ham nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi: gap, so'z birikmasi, so'z va

morfemalarga. Garchi har ikki qatlam nutqning son nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham sifat jihatidan bir-biriga mos kelmaydi.[6]

Komponent tahlil differensial tahlilning leksik tizimga tadbiq etilishi natijasida yuzaga keladigan tahlil usulidir. Lug'aviy birliklar, til tizimida ma'lum tartibdagi guruhlarini tashkil qiladilar va ma'nolari jihatidan o'zaro paradigmatic munosabatlarda bo'ladilar. Bunday paradigmatic dasturlarni "mavzuviy guruhlar" yoki "leksik semantik" guruhlar deb ataydilar.

Masalan quyidagi mavzuviy guruhlarini ajratish mumkin:

1. Uy jihozlari nomlari: divan, sandiq, tahmon va hokazo.
2. Metereologik hodisalar: bo'ron, qor, yomg'ir, izg'irin.
3. Qon-qarindoshlik atamaları: ota, bola, ona, qiz, aka, tog'a, amaki.
4. His-hayajonni ifodalovchi so'zlar: xursandchilik, xafalik, zavq, shodlik.

Inson intellektual faoliyatini ifodalovchi fe'llar: o'ylamoq, fikrlamoq, faraz qilmoq, bilmoq va hokazo

Ko'rinib turibdiki, so'zlar turli leksik-semantik guruhlariga ajratilayotganda umumiy semantik xususiyatlariga asoslanadi, ya'ni semantik umumiylikka ega bo'ladi. Biroq, ta'kidlash joizki, ma'lum leksik semantik tarkibiga kiruvchi so'zlar o'z o'rnida o'zaro farqlanadi va qarama-qarshilikka ega bo'ladi. Bunda mavjud farqlar va oppozitsiyalar yordamida so'zlarni o'zaro chog'ishtirish orqali ularning ma'no komponentlari aniqlanadi. Har bir so'zning semantik maydoni, ma'no doirasi yoritiladi [7].

Komponent tahlilning dastlabki bosqichi tilda lug'at boyligidan ma'lum leksik-semantik guruhning ajratilishi hisoblanadi. O'z navbatida mazkur guruh ham o'z bosqichlariga ega, ya'ni o'z o'rnida u ham ichki guruhlariga bo'linishi mumkin. Shuni ta'kidlash mumkinki, ikki turli xil leksik semantik guruh o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Masalan, tirik mavjudotlarni bildiruvchi leksik birliklar jonsiz narsalarni anglatuvchi birliklar bilan qarama-qarshi qo'yiladi. O'z navbatida tirik jonotlar guruhi ham o'zaro farqlanishi mumkin: qushlar nomlarini bildiruvchi leksik-semantik guruh va baliqlar turlarini ifodalovchi leksik-semantik guruh. Bundan tashqari, insoniy his-tuyg'ularni bildiruvchi leksik birliklar o'z o'rnida ijobiy va salbiy insoniy his-tuyg'ularni ifodalovchi leksik semantik guruhga bo'linadi va o'zaro qarama-qarshi qo'yilib o'rganiladi. Shunday qilib, komponent tahlilning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

a) komponent tahlil asosan leksik sath birliklarini tahlil qilish uchun qo'llaniladi;

b) so'zlar umumiy semantik xususiyatlari asosida ma'lum leksik semantik guruhga birlashtiriladi va bunday so'zlar o'zaro paradigmatic munosabatda bo'ladi;

d) ma'lum leksik semantik guruhdagi so'zlar ham (umumiy semantik belgisiga ega bo'lsa-da) o'z navbatida bir-biriga qarshi qo'yilib, semantik ma'no qirralari, nozikliklari aniqlanishi mumkin bo'ladi.

Ot leksemalarini komponent tahlil qilishda so'zlarni ma'nosi va semantikasini ko'rib chiqamiz.

Mazkur maqolada lozimanda so'zining bosqichma-bosqich komponent tahlilining borishi va natijalari tasvirlangan, uning maqsadi so'z tomonidan verbalizatsiya qilingan konsept mazmuni va dinamikasini aniqlashdir. Birinchi bosqichda lozimanda so'zining semantik tuzilmasi aniqlanadi; ikkinchi bosqichda uning tegishli LSGdagi semantik bog'liqliklari va munosabatlari belgilanadi; uchinchi, yakuniy bosqichda lozimanda konseptning kategorial belgilari aniqlanadi. Konseptning mazmunini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan komponentli tahlil faqat lug'at ta'rifi gagina emas, balki tildagi leksik tizimda kategorial turdagi birlashmalarni hosil qiladigan tahlil qilinayotgan birliklarning paradigmatic bog'liqliklariga ham tayanishi kerak:

1) grammatik bir xillik (LSGga kiruvchi leksik birliklar bitta grammatik kategoriyaga gap qismiga tegishlidir);

2) semantik bir xillik (invariant sema mavjudligi);

3) paradigmatic munosabatlar turining bir xilligi (ma'lum shartlarda o'zaro almashtirish qobiliyati).

LSGning bu talqinida til kategoriyalarining shakllanishining iyerarxik prinsipi aks etgan. N.N. Boldirevning ishlarida shakllantirilgan boshqa, prototipik yondashuv shundan iborat: til kategoriyalarining shakllanishining yetakchi prinsipi nisbiy o'xshashlik prinsipi bo'lib, unda leksik birliklar prototipik xususiyatlarga ega bo'lish darajasiga ko'ra farqlanib, nisbiy o'xshashlik asosida bitta guruhning a'zolari sifatida birlashtiriladi. Aynan shu yondashuv lozimanda so'zining ma'no dinamikasini aniqlash metodikasining asosiga qo'yilgan [8].

Lozimanda fors-tojik tilida lozimona[9] so'zi o'zbek tiliga o'zlashgan, N.N. Boldirevning metodga asosan komponentlarni birlashtirib tahlil qilib ko'ramiz:

1. Semantik yadro (asos va qo'shimcha morfemalar):

a) lozim – zarur, kerak, darkor, majbur;

b) -anda + -da qo'shimchasi (vaqt, joy, holatni bildiruvchi qo'shimcha).

2. Komponentlar: lozim + anda (ona)

a) lozim – zarurlik, majburlik;

b) -anda – joy, vaqt, holat.[10]

Компонентlarni birlashtirish.

Lozimanda soʻzi lozim va -anda (-ona) komponentlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan boʻlib ayollar yigʻilib marosim qiladigan joy maʼnosini bildiradi.

Dugona (egizak, ikkita) oʻzbek tilida dugona [11] fors-tojik tilidan oʻzlashgan leksema boʻlib oʻrtoq, doʻst (xotin qizlar haqida) maʼnosini anglatadi: Davru davroningizda biz ham toʻyib handalak yeylik, dugonajon! (O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa). Yuqorida berilgan dugona leksemasi uchta tilda farqlanuvchi boʻlib kelayotganligini koʻrish mumkin. Masalan tojik tilida egizaklarga nisbatan dugona leksemasi ishlatiladi va ularning jinsi farq qilmaydi. Lekin oʻzbek tilidagi maʼnosiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak faqat xotin-qizlarga nisbatan yaʼni jinsda farq qilishini koʻrish mumkin.

Fonetik, morfologik va sintaktik tahlillar tilning shakl va mazmun jihatdan toʻla qamrab olinishiga, til birliklarining funksiyasini toʻgʻri tushunishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu tahlillar mukammal til tavsifini berish, taʼlim, tarjima, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarda qoʻllanma vazifasini oʻtashi mumkin. Shuningdek, komponent tahlil ham ana shu tahlillarga asoslanadi.

Komponent tahlil til birligining (nominativ-kommunikativ yoki tuzilmaviy) qismlarini tahlil birligi sifatida oluvchi usul boʻlib, uning metodikasi Qozon va Moskva lingvistika maktablari tomonidan ishlab chiqilgan. Komponent tahlilida soʻzning morfem-morfologik tarkibi, gapning mantiqiy-grammatik va maʼno jihatdan boʻlingan qismlari, soʻzlarni leksik-semantik strukturasi aniqlanadi.

Ot leksemalarini komponent tahlil qilishda soʻz maʼnosining eng kichik tarkibiy qismlari va ular hosil qiladigan bogʻlanishlarni oʻrganishda fonetik, morfologik, sintaktik tahlil usullari muhim oʻrin tutadi. Ular soʻzning semantik strukturasi aniqlash, fonetik strukturadagi oʻzgarishlarni ochib berish, sintagmatik qurilishini koʻrsatish imkonini beradi.

Xulosa. Til taraqqiyotida leksemaning semantik tuzilishi maʼlum oʻzgarishlarga uchraydi. Oʻzgarish natijasida yangi maʼno paydo boʻladi, aksinsa, mavjud maʼno vaqt oʻtishi bilan yoʻqoladi. Natijada maʼnolar oʻrtasidagi nisbat oʻzgaradi: bir qator soʻzlarning bosh maʼnosi koʻchma maʼno tomonidan siqib chiqariladi. Oʻzlashma soʻzlarda esa butunlay yangi, hatto teskari maʼno yuzaga keladi. Koʻp maʼnoli soʻzlarning barcha maʼnolari kontekst bilan shartlanadi, lekin bu bunday shartlanish ular uchun bir xil darajada muhim ekanligini anglatmaydi. Soʻzlarni bosh va ikkinchi koʻchma maʼnoga boʻlish, bu maʼnolarning semantik tizimdagi tengsiz mavqeini toʻgʻri aks ettiradi. Bosh maʼno – asosiy maʼno boʻlib, u kontekst bilan belgilanmaydi. Koʻchgan maʼno asosiy maʼnoning semantik strukturasi kontekst elementlarini ham qoʻshadi. Soʻzning asosiy maʼnosi boshqa barcha maʼnolarga oʻzining maʼlum bir semasi bilan asos boʻladi. Soʻzning semantik strukturasi komponent tahlil qilish natijasida uning asosiy semalar toʻplami aniqlandi. Semalar bir-biridan hosil boʻlganligi sababli bir nechta ierarxik darajalardan iborat tuzilmani tashkil qilishi ochib berildi.

Maʼlumki turli tizimli tillarning leksik strukturasi bir-biridan farq qiladi. Bu esa oʻzlashma soʻzlarning semantik strukturasi koʻzga tashlanadi. Denotatlarni belgilashda umumiylik koʻzga tashlandi, ammo signifikatda turli farqlar kuzatiladi.

Til taraqqiyotida leksemaning semantik tuzilishi maʼlum oʻzgarishlarga uchraydi. Oʻzgarish natijasida yangi maʼno paydo boʻladi, aksinsa, mavjud maʼno vaqt oʻtishi bilan yoʻqoladi. Natijada maʼnolar oʻrtasidagi nisbat oʻzgaradi: bir qator soʻzlarning bosh maʼnosi koʻchma maʼno tomonidan siqib chiqariladi. Oʻzlashma soʻzlarda esa butunlay yangi, hatto teskari maʼno yuzaga keladi.

Koʻp maʼnoli soʻzlarning barcha maʼnolari kontekst bilan shartlanadi, lekin bu bunday shartlanish ular uchun bir xil darajada muhim ekanligini anglatmaydi. Soʻzlarni bosh va ikkinchi koʻchma maʼnoga boʻlish, bu maʼnolarning semantik tizimdagi tengsiz mavqeini toʻgʻri aks ettiradi. Bosh maʼno – asosiy maʼno boʻlib, u kontekst bilan belgilanmaydi. Koʻchgan maʼno asosiy maʼnoning semantik strukturasi kontekst elementlarini ham qoʻshadi. Soʻzning asosiy maʼnosi boshqa barcha maʼnolarga oʻzining maʼlum bir semasi bilan asos boʻladi.

ADABIYOTLAR:

1. Русча-ўзбекча лугат, икки томли, I том. – Тошкент: Ўзбек Сов. Энциклопедияси Бош редакцияси, 1983. b-31.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов, Изд. 2-ое, стереотип, – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. b-352.
3. Философский энциклопедический словарь/Гл. Редакция: Л.Ф.Ильичева, П.Н.Федосеев, С.М.Ковалев, В.Г.Панов – М.: Сов. Энциклопедия, 1983. b-23.
4. Жеребило Т.В. Термины и понятия: Методы исследования и анализа текста: Словарь-справочник. – Назрань: Пилигрим, 2011. b-341.
5. Mengliyev. B. Hozirgi oʻzbek tili.tafakkur boʻstoni – Toshkent, 2018. b-82.

6. Mirtojiyev. M. *O'zbek tili fonetikasi*. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Karimov S. *Tilshunoslik nazariyasi*. – Samarqand, 2012. b-12.
8. Кудратов Т. *Лингвистик таҳлил*. – Тошкент: Уқитувчи, 1981. b-241.
9. Исомиддинов Ф., Дусматов Х., Жума Жалол. *Ўзбек тилининг форс-тожикча ўзлашмалар лугати*. – Фарғона, 2022. – 152 б.
10. *O'zbek tilining etimologik lug'ati (I-jild)*, Toshkent -2000.b-421
11. *Фарҳанги забони тоҷикӣ (X – XX вв.)*. Ҷ.I. – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. с-396.

“SAHIHUL BUXORIY” ASARIDAGI DINIY TERMINLARNING SEMANTIK TAHLILI

Quvondiqova Mahbuba Zokir qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy rahbar: fil. fanlari doktori, dots. Z.Q.Teshaboyeva

quvondikovamaxbuba@mail.com

ORCID: 0009-0006-4921-7683

Annotatsiya. Ushbu maqolada semantika, semantik tahlil va uning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot beriladi. Semantik xususiyatni aniqlashda diniy atamalarga murojaat qilingan. Xususan, Imom al-Buxoriyning “Sahihul Buxoriy”, Muhammad Muhiddin ibn Ahmadning “Sahih Al-Bukhari” hamda Muhammad Muhsin Xonning “The translation of the meanings of Sahih Al-Bukhari. Arabic-English” asarlarida uchraydigan diniy terminlar semantik tahlilga tortilgan. Tahlil jarayonida diniy atamalar tarjimai turli lug’atlar vositasida keltirilgan hamda zarur o‘rinlarda muqobil tarjima variantlari taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: semantika, diniy termin, vahiy, rasul, nabi, Rob, hadis, kofir, namoz, ummat.

SEMANTIC ANALYSIS OF RELIGIOUS TERMS IN “SAHIHUL BUKHARI”

Abstract. This article provides information about semantics, semantic analysis and its essence. In determining the semantic feature, religious terms were referred to. In particular, religious terms found in the works of Imam al-Bukhari “Sahihul Bukhari”, Muhammad Muhiddin ibn Ahmad “Sahih Al-Bukhari” and Muhammad Muhsin Khan “The translation of the meanings of Sahih Al-Bukhari. Arabic-English” were subjected to semantic analysis. During the analysis, translations of religious terms were provided using various dictionaries, and alternative translation options were offered where necessary.

Key words: semantics, religious term, revelation, messenger, prophet, Lord, hadith, infidel, prayer, ummah (community).

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕРМИНОВ В “САХИХУЛ БУХАРИ”

Аннотация. В данной статье представлена информация о семантике, семантическом анализе и его содержании. При определении семантического признака были привлечены религиозные термины. В частности, семантическому анализу были подвергнуты религиозные термины, встречающиеся в трудах имама аль-Бухари “Сахихуль Бухари”, Мухаммада Мухиддина ибн Ахмада “Сахих аль-Бухари» и Мухаммада Мухсина Хана “Перевод смыслов Сахих аль-Бухари. Арабско-английский”. В ходе анализа были предоставлены переводы религиозных терминов с использованием различных словарей, а при необходимости были предложены альтернативные варианты перевода.

Ключевые слова: семантика, религиозный термин, откровение, посланник, пророк, Господь, хадис, кафир, намаз, умма.

Kirish. Semantika (yun. Semantikos – bildiruvchi, ifodalovchi) – 1) til yoki uning biron bir birligi (so‘z, so‘zning grammatik shakli, frazeologizm, so‘z birikmasi) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma’no, axborot; 2) turli til birliklarining ma’noviy tomonini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi; semasiologiya. Ayrim lug‘aviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to‘liq gaplar va ularning qo‘shilmalari ifodalashi mumkin. Binobarin, semantikaning o‘rganish obyekti ham asosan, to‘liq, mustaqil ma’noli so‘zlar va gaplarning ma’nolar tizimidir. Semantika fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o‘tagan [8].

Semantika lingvistik ma’noni o‘rganadi. Ma’no nima ekanligini, so‘zlarning qanday ma’no olishini, murakkab iboraning ma’nosi uning qismlariga qanday bog‘liqligini tekshiradi. Ushbu jarayonning bir qismi sezgi va mos yozuvlar o‘rtasidagi farqni o‘z ichiga oladi. Sezgi ifoda bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar va tushunchalar bilan beriladi, havola esa ifoda ishora qiladigan obyektidir. Leksik semantika – so‘z ma’nosini o‘rganadigan semantika bo‘limi. U so‘zlarning bir yoki bir nechta ma’noga ega ekanligini va ular bir-biri bilan qanday leksik aloqada turishini tekshiradi.

Semantik tahlil – bu har qanday matn kontekstini tushunishga va jumlada tasvirlanishi mumkin bo‘lgan his-tuyg‘ularni tushunishga yordam beradigan NLP (kompyuterlar tabiiy tilni tushunishi uchun sun‘iy intellekt orqali odamlar tomonidan matn nutqini manipulyatsiya qilish jarayoni) va Machine Learning (mashina orqali o‘rganish)ning kichik sohasidir. Bu kompyuterlardan inson darajasidagi aniqlikka erishish uchun muhim ma‘lumotlarni olishda yordam beradi. Ya‘ni biror bir shaxs qaysidir badiiy asarni o‘qigach, shu asar haqida umumiy fikrlarga kelsa, kompyuter ham o‘sha asar matni bilan tanishgach, xuddi uni o‘qigan inson kabi umumiy fikrlarga kelishi nazarda tutilmoqda. Semantik tahlil mashina tarjimalari, chatbotlar, qidiruv tizimlari va matn tahlili kabi vositalarda qo‘llaniladi. Leksik tahlil semantik tahlilning muhim qismidir. Leksik semantika har qanday so‘zning ma‘nosini o‘rganadi. Semantik tahlilda so‘z birikmalar orasidagi munosabat aniqlanadi. Ba‘zi munosabatlar giponimlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlar va boshqalar [9; 190].

Metodlar. Ushbu tadqiqot ishimizda asosan empirik-nazariy va nazariy tadqiqot metodlaridan foydalandik. Empirik-nazariy metodning tahlil va deduksiya usullaridan foydalangan holda tadqiqot obyektini tarkibiy qismlarga ajratib o‘rgandik hamda xususiy xulosalarga keldik. Nazariy metodning esa aksiomatik usulidan foydalanildi. Bunda deduksiyadan foydalangan holda mantiqiy isbotlar yordamida nazariya yaratildi.

Natijalar. Maqolamizning ushbu qismida bir qancha diniy terminlarni tahlilga tortamiz hamda ularni semantik jihatdan ko‘rib chiqamiz. “Sahihul Buxoriy” asaridagi 1-bo‘limda **الْوَحْي** so‘zi kelgan bo‘lib o‘zbek tiliga **“vahiyy”** deb tarjima qilingan. Muhammad Muhiddin ibn Ahmad tarjimalarida bu termin **“Revelation”**, **“Divine Inspiration”** va **“Inspiration”** so‘zlari bilan berilgan bo‘lsa, Muhammad Muhsin Xon **“Revelation”** hamda **“Divine Revelation”** so‘zlari bilan ifodalagan. Bizning fikrimizcha ushbu terminni **“Wahy”** yoki **“Al-wahy”** tarzida ham berish mumkin. Manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, bir qator izohli lug‘atlarda ushbu terminga duch kelamiz. Xususan, onlayn lug‘atlardan biri bo‘lgan *“Wiktionary. The free dictionary”*da **“Wahy”** so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan:

Noun **wahy** (uncountable)

- (Islam) The inspirational revelation of the Qur'an to Muhammad. (2013, Ian Richard Netton, *Encyclopaedia of Islam*, page 292) [10]

Wikipedia ensiklopediyasida:

“Wahyu (Arabic: وَحْي, IPA: [waħj]; pl.: وَحْيِي *wuħiyy*, IPA: [wuħij:]; also spelled **wahi**) is the Arabic word for revelation. In Islamic belief, revelations are God’s word delivered by his chosen individuals – known as messenger prophets – to mankind” tarzida berilgan [3].

Asarning ushbu bo‘limida **رسول الله** (Rasululloh) va **نبي** (Nabiy) so‘zlari ham kelgan bo‘lib, Muhsin Xon ularni mos ravishda “Messenger” va “Prophet” terminlari bilan bergan. Bu so‘zlarni “Rasul/Rasululloh” va “Nabi/An-Nabi” atamallari bilan ham berish mumkin. *“Wiktionary. The free dictionary”*da bu ikkala terminga quyidagicha izoh berilgan:

Rasul Etymology Borrowed from Arabic رَسُول (*rasūl*, “messenger”) Noun

rasul (plural rasuls or rusul)

1. (Islam) A prophet or messenger in Islam; Muhammad, as a special messenger of God.

Nabi Etymology From Arabic نَبِيّ (*nabiyy*, “prophet”) Noun **nabi** (plural nabis)

1. (Islam) A prophet of Islam.

Mana shu o‘rinda “Rasul” so‘zining tarjimasini berishda biroz bahsli masala yuzaga keladi. Ibn Ahmad “Rasul” so‘zini 2-hadisda “Messenger” deb tarjima qilgan bo‘lsa, 16-hadisda “Apostle” deb bergan.

2-hadis: Mo‘minlarning onasi Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Horis ibn Hishom roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan: “Ey Allohning **Rasuli**, sizga vahiyy qanday keladi?” deb so‘radi...” [5; 117].

Ibn Ahmad tarjimasi: Narrated ‘Aisha (RA): (the mother of the faithful believers) Al-Harith bin Hisham asked Allah’s Messenger (ﷺ) “O Allah’s **Messenger** (ﷺ)! How is the Divine Inspiration revealed to you?”... [1]

16-hadis: Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Uch narsa borki, ular kimda bo‘lsa, u iymon halovatini topibdi: Alloh va Uning **Rasuli** unga boshqa hamma narsadan sevimli bo‘lishi; ...”

Ibn Ahmad tarjimasi: Narrated Anas (RA): The Prophet (ﷺ) said, “Whoever possess the following three qualities will have the sweetness (delight) of faith:

1) The one to whom Allah and His **Apostle** becomes dearer than anything else...”

“Apostle” so‘zi asosan “havoriy” ma‘nosini berib, Iso alayhissalomning yonida yurgan shogirdlariga nisbatan ishlatiladi. Izoh.uz saytida bu so‘zning ma‘nosi quyidagicha berilgan:

Apostol (ot)

1. Havoriy (Isoning afsonaviy o‘n ikki shogirdidan biri).

2. Ko‘chma. Qizg‘in targ‘ibotchi, tarafdor, muxlis.

3. Havoriylarning qilgan ishlari haqidagi diniy kitob [11].

2023-yilda nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Apostol” so‘zi berilmagan, “Havoriy” so‘ziga esa quyidagicha ta’rif berilgan:

HAVORIY [a. حَوَارِي – *izdosh, shogird; Iso payg‘ambar izdoshi*] *din*. Iso payg‘ambarning izdoshlari [6; 349].

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, “Rasul” terminini ingliz tiliga tarjima qilishda “Apostle” so‘zi o‘rniga “Messenger” yoki “Ar-Rasul/Rasul” so‘zlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Navbatdagi termin 1-bo‘lim 3-bob 3-hadisda kelgan رَبِّ (**Robb**) so‘zi.

3. Mo‘minlarning onasi Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “... So‘ng meni uchinchi marta tutdi va qisdi. Keyin qo‘yib yuborib: “Yaratgan **Robbing** nomi bilan o‘qi...”

Bu so‘z ikkala tarjimon tomonidan ham ingliz tiliga “Lord” deb tarjima qilingan.

Ibn Ahmad tarjimasi: 3. Narrated ‘Aisha (RA): “...Thereupon he caught me for the third time and pressed me, and then released me and said, ‘Read in the name of your **Lord**...’

Muhsin Xon tarjimasi: 3. Narrated ‘Aishah رضي الله عنها, the Mother of the faithful believers: “...Thereupon he caught me for the third time and pressed me, and then released me and said, ‘Read in the Name of your **Lord**...’ [2].

Oxford Languages onlayn lug‘atida “lord” so‘zining izohi quyidagicha berilgan: “*noun* a man of noble rank or high office; a nobleman” [12] ya’ni “oliy martabali yoki yuqori lavozimli odam; zodagon”. Ko‘rinib turganidek, “Lord” so‘zi arab tilidan tarjima qilingandagi aynan Allohga ishora qiluvchi “Rob” ma’nosini bermaydi. Shu sabab bu so‘zni “**Ar-Rabb**” terminini bilan berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Wiktionary, the free dictionary lug‘atida “Ar-Rabb” terminini quyidagicha berilgan:

Etymology

Definite form of رَبِّ (*rabb*, “lord, master”), from the root ر ب ب (r b b); compare Hebrew רַב (*rav*, “master”) (source of English *rabbi*).

Proper noun الرَّبِّ • (ar-rabb) *m*

1. the Lord, God

Wikipedia ochiq ensiklopediyasida ham Rabb so‘ziga duch kelamiz:

“**Rabb** (Arabic: رب, lit. 'lord') is an Arabic word to refer to God as Lord [4].

God in Islam is referred to by many qualities and attributes. In the first Surah, Al-Fatihah of the Quran, introduces this Title "Rabb" in the first Verse, "All Praise and Gratitude is due to God, **Rabb** of all the worlds and Universe", thus stating clearly that God takes care, nourishes, fosters through every stage of existence, in which everything between that exists”.

Bu yerda Qur‘oni Karimdagi birinchi sura – Fotiha surasi tarkibida kelgan “Rob” so‘zi الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ (Alhamdu lillahi **robbil** -‘aalamiyn) ingliz tilida “Rabb” deb berilganini ko‘ramiz:

“All Praise and Gratitude is due to God, **Rabb** of all the worlds and Universe” ya’ni “Hamd olamlarning Rabbi – Allohgakim...” [7; 1].

Demak, ingliz tilida ham “Rabb” terminini mavjud bo‘lib, tarjimada bu so‘zdan foydalanish mumkin.

1-bo‘lim 4-bob 7-hadisda كَافِر (**Kofir**) atamasi kelgan bo‘lib, Ibn Ahmad asarida ushbu hadis tarjimasi keltirilmagan. Muhsin Xon esa bu so‘zni “**infidel**” deb tarjima qilgan.

7. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumo xabar qiladi: “... Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Abu Sufyon va Quraysh **kofirlari** bilan sulh tuzgan paytlari edi...”

7. Narrated Ibn ‘Abbas رضي الله عنهم: “... at the time when Allah’s Messenger ﷺ had truce with Abu Sufyan and Quraish **infidels**...”

Bu so‘zni ingliz tilida “**kafir**” terminini bilan ham berish mumkin. Collins Dictionary lug‘atida bu so‘zning izohi quyidagicha:

Kafir in British English

Noun Word forms: plural -irs or -ir

1. another name for the Nuri

2. offensive a variant spelling of Kaffir

Kafir in American English

1. a former name for Nuristani

2. Islam an infidel or unbeliever

3. South African taboo Kaffir

4. taboo Also: kaffir. Also called: kafir corn [13].

Ma’no yanada tushunarliroq bo‘lishi uchun qavs ichida qo‘shimcha so‘z berish mumkin ya’ni “**kafir** (*infidel, unbeliever*)” tarzida.

1-bo‘lim 4-bob 7-hadisda الصَّلَاة (**Namoz**) atamasi kelgan.

7. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumo xabar qiladi: "...Bizni **namozga**, rostgo'ylikka, iffatga va silai rahmga buyuradi..."

Muhsin Xon tarjimada "**pray**" so'zini ishlatgan.

7. Narrated Ibn 'Abbas رضي الله عنهم: "... He orders us to **pray**, to speak the truth, to be chaste and to keep good relations with our kith and kin..."

Biroq xuddi shu so'zni 46-hadisda "*As-Salat (prayers) (Iqamat-as-Solat)*" deb bergan).

46. Narrated Talha bin 'Ubaidullah رضي الله عنهم: "... Allah's Messenger ﷺ said, "You have to perform five **Salat (prayers) (Iqamat-as-Salat)** in a day and night (24 hours)..."

7-hadis tarjimasida berilgan "pray" so'zi aynan islom dinidagi namoz ma'nosini ifodalay olmagani sababli ham bu so'zni 46-hadisdagi kabi "As-Salat" yoki "As-Salah" kabi terminlar bilan berish to'g'riroq bo'ladi.

Vocabulary.com onlayn lug'atida "Salah" so'zi quyidagicha izohlangan:

Definitions of salah noun the second pillar of Islam is prayer; a prescribed liturgy performed five times a day (preferably in a mosque) and oriented toward Mecca

synonyms:salaah, salaah, salat [14]. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, ingliz tilida "salat", "salah" kabi terminlar mavjud bo'lib, tarjima jarayonida ulardan foydalanish mumkin.

Munozara. Tadqiqot davomida bir qator muammolarga duch keldik. Jumladan, lug'atlar bilan ishlashda. Sababi biz izlayotgan termin bir lug'atda mavjud bo'lsa, boshqasida keltirilmagan yoki ma'nolari to'liq berilmagan. Bunday holatda bir emas bir nechta izohli lug'atlardan foydalanish zarurati paydo bo'ldi. Yuqoridagi bo'limda diniy terminlar tahlili keltirildi, kerakli o'rinlarda muallif tomonidan taklif qilinayotgan tarjima berildi. Bundan ko'zlangan maqsad tarjimada yanada aniqlik va tushunarlilikda erishishdir. Biz yuqorida bor yo'g'i bir nechta hadislar tarkibida kelgan o'nga yaqin terminlar (vahiy, Rasul, nabi, Rob, kofir, namoz, ummat, mo'min, ato kabilar)ni tahlil qildik. Biroq asarda turli tomondan o'rganilishi va tahlil qilinishi zarur bo'lgan atamalar talaygina.

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Imom al-Buxoriyning "Sahihul Buxoriy" asari diniy terminlarga boy nihoyatda nodir manba hisoblanadi. Biz navbatdagi ilmiy ishlarimizda bu mavzuga yanada kengroq to'xtalishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu terminlarni o'rganish mutaxassislar uchun ham, boshqa soha vakillari uchun ham asar mazmunini yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Mohee Uddin Ibn Ahmad. *Sahih Al-Bukhari*. – USA. June 2020. – P 1
2. Muhammad Muhsin Khan. *The translation of the meanings of Sahih Al-Bukhari. Arabic-English*. – Riyadh-Saudi Arabia.: DARUSSALAM, July 1997. – P 47.
3. Juan E. Campo, ed. (2009). "*Wahy*". *Encyclopedia of Islam. Facts On File*. p. 589. ISBN 978-0-8160-5454-1.
4. Yuskaev, Timur R. (18 October 2017). *Speaking Qur'an: An American Scripture*. Univ of South Carolina Press. ISBN 978-1-61117-795-4. Indeed, "Lord" is a direct translation of the Arabic word Rabb.
5. Oltin silsila: Sahihul Buxoriy, 1-juz – Toshkent: "Hilol nashr", 2023. – B 117.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. I. A–D / A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B 349.
7. Shayx Abdulaziz Mansur. *Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. – Toshkent: Sano-standart, 2021. – 1-bet.
8. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
9. Allaberganova N.M. *Semantik tahlil. International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 10. Iyun, 2023. 190-bet.*

Internet saytlar:

10. <https://en.wiktionary.org/wiki/wahy>
11. <https://izoh.uz/word/apostol>
12. <https://languages.oup.com/google-dictionary-en/>
13. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/kafir>
14. <https://www.vocabulary.com/dictionary/salah>
15. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/believer>

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZIYORATGOH NOMLARINING LEKSIKOGRAFIK
TAHLILI VA LUG'ATLARDAGI AKS ETISHI

Vaxidova Fatima Saidovna,

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi, f.f.f.d.

Sadullayeva Umida Shuxrat qizi,

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi ziyoratgoh nomlarini leksikografik jihatdan tahlil qilib, ularning etimologik ildizlari, semantik qatlamlari va lug'atlardagi ta'riflarini qiyosiy ravishda o'rganadi. Jerusalem kabi ingliz tilidagi nomlar global va ko'p diniy mazmunda, Bahouddin Naqshband kabi o'zbek tilidagi nomlar esa mahalliy islomiy va sufiy an'analarga asoslanganligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, maqolada ziyoratgoh nomlarining til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ochib beriladi va ularning tarixiy, diniy va ijtimoiy ahamiyatlari misollar yordamida sanab o'tiladi.

Kalit so'zlar: leksikografik tahlil, toponimika, onomastika, etimologiya, semantika, Jerusalem, Bahouddin Naqshband, diniy muqaddaslik, majoziy ma'no, islomiy tasavvuf.

LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF SHRINE NAMES IN ENGLISH AND UZBEK AND
THEIR REPRESENTATION IN DICTIONARIES

Abstract. This article conducts a lexicographic analysis of shrine names in English and Uzbek, examining their etymological roots, semantic layers, and dictionary definitions in a comparative manner. It highlights that names in English, such as Jerusalem, carry global and multi-religious connotations, while names in Uzbek, such as Bahouddin Naqshband, are rooted in local Islamic and Sufi traditions. Additionally, the article explores the interplay between language and culture in shrine names, detailing their historical, religious, and social significance through examples.

Keywords: lexicographic analysis, toponymy, onomastics, etymology, semantics, Jerusalem, Bahouddin Naqshband, religious sanctity, metaphorical meaning, Islamic Sufism.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ СВЯТЫНЬ НА АНГЛИЙСКОМ И
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ОТРАЖЕНИЕ В СЛОВАРЯХ

Аннотация. Данная статья посвящена лексикографическому анализу названий святынь на английском и узбекском языках, в которой сравнительно изучаются их этимологические корни, семантические слои и определения в словарях. Подчеркивается, что названия на английском языке, такие как Иерусалим, имеют глобальный и многоконфессиональный контекст, тогда как названия на узбекском языке, такие как Бахауддин Накибанд, основаны на местных исламских и суфийских традициях. Кроме того, в статье раскрывается взаимосвязь языка и культуры в названиях святынь, а также их историческое, религиозное и социальное значение с приведением примеров.

Ключевые слова: лексикографический анализ, топонимика, ономастика, этимология, семантика, Иерусалим, Бахауддин Накибанд, религиозная святость, метафорическое значение, исламский суфизм.

Ziyoratgoh nomlari tilshunoslikning toponimika va onomastika sohasida muhim o'rin egallaydi. Toponimika joy nomlarini o'rganuvchi fan sifatida geografik obyektlarning nomlanishi, ularning tarixiy va madaniy ildizlarini tahlil qiladi, onomastika esa umumiy nomlar, xususan, shaxs, joy va boshqa obyekt nomlarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi [1]. Bu nomlar nafaqat geografik obyektlarni belgilabgina qolmay, balki xalqlarning tarixiy, madaniy va diniy merosini ham aks ettiradi. Masalan, toponimika orqali joy nomlari orqali migratsiyalar, diniy o'zgarishlar va madaniy ta'sirlarni o'rganish mumkin: qadimgi xalqlarning ko'chishi, diniy an'analarga almashinishi yoki boshqa tillardan so'z o'zlashtirilishi kabi jarayonlar toponimlarda iz qoldiradi. Masalan, O'zbekistondagi ko'plab toponimlar turkiy, forsiy yoki arabiy ildizlarga ega bo'lib, bu Markaziy Osiyodagi tarixiy va madaniy ta'sirlarni ko'rsatadi [2].

Leksikografik tahlil tilshunoslikning muhim uslubi bo'lib, nomlarning, xususan, toponimlar va ziyoratgoh nomlarining lug'atlardagi ta'rifini, ya'ni ularning rasmiy ma'nolarini, qo'llanilish kontekstlarini va sinonimik qatorlarini aniqlaydi. Shuningdek, bu tahlil nomlarning etimologiyasini, ya'ni ularning til ildizlari,

kelib chiqishi va shakllanish jarayonlarini, hamda semantik o'zgarishlarini, ya'ni vaqt o'tishi bilan ma'nolarining kengayishi, torayishi yoki butunlay o'zgarishini o'rganadi. Leksikografik tahlil nafaqat nomlarning lug'aviy ma'nosini, balki ularning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlarini ochib beradi, chunki lug'atlar tilning vaqt ichidagi rivojlanishini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Bu jarayon toponimika va onomastika sohalarida ayniqsa muhimdir, chunki joy nomlari xalqlarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va tarixiy tajribalarini saqlab qoladi.

Leksikografik tahlilning ahamiyati uning turli tillardagi nomlarni solishtirish imkonini berishida namoyon bo'ladi, chunki bu uslub orqali joy nomlarining til ildizlari, madaniy kontekstlari va semantik xususiyatlari qiyoslanadi, bu esa til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi [3]. Leksikografik tahlil nafaqat nomlarning lug'atlardagi ta'riflarini, balki ularning etimologiyasini, ya'ni qaysi tildan kelib chiqqanini va qanday shakllanganini, shuningdek, semantik o'zgarishlarini, ya'ni ma'nolarining vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganini tahlil qiladi. Bu jarayon toponimika va onomastika sohalarida muhim bo'lib, turli tillardagi ziyoratgoh nomlarining diniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatini solishtirish orqali xalqlarning madaniy identitetini va til rivojlanishini yoritadi [4]. Masalan, ingliz va o'zbek tillaridagi ziyoratgoh nomlari o'zlarining etimologik ildizlari va semantik qatlamlari orqali har bir tilning madaniy va diniy xususiyatlarini aks ettiradi, bu esa leksikografik tahlilning qiyosiy imkoniyatlarini ko'rsatadi [5].

Ingliz tilidagi Canterbury toponimi lotincha "Cantuaria" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu "Kent shahri" yoki "Kent aholisining shahri" ma'nosini anglatadi. "Cantuaria" qadimgi lotin tilida "Canti" (Kent mintaqasi aholisining nomidan) va "-aria" (joy yoki shahar ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha) so'zlarining birikmasidan shakllangan. Bu toponim Angliyaning Kent grafligidagi shaharni bildiradi va ziyoratgoh sifatida ayniqsa Tomas Bekketning 1170-yilda Canterbury soborida o'ldirilishi bilan mashhur bo'ldi [6]. Tomas Bekket, Canterbury arxiyepiskopi sifatida, Angliya cherkovi va qirol hokimiyati o'rtasidagi ziddiyatda shahid sifatida tanildi, bu esa shaharni xristian ziyoratchilari uchun muhim ziyoratgohga aylantirdi. Ingliz lug'atlari, masalan, Oxford Learner's Dictionary, Canterburyni "site of the murder of Thomas Becket, a major pilgrimage center" deb ta'riflaydi, bu uning diniy va tarixiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Semantik jihatdan, Canterbury nafaqat geografik nom, balki xristianlikdagi shahidlik va ziyorat an'anasining ramzi sifatida ishlatiladi, masalan, Geoffrey Chaucerning *Canterbury Tales* asarida ziyoratchilarning Canterburyga sayohati tasvirlanadi.

O'zbek tilida *Hazrati Imam* toponimi arabcha "Hazrat" (muqaddas, hurmatli shaxs) va "Imam" (diniy yetakchi yoki ibodat rahbari) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, Toshkentdagi masjid va maqbara kompleksining diniy ahamiyatini aks ettiradi [7]. Bu nom, xususan, Imom al-Buxoriy kabi islom olimlari yoki muqaddas shaxslar bilan bog'liq bo'lib, Toshkentdagi Hazrati Imam majmuasi O'zbekistonda islomiy ziyoratning muhim markazlaridan biridir. O'zbek tilining izohli lug'atida *Hazrati Imam* "Toshkentdagi masjid va maqbara kompleksi, ziyorat joyi" sifatida ta'riflanadi, bu uning diniy muqaddaslik va tarixiy ahamiyatini ko'rsatadi [8]. Etimologik jihatdan, "Hazrat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, islom madaniyatida hurmatli shaxslarga nisbatan ishlatiladi, "Imam" esa diniy rahbar yoki ilmiy shaxsni bildiradi. Bu toponim o'zbek tilida fors va arab tillarining ta'sirini ko'rsatadi, chunki O'zbekistondagi ko'plab ziyoratgoh nomlari islomiy va sufiy an'analarga asoslanadi. Semantik jihatdan, *Hazrati Imam* diniy hurmat, ilmiy meros va mahalliy ziyorat an'analarni ifodalaydi, bu esa uning madaniy va diniy kontekstidagi markaziy o'rnini ta'kidlaydi.

Ikkala nomning lug'atlardagi ta'riflari ularning diniy va madaniy kontekstini ochib beradi. Ingliz tilida *Canterbury* "pilgrimage site" sifatida ta'riflanadi, bu uning xristian ziyoratgohi sifatidagi rolini ko'rsatadi, lekin nom ba'zan figurativ ma'noda, masalan, adabiy yoki tarixiy kontekstda (Chaucerning asari kabi) ishlatiladi. O'zbek tilida *Hazrati Imam* "ziyoratgoh" sifatida ta'riflanadi va asosan, diniy muqaddaslikka urg'u beriladi, chunki nom islomiy an'analarga va mahalliy sufiy meros bilan chambarchas bog'liq. Ingliz tilidagi ziyoratgoh nomlari ko'proq figurativ ma'nolarga ega bo'lib, masalan, *Mecca* "turizm markazi" sifatida ishlatilishi mumkin, o'zbek tilida esa nomlar odatda diniy va ramziy ma'nolarga e'tibor qaratadi. Bu farqlar tilning madaniy va ijtimoiy kontekstlaridagi farqlarni ko'rsatadi: ingliz tilida global va ko'p diniy kontekst ustunlik qilsa, o'zbek tilida mahalliy islomiy va sufiy an'analarga markaziy o'rin tutadi.

Ingliz tilida ziyoratgoh nomlari ko'pincha xristianlik va islomiy kontekstda ishlatiladi. Masalan, *Mecca* islomiy *Hajj* markazi bo'lib, musulmonlar uchun eng muqaddas shahar sifatida tanilgan bo'lib, har yili millionlab ziyoratchilarni jalb qiladi va islom dinidagi besh ruknning biri hisoblanadi. *Jerusalem* esa yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun umumiy muqaddas joy sifatida tanilgan bo'lib, yahudiylarda Muqaddas Ma'bad, xristianlikda Iso Masihning hayoti va musulmonlikda Al-Aqso masjidi bilan bog'liq [9].

O'zbek tilida esa ziyoratgoh nomlari asosan islomiy va sufiy an'analarga bilan bog'liqdir. Masalan, Buxoro "7000 pirlar shahri" deb ataladi, chunki unda ko'plab sufiy shayxlarning maqbaralari joylashgan bo'lib, u nafaqat diniy, balki madaniy va tarixiy markaz sifatida ham muhimdir [10]. *Shahi Zinda* – Samarkanddagi 11–15-asrlar nekropoli bo'lib, "Tirik shoh" ma'nosini anglatadi va Qusam ibn Abbos maqbaraasi bilan bog'liq bo'lib, sufiy an'analarda muqaddaslik ramzi sifatida e'tirof etiladi [11]. Bu farqlar til

va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'lanishni ko'rsatadi: ingliz tilidagi nomlar ko'proq global va ko'p diniy kontekstda ishlatilsa, o'zbek tilidagilar mahalliy islomiy va sufiy merosga asoslanadi, ya'ni ular Markaziy Osiyoning diniy va madaniy o'ziga xosligini aks ettiradi.

Ingliz lug'atlarida, masalan, ziyoratgohlar "pilgrimage site" yoki "shrine" sifatida ta'riflanadi, bu esa ularning diniy va ramziy ma'nolarini ochib beradi; masalan, Oxford lug'atida *Mecca* "musulmonlarning muqaddas shahri" deb ta'riflanadi, lekin ayni paytda "juda ko'p odamlarni jalb qiluvchi joy" sifatida majoziy ma'noda ham ishlatiladi. Etimologiya toponimika va onomastika sohasida muhim vosita bo'lib, joy nomlarining til ildizlarini va kelib chiqishini aniqlaydi. Bu jarayon nomlarning qaysi tildan olinganini, qanday so'z birikmalari yoki morfologik jarayonlar orqali shakllanganini va vaqt o'tishi bilan qanday semantik yoki fonetik o'zgarishlarga duch kelganini ko'rsatadi. Toponimika geografik nomlarni o'rganish bilan shug'ullansa, onomastika umumiy nomlar, shu jumladan shaxs va joy nomlarining kelib chiqishini tahlil qiladi. Bu jarayon joy nomlarining tarixiy, madaniy va diniy kontekstini ochib beradi, chunki nomlar ko'pincha xalqlarning migratsiyasi, diniy e'tiqodlari yoki ijtimoiy tuzilmalari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Masalan, toponimlar orqali qadimgi xalqlarning ko'chish yo'llari, diniy an'analar yoki boshqa madaniyatlarining ta'siri aniqlanadi, bu esa tarixiy va etnografik tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, *Jerusalem* ibroniy tilidagi "Yerushalayim" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu nom "yeru" (shahar yoki joy) va "shalayim" (tinchlik, ba'zi talqinlarda "muqaddaslik" yoki "xotirjamlik") so'zlarining birikmasidan tashkil topgan [12]. Bu "tinchlik shahri" yoki "muqaddas shahar" ma'nosini anglatadi, bu esa shaharning diniy va ramziy ahamiyatini ta'kidlaydi. "Yerushalayim"ning etimologik ildizi ibroniy tilining qadimgi Semit tillari bilan bog'liqligini ko'rsatadi, chunki "shalom" (tinchlik) so'zi ibroniy va boshqa Semit tillarida, masalan, arab tilidagi "salaam" so'zi bilan umumiy ildizga ega bo'lib, bu so'zlar "sh-l-m" ildizidan kelib chiqadi, tinchlik va xavfsizlik tushunchalarini ifodalaydi.

"Yerushalayim"ning "tinchlik shahri" ma'nosi uning diniy va ramziy ahamiyatini ta'kidlaydi. Yahudiylarda bu shahar Muqaddas Ma'badning joylashgan joyi sifatida markaziy o'rin tutadi, chunki u yahudiylar uchun ibodat va ziyoratning eng muhim markazi hisoblanadi. Xristianlikda *Jerusalem* Iso Masihning hayoti, xususan, uning o'limi va tirilishi bilan bog'liq muqaddas joy sifatida e'tirof etiladi, masalan, Muqaddas Qabr cherkovi ziyoratgohi. musulmonlikda esa shahar Al-Aqso masjidi va Muhammad (s.a.v.)ning *Miraj* (osmonga ko'tarilish) voqeasi bilan muhimdir, bu esa uni islomiy ziyoratgoh sifatida belgilaydi. Ingliz tilidagi *Jerusalem* shakli ibroniy asl nusxadan lotin va yunon tillari orqali o'tgan bo'lib, "Hierosolyma" (yunoncha, "muqaddas Solima" ma'nosida) va "Ierusalem" (lotincha) shakllaridan kelib chiqqan. Bu o'zgarishlar tilning fonetik moslashuvi (masalan, ibroniy "Y"ning lotincha "I"ga aylanishi) va morfologik soddalashuvini ko'rsatadi, chunki yunon va lotin tillarida ibroniy tilning murakkab tovushlari soddalashtirilgan.

Ingliz lug'atlari *Jerusalem*ni "yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun muqaddas shahar" sifatida ta'riflaydi, bu uning uchta Abrahamiy din uchun universal ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, *Merriam-Webster* lug'atida: "a city in Israel that is holy to Jews, Christians, and Muslims" deb keltirilgan, bu ta'rif shaharning diniy va tarixiy o'rmini aniq ifodalaydi. *Oxford Learner's Dictionary*'da esa uning diniy va tarixiy ahamiyati ta'kidlanib, "the holy city" sifatida tasvirlanadi, bu nomning semantik qatlamlarini (tinchlik, muqaddaslik) va uning global ramziy ma'nosini ochib beradi. Bu ta'riflar *Jerusalem*ning etimologik ildizini ("Yerushalayim" – tinchlik shahri) va uning semantik qatlamlarini (tinchlik, muqaddaslik, ramziy markaz) aks ettiradi, shu bilan birga uning tilshunoslikdagi o'rmini aniqlaydi.

O'zbek tilidan *Bahouddin Naqshband* ziyoratgohini misol tariqasida olish mumkin. *Bahouddin Naqshband* ziyoratgohi O'zbekistonning Buxoro viloyatida, Qasri Orifon qishlog'ida joylashgan bo'lib, islom olamidagi muhim ziyoratgohlardan biridir. Ushbu ziyoratgohning nomi Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband (1318–1389) bilan bog'liq bo'lib, uning etimologik ildizlari va diniy ahamiyati tilshunoslik, toponimika va onomastika nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilishga arziydi. *Bahouddin Naqshband* toponimi aslida shaxs nomidan kelib chiqqan bo'lib, "Bahouddin" va "Naqshband" so'zlarining birikmasidan tashkil topgan. "Bahouddin" arabcha "Baha'uddin" so'zidan olingan bo'lib, "dinning nuri" yoki "dinning yorqinligi" ma'nosini anglatadi. Bu so'z "baha'" (nur, yorqinlik) va "uddin" (din) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, arab tilining qadimgi semantik ildizlariga asoslanadi [13]. "Naqshband" esa fors tilidagi "naqsh" (o'yma, naqsh solish) va "band" (bog'lovchi, ijodkor) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "naqsh soluvchi" yoki "o'ymakor" ma'nosini bildiradi. Bu nom Bahouddin Naqshbandning otasi Muhammad Buxoriyning to'quvchilik va o'yma naqsh solish bilan shug'ullangan kasbiga ishora qiladi, shuningdek, uning tasavvufdagi "qalbga ilohiy naqsh solish" ramziy ma'nosini ham ifodalaydi [14].

Ziyoratgohning joylashgan joyi – *Qasri Orifon* toponimi ham etimologik jihatdan muhimdir. "Qasr" arabcha "saroy" yoki "qal'a" ma'nosini anglatadi, "Orifon" esa "orif" (bilimdon, donishmand) so'zining ko'plik shakli bo'lib, "donishmandlar saroyi" ma'nosini beradi. Bu nom dastlab "Qasri Hinduvon" (Hind

xalqlari qishlog'i) deb atalgan bo'lib, Bahouddin Naqshbandning sharafiga "Qasri Orifon"ga aylantirilgan, bu uning ma'naviy donishmandlik va tasavvufdagi o'rnini ta'kidlaydi [15]. "Naqshband" so'zi fors tilining "naqsh" ildizi orqali boshqa turkiy va forsiy tillarda ham umumiy semantik ildizga ega bo'lib, masalan, o'zbek tilidagi "naqsh" (bezak, o'yima) so'zi bilan bog'liqdir. Bu etimologik ildizlar nomning islomiy tasavvuf va mahalliy madaniyat bilan aloqasini ko'rsatadi.

"Bahouddin Naqshband" nomining "dinning nuri" va "naqsh soluvchi" ma'nolari uning diniy va ramziy ahamiyatini ta'kidlaydi. Naqshbandiya tariqati asoschisi sifatida Bahouddin Naqshband islom tasavvufida muhim shaxs bo'lib, uning ta'limoti "Dil ba yor-u, dast ba kor" ("Ko'ngil Xudoda bo'lsin, qo'l mehnatda") shiori orqali dunyoviy hayot bilan ma'naviy intilishlarni uyg'unlashtirishni targ'ib qiladi. Bu ta'limot islomning sunniy oqimida, xususan, xojagon tariqatidan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik Naqshbandiya tariqati sifatida shakllangan. Ziyoratgoh O'rta Osiyodagi islomiy ma'rifat va sufiy an'analarning markazi sifatida xizmat qiladi, bu esa uning musulmonlar, xususan, Naqshbandiya izdoshlari uchun muqaddas joy sifatidagi o'rnini mustahkamlaydi [16].

Naqshbandiya tariqati Movarounnahr (O'rta Osiyo), Afg'oniston, Hindiston, Turkiya va boshqa islom mamlakatlarida keng yoyilgan bo'lib, Bahouddin Naqshbandning ma'naviy ta'siri global miqyosda seziladi. Uning ziyoratgohi Buxoro viloyatidagi Qasri Orifonda joylashgan bo'lib, nafaqat diniy ziyorat markazi, balki madaniy va ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim obidadir. Ziyoratgoh majmuasi daxmalar (*Daxmai Shohon* va *Bahouddin daxmasi*), masjidlar, xonaqoh, madrasa, hovuz va minora kabi me'moriy elementlardan iborat bo'lib, 16-asr me'morchiligining yutuqlarini aks ettiradi. Bu majmua Abdulazizxon (1540–1549) tomonidan tartibga solinib, 1544–1545-yillarda xonaqoh qurilishi bilan kengaytirilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Bahouddin Naqshband" "naqshbandiya tariqatining asoschisi, Buxorodagi muqaddas ziyoratgoh egasi" sifatida ta'riflanadi, bu uning diniy va madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. Xalq orasida u "Shohi Naqshband" (Naqshlar Shohi) yoki "Balogardon" (balo-qazoni daf qiluvchi) sifatida ham tanilgan, bu uning ma'naviy himoyachi sifatidagi ramziy o'rnini aks ettiradi [17]. Ingliz tilidagi manbalarda, masalan, "The Bahouddin Naqshband architectural complex" maqolasida, ziyoratgoh "Naqshbandiya tariqatining markazi" sifatida tasvirlanadi, bu uning islom olamidagi global ahamiyatini ta'kidlaydi.

Jerusalem bilan solishtirganda, *Bahouddin Naqshband* ziyoratgohining nomi shaxsiy nomga asoslangan bo'lsa-da, uning semantik va diniy ahamiyati xuddi *Jerusalem* kabi umumiy xarakterga ega. *Jerusalem* "tinchlik shahri" sifatida uchta Abrahamiy din (yahudiylik, xristianlik, islom) uchun muqaddas bo'lsa, *Bahouddin Naqshband* ziyoratgohi islom olamida, xususan, Naqshbandiya tariqati izdoshlari uchun muhimdir. *Jerusalem*ning ibroniy "Yerushalayim" so'zi "sh-l-m" ildizidan kelib chiqib, tinchlik va muqaddaslikni ifodalasa, *Bahouddin Naqshband*ning "naqshband" so'zi fors tilidagi "naqsh" ildizi orqali ma'naviy bezak va qalb pokligini ramziy ma'noda aks ettiradi.

Ikkala nomning lug'atlardagi ta'riflari ularning diniy kontekstini ochib beradi: *Jerusalem* ingliz lug'atlarida "yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun muqaddas shahar" sifatida tasvirlansa, *Bahouddin Naqshband* o'zbek va ingliz manbalarida "tasavvuf rahbari va ziyoratgoh egasi" sifatida ta'riflanadi. *Jerusalem*da majoziy ma'nolar (masalan, "muqaddas ideal" sifatida) ko'proq bo'lsa, *Bahouddin Naqshband* nomi o'zbek tilida asosan diniy muqaddaslik va tasavvufiy merosga urg'u beradi. Bu farqlar ikki tilning madaniy va diniy kontekstlaridagi o'ziga xoslikni ko'rsatadi: ingliz tilida global va ko'p diniy kontekst ustunlik qilsa, o'zbek tilida mahalliy islomiy an'analarning markaziy o'rin tutadi.

Jerusalem va *Bahouddin Naqshband* ziyoratgohlari nomlari turli tillardagi lug'atlarda o'ziga xos ta'riflar bilan aks etadi. Ushbu ta'riflar nafaqat nomlarning diniy va madaniy ahamiyatini ochib beradi, balki ularning tilshunoslikdagi o'rnini, ya'ni etimologik ildizlari va semantik qatlamlarini ham ko'rsatadi. Ingliz tilidagi lug'atlar *Jerusalem*ni ko'pincha "yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun muqaddas shahar" deb ta'riflaydi. Bu ta'rif uning uchta Abrahamiy din – yahudiylik, xristianlik va islom uchun universal diniy ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, *Merriam-Webster* lug'ati *Jerusalem*ni "Isroildagi shahar bo'lib, yahudiylar, xristianlar va musulmonlar uchun muqaddas" deb tasvirlaydi. Bu ta'rif shaharning global diniy markaz sifatidagi o'rnini aniq aks ettiradi, chunki u yahudiylikda Muqaddas Ma'badning joylashgan joyi, xristianlikda Iso Masihning hayoti bilan bog'liq va islomda Al-Aqso masjidi va *Miraj* voqeasi bilan muhimdir [18].

Oxford Learner's Dictionary esa *Jerusalem*ni "muqaddas shahar" deb ataydi, bu uning semantik qatlamlarini – tinchlik va muqaddaslikni ochib beradi. Nomning ibroniy ildizi "Yerushalayim" (tinchlik shahri)dan kelib chiqadi, bu esa "shalom" (tinchlik) so'zi orqali Semit tillarining umumiy ildiziga ishora qiladi. Ingliz tilida *Jerusalem* nafaqat diniy kontekstda, balki adabiy va figurativ ma'nolarda ham ishlatiladi. Masalan, "yangi Jerusalem" iborasi adabiyotda ideal tinchlik yoki ruhiy maqsadni ifodalaydi, bu William Blake'ning "Jerusalem" she'rida yaqqol ko'rinadi [19]. Lug'atlar shuningdek, sinonimlar ("holy city", "sacred place") va misollar orqali nomning kengroq qo'llanilishini ko'rsatadi, bu uning sekulyar va ramziy ma'nolarini boyitadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida *Bahouddin Naqshband* "Naqshbandiya tariqatining asoschisi, Buxorodagi muqaddas ziyoratgoh egasi" sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rif uning islom tasavvufidagi markaziy o'rnini va Buxoro viloyatidagi Qasri Orifonda joylashgan ziyoratgohning diniy ahamiyatini ko'rsatadi. Nomning etimologik ildizi arabcha "Baha'uddin" (dinning nuri) va forsha "Naqshband" (naqsh soluvchi) so'zlaridan kelib chiqadi, bu esa Bahouddin Naqshbandning ma'naviy rahbar sifatidagi rolini va tasavvufdagi "qalbga ilohiy naqsh solish" ramzini ifodalaydi.

Ingliz tilidagi manbalarda, masalan, UNESCO va O'zbekiston sayyohlik saytlarida, ziyoratgoh "Naqshbandiya tariqatining markazi" yoki "O'zbekistondagi muhim islomiy ziyoratgoh" sifatida tasvirlanadi. Bu ta'riflar ziyoratgohning global islom olamidagi ahamiyatini, ayniqsa Naqshbandiya tariqati izdoshlari uchun muhimligini ta'kidlaydi. O'zbek xalq og'zaki ijodida nom "Shohi Naqshband" (Naqshlar Shohi) yoki "Balogardon" (balo-qazoni daf qiluvchi) sifatida ishlatiladi, bu uning ma'naviy himoyachi sifatidagi ramziy o'rnini aks ettiradi. O'zbek tilida nomning figurativ qo'llanilishi deyarli uchramaydi, chunki u asosan islomiy va sufiy an'analarga qat'iy bog'langan.

Jerusalem va *Bahouddin Naqshband* nomlarining lug'atlardagi ta'riflari ularning diniy va madaniy kontekstlarini ochib beradi, lekin ularning qo'llanilishi va semantik qatlamlari sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz lug'atlari *Jerusalem*ni kengroq diniy va figurativ kontekstda ta'riflaydi. Uning ta'riflari sinonimlar ("holy city", "sacred place") va adabiy misollar bilan boyitilgan bo'lib, nomning nafaqat diniy, balki sekulyar va ramziy ma'nolarda ishlatilishini ko'rsatadi. Masalan, *Jerusalem* ingliz adabiyotida tinchlik yoki ma'naviy ideal sifatida talqin qilinadi, bu uning global va ko'p diniy kontekstini aks ettiradi.

Bundan farqli o'laroq, *Bahouddin Naqshband* o'zbek va ingliz manbalarida asosan islomiy tasavvufga xos diniy muqaddaslikka urg'u bilan ta'riflanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida nom geografik va diniy kontekstda tasvirlanadi, lekin figurativ ma'nolar deyarli yo'q, chunki u mahalliy islomiy an'analarga qat'iy bog'langan. Ingliz tilidagi manbalar ziyoratgohni "Naqshbandiya tariqatining markazi" sifatida ta'riflasa-da, bu ta'riflar asosan diniy kontekstga e'tibor qaratadi va sekulyar yoki adabiy qo'llanilishga kam e'tibor beriladi.

Bu farqlar ikki tilning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini ko'rsatadi. Ingliz tilida *Jerusalem*ning ta'riflari global, ko'p diniy va adabiy kontekstga moslashtirilgan bo'lib, nomning figurativ ma'nolari (masalan, "ideal joy" sifatida) keng tarqalgan. O'zbek tilida esa *Bahouddin Naqshband*ning ta'riflari mahalliy islomiy va sufiy an'analarga asoslangan bo'lib, diniy muqaddaslik va ma'naviy rahbarlikka urg'u beriladi. Bu nomning xalq orasidagi "Balogardon" kabi atamallari uning ma'naviy himoyachi sifatidagi rolini ta'kidlasa-da, bu ma'nolar ham diniy kontekstda qoladi.

Xulosa qilib aytganda, ziyoratgoh nomlari til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Ingliz tilida ular global, o'zbek tilida mahalliy islomiy kontekstda rivojlangan. Ushbu tahlil nomlarning leksikografik mohiyatini ochib berdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ainiala T., Saarelma M., & Sjöblom P. (2012). *Names in Focus: An Introduction to Finnish Onomastics*. Finnish Literature Society.
2. Armstrong K. (1996). *Jerusalem: One City, Three Faiths*. Ballantine Books.
3. Chaucer, G. (2008). *The Canterbury Tales*. Penguin Classics.
4. Collins English Dictionary. (2025). Mecca. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/mecca>
5. Durkin P. (2016). *The Oxford Handbook of Lexicography*. Oxford University Press.
6. Etymonline. (2025). Canterbury. <https://www.etymonline.com/word/Canterbury>
7. Etymonline. (2025). Jerusalem. <https://www.etymonline.com/word/Jerusalem>
8. Eurasianet. (2018). *A Guide to Central Asia's Sacred Spaces*. <https://www.eurasianet.org>
9. Gadoyeva M. I., & Vakhidova F. S. (2020). A Short Humoristic Text for the Training of Students with Specialized of Tourism. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(2), 509–519.
10. Kadmon, N. (2000). *Toponymy: The Lore, Laws and Language of Geographical Names*. Vantage Press.
11. Lonely Planet. (2024). *Best places to visit in Uzbekistan*. <https://www.lonelyplanet.com>
12. Merriam-Webster. (2025). Jerusalem. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/Jerusalem>
13. Merriam-Webster. (2025). Mecca. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/Mecca>
14. Mills A. D. (2011). *A Dictionary of British Place Names*. Oxford University Press.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2025). Bahouddin Naqshband.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2025). Hazrati Imam.
17. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2025). Shahi Zinda.

18. Oxford Learner's Dictionary. (2025). Canterbury.
<https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/canterbury>
19. Oxford Learner's Dictionary. (2025). Jerusalem.
<https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/jerusalem>
20. Oxford Learner's Dictionary. (2025). Mecca.
<https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/mecca>
21. Qorayev S. (2006). *O'zbek toponimikasi*. Tashkent: Akademyashr.
22. Rajabova N. S. (2025). Bahouddin Naqshband Ziyoratgohi: Tarixiy va Madaniy Ahamiyati. *Central Asian Journal of Academic Research*. DOI: 10.5281/zenodo.14963979
23. ResearchGate. (2024). Some actual problems related to Uzbek toponymy.
https://www.researchgate.net/publication/374892345_Some_actual_problems_related_to_Uzbek_toponymy
24. ResearchGate. (2025). English and Uzbek toponymic phraseological units.
https://www.researchgate.net/publication/English_Uzbek_toponymic_phraseological_units
25. ResearchGate. (2025). Lexicographic analysis of spirituality terms in English and Uzbek.
https://www.researchgate.net/publication/Lexicographic_analysis_spirituality_terms
26. The Becket Story. (2025). Pilgrimage Destinations in England.
<https://www.becketstory.org.uk/pilgrimage>
27. UNESCO World Heritage List. (2025). Samarkand and Bukhara. <https://whc.unesco.org>
28. Uzbek Practical Dictionary. (2015). Hippocrene Books.
29. Uzbekistan Pilgrimage Tour. (2025). Hazrati Imam Complex. <https://www.uzbek-travel.com/hazrati-imam>
30. Vakhidova F. S. (2024). The Terminology of Pilgrimage Tourism and its Variants. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(4). <https://www.bjisrd.com>
31. Vakhidova F. S., & Sadullayeva, U. Sh. (2025). Functional-Discursive Study of Toponymy and Its Early Stages. *Best Publication*. <https://bestpublication.net>
32. Vakhidova F. S., & Sadullayeva, U. Sh. (2025). Ingliz va o'zbek tillarida ziyoratgoh nomlarining etimologik va semantik tahlili. *American Journal of Multidisciplinary Bulletin*. <https://advancedscienti.com/index.php/AJMB/article/view/768>
33. Vakhidova F. S., & Sadullayeva, U. Sh. (2025). Pedagogical Science and Teaching Methods. *Interonconf*. <https://interonconf.com/index.php/denmark/article/download/11609/10657>
34. Wehr, H. (1994). *A Dictionary of Modern Written Arabic*. Otto Harrassowitz Verlag.
35. Wiktionary. (2025). Hazrati Imam. https://en.wiktionary.org/wiki/Hazrati_Imam
36. Wiktionary. (2025). Category: Uzbek terms by etymology.
https://en.wiktionary.org/wiki/Category:Uzbek_terms_by_etymology

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGUA- MADANIY TAHLILI

Umarova Feruza Muhiddin qizi,
Qarshi Xalqaro Innovatsion Universiteti magistranti
feruzaumarova790@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek maqollarining lingvomadaniy tahlili orqali ularning madaniy, semantik va pragmatik xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida maqollar xalq tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlarini til orqali qanday ifoda etishini aniqlash maqsad qilingan. Lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va etnolingvistika nazariyalariga tayangan holda maqollarning xalq og'zaki ijodida madaniy kod sifatida qay darajada samarali ishlatilishi ochib beriladi. Ingliz va o'zbek maqollaridagi konseptual metaforalar, asosiy mavzular va kommunikativ funksiyalar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari til o'rganish, tarjima jarayonlari va madaniyatlararo muloqotda maqollardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, maqol, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, konseptual metafora, madaniy kod, semantik maydon.

LINGUA-CULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEKISTAN ARTICLES

Abstract. This article examines the cultural, semantic, and pragmatic characteristics of English and Uzbek proverbs through linguocultural analysis. The study aims to understand how proverbs reflect national thinking, values, and social norms through language. Relying on the theories of linguoculturology, cognitive linguistics, and ethnolinguistics, attention is focused on the effectiveness of proverbs as cultural codes in folk oral literature. The conceptual metaphors, main themes, and communicative functions in English and Uzbek proverbs are analyzed comparatively. The results of the research provide opportunities for effective use of proverbs in language learning, translation, and intercultural communication.

Keywords: linguoculturology, proverb, cognitive linguistics, pragmatics, conceptual metaphor, cultural code, semantic field.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СТАТЕЙ

Аннотация. В данной статье исследуются культурные, семантические и прагматические особенности английских и узбекских пословиц посредством лингвокультурного анализа. В ходе исследования предпринята попытка выявить, каким образом пословицы отражают народное мышление, ценности и социальные нормы через язык. Основываясь на теориях лингвокультурологии, когнитивной лингвистики и этнолингвистики, особое внимание уделяется эффективному использованию пословиц как культурного кода в устном народном творчестве. Сравнительно анализируются концептуальные метафоры, основные темы и коммуникативные функции в английских и узбекских пословицах. Результаты исследования позволяют эффективно использовать пословицы в изучении языка, переводе и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: лингвокультурология, пословица, когнитивная лингвистика, прагматика, концептуальная метафора, культурный код, семантическое поле.

Kirish. Maqollar har bir xalqning hayoti, tajribasi va madaniy dunyoqarashining ifodasidir. Ular yillar davomida shakllangan xalqona falsafa, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy qadriyatlarni ixcham va ta'sirli ifoda etadi. Tilshunoslikda maqollarni o'rganish nafaqat ularning grammatik va leksik tuzilishini tushunish, balki ularning ortida yotgan madaniy va kognitiv asoslarni aniqlashda ham muhim hisoblanadi. So'nggi yillarda til va madaniyat o'zaro bog'liq tizim sifatida qaralmoqda. Til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maqollar madaniyatni til orqali anglashning eng samarali vositalaridan biridir. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek maqollarining lingvomadaniy xususiyatlari, ularning semantik, metaforik va pragmatik jihatlari orqali qanday madaniy qadriyatlarni ifoda etishi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida xalq maqollari shoirlar, adabiyotshunos olimlar, tarixchilar e'tiboridan chetda qolmagan deb ayta olamiz. Chunki ular o'z adabiy asarlarining ta'sirchanligini oshirishda maqollardan foydalanish barcha davr so'z ustalarining diqqat

markazida bo'lgan. Masalan, Yusuf Xos Hojib, Rabg'uziy, Qutb Xorazmiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Majlisiy, Lutfiy va boshqalarning asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Maqollarning kommunikativ vazifasi xalqning ko'p asrlik tajribalarini saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazishdir. Maqollar qotib qolgan ikki qismlik tuzilma shaklidagi ishonchli matn hisoblanadi. Maqollar matni qisqa, eslab qolish oson, taviriyligi va izchilligi bilan tasvirlanadi. Shuningdek, u sintaktik figuralar, qofiya hamda ritm bilan tuzilganligi uchun yanada jozibali hisoblanadi. Bu tilning olib yuruvchi xalqning tarixi, madaniyati va lesikologiyasi shu tilning maqollari to'plamida o'z ifodasini topadi. Taniqli eston paremiologi Krikmann maqollarning tashqi aloqalarini ularning ijtimoiy- tarixiy jarayon, insonning bilish faoliyati kabi ko'plab bilim sohalari bilan aloqasi orqali tushuntirish mumkin, deb hisoblaydi [1, 149].

Tilshunoslikda maqollarni o'rganish nafaqat grammatik va leksik xususiyatlarni aniqlash, balki ularning semantik, pragmatik va madaniy jihatlarini tahlil qilish orqali til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda lingvomadaniy yondashuv (Baranov A.N., 1991; W. Mieder, 2004) tilshunoslikda alohida e'tiborni qozonmoqda. Bu yondashuv tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniyatni shakllantiruvchi va ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida ko'radi. Lingvomadaniy tahlil til birliklarining orqasida turgan madaniy kodlarni ochishga, milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi obrazlar va tushunchalarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu tahlil vositasi orqali maqollarni nafaqat leksik-grammatik birlik sifatida, balki xalq tafakkurining "semantik kalitlari" sifatida talqin qilish mumkin (Axmedova M., Til va madaniyat uyg'unligi 85-92-bet 2017). Maqollar orqali xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy xatti-harakat standartlari, axloqiy qadriyatlari va diniy tasavvurlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Konseptual metafora nazariyasiga (Lakoff & Johnson, *Metaphors We live by* 1980) ko'ra, til faqat dunyoni ifodalash vositasi emas, balki inson ongida dunyo qanday tarzda tushunilishini shakllantiruvchi kognitiv modeldir. Maqollardagi metaforalar xalqning real hayotiy tajribasidan oziqlanadi va bu metaforalar turli tillarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida "Don't count your chickens before they hatch" maqoli o'zbekchadagi "Tovuqni so'ymay turib, qozonni qo'yma" degan maqol bilan semantik va konseptual jihatdan uyg'unlikda bo'lsa-da, obraz jihatdan farqlanadi. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni yanada yaqqolroq ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek maqollarining qiyosiy lingvomadaniy tahlili o'tkaziladi. Unda maqollar tarkibidagi asosiy mavzular, konseptual metaforalar, semantik maydonlar va pragmatik funksiyalar o'rganiladi. Ushbu maqola til o'rganish, tarjima qilish, madaniyatlararo muloqotda maqollardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Maqollar orqali milliy tafakkur va qadriyatlar aks ettirilishi mumkin. Maqollar har qanday jamiyatda xalq donishmandligini, axloqiy qarashlarini va ijtimoiy me'yorlarini ifodalaydi. Ular xalqning tarixiy tajribasini, dunyoqarashini va qadriyat tizimini lingvistik vositalar orqali uzatadi. Ingliz va o'zbek maqollarini tahlil qilganda, ularning har ikkalasida mehnat, halollik, sabr-toqat, do'stlik, vaqt va taqdir kabi mavzular keng yoritilganini ko'rish mumkin. Misol uchun:

English: "Honesty is the best policy"

Uzbek: "Halollik eng katta boylik"

Bu maqollar ikkala til va madaniyatda ham rostgo'ylik va halollik eng muhim axloqiy fazilat sifatida qadrlanishini ko'rsatadi.

Bu borada (W. Mieder *Proverbs* 2004) aytib o'tganidek, "Proverbs are small packages of wisdom that reflect collective experience and norms of a community." Ya'ni, maqollar xalq tafakkurining siqilgan shakli bo'lib, madaniyatni ichki kodlar bilan uzatadi.

Lakoff va Johnson (1980) konseptual metafora nazariyasini ilgari surib, inson tafakkuri va til o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bergan. Ularning ta'kidlashicha, metaforalar abstrakt tushunchalarni konkret, hayotiy obrazlar orqali anglashga xizmat qiladi. Quyidagi maqollar bunga yorqin misoldir:

English: "Don't count your chickens before they hatch" – natijani oldindan ishonib rejalashtirish noto'g'riligini bildiradi.

Uzbek: "Tovuqni so'ymay turib, qozon qo'yma" – mazmunan bir xil, ammo milliy obrazlar boshqa. Bu erda ingliz tilida "jo'ja" (chicken) metaforasi orqali anglash jarayoni berilsa, o'zbek tilida esa "tovuq va qozon" obrazlari orqali xalqona va yaqin tasvir paydo bo'ladi. Bu farq milliy tafakkurda qanday obrazlar ustuvorligini ko'rsatadi.

Maqollar mavzular bo'yicha tasniflanganda, ikkala til va madaniyatda quyidagi asosiy semantik maydonlar ajralib chiqadi:

Masalan;

Mehnat- "No pain, no gain" = "Mehnat qilgan – rohat topar"

Do'stlik - "A friend in need is a friend indeed" = "Do'st boshida bilinadi"

Sabr - "Patience is a virtue" = "Sabr qilgan – g'azabdan qutilar"

Vaqt- "Time is money"- "Vaqt = bebaho ne'mat"

Taqdir- "What will be, will be"= "Taqdirdan o'ting bo'lmas"

Maqollar insonlar o'rtasidagi muloqotda ko'pincha nasihat, ogohlantirish yoki kinoya vazifasini bajaradi. Pragmatik jihatdan ular kommunikativ samaradorlikni oshiradi, aytilayotgan fikrga kuchli ta'sir baxsh etadi.

English: "What goes around comes around" – insonning xatti-harakatlari unga qaytadi.

Uzbek: "Qazigan quduqqa o'zing tushasan" – o'z yomonliging o'z boshingga qaytadi.

Maqollar faqat og'zaki nutq doirasida emas, balki yozma adabiyotda ham muhim estetik va semantik vazifani bajaradi. Adabiy matnlarda maqollar ko'pincha milliy ong, ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz va o'zbek yozuvchilari o'z asarlarida xalq maqollaridan maqsadli va chuqur madaniy ma'no yuklagan holda foydalanishgan. O'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining mashhur romani "O'tkan kunlar"(118-123-betlar)da maqollardan xalq ruhiyatini ifodalovchi kuchli vosita sifatida foydalangan. U asarda maqollarni nafaqat obrazlar nutqida, balki muallifning tafakkurini berishda ham qo'llagan. Misol tariqasida: "Yaxshilik qil – daryoga o'xshab, tubiga tushar." Ushbu maqol orqali o'zbek xalqining samimiylik va evaz kutmaslik qadriyatlari ifodalangan bo'lib, bu lingvomadaniy yondashuv orqali xalq axloqiy modelining ichki kodlari ochiladi.

Shuningdek, Cho'lponning "Kecha va kunduz" (134-140-betlar) romanida maqollar ijtimoiy tanqid va psixologik tasvir vositasi sifatida ishlatilgan. Masalan: "Boshi berk ko'cha – yo'ldoshni gumroh qiladi." Bu maqolda ijtimoiy tuzumning adolatsizligi va insoniyatning adashuvi o'ziga xos madaniy-milliy obrazlar orqali tasvirlangan. Tarixiy romanlarda, xususan Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi"(97-101betlar)asarida: "Ilm – yolg'izga yo'ldosh." degan maqol ilmning qadri, bilimning yo'l ko'rsatishdagi o'rni haqidagi madaniy qadriyatni yoritadi. Bu nafaqat lingvosemantik birlik, balki xalq ongidagi ma'naviy konseptni ham ifodalaydi.

Ingliz adabiyotida maqollar ayniqsa William Shakespeare dramatik asarlarida keng qo'llaniladi. Uning qator tragediyalarida maqollar orqali obrazlar nutqiga hayotiylik, ijtimoiy tanqid va umumxalq tajribasi singdiriladi. Masalan, "King Lear"(56-63-betlar) tragediyasida:

"Nothing will come of nothing."

(Hech narsa hech narsadan kelib chiqmaydi) Bu maqol hayotda natija olish uchun harakat zarurligini bildiradi. Bu iboraning o'zbek tilidagi muqobili: "Mehnat qilmagan – non topmas" bo'lib, har ikkala madaniyatda mehnatga asoslangan qadriyat ifoda etilgan. Shakespeare'ning boshqa bir asari – "Othello"da(56-83-betlar) "He that is robbed, not wanting what is stolen, is not poor." Bu maqol orqali boylik, yo'qotish va boylikka bog'lanish haqidagi chuqur falsafiy madaniy yondashuv ko'rsatiladi. Bu orqali g'arbiy madaniyatda shaxsiy qadriyatlar va his-tuyg'ular o'zini qanday namoyon qilishi lingvomadaniy tahlil asosida ochib beriladi. Charles Dickens o'zining "Great Expectations"(89-bet) va "Oliver Twist" (94-bet)romanlarida esa ko'plab xalq maqollarini ijtimoiy tengsizlik, axloqiy tanazzul va yetimlik masalalariga urg'u berishda ishlatgan. Masalan: "Spare the rod and spoil the child." (Jazo bermasang, bolani buzasan.) Bu ibora Viktoriya davri axloqiy tarbiyasini aks ettiradi va g'arbiy madaniyatda intizom va tarbiyaga nisbatan qarashlar haqida ma'lumot beradi. Jane Austenning "Pride and Prejudice" romanida esa maqollar asosan axloqiy saboq, harakat va munosabatlar haqida ishlatilgan. Misol uchun: "Actions speak louder than words." (So'zdan ko'ra amallar kuchliroq gapiradi.) Bu maqol harakatga urg'u berish orqali oila, axloq va gender rollarini aks ettiruvchi qadriyat sifatida tahlil qilinadi.

Yozma adabiyotda maqollardan foydalanish orqali yozuvchilar xalq tafakkurining chuqur qatlamlarini ochib bergan. O'zbek adabiyotida bu ko'proq birlik, ma'naviyat va o'zaro hurmat g'oyasi atrofida shakllangan bo'lsa, ingliz adabiyotida esa individuallik, mustaqillik va axloqiy saboq ustuvor bo'lgan. Har ikki madaniyatda ham maqollar milliy konseptual dunyoqarashni ifoda etishda, madaniy kodni yetkazishda va ijtimoiy ongni shakllantirishda kuchli lingvomadaniy vosita sifatida qo'llanilgan.

Xulosa. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek maqollarining lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinarkan, ularning har ikki xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari, va madaniy tafakkurini ifodalovchi boy til birliklari ekani yana bir bor isbotlandi. Maqollar insoniyatga xos bo'lgan umumiy tushunchalarni – mehnat, halollik, sabr, do'stlik, vaqt, taqdir kabi – turli milliy obraz va madaniy kontekstda ifodalash orqali til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritib beradi. Konseptual metafora nazariyasi asosida aniqlanishicha, ingliz va o'zbek maqollarida bir xil semantik g'oyalar turli obrazlar va ifoda shakllari orqali beriladi. Masalan, ingliz tilida "Don't count your chickens before they hatch" degan maqol orqali ehtiyotkorlik talqin qilinsa, o'zbek tilida "Tovuqni so'yamay turib, qozon qo'yma" degan xalqona maqol orqali shu g'oya madaniy nuqtai nazardan tasvirlanadi. Bu esa har bir til o'z madaniyatining konseptual dunyoqarashini o'zida qanday aks ettirishini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, maqollar yozma adabiyotda ham muhim lingvomadaniy vosita sifatida xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Odil Yoqubov kabi o'zbek yozuvchilarining, shuningdek,

Shakespeare, Dickens va Austen kabi ingliz yozuvchilarining asarlarida maqollar xalqning ijtimoiy qadriyatlarini, axloqiy qarashlarini va madaniy ongini estetik darajada ifodalab bergan. Bu maqollar asarlar mazmunini boyitish bilan birga, milliy tafakkur va til estetikasi o'rtasidagi aloqani mustahkamlab bergan.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, maqollarni lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilish tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va adabiyotshunoslik sohalarida uchun juda muhim metod hisoblanadi. Kelgusida maqollarni yanada kengroq miqyosda, masalan, diniy maqollar, zamonaviy maqollar yoki genderni o'z ichiga olgan maqollar doirasida lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. O'zbek yozuvchilarining (A. Qodiriy, Cho'lpon, Odil Yoqubov) va ingliz yozuvchilarining (Shakespeare, Dickens, Austen) asarlarida maqollar estetik, axloqiy va ijtimoiy funksiyalarni bajargan holda madaniy qadriyatlarni ochib beradi. Maqollar tilning madaniyat bilan bog'liqligini, xalq ongining konseptual asoslarini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida maqollarni lingvomadaniy tahlil qilish nafaqat tilshunoslikda, balki tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, adabiyotshunoslik va kognitiv lingvistika sohalarida ham dolzarb ilmiy yo'nalish bo'lib qolishi kutiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Krikman A. (1995). *Paremiologik birliklarning madaniy va semantik tahlili // Tilshunoslik muammolari*. – Moskva, 149-bet.
2. Baranov A.N. (1991). *Lingvisticheskiy analiz poslovits i pogovorok*. – Moskva: Nauka, 45–68-betlar.
3. Mieder W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. – Westport, CT: Greenwood Press, 22–39-betlar.
4. Lakoff G., Johnson M. (1980). *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 3–29-betlar.
5. Ahmedova M. (2017). *Til va madaniyat uyg'unligi*. – Toshkent: Fan, 85–92-betlar.
6. Boboxonov S. (2012). *O'zbek maqollarining lingvosemantik xususiyatlari*. – Qarshi: QarDU nashriyoti, 41–54-betlar.
7. Nuraliyeva N. (2019). *Til va madaniyat o'zaro ta'siri*. – Toshkent: Ilm Ziyo, 19–36-betlar.
8. Abdulla Qodiriy. (2009). *O'tkan kunlar*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 118–123-betlar.
9. Cho'lpon. (2022). *Kecha va kunduz*. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 134–140-betlar.
10. Yoqubov O. (2010). *Ulug'bek xazinasi*. – Toshkent: Yozuvchi, 97 –101-betlar.
11. Shakespeare W. (1994). *King Lear, Othello, Macbeth*. – London: Penguin Classics, 56–63-betlar.
12. Dickens C. (1992). *Great Expectations, Oliver Twist*. – London: Wordsworth Editions, 89–94-betlar.
13. Austen J. (2000). *Pride and Prejudice*. – London: Penguin Books, 144–148-betlar.

PERFEKT SHAKLINING SEMANTIK TAFSILOTLARI VA TARJIMAVIY EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI

Xasanov Ramish Samatovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

ramishxasanov09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilidagi Perfekt zamon shaklining semantik tafsilotlari va tarjimaviy ekvivalentlik muammolari har tomonlama tahlil qilinadi. Perfektning analitik tuzilmasi, harakatning vaqt va aspekt oraliq'idagi ifodasi, telik/atelik fe'llar bilan aloqasi, kontekstual moslashuvi va tarjimadagi qiyinchiliklari o'rganiladi. Shuningdek, Perfekt shaklining kelasi zamon ma'nosida qo'llanilishi va yordamchi fe'l tanlovining semantik farqlari tahlil etilgan. Maqolada bu shaklning o'zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan lingvistik va didaktik muammolarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Perfekt zamoni, tarjima ekvivalentligi, nemis tili grammatikasi, semantika, aspekt, teliklik, o'zbek tili, kontekstual tarjima.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРФЕКТНОЙ ФОРМЫ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДЧЕСКОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ

Аннотация. В данной статье всесторонне рассматриваются семантические особенности перфектной формы в немецком языке и проблемы её переводческой эквивалентности. Анализируются аналитическая структура Перфекта, его связь с временными и аспектуальными значениями, взаимодействие с телическими и ателическими глаголами, контекстуальные нюансы и сложности при переводе на узбекский язык. Особое внимание уделено функционированию Перфекта в значении будущего времени и семантическим различиям при выборе вспомогательных глаголов. Работа также затрагивает дидактические трудности при обучении этой форме в контексте преподавания немецкого языка.

Ключевые слова: Перфект, переводческая эквивалентность, грамматика немецкого языка, семантика, аспект, теличность, узбекский язык, контекстуальный перевод.

SEMANTIC NUANCES OF THE PERFECT ASPECT AND ISSUES OF TRANSLATIONAL EQUIVALENCE

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the semantic features of the **Perfekt tense** in the German language and the challenges of finding its translational equivalents. It explores the analytical structure of Perfekt, its temporal and aspectual functions, interaction with telic and atelic verbs, as well as context-sensitive interpretation and difficulties in translating into Uzbek. The study also examines the use of Perfekt to express future meaning and the subtle semantic distinctions resulting from the choice of auxiliary verbs. Additionally, it highlights the pedagogical difficulties involved in teaching this tense to learners of German.

Keywords: Perfekt tense, translation equivalence, German grammar, semantics, aspect, telicity, Uzbek language, contextual translation.

Kirish. Nemis tilidagi perfekt zamoni o'zining murakkab tuzilishi va ko'p qirrali semantik funksiyalari bilan boshqa zamon shakllaridan keskin farqlanadi. U faqatgina grammatik birlik sifatida emas, balki zamon (tempus) va aspekt (harakatning kechish holati) oraliq'ida joylashgan murakkab lingvistik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Perfekt shakli nafaqat o'tgan zamonda ro'y bergan voqeani bildiradi, balki bu harakatning hozirgi holatga qanday ta'sir qilganini ham ifodalaydi. Shu bois u o'zining strukturaviy va semantik xususiyatlari bilan tilshunoslar e'tiborini doimiy ravishda jalb qilib kelmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, perfekt zamoni oddiy grammatik kategoriyadan ko'ra kengroq funksional yuklamaga ega bo'lib, u turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. Xususan, u gapda voqeaning sodir bo'lganligini, uning natijasi mavjudligini, harakatning tugallanganligini yoki hozirgi paytga taalluqliligini ifodalashi mumkin. Bu esa uni nafaqat grammatik, balki pragmatik jihatdan ham ahamiyatli birlik sifatida qaralishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Perfektning tarjima-dagi ekvivalentlarini aniqlash jarayonida esa faqat formal grammatik belgilarni hisobga olish yetarli emas. Bunda harakatning aksional xususiyati (ya'ni harakatning davomiyligi, tugallanganligi, takroriyligi kabi xususiyatlari), semantik kontekst (gapdagi voqealarning o'zaro bog'liqligi), shuningdek, nutq egasining maqsadi va kommunikativ niyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, perfekt shaklining o'zbek tiliga tarjimasida bu omillarni e'tiborga olish zarur, chunki ikki tilning grammatik tizimi va voqelikni ifodalash uslublari o'zaro farqlidir.

1. Perfektning analitik tuzilmasi va bu tuzilmaning afzalliklari.

Nemis tilidagi perfekt shakli yordamchi fe'l (*haben* yoki *sein*) va asosiy fe'lning Partizip II shakli orqali yasilib, analitik ya'ni qo'shma tuzilishga ega bo'ladi. Bu analitik tuzilma unga nafaqat zamonni, balki aspektual (ya'ni harakatning kechish uslubi va natijasiga oid) ma'nolarni ham ifodalash imkonini beradi. Perfekt shaklining ushbu xususiyati uni oddiy o'tgan zamon shakllaridan tubdan ajratib turadi.

Xususan, perfekt zamonni nemis tilida quyidagi ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi:

harakatning o'tgan zamonda sodir bo'lganligini;

bu harakatning natijasi hozirgacha saqlanib qolganini;

ushbu harakat yoki uning oqibatining muloqot ishtirokchilari uchun hozirda dolzarb ekanligini.

Bu ko'p qatlamli semantik yuklama perfekt shaklini kommunikativ jihatdan nihoyatda funksional qiladi. Shu bilan birga, bu holat uni boshqa tillarga, ayniqsa o'zbek tiliga tarjima qilishda murakkablik tug'diradi. Sababi, o'zbek tilida asosan **sintetik**, ya'ni bitta fe'l shaklida zamon, shaxs va boshqa grammatik ma'lumotlar mujassam bo'lgan ko'rinishlar ustuvor hisoblanadi. Bu esa aspektual nozikliklarni aniq ifodalashda chegaralovchi omil bo'lishi mumkin.

Perfektning nemis tilidagi analitik tuzilmasi unga **moslashuvchanlik** baxsh etadi. U bir vaqtning o'zida zamon, aspekt va pragmatik funksiyalarni uzviy tarzda ifodalay oladi. Masalan:

Er hat den Brief geschrieben – *U xat yozgan (va bu fakt hozir dolzarb).*

Bu jumla nafaqat xat yozilganligini, balki bu harakat muloqot kontekstida hozirda ham ahamiyatli ekanligini bildiradi. O'zbek tilidagi "*U xat yozgan*" shakli esa bu dolzarblik yoki harakatning hozirgi oqibatini har doim ham to'liq aks ettira olmaydi. Ayniqsa, agar gap kontekstida natija muhim bo'lsa, o'zbek tilida izohli tarjima yoki qo'shimcha vositalar talab etiladi. Misol uchun:

Er hat das Fenster geöffnet.

U derazani ochgan (va hozir ham deraza ochiq holatda).

Bu yerda perfekt shakli faqat harakatni emas, balki harakatning **hozirgi natijaviy holatini** ham bildiradi. O'zbek tilidagi "*U derazani ochgan*" shakli esa hozirgi natijani aniq ko'rsatmaydi. Shuning uchun tarjimada:

- *U derazani ochgan, hozir deraza ochiq,*

- yoki *Derazani ochib qo'ygan*

kabi qo'shimcha izohlar orqali semantik aniqlik kiritishga to'g'ri keladi.

Yana bir misol:

Sie ist nach Hause gegangen.

U uyiga ketgan (va hozirda u uyda bo'lishi taxmin qilinmoqda).

Bu jumlada *Perfekt* nafaqat harakatning sodir bo'lganligini, balki hozirgi vaziyatga oid taxminiy xulosa ham bildiradi. O'zbek tilida esa bu xulosa faqat "*U uyiga ketgan ekan*" kabi kontekstga qarab aniqlashtirilishi mumkin.

2. Telik va atelik fe'llarning perfekt bilan bog'liqligi.

Tadqiqot davomida nemis tilidagi perfekt shaklining **aktant xususiyatlariga sezgirligi** aniqlangan bo'lib, bu holat uning semantik jihatdan murakkab va ko'p qirrali birlik ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, harakatning **aksional xususiyatlari** – ya'ni uning chegaralangan (telik) yoki chegaralanmagan (atelik) bo'lishi perfekt shaklining qanday ma'no kasb etishini bevosita belgilaydi.

Chegaralangan (telik) fe'llar bilan perfekt shakli harakatning yakunlangani va uning **natijasi mavjud** ekanini bildiradi. Bunday fe'llar odatda aniq boshlanish va tugash nuqtasiga ega bo'ladi, ya'ni harakat qandaydir yakuniy holatga olib keladi. Masalan:

Ich habe gegessen – *Men ovqat yedim (va hozir to'qman / ovqat yeb bo'lganman).*

Bu jumlada *essen* fe'li telik bo'lib, perfekt shaklida u tugallangan harakatni ifodalaydi va hozirgi paytda mavjud natijani anglatadi.

Aksincha, **chegaralanmagan (atelik) fe'llar bilan perfekt shakli ko'proq jarayonli, davomiy yoki holatni bildiruvchi** ma'noga ega bo'ladi. Bu fe'llar harakatning aniq tugash nuqtasini bildiruvchi semantik yuklamaga ega emas, ya'ni harakat qanday davom etgani muhim bo'ladi. Masalan:

Ich habe gewartet – *Men kutdim (qanchadir vaqt kutish jarayoni bo'lgan).*

Bu holatda *warten* fe'li atelik bo'lib, perfekt shakli orqali harakatning sodir bo'lgani, biroq natijadan ko'ra **harakatning davomiyligi** urg'ulanadi.

Shu tarzda, perfekt shakli orqali bildiriladigan ma'no **harakatning aksional turi** bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu tarjimada alohida e'tibor talab qiladi. O'zbek tilida bu nozik ma'no farqlari asosan **sintetik shakllar** va **yordamchi vositalar** orqali ifodalanadi. Masalan:

Ich habe gegessen → *Men ovqat yedim / Ovqat yeb qo'ydim* (natija muhim bo'lsa: *yeb qo'ydim* – aspektual qo'shimcha orqali ifodalanadi)

Ich habe gewartet → *Men kutdim / Men kutayotgan edim* (jarayon muhim bo'lsa: *kutayotgan edim* – davomiylikni bildiradi)

Yana bir misol:

Er hat gearbeitet – *U ishlagan / U ishlabdi / U ishlayotgan edi*

Bu jumlada kontekstga qarab harakatning davomiyligi, natijasi yoki hozirgi dolzarbligi urg'ulanadi. Shu sababli, tarjimada:

ishlagan – umumiy tarzda

ishlabdi – natija va bilib olinganlik ohangi

ishlayotgan edi – jarayon urg'ulansa

kabi turli shakllar qo'llanilishi mumkin.

Demak, nemis tilidagi perfekt shaklining tarjimasida fe'ning telik yoki atelikligi, ya'ni harakatning chegaralanganlik darajasi, muhim semantik mezon hisoblanadi. Bu jihat tarjima jarayonida kontekstual tahlil, aspektual moslik va ekvivalent vositalar tanlovini zarur qiladi.

3. Perfektning kontekstual o'zgaruvchanligi va tarjimadagi ekvivalentlik muammosi.

Nemis tilidagi perfekt shaklini tarjima qilishda yuzaga keladigan eng katta muammolardan biri bu uning **kontekstual o'zgaruvchanligidir**. Ya'ni, bir xil grammatik shakl turli nutq vaziyatlarida har xil semantik yuklama bilan ishlatiladi. Shu sababli, perfekt shaklining aniq va to'g'ri tarjimasini topish oson emas.

Misol uchun, “*Ich habe das Buch gelesen*” jumlasini o'zbek tiliga oddiy kontekstdagi nutqda “Men kitobni o'qidim” deb tarjima qilish mumkin. Ammo agar ushbu jumla nutqdagi hozirgi vaziyatga yaqinlik yoki hozirgi kontekst bilan bog'liq bo'lsa – masalan, kimdir “Shuning uchun uni bilaman” deb gapirayotgan bo'lsa – bu holda tarjima biroz o'zgarib, “Men uni ilgari o'qiganman” yoki “o'qib chiqqanman” kabi ifodalar ko'proq mos keladi. Bunday tarjimalar harakatning o'tgan zamonda amalga oshirilganligini va uning hozirgi holatga ta'sir qilganligini ta'kidlaydi.

Shu bois, tarjimashunoslik sohasida perfekt shaklini to'g'ri ifodalash uchun faqat grammatik qoidalarga tayanish yetarli emas. Tarjima jarayonida nutqning konteksti, harakatning davomiyligi, uning natijasi va gapning pragmatik ma'nolari ham hisobga olinishi shart. Bunday murakkabliklarni yengib o'tish uchun perfekt shakli uchun **mos va ko'p komponentli tarjima modellari** ishlab chiqilishi zarur. Bu modellar nafaqat sintaktik va grammatik, balki semantik va kontekstual omillarni ham birgalikda tahlil qilishi lozim.

Bunday yondashuv til o'rganuvchilarga va tarjimonlarga perfekt shaklining nozik jihatlarini chuqur tushunishga imkon beradi, shuningdek, yuqori sifatli va ma'noli tarjimalarni yaratishda yordam beradi. Aks holda, tarjimada noaniqliklar, noto'g'ri ma'no o'zgarishlari yoki nutq mazmunining noto'g'ri ifodalanishi yuzaga kelishi mumkin.

4. Yordamchi fe'l tanlovidagi semantik nozik farqlar.

Nemis tilidagi *sein* va *haben* yordamchi fe'llari ayrim fe'llar bilan sinonim bo'lib ishlatilganida ham semantik farq yuzaga chiqadi:

Er hat geschwommen – harakat davomiyligiga urg'u.

Er ist geschwommen – harakat yo'nalganligi va natijasiga urg'u.

Bu farq o'zbek tilida quyidagicha aks ettirilishi mumkin:

“U suzgan” (jarayon),

“U suzib o'tgan” yoki “suzib yetgan” (natija).

Shu sababli tarjimada harakatning xususiyati, yo'nalganligi va natijasi bo'yicha semantik diagnostika (aniqlash) zarur bo'ladi.

5. Perfekt shaklining kelasi zamon funksiyasidagi ko'rinishlari.

Klassik grammatik talqinda perfekt faqat o'tgan zamonga taalluqli deb qaraladi. Ammo zamonaviy nemis tilshunosligida bu shakl **kelasi zamon natijasini bildirish** uchun ham ishlatiladi:

Bis morgen hast du das erledigt! – “Ertaga qadar buni tugatgan bo'lasan!”

Bu holat o'zbek tilida “–*gan bo'ladi*”, “–*ib qo'ygan bo'ladi*” kabi birikmalar bilan beriladi. Bunday ekvivalentlar grammatik bo'lmasa-da, funksional ekvivalentlikni ta'minlaydi.

6. Tarjimashunoslik va didaktikada perfektni o'rgatishning murakkabligi.

Perfekt shaklining murakkab semantik funksiyalari uni xorijiy til sifatida nemis tilini o'rganuvchi uchun o'rganishni ancha qiyinlashtiradi. Perfekt nafaqat vaqtini ifodalovchi oddiy grammatik shakl bo'lib, balki harakatning bajarilish holati, natijasi va uning nutqdagi kontekstga bog'liqligini ham anglatadi. Shu sababli,

til o'rganuvchilar bu shaklni to'g'ri tushunish uchun faqatgina yordamchi fe'lni tanlash qoidalarini bilish bilan cheklanmasdan, harakatning semantik xarakteristikasini chuqur tahlil eta olishlari lozim.

Bu jarayon quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. **Aktant tahlili** – ya'ni harakatning ishtirokchilari va ularning munosabatlarini aniqlash. Perfekt shakli ko'pincha harakatning kim tomonidan va qanday sharoitda amalga oshirilganini ta'kidlaydi. Til o'rganuvchi buni aniqlash uchun sintaktik va semantik komponentlarni chuqur tushunishi kerak.

2. **Harakatning davomiylik darajasi** – perfekt shaklida harakatning yakunlanganligi yoki uning natijasi ustun bo'ladi. Bu esa, ayniqsa, O'zbek tilidan farqli ravishda, harakatning davomiy yoki davom etayotganligi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir.

3. **Nutq vaziyatiga nisbatan tafakkur** – perfektdan foydalanish ko'pincha nutqdagi ma'lum bir vaqt va kontekstga bog'liq bo'ladi. Til o'rganuvchilar nafaqat grammatikani, balki pragmatik qoidalarni ham o'rganishlari zarur. Bu esa kontekstni to'g'ri anglash va harakat natijasining nutqda qanday ta'sir qilinishini tushunishni talab qiladi.

Tahlil va olingan natijalar. O'zbek tilida perfekt shakliga to'liq ekvivalent topish juda murakkabdir. Bu tilning o'ziga xos grammatik va semantik tuzilishlari sababli, perfektning ifodalash uchun ko'p komponentli tahliliy konstruksiyalar va kontekstual moslashuvlardan foydalanish kerak bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida ko'pincha so'z birikmalari, qo'shimchalar va kontekst orqali perfekt ma'nosi ifodalanadi, bu esa tarjima va o'rgatishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nemis tilidagi perfekt shaklini tarjima qilish va uni o'rgatish jarayoni oddiy grammatik qoidalarni yod olishdan iborat emas. Aksincha, bu murakkab lingvistik birlikning zamon, aspekt, aktantlar bilan bog'liqligi, semantik qatlamlari va kommunikativ funksiyalarini to'liq tushunish hamda ularni mos kontekstda to'g'ri qo'llay olish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, tarjimashunoslik va chet tilini o'qitish sohalarida perfekt shaklini o'rgatish nafaqat **grammatik bilimlarni**, balki:

- harakatning **semantik xususiyatlarini chuqur anglashni**,
- fe'lning **aksional tabiati (telik/atelik)** asosida yuzaga keladigan ma'no tafovutlarini farqlay olishni,
- **aktantlar va harakat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishni**,
- va eng asosiysi, **nutq kontekstiga mos tarjima va foydalanish ko'nikmalarini** shakllantirishni talab etadi.

Bu jarayon, ayniqsa til o'rganuvchilar uchun dastlabki bosqichlarda murakkab tuyulishi mumkin. Biroq bu murakkablik aslida til hodisalarining ko'p qirrali mohiyatini anglashga, tahliliy fikrlashni rivojlantirishga va grammatik shakllarni real muloqot kontekstida to'g'ri qo'llash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv natijasida til o'rganuvchilar nafaqat perfekt shaklini grammatik birlik sifatida, balki u orqali berilayotgan **zamon, natija, davomiylik va dolzarblik kabi ma'nolar tizimini** mukammal o'zlashtiradilar. Bu esa tarjimada aniqlik, mantiqiylik va muloqotga moslikni ta'minlashga olib keladi.

Shunday qilib, perfekt zamon shakli bilan ishlash o'rganuvchidan **integrativ til ko'nikmalarini** talab qiladi, ya'ni morfologik bilim, semantik tushuncha va pragmatik sezgirlikni bir butun tizimda qo'llay olish layoqatini. Bu esa nafaqat tarjima sifatini oshiradi, balki chet tilini puxta egallash jarayonida muhim poydevor vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Helbig G., Buscha J. *Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht.* – Leipzig: Langenscheidt, 2001. – 512 S.
2. Engel U. *Deutsche Grammatik.* – Heidelberg: Groos, 1996. – 720 S.
3. Duden. *Die Grammatik.* 9. Aufl. – Mannheim: Dudenverlag, 2016. – 1296 S.
4. Teuber O. *Analytische Verbformen im Deutschen. Syntax – Semantik – Grammatikalisierung.* Diss. Universität Potsdam. 2002. – 285 S.
5. Юлдашев А.А. *Аналитические формы глагола в тюркских языках.* – М.: Наука, 1965. – 274 с.
6. Klein, Wolfgang (2000) *An analysis of the German Perfekt.* In: *Language* 76, 358–382
7. Duden. *Die Grammatik. Unentbehrlich für richtiges Deutsch.* Herausgeben von der Dudenredaktion. 8., überarbeitete Auflage. Band 4. – Mannheim Wien Zürich: Dudenverlag, 2009. – 1344 S.
8. Dudenredaktion. *Duden: Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch.* – 8., überarb. Aufl. – Berlin: Dudenverlag, 2016. – 1344 S.
9. Eisenberg P. *Der Satz. Grundriß der deutschen Grammatik.* – Stuttgart: J.B. Metzler, 2004. – 504 S.

10. Eisenberg P. *Grundriss der deutschen Grammatik. Band 2: Der Satz.* – Stuttgart, Weimar: Metzler Verlag, 2006. – 551 S.
11. Engel U. *Deutsche Grammatik. Neubearbeitung.* München: Iudicium Verlag. 2009. – 485 S.
12. Ризаев Б.Х. *Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфект-ных форм немецкого глагола.* – Самарканд: СамГИИЯ, 2003. – 89 с.
13. Ризаев Б.Х. *Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита.* – Ташкент: Фан, 1999. – 121 с.
14. Ризаев Б.Х. *Проблемы немецкой аспектологии.* – Ташкент, 1988. – 96 с.

O'ZBEK TILIDA BA'ZI FE'LLARNING KONTEKSTDAGI MA'NOLARI TAHLILI

Yuldasheva Sadoqat Bahodir qizi,

Andijon davlat chet tillari instituti stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi fe'lning o'ziga xos jihatlariga yangi qarashlar yoritilgan. Ushbu qarashlar ham nazariy, ham metodik xarakterdagi izlanishlar uchun muhimdir. Fe'l boshqa so'z turkumlariga nisbatan, eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriya hisoblanadi. Fe'l so'z turkumida grammatik ma'nosidan tashqari oppozitsiya holidagi semalar ham mavjud. U semantik doirada predmetning zamon va makondagi harakatni ifodalovchi so'z bo'lib, uning konkret ma'nolariga ko'ra predmetning bajaradigan ishi yoki harakati, holati va boshqa belgilari jihatidan farqlanadi. Hozirgi davrda fe'l so'z turkumining semantikasi o'ziga xos valentliklarga ega ekanligi ko'pchilik tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Fe'l valentligi hamda fe'lning tarkibiy va mazmuniy jihatlarining bog'liqligini o'rganish ushbu izlanishlarni boyitadi.

Kalit so'zlar: fe'l, so'zshakl, kompozitsiya, qo'shma fe'l, ko'makchi fe'l.

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ОСОБЕННОСТИ АНАЛИТИЧЕСКИХ ГЛАГОЛОВ В
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности глагола в узбекском языке. Эти взгляды важны как для теоретических, так и для методических исследований. Глагол является наиболее практической, самой сложной и в то же время семантически разнообразной грамматической категорией по сравнению с другими классами слов. Помимо своего грамматического значения, класс глагольных слов содержит также семы в оппозиционном падеже. В семантической сфере это слово, выражающее действие предмета во времени и пространстве, и по своим конкретным значениям оно различается по работе или действию, выполняемому предметом, его состоянию и другим признакам. В настоящее время семантика класса глагольных слов имеет свои валентности, что привлекает внимание многих лингвистов. Изучение связи между валентностью глагола и структурно-семантическими аспектами глагола обогащает данное исследование.

Ключевые слова: глагол, словоформа, композиция, составной глагол, вспомогательный глагол.

NEW PERSPECTIVES ON THE SPECIFIC ASPECTS OF ANALYTICAL VERBS IN THE
UZBEK LANGUAGE

Abstract. This article sheds new light on the specific aspects of the verb in the Uzbek language. These views are important for both theoretical and methodological research. The verb is the most practical, most complex and at the same time semantically diverse grammatical category compared to other word classes. In addition to its grammatical meaning, the verb word class also contains semes in the oppositional case. In the semantic sphere, it is a word that expresses the action of an object in time and space, and according to its specific meanings, it differs in terms of the work or action performed by the object, its state and other signs. Currently, the semantics of the verb word class has its own valences, which attracts the attention of many linguists. Studying the relationship between the valence of the verb and the structural and semantic aspects of the verb enriches this research.

Keywords: verb, word form, composition, compound verb, auxiliary verb.

Kirish. Mamlakatimiz istiqloлга erishishi tufayli o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotiga ulkan ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Istiqloл tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan tiklanmoqda.

Ma'naviyatimizning asosi bo'lgan adabiy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish, mustaqillik mafkurasini badiiy ijod sohasida, ta'lim jarayonida yoshlarimiz ongiga singdirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, yuksak ma'naviyatli shaxslar tarbiyalashning yangi tizimini barpo etish, yurt kelajagi uchun barkamol, yetuk, salohiyati yuksak avlodni tarbiyalash hozirgi davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ga muvofiq yangilangan pedagogik tafakkur barcha fanlar oldiga yangicha talablarni qo'yimoqda. Xususan, ona tili ta'limining bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o'z fikrini erkin va ta'sirli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili qonun-qoidalarini ongli o'zlashtirishga hamda nazariy bilimlardan o'rinli va to'g'ri foydalana olish ko'nikmasini o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an'analarimizga, boy ma'naviyatimizga mehr- muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratildi.

Tilni ilmiy asosda o'rganish ham uning ichki rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olish, kelajak ravnaqini belgilashni taqozo etadi. Tilning dinamik jarayon, doimiy faoliyat ekanligi, ayniqsa, ayrim tillarda grammatik ma'no ifodalash uchun xoslangan analitik shakllarning paydo bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar sharhi. Fe'l boshqa so'z turkumlariga nisbatan, eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriya hisoblanadi.

Fe'l so'z turkumida grammatik ma'nosidan tashqari oppozitsiya holidagi semalar ham mavjud. U semantic doirada predmetning zamon va makondagi harakatni ifodalovchi so'z bo'lib, uning konkret ma'nolariga ko'ra predmetning bajaradigan ishi yoki harakati, holati va boshqa belgilari jihatidan farqlanadi.

Hozirgi davrda fe'l so'z turkumining semantikasi o'ziga xos valentliklarga ega ekanligi ko'pchilik tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Xususan, rus tilshunosligida fe'lning semantik strukturasi yaxlit halda o'rganilgan. Bunga Novikov, Vasilev, Apresyan kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini misol qilishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham bu borada bir talay ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.Qo'chqortoyevning ilmiy ishlarini alohida ta'kidlab o'tmoq lozim.

Mazmuni. Tilning rivojlanish jarayonida uning leksikasi boshqa sohalarga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Buning sabablar son-sanoqsiz. Bu o'zgarishlar leksikaning faqat miqdor jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarning yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning adabiy normaga bo'lgan munosabatida, qo'llanilishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o'zgarishlar yuzaga keladi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga kelganda, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi.

Qilmoq fe'li tilimizda faol qo'llanuvchi fe'llardan hisoblanadi. Ushbu fe'lning polisemantikligi, o'ziga xos valentlikka egaligi, tuli ma'nodagi otlar bilan birikkanda, valentligining o'zgarishi, faqat insonga xos harakatni bildirib, zamonda, shaxsda o'zagrish paradigmasining to'liqligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek tilida *qilmoq* fe'li ko'plab fe'llar qatori ham mustaqil, ham yordamchi fe'l vazifasini bajaradi. Ushbu fe'l mustaqil fe'l bo'lib kelishiga sabab, u harakatni bildiradi, ya'ni mustaqil ma'noga ega bo'ladi va gapda kesim vazifasini bajara oladi. Biror so'zni boshqarib kelish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, u daraja, bo'lishli – bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalariga xos ma'nolarni ifodalovchi sifatdash, harakat nomi, ravishdosh shakllariga ega ekanligi uning mustaqil fe'llik faoliyatini ko'rsatadi.

Qilmoq fe'lining yordamchi fe'l bo'lib kelishi birmuncha serqirradir. U barcha so'z turkumi bilan, asosan, ot, sifat, son, ravish va fe'l so'z turkumlari bilan birikib qo'shma fe'l yasay oladi.

O'zbek lug'atchiligi tarixida XX asr alohida o'rin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni ko'zda tutgan ko'plab terminologik lug'atlar, o'quv va imlo lug'atlari, ikki va uch tilli so'zlashgichlar yaratilgan. Bunda, ayniqsa, ruscha-o'zbekcha hamda o'zbekcha-ruscha, shuningdek, o'zbek tilini boshqa yevropa va horijiy sharq tillari bilan qiyoslab o'rganishga mo'ljallangan lug'atlar alohida o'rin tutadi.

O'zbek tili leksikasi, hatto XX asrning o'zini olib qaraganda ham, tarkib jihatidan bir xil emas. Unda ayrim mualliflar tomonidan ishlatilgan, lekin hali o'zbek adabiy tiliga kirib ulgurmagan, shuningdek, shevalarga oid so'zlar ham anchagina. Bundan tashqari, O'zbekiston qadimdan rivojlangan kasb-hunarlariga oid, faqat hunarmandlar o'rtasida ishlatiladigan leksika yoki XX asrda o'zbek tilida paydo bo'lgan son-sanoqsiz ilmiy-texnikaviy terminlar borki, bularning hammasini bitta lug'atga singdirib bo'lmaydi.

Natijalar. Besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *qilmoq* fe'li quyidagi ma'nolarda berilib o'tilgan:

1. Ba'zi otlar bilan birikib, shu ot anglatgan narsani tayyorlash, hozirlash, pishirish ma'nosini bildiradi. Masalan:

a) tayyorlamoq- Kampir *xamir qilib* bo'g'irsoq tayyorlamoqchi bo'libdi. (O'zbek xalq ertagi) *Naycha qilingan* qisqa xatlar ularning qanotlari tagiga mahkamlangan. (Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" 32-bet).

b) hozirlamoq- Qo'rg'onning qo'l yetmas balandlikka qurilganidan va atrofi chuqur o'ng'irlar bilan *ihota qilinganidan* alohida bir mamnuniyat sezdi. (Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" 32-bet).

c) pishirish-Oyim *chuchvara qiladigan* kuni ertalabdan ashula boshlayman. (Xudorberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib" 47-bet)

2. Yordamchi fe'l vazifasida kelishi. Bunda so'z yasash uchun xizmat qiladi. Ot, sifat va boshqa so'z turkumiga oid so'zlardan turli ma'noli fe'llar yasaydi. Tomosha qilmoq, taklif qilmoq, rashq qilmoq, e'lon qilmoq, orzu qilmoq, dushmanlik qilmoq, obod qilmoq, shod qilmoq, bezovta qilmoq, sarishta qilmoq, oh-voh qilmoq, lip-lip qilmoq, taqir-tuqur qilmoq.

Masalan: -Mayli, senga bir yaxshilik *qilishim mumkin. Telefon qila qol.* (Tohir Malik. "Alvido bolalik" 63-bet);

Kuyov-kelinni tabriklash uchun hurmatli mehmonimiz Salimjon aka Otajonovga so'z beriladi!-deb *e'lon qildi.* (Xudoyberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib" 84-bet);

Mehmonlar bellarini mahkam tang'ib olgan ko'k sallali yosh ayg'oqchilar qo'lidan qadahni olib sharob ichib, kumush tovoqlarda ustma-ust keltirib turilgan qovurmalar, g'oz, o'rdak kaboblaridan *tamaddi qilishardi.* (Mirkarim Osim. "O'tror" 50-bet);

Mashrabning bu mashaqqatli xizmatini nazaridan qochirmas va quruq qo'ymas, goh aqcha, goh kiyim-kechaklik bilan siylab turardi, uzundan-uzun *duo qilardi.* (Shuhrat. "Mashrab" 122-bet).

To'maris tish-tirnog'igacha qurollangan va hali charchamagan Eron qo'shini bilan hozir jang qilsa, oqibatini xunik bo'lishini yaxshi bilardi. Eng oldin dushmani cho'llarda s arson qilib, uning tinkasini quritish va qulay joy topib turib, *jang qilish kerak edi.* (Mirkarim Osim. "To'maris" 26-bet);

3. Bog'lama vazifasida qo'llaniladi.

Masalan: o'qituvchilik qilmoq, o'g'lini muhandis qilmoq.

Mansur ham o'rtoqlari bilan shu maydonda futbol o'ynar...qora kepkasini boshigacha bostirib, *darvozabonlik qilar edi.* (O'tkir Hoshimov "Qalbinga quloq sol").

Rostini ayting, rostdan sartaroshlik *qilyapsizmi?* (Xudoyberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib" 153-bet);

O'sha har xil uylar qurib, odamlarni xursand qiladigan injenerlar ham, maza qilib she'rlar o'qiydigan shoirlar ham, *qiziqchilik qilib* hammani qiqirlatib kuldiradigan artistlar ham bari bir egilib sartaroshga salom beradi. (Xudotberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib" 5-bet).

Eski ikki tomlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da Qilmoq fe'li quyidagi ma'nolarda kelgan:

- Bajo keltirish-Mulozimlaridan biri shiypon yoniga kelib *ta'zim qildi-da,* quloq-burni yo'q g'alati bir choh shoh huzuriga izn so'rayotganini bildirdi. (Mirkarim Osim. "Shiroq" 34-bet);

- Bajarish-Yoshi o'n olti-o'n yettiga kirganda ham, qo'shnilarining masxara qilishiga ham qaramay, o'q otib *mashq qilishini* qo'ymas edi. (Mirkarim Osim. "O'tror" 48-bet);
- ijro etish-Bunaqa ishni birinchi bor *qilayotganim* yo'q. (Xudoyberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib" 124-bet);
- Tayyorlamoq-Bitikchi Chingizxonning farmonini yozib bitirgach, qog'ozdan *naycha qildi-da,* sallasi qistirib o'rnidan turdi va xoqonning ruxsati bilan chiqib ketdi. (Mirkarim Osim. "To'maris" 137-bet);
- Yasamoq-Hoy, ahmoq bola, o'z otangni tanimadingmi, a? Men senga o'yinchoq olib keldim,-deb boshidagi yaltiroq dubulg'asini olib qo'ydi-da, *sopoldan qilingan* qo'chqorni qo'ynidan chiqarib berdi. (Mirkarim Osim. "Temur Malik" 144-bet);
- Qurmoq-So'ktu Sirdaryoning quyi tomonidagi qal'alarni qilish bilan ovora bo'lgan Jo'jiga choparlar yuborib, Temur Malikning oldini to'sishni iltimos qildi. (Mirkarim Osim. "Temur Malik" 150-bet);
- Pishirmoq, *-Lag'mon qilaymi?*-deb Oybodoq Zaynabga qaradi.-Tomoqqa ishtaham yo'q, o'zingiz bilganingizcha qila bering. (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar")
- Tayyorlamoq-Hozir meni qimirlatma. Samovarda *osh qilgan* edik, ko'proq yeb qo'yibman. (A.Qahhoq, "Og'riq tishlar")
- Ortirmoq, sotib olmoq, qo'lga kiritmoq. Oylikdan ust-bosh qilmoq, mol qilmoq.
- Biror holatga keltirmoq; bir holatdan boshqa holatga keltirmoq.

Qaysi do'stlaringiz *hiyonat qilishim* kerak bo'ladi? (Tohir Malik. "Ozod inson haqida qo'shiq" 15-bet)

-Hamidaxon, *do'stlik qilmay* qo'rganingiz chakki bo'libdi-da!-dedi Mirzakalon. (Tohir Malik. "Ozod inson haqida qo'shiq" 30-bet)

- Belgilamoq, tayinlamoq, ko'tarmoq.

Vakil Qilmoq-Ichida: “Otam shunday bir ahmoq odamni nega *chopar qilib* yuboribdi?”- deb o‘yladi. (Mirkarim Osim. “To‘maris” 125-bet);

Boy Qiltiqir maxsumni onaxonga *ayg‘oqchi qilib qo‘ydi*. (A.Muxtor. “Opa-singillar”);

Yon tomondan bostirib kelgan bir to‘da mo‘g‘ul askarlari Temur Malikka ularning sarkardasi bilan *qilichbozlik qilishga* halal berdi. (Mirkarim Osim. “Temur Malik” 147-bet);

- Saylab, tanlab, belgilab olmoq yoki qabul qilmoq.

Er qilmoq-Erni *er qiladigan* ham hotin, qaro yer qiladigan ham hotin. (Maqol)

Hotin qilmoq-Tiriklayin qo‘lga tushirsam, *xotin qilib* olamen,-dedi iljayib. (Mirkarim Osim. “To‘maris” 136-bet);

- Ot bilan birikib, shu otning ma‘nosidan anglashiladigan ish harakatni ifodalaydigan qo‘shma fe‘l yasaydi.

Muomala qilmoq-Haridor injiq bo‘ladimi, g‘alchami, boyvachchalardanmi, barini iliq kutib ol, shirin *muomala qil*. (XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi. 107-bet);

Bayon qilmoq va qo‘ng‘iroq qilmoq-O‘sha zahotiyoyq Sibiriyadagi do‘stlariga *qo‘ng‘iroq qilib* voqeani qisqacha tarzda *bayon qildi*. (Tohir Malik. “Alvido bolalik” 45-bet);

Mashrab nima qilishni va nima deyishini bilmay ikki o‘t orasida qolgan odamdek *fikr qilib* turar ekan. (Shuhrat. “Mashrab” 51-bet);

- Kasb-hunar otlari bilan birikib, shu kasb yoki hunar bilan shug‘ullanishni bildiradi.

To yigirma to‘rtinchi yillargacha O‘shda *qilichboqlik qilgan* Oxunjon qorining qizini dushmanlikda ayblash ular uchun qiyin ish emas edi. (Tohir Malik. “Ozod inson haqida qo‘shiq” 55-bet)

Aravakashlik qilmoq-Sidiqjon hali buzilmagan to‘qayning narigi tomonida *aravakashlik qilar edi*. (A.Qahhor. “Qo‘shchinor”);

Navbatchilik qilmoq - Bugun Qulnazar yuzboshi qo‘l ostidagi bo‘linma saroyda *navbatchilik qilardi*. (Mirkarim Osim. “O‘tror” 50-bet)

Sardoq qilmoq – Amirzodam, sizning rahmatlik otangiz Darveshgovni miroblarga *sardoq qilib* qo‘ygan edilar (Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” 54-bet);

Qorovul qilmoq-Umrzoqni o‘sha yoqqa *qoravul qilib* qo‘yamiz.(Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” 62-bet);

Bobo oilasini boqish uchun *o‘tinfurush, cho‘ponlik qilar* edi. (Tohir Malik. “Ozod inson haqida qo‘shiq” 147-bet);

- Sifat, ravish yoki sonlar bilan birikib, ulardan anglashilgan holat yoki miqdorga keltirish ma‘nosini ifodalaydi.

Oshkor qilmoq-Mashrab ikkilanib qoldi va yuragidagi bu sirni hech kimga *oshkor qilmay*, tavakkal maktabiga bormoqchi bo‘ldi. (Shuhrat. “Mashrab” 91-bet);

- Undov, taqlidiy va tasviriy so‘zlar bilan birikib, ulardan anglashilgan ovoz chiqarishni, ularga taqlid qilishni yoki harakat qilishni ifodalaydi.

Olingan natijalar ishonchliligi. O‘zbek tilining yangi, besh jildli izohli lug‘atining avvalgi, ikki jildli izohli lug‘atga nisbatan bir qator yangiliklar, ustuvorliklarga ega. Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning eng muhim yangiliklaridan, afzalliklaridan biri unda o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so‘z ve terminlarga etimologikma‘lumot berilganligiadir. Qanday so‘zlarga qay yo‘sinda va qay darajada etimologik ma‘lumot berish har ikkala lug‘atni tuzisholdidan lig‘at tuzuvchilar uchun yaratilgan yo‘riqnomalarda maxsus belgilab berilgan va tuzuvchilar shu asosda ish olib borganlar.

So‘zlarni etimologik tahlil qilishdan maqsad muayyan so‘zning qachon, qaysi tilda, qanday so‘z yasash qolipi bilan, qaysi til materiallari asosida, qanday shaklda va qanday ma‘no bilan paydo bo‘lganligini aniqlashdir. Etimologiya bilan bog‘liq bunday masalalar- muayyan so‘zning nega shunday shaklda ekanligi, uning qanday yuzaga kelganligi yoki qaysi tilga mansubligi, manba tildagi ma‘nosining o‘zlashtiruvchi tilde kengayishi va torayishi yoki umuman boshqa ma‘noga o‘tishi kabi masalalar nafaqat filologlarni, balki filologiyadan ancha yiroq bo‘lgan kishilarni ham qiziqtirib, izlanishlar olib borishga zarur etmoqda. Etimologik tahlil bilan shug‘ullanuvchi olim o‘z tili va uning tarixini, tillarning o‘zaro qarindoshligini, tildagi tarixiy-fonetik, tarixiy-morfologik o‘zgarishlar va bundagi qonuniyatlarni, fanlar tarixini va kishilar turmush tarzini yaxshi bilmog‘i zarur. Ana shunda kompleks xarakterdagi tadqiqotlar natijasidagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Etimologik tahlil va tadqiqotlarning natijasi til tizimi va strukturasidagi o‘zgarishlarni kuzatishda hamda yangidan-yangi so‘zlarning etimonini- so‘zning dastlabki ma‘nosini va shaklini aniqlashda va nihoyat, etimologik lug‘atlar tuzishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Izohli lug‘atga kiritilgan har bir so‘z yoki termin bosh so‘z hisoblanib, bosh so‘z va unga oid materiallar alohida lug‘at maqolasini tashkil etadi. Bosh so‘zga oid etimologik ma‘lumot lug‘at maqolasining bosh

soʻzdan keying komponenti hisoblanadi. Va oʻquvchida katta qiziqish uygʻotadi. Ikki jildli izohli lugʻatda ham bosh soʻzlarga etimologik maʼlumot berilgan boʻlib, unda muayyan chet soʻz “termin”ning qaysi tilga mansubligini shartli qisqartma orqali koʻrsatish bilnagina cheklangan. Masalan: a-arabcha, f-t-fors-tojikcha, r-ruscha va hokazo. Yangi izohli lugʻatda esa muayyan soʻz asli mansub boʻlgan til(shartli qisqartma bilan), soʻzning shu tildagi yozilishi va dastlabki maʼnosi qayd etilgan.

Xulosa. Har bir soʻz shu ikki tamonning birligidan iborat. Demak, soʻz – nutqning mastaqil boʻlagi, u maʼno va shakllanish jihatidan bir butunlikka ega. Soʻz sistematik va gramatik butunlikdan iborat... Soʻz leksikologiyaning ham, grammatikaning ham obʼyekti. Oʻz navbatida leksikologiya soʻzning maʼnosi, bu maʼnoning taraqqiy etish yoʻlini, gramatika esa soʻzning strukturasini, tarkibini, morfemasini, soʻzning turkumga boʻlinishini tekshiradi. Bular bir-birlari bilan uzviy bogʻliqdir.

Soʻz nutqning eng asosiy boʻlakalaridandir, chunki insonlarning oʻzaro aloqa-aralashuvida, fikrlashuvida eng muhim vazifani gap va soʻz bajaradi. Demak, soʻz fikr bayon qilishda eng asosiy vazifani bajaradi: fikrni gap ifoda qiladi, gap esa, soʻzlardan tuziladi: “Til – kishi aloqasini eng muhim vositasi”. Tilning asosiy materiali soʻz boʻlib, u turli maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. Soʻz orqali turmushning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. Soʻz predmet, harakat, holat kabi maʼnolarni, his tuygʻularni bildiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. *Oʻzbek tilida qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar.* – Toshkent, 963.
2. Hojiyev A. *Feʼl.* – Toshkent: Fan, 1973
3. Hojiyev A. *Oʻzbek tilida analitik feʼllarning mohiyati.* // *Oʻzbek tili va adabiyoti.* 2012. 3-son
4. Berdialiyev A. *Soʻzlar olamiga sayohat.* – Xujand: Nuri maʼrifat, 2012.
5. Bektemirov X., Begmatov E. *Mustaqillik davri atamallari.* – T.: Fan, 2002.
6. Madvaliyev A. *Lugʻat va lugʻat turlari xususida* // *Oʻzbek tili va adabiyoti*, 2008. 1-son. 20. Mirtojiyev M., Tohirov Z. *Soʻz maʼnosining boʻyogʻi.* – T.: Oʻzbekiston, 1980.
7. Muxammadjonova G. *Oʻzbek tili leksikasi taraqqiyotining baʼzi masalalari.* – T.: Fan, 1982. 24.
8. Nurmonov A. *Oʻzbek tilshunosligi tarixi.* – T.: Oʻzbekiston, 2002.
9. Begmatov E. *Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari.* – T.: Fan, 1985.
10. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Birinchi jild.* – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Ikkinchi jild.* – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
12. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Uchinchi jild.* – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
13. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toʻrtinchi jild.* – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
14. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Beshinchi jild.* – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

QIMMATBAHO TOSH NOMLARI BADIY TASVIR VOSITASI SIFATIDA

Yusupova Dildora Yunus qizi,

Buxoro davlat universiteti doktoranti, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

d.y.yusupova@gmail.com

Тематическая классификация фразеологизмов, употребленных для создания образной характеристики персонажей в произведениях Д. Рубиной

Внешний образ человека – портрет	Широкий в кости, коломенская верста Мимика – бросить взгляд Жесты – всплеснуть руками Голос – иерихонская труба
Портретная характеристика	Характер – покоритель женских сердец, крепкий орешек, адское терпение
Действие персонажей	Подвиг Геракла, спутать карты, след простыл, до потери сознания
Непосредственное действие	Дать прикурить
Характеризующие способности персонажа, его умение, навыки, опыт, талант	Собачий нюх, выдавшие виды, дар божий, знать на зубок, не в зуб ногой, стрелянный воробей, без сучка без задоринки, мастер на все руки
Эмоциональное состояние персонажей их чувства, переживание, чувство сильного стыда	Залиться краской, не в своей тарелке, как рыба в воде, дать дуба (дуба преподнести), не по зубам, стричь под одну гребенку, через пень колоду, болен кем-то, щеки пылают, что в душе творилось, сходила с ума
Материальное и социальное положение	Мальчик на побегушках, мелкая сошка, выйти замуж, попасть в просак, синий чулок, птица важная, забытая судьбой
Взаимоотношение героев	Седьмая вода на киселе, не разлей вода
Черты характера	Ослица Воламова, блудный сын, птица большого полета, желторотый птенец, веревки вить, зубы чесать, вбивать вколачивать в голову в башку, язык заплетается, не чистый на руку, ночная кукушка, вольная птица
Герои плохо говорящие по-русски искажают (комичности) Речевая характеристика	На нервной почке- на нервной почве ни пуха ни праха- ни пуха ни пера Беречь как синица окунь - беречь как синицу ока
Речемыслительная деятельность героев	Вставить пять копеек, знать на зубок, пропустить мимо ушей, соловьем разливать
Значение времени	Дни текут, я теряю время
Отрезки времени	Возраст любви, бабий век, школьные годы
Отвлеченные понятия	Огонь любви, нить судьбы
Неопределенное количество	Слез не хватит, в тысячу раз

Следует обратить внимание, как Д. Рубина, используя в своем творчестве фразеологизмы, образовала особую сферу среди лингвистических пластов лексику и синтаксис. «Фразеологизм – это такая языковая единица, которая характеризует целостность значения, устойчивость лексического состава, лексико-грамматических форм и синтаксической структуры» [4; с. 79]. В работе нами была использована классификация А.М. Чепасовой, которая считает, что «фразеологизмы, как и весь лексический состав языка, составляют несколько классов, тождественных частям речи» [6; с. 6].

Часто фразеологические единицы были употреблены автором в узуальном значении. Д. Рубина при использовании фразеологических единиц преобразовывала их, чтобы придать устойчивым сочетаниям слов яркость и новые лексические значения.

Анализ показал, что автор в своих текстах использует фразеологические единицы всех групп кроме предлогов. Часто использует процессуальные фразеологизмы. С помощью их Д. Рубина придавала своим героям экспрессивность и асоциальность. Наше исследование показало, что большая часть трансформации происходит на семантическом уровне. С помощью трансформации компонентов Д. Рубина достигает яркость и остроту в своих произведениях. Тем самым, она увеличивает свою аудиторию читателей.

Д. Рубина как современный писатель нашего времени, часто в своих рассказах использовала фразеологизмы, бывало и по несколько раз в одном предложении. Также в своих рассказах автор применяет трансформацию фразеологизмов, заменяя при этом один компонент на другой, что и являлось стилем писателя. Наибольший интерес представляет разговорный функциональный стиль и его фразеология, так как именно этот пласт речи является наиболее объемным по своему составу и наиболее экспрессивным по стилистической окрашенности. Это увеличивает аудиторию поклонников ее таланта.

Д. Рубина для описания и характеристики персонажей своих произведений использует несколько групп фразеологизмов с точки зрения их стилистической принадлежности и экспрессивной окраски, поскольку каждому стилю языка присущи собственные лингвистические приемы для выражения определенного содержания. Проведенный нами анализ показал, что в произведениях Д. Рубиной редко встречаются фразеологические единицы книжного характера. Особое место среди них занимают устаревшие ФЕ – фразеологические историзмы и архаизмы. Отмечено, что чаще всего писатель использует фразеологизмы межстилевого характера. Из них наиболее многочисленную группу составляют разговорно-бытовые фразеологизмы, поскольку они обладают экспрессивной маркированностью.

Выводы. Проведённое исследование позволило установить, что фразеологические единицы занимают в прозе Д. Рубиной важное место, выполняя как номинативную, так и экспрессивно-оценочную, изобразительную функции. Писательница активно использует устойчивые выражения различных лексико-грамматических разрядов, среди которых преобладают глагольные и адverbиальные конструкции, обеспечивающие динамичность повествования и выразительность характеристик персонажей. Особое значение имеют разговорно-бытовые фразеологизмы, обладающие яркой экспрессивной окраской и способные создавать атмосферу живой речи, а также фразеологизмы межстилевого характера, которые органично вплетаются в ткань текста.

Характерной особенностью идиостиля Д. Рубиной является индивидуально-авторская трансформация фразеологизмов, чаще всего на семантическом уровне, что позволяет обновлять их смысл, придавать дополнительные оттенки значения и усиливать образность. Замена компонентов, расширение или сужение значения, а также намеренные искажения устойчивых выражений способствуют созданию уникальной авторской интонации и запоминающегося стиля. Анализ показал, что писательница избегает избыточного использования книжных и устаревших фразеологизмов, однако выбор отдельных историзмов и архаизмов служит целям характеристики персонажей и передачи колорита эпохи.

Таким образом, фразеологическая система в произведениях Д. Рубиной является одним из ключевых средств художественной выразительности, обеспечивающих не только яркость повествования, но и глубину раскрытия характеров, что в целом формирует неповторимость её художественного мира.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Алефиренко Н. Ф. *Фразеология в контексте культуры: учеб. пособие.* – М.: *Флинта: Наука*, 2010. – 224 с.

2. Золотухина-Аболина Е. В. Введение в лингвостилистику: учеб. пособие. – М.: Флинта, 2012. – 288 с.
3. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – 381 с.
4. Маслова В. А. Лингвистический анализ экспрессивности художественного текста: учеб. пособие. – Минск: Вышш. шк., 1997. – 143 с.
5. Фразеологизмы как средство характеристики персонажей (на материале произведений Дины Рубиной) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://googleweblight.com> (дата обращения: 13.08.2025).
6. Чепасова А. М. Семантико-грамматические классы русских фразеологизмов: учеб. пособие. – Челябинск: ЧГПУ, 2006. – С. 6-41.
7. Шанский Н. М. Русский язык. Лексика. Словообразование. – М.: Просвещение, 1975. – 239 с.

ILMIY NUTQDA METAFORANING ESTETIK VA TA’SIRCHANLIK IMKONIYATLARI

Sulaymonova Mahfuza Shavkat qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti I bosqich doktoranti

mahfuzasulaymonova15@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-0749-260X

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy nutqda metaforaning estetik vazifalari lingvokognitiv va semiotik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Metaforaning obrazlilikni yaratish, nutq ohangini boyitish, ilmiy-badiiy uyg‘unlikni ta’minlash va auditoriyaga estetik-ta’sirchanlik berishdagi roli dalillar va empirik misollar bilan asoslangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ilmiy nutqda metafora nafaqat tushuntirish va kognitiv jarayonlarni yengillashtiradi, balki estetik idrokni shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy nutq, metafora, estetik funksiya, obrazlilik, lingvokognitiv yondashuv, semiotik tahlil.

AESTHETIC AND EFFECTIVE POTENTIAL OF METAPHOR IN SCIENTIFIC DISCOURSE

Abstract. The present article examines the aesthetic functions of metaphor in scientific discourse through the lens of linguo-cognitive and semiotic approaches. It substantiates, with empirical evidence and illustrative examples, the role of metaphor in creating imagery, enriching the stylistic tone, ensuring the unity of scientific and artistic expression, and enhancing the aesthetic impact on the audience. The findings indicate that metaphor in scientific language not only facilitates explanation and cognitive processing but also serves as a powerful means of shaping aesthetic perception within academic communication.

Keywords: scientific discourse, metaphor, aesthetic function, imagery, linguo-cognitive approach, semiotic analysis.

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТАФОРЫ В НАУЧНОЙ РЕЧИ

Аннотация. В статье рассматриваются эстетические функции метафоры в научной речи с позиций лингвокогнитивного и семиотического подходов. На основе фактов и эмпирических примеров обосновывается роль метафоры в создании образности, обогащении интонационно-стилистического строя текста, обеспечении синтеза научного и художественного выражения, а также в повышении эстетического воздействия на аудиторию. Исследование показывает, что метафора в научном дискурсе не только облегчает процессы объяснения и когнитивного восприятия, но и выступает как мощный инструмент формирования эстетического сознания в академической коммуникации.

Ключевые слова: научный дискурс, метафора, эстетическая функция, образность, лингвокогнитивный подход, семиотический анализ.

Kirish. Bilimlarni ifodalash, ilmiy konsepsiyalarni izohlash va yangi g‘oyalarni asoslash jarayonida qo‘llaniladigan maxsus til tizimi-ilmiy nutq bo‘lib, u o‘zining mantiqiy izchilligi, obyektivligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Tilshunoslik, mantiq va psixologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar (Lakoff & Johnson, 1980; Кравченко, 2004) ilmiy nutqni inson tafakkurining eng yuqori darajada tartiblangan verbal ifodasi sifatida talqin qiladi. Ilmiy nutqning asosiy belgilari mavjud. Masalan- aniqlik va aniq terminologiya. Ilmiy matn o‘zida qat’iy aniqlangan tushunchalar tizimini mujassamlashtiradi. Masalan, fizika fanida “tezlik” va “tezlanish” tushunchalari o‘zaro farqli terminlar bo‘lib, ularning ta’riflari qat’iy belgilangan. Terminlarning bir ma’niligini ilmiy nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi.

Ilmiy nutq qat’iy deduktiv yoki induktiv mantiqqa asoslanadi. Masalan, kimyoviy reaksiya tenglamalari mantiqan izchil bo‘lmasa, ilmiy xulosa noto‘g‘ri bo‘lishi ehtimoli yuqori. Matnda sabab-oqibat bog‘lanishlari ochiq ifodalanadi: “Agar suyuqlik harorati oshsa, uning bug‘ bosimi ortadi” kabi. Ilmiy nutqda subyektiv fikrlar minimal darajada bo‘ladi. Har bir bayonot empirik dalillar yoki matematik isbotlar bilan tasdiqlanadi. Masalan, “Yer Quyosh atrofida aylanadi” degan ilmiy fakt XVII asrda Tycho Brahe kuzatuvlari va I. Nyuton mexanikasi bilan isbotlangan.

Bundan tashqari, ilmiy nutq faqat bilimlarni saqlash emas, balki ularni yangi auditoriyaga yetkazish, tahlil qilish va kengaytirish vazifasini ham bajaradi. UNESCO hisobotiga ko'ra, global ilmiy hamkorlik samaradorligi ilmiy axborotning tushunarli va izchil yetkazilishiga bevosita bog'liq.

Ilmiy nutq yozma va og'zaki shaklda mavjud bo'lib, har birining o'z vazifalari va kommunikativ strategiyalari bor:

Yozma ilmiy nutq	maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, texnik hujjatlar shaklida bo'ladi.
Og'zaki ilmiy nutq	konferensiya ma'ruzalari, seminarlar, ilmiy munozaralar orqali ifodalanadi.

Ilmiy nutq — bu faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki insoniyat bilimlar tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning mantiqiy izchilligi, aniq terminologiyasi va dalillarga asoslanganligi ilmiy faoliyatning ishonchligi va samaradorligini ta'minlaydi. Shu bois ilmiy nutqni mukammal egallash har bir tadqiqotchi uchun zarur kompetensiyalardan biridir.

Asosiy qism. Ilm-fan tarixida bunday metaforik modellashirishning ko'plab misollarini topish mumkin. Masalan, elektromagnit to'lqinlarning "to'lqin" deb nomlanishi ularning suv to'lqinlariga o'xshash tarzda tasavvur qilinishiga asoslangan. Kvant mexanikasida zarracha holatining bir vaqtning o'zida bir nechta holatda mavjud bo'lishini anglatadigan "superpozitsiya" tushunchasi esa musiqa yoki ranglar aralashmasiga o'xshatilib metaforik tarzda tushuntiriladi. Biologiyada DNKning tuzilmasi "spiral zinapoya" metaforasi orqali tavsiflanadi, bu esa molekulaning uch o'lchamli strukturasi vizuallashtirish imkonini beradi[1]. Fizik Richard Feynman zarrachalar o'zaro ta'sirini "suhbatlashayotgan obyektlar" sifatida tasvirlab, bu murakkab holatlarni oddiy semantik vosita orqali tushuntirib bergan[2].

Metaforaning kuchi shundaki, u ilmiy tushunchalar va tajribalar orasida semantik ko'priklar yaratadi. Bu ko'priklar nazariy bilimni empirik sezgi orqali ongda ifodalashga xizmat qiladi. Metafora murakkab nazariy konsepsiyalarni oddiy tasviriy modellar orqali ifodalash imkonini beradi. Informatika va sun'iy intellekt sohasida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, kompyuterning "xotirasi" inson miyasi bilan qiyoslanadi, "algoritm" esa ko'pincha "yo'riqnoma", "yo'l xaritasi" kabi metaforalar yordamida tasvirlanadi. Sun'iy neyron tarmoq deb ataluvchi tizimlar inson miyasi ish prinsipini andoza sifatida olgan bo'lib, bu ham kuchli metaforik modeldir. Immunologiyada esa inson organizmi "qal'a", virus esa "dushman", antitanalar esa "armiya" sifatida tasvirlanadi. Bu singari metaforalar nafaqat fan sohasida, balki keng omma orasida ham murakkab ilmiy tushunchalarning qabul qilinishini va anglanishini osonlashtiradi[3].

Ilmiy metaforalarda rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Tavsif	Misollar
Vizual analogiya	Real hayotdagi shakl va harakat asosida tasavvur	DNK = "spiral zinapoya", Koinot = "soat mexanizmi", Neyron – tarmoq, Zarra – to'lqin, Gen – kod, Kislorod – o't, Hujayra – devor bilan o'ralgan
Til metaforasi	So'z va iboralar bilan tasviriy tushuncha hosil qilish	Virus hujum qiladi, Bozor haroratni ko'rsatmoqda, Informatsiya oqimi, Ma'lumot portlashi, Sarmoya oqimi, Muammo – to'siq, Nazariya – poydevor
Gnoseologik modellashirish	Nazariy asoslangan konseptual tushuntirishlar	Superpozitsiya – ranglar aralashmasi, Genetik kod, Nazariy ramkalar, Vaqt – to'lqin, Qonun – xarita, Tizim – organizm, Evolyutsiya – yo'l
Matematik / kompyuter modeli	Aniq modellashirish, grafik, formulalar	$E=mc^2$, Neyron tarmoq algoritmlari, Turing mashinasi, Model – simulyatsiya, Axborot – bit, Tizim – matritsa, Tahlil – algoritm
Paradigma yaratish	Ilmiy maktablar yoki asosiy nazariyalar asosiga aylanish	Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, Turing mashinasi, Darvin nazariyasi, Kvant mexanikasi, Informatika – raqamli inqilob, Kompleks tizimlar, Kaos nazariyasi

Shunday qilib, metaforalar ilmiy diskursda nafaqat ma'lumotlarni taqdim etishda, balki o'quvchilarga murakkab g'oyalarni anglash va tushunishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular abstrakt

tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalashga imkon berib, ilmiy tushunchalarning kognitiv qamrovini kengaytiradi. Metaforik ifodalar ilmiy matnlarni yanada jonli va tushunarli qiladi, shu bilan birga, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Ayniqsa, fan va texnika sohalarida murakkab mexanizmlar va nazariyalarni oddiy tilda izohlashda metaforalarning roli beqiyosdir. Ularning sistematik qo'llanilishi nafaqat ilmiy tafakkurni boyitadi, balki ilmiy tilning dinamizmini va ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli, metaforalarni ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiruvchi lingvistik vosita sifatida o'rganish va ularni ongli ravishda qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metaforik tafakkur ilm-fan taraqqiyotining tub mohiyatiga singib ketgan. Tomas S. Kuhn o'zining "Ilmiy inqiloblar tuzilishi" asarida ilmiy paradigmalarning o'zgarishini aynan metaforik fikrlash bilan bog'laydi. Uning fikricha, yangi tushunchalar mavjud metaforik asoslar o'zgargan taqdirdagina vujudga keladi[4]. Masalan, XIX asr fizikasida materiya massaviy obyekt sifatida qaralsa, Eynshteyn nazariyasida u energiyaga aylanishi mumkin bo'lgan narsa sifatida talqin qilinadi. $E=mc^2$ formulasi esa bu ikki konsepsiyaning birligini ifodalovchi semantik va matematik metaforadir. Lakoff va Johnson ta'kidlaganidek, "metafora faqat tilning bir qismi emas, u fikrlashning asosi" bo'lib xizmat qiladi[5]. Shunday qilib, metafora nafaqat tasviriy vosita, balki ilmiy tafakkurning tarkibiy elementi, yangi bilim yaratishdagi kognitiv vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metafora ilmiy til va terminologiya tizimlarida ajralmas qismidir. U ilmiy matnlarda yangi terminlar paydo bo'lishiga va ilmiy tilni boyitishga xizmat qiladi. Masalan, "tanani mexanizm sifatida ko'rish" kabi konseptual metaforalar ilmiy tushunchalarni yanada aniqroq ifodalashga yordam beradi. Bu kabi metaforalar, murakkab va abstrakt jarayonlarni oddiy so'zlar bilan tushuntirishda qo'llaniladi, bu esa o'quvchilar uchun ilmiy ma'lumotlarni osonroq qabul qilish imkonini yaratadi.

Ilmiy diskursda metaforaning roli va funksiyalari muhim ahamiyatga ega. Metafora, bir narsani boshqa bir narsaga o'xshatish orqali yangi ma'nolar yaratishga yordam beradi va bu jarayon ilmiy muhokamalarda yanada aniqroq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, metafora ilmiy jarayonlarda ijodkorlikni oshirishga yordam beradi. Metaforik fikrlash, yaxshi ma'lum bo'lgan manba sohasidan kam ma'lum bo'lgan maqsad sohasiga bog'lanish orqali ijodiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bu jarayon yangi g'oyalar va nazariyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy nutq odatda aniqlik va obyektivlik mezonlariga asoslanadi. Shu bois ko'pchilik uni "quruq faktlar majmui" sifatida tasavvur qiladi. Ammo zamonaviy lingvistik va kognitiv tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy nutqda metaforaning estetik vazifasi ham alohida o'rin tutadi. Masalan, Lakoff va Jonson (1980) ta'kidlaganidek, metafora inson tafakkurining kognitiv modeli sifatida nafaqat tushunishni, balki ma'lum darajada estetik zavqni ham ta'minlaydi. Demak, ilmiy matn nafaqat informativ, balki obrazli va ta'sirchan ham bo'lishi mumkin.

Metaforalar ijtimoiy va madaniy kontekstdagi rolini ham hisobga olish kerak. Ular, masalan, kognitiv nevrologiya sohasida "oyna metaforasi" orqali o'zaro aloqalarni ifodalashda foydalaniladi. Bu esa metaforalar faqat fikrlar ichida emas, balki jismoniy muhitda ham paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bu misollar ilmiy metaforalarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini va ularning ilmiy muloqotdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Ilmiy diskursning shakllanishi va rivojida metaforalar nafaqat til vositasi, balki ilmiy tafakkurning konstruktiv elementi sifatida namoyon bo'ladi. Metaforalarning kognitiv va gnoseologik xususiyatlari, ularning bilim yaratishdagi funksiyasi so'nggi yillarda, ayniqsa, kognitiv fanlar, sun'iy intellekt, biologik modellashtirish va fizik nazariyalar doirasida chuqur o'rganilmoqda. Bu holat metaforaning faqat estetik yoki stilistik emas, balki ilmiy bilish jarayonidagi konseptual rolini tasdiqlaydi.

Metafora ilmiy model yaratishda konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, biologiyada "genetik kod" atamasi tilshunoslikdagi "kod" tushunchasidan olingan bo'lib, bu metafora DNKdagi ma'lumot uzatish mexanizmini aniqroq tasavvur qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, "hujayra fabrikasi", "energiya stansiyasi" yoki "ma'lumot bazasi" kabi metaforalar murakkab biologik va informatsion tizimlarni intuitiv tarzda tushuntirishda muhim rol o'ynaydi.

Fizika fanida ham bunday modellashtirish keng qo'llaniladi. Masalan, kvant maydon nazariyasida "vakum fluktuatsiyalari" kabi tushunchalar, ko'pincha "chang'ib turgan vakuum" yoki "portlayotgan imkoniyatlar" kabi tasviriy ifodalar bilan metaforik ravishda ifodalanadi. Bu esa fundamental ilmiy tushunchalarni sezgi orqali anglashda samarali kognitiv ko'priklar yaratadi.

Bundan tashqari, informatika va sun'iy intellekt sohasida ishlatiladigan "sun'iy ong", "o'rganuvchi mashina", "aqli tizimlar" kabi atamalar ham kuchli metaforik asosga ega bo'lib, inson tafakkurining texnologik modellar orqali ifodalanishini ta'minlaydi. Bu metaforalar kompyuter texnologiyalarining inson

miyasi bilan qiyoslanishiga sabab bo'lib, ilg'or neyrohrisoblash modellari yaratishda konseptual poydevor bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslikda Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan "kontseptual metafora nazariyasi" metaforaning fikrlash jarayonidagi markaziy rolini asoslab berdi. Ularning fikricha, insonlar dunyoni ko'pincha tanqidiy yoki empirik tahlildan ko'ra, mavjud konseptual metaforalar asosida anglaydi. Masalan, "ilm-fan bu sayohat", "g'oya bu obyekt" kabi konseptual tuzilmalar ilmiy diskursni yanada tushunarli va mazmunli qiladi.

Metafora ilmiy nutqda murakkab tushunchalarni sodda va ko'zga ko'rinarli obrazlar bilan uyg'unlashtiradi. Bu estetik jihatdan o'quvchida jonli tasavvur uyg'otadi. Misol uchun: *"Atom — Quyosh sistemasining miniatyura modeli"*. Bu yerda murakkab mikroskopik tuzilma oddiy astronomik obraz orqali tasvirlanadi. Natijada ilmiy fakt o'quvchi ongida vizual obraz sifatida gavdalanadi.

Psixolingvistika tadqiqotlariga ko'ra (Gibbs, 2008), metaforik obrazlar miyaning vizual-assotsiativ tizimini faollashtirib, bilimlarni eslab qolishni 30–40% ga samaraliroq qiladi.

Ilmiy matnning monotoniya xavfi yuqori. Metafora esa matnga estetik ritm va uslubiy xilma-xillik qo'shadi. Misol uchun: *"Genetik kod — hayotning tili"*. Bu metafora oddiy ilmiy tushunchaga poetik ohang bag'ishlaydi, shu bilan birga, ilmiy aniqlikdan uzoqlashmaydi. Tilshunos O. S. Ahmadova ilmiy diskursda metaforik birliklarning kommunikativ samaradorlikni oshirishini nutq ohangining boyishi bilan izohlagan.

Metafora ilmiy matnni badiiy elementlar bilan uyg'unlashtirib, uni kitobxon uchun nafaqat informativ, balki estetik zavqli qiladi. Masalan: *"Koinot — cheksizlikning sahnasida ijro etilayotgan ulkan simfoniya."* Bu metafora ilmiy faktni (koinotning cheksizligi) badiiy-estetik obraz bilan uyg'unlashtiradi.

Semiologik tadqiqotlarda ilmiy-badiiy uyg'unlik auditoriya idrokining ikki darajasini – mantiqiy va hissiy qabulni birlashtirishini ko'rsatadi. Metafora o'quvchi yoki tinglovchiga kuchli estetik taassurot qoldiradi, ilmiy tushunchaga qiziqishni kuchaytiradi. Misol: *"Internet — insoniyatning global miyasi."* Bu metafora axborot tizimini nafaqat tushunarli, balki estetik jihatdan ta'sirchan obrazga aylantiradi.

UNESCO hisobotida qayd etilishicha, ommaviy ilmiy nutqda metaforalardan foydalanish kitobxonning ilmiy mavzuga qiziqishini 50% gacha oshiradi. Quyidagi jadvalda ilmiy matnlardan olingan metaforalar modellarga ajratib chiqilgan:

Metafora modeli	Misollar
Tibbiy metafora	DNK portreti Molekulyar iz Ilmiy fazo Statistik portret
Yo'l(jarayon) metaforalari	Taraqqiyot yo'li Strategik yo'nalish Rivojlanish bosqichi
Urush metaforalari	Kurash olib boriladi Raqobat maydoni Strategiya ishlab chiqiladi
Tana metaforalari	Bozor yuragi Iqtisodiyot qon tomirlari Firma tanasi
Tabiat metaforalari	Bozor iqlimi Iqtisodiy landshaft Innovatsion oqimlar

Xulosa. Metafora ilmiy nutqda nafaqat kognitiv vosita, balki estetik kategoriya sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. U obrazlilikni ta'minlaydi, nutq ohangini boyitadi, ilmiy va badiiy uyg'unlikni yaratadi hamda auditoriyaga estetik zavq beradi. Demak, ilmiy matnni quruq faktlar majmui emas, balki inson tafakkuri va ijodkorligining estetik ifodasi sifatida ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Watson, J. D., Crick, F. H. C. *Molecular Structure of Nucleic Acids: A Structure for Deoxyribose Nucleic Acid*. *Nature*, 1953: 171(4356), 737–738.
2. Feynman, R. P. *Qiziqarli fizika*. Moskva: Mir nashriyoti. (original: *The Feynman Lectures on Physics*)-1985.
3. Gentner, D., & Jeziorski, M. *The shift from metaphor to analogy in Western science*. In A- 1983.
4. Kuhn, T. S. *The Structure of Scientific Revolutions*. Chicago: University of Chicago Press.-1962.
5. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press. 1980.

O'ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDA OKKAZIONAL FRAZELOGIZMLARNING QO'LLANISHI

Berdiyorova Rahima Karimovna,

Qarshi davlat universiteti Fakultetlararo ingliz tili kafedrası v.b. dotsenti
berdiyorovarahima@gmail.com

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida badiiy asarlarning tili mualliflar tomonidan yangi leksik hosilalar yoki okkazional frazeologik birliklar qo'llanishining ko'lamı kengligi sababli tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Ushbu maqolada muallif so'zi, ijod etishi va xususan, mualliflik okkazionalizmlari, xususan, okkazional farzeologizmlar o'zbek va ingliz tilidagi matnlarda qo'llanish masalasi ko'rib chiqilgan. Okkazional frazeologik birliklar turli planli hodisa deb qaralgan, u eng avvalo, til va nutqning o'zaro munosabati bilan bog'liq. Bir tomondan, okkazionalizmlar nutq faoliyatining natijasidir, boshqa tomondan esa aynan til tizimi ma'lum andozalar bo'yicha okkazional birliklarni hosil qilishga imkon beradiki, ularning ma'no-mazmun munosabatlari doirasini tadqiq etish kun tartibidagi dolzarb vazifa sifatida o'rin oladi.

Kalit so'zlar: mualliflik okkazionalizmlari, frazeologik neologizm, uzual frazeologizm, frazeologik birlik, konstruksiya, qayta o'zgartirish, stilistik effekt.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОККАЗИОНАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В мировой лингвистике язык литературных произведений привлекает внимание исследователей в связи с широким спектром использования авторами новых лексических образований или окказиональных фразеологических единиц. В данной статье рассматривается проблема авторского слова, творчества и, в частности, использования авторских окказионализмов, в частности, окказиональных фразеологических единиц, в узбекских и английских текстах. Окказиональные фразеологические единицы рассматриваются как многоплановое явление, которое связано, прежде всего, с взаимодействием языка и речи. С одной стороны, окказионализмы являются результатом речевой деятельности, а с другой стороны, именно система языка позволяет образовывать окказиональные единицы по определенным закономерностям, и изучение сферы их семантико-содержательных связей является актуальной задачей повестки дня.

Ключевые слова: авторские окказионализмы, фразеологизм-неологизм, общеупотребительная фразеология, фразеологическая единица, конструкция, перефразирование, стилистический эффект.

THE USE OF OCCASIONAL PHRASEOLOGISMS IN UZBEK AND ENGLISH LITERATURE TEXTS

Abstract. In world linguistics, the language of literary works has been attracting the attention of researchers due to the wide scope of use of new lexical formations or occasional phraseological units by authors. This article considers the issue of the author's word, creativity, and in particular, the use of authorial occasionalisms, in particular, occasional phraseological units, in Uzbek and English texts. Occasional phraseological units are considered as a multi-planar phenomenon, which is primarily associated with the interaction of language and speech. On the one hand, occasionalisms are the result of speech activity, and on the other hand, it is the language system that allows the formation of occasional units according to certain patterns, and the study of the scope of their semantic-content relations is an urgent task on the agenda.

Key words: authorial occasionalisms, phraseological neologism, common phraseology, phraseological unit, construction, restatement, stylistic effect.

Kirish. Jahon tilshunosligida badiiy asarlarning tili mualliflar tomonidan yangi leksik hosilalar yoki okkazional frazeologik birliklar qo'llanishining ko'lamı kengligi sababli tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Ushbu maqolada muallif so'zi, ijod etishi va xususan, mualliflik okkazionalizmlari, xususan, okkazional farzeologizmlar o'zbek va ingliz tilidagi matnlarda qo'llanish masalasi ko'rib chiqilgan. Okkazional frazeologik birliklar turli planli hodisa deb qaralgan, u eng avvalo, til va nutqning o'zaro munosabati bilan bog'liq. Bir tomondan, okkazionalizmlar nutq faoliyatining natijasidir, boshqa tomondan esa

aynan til tizimi ma'lum andozalar bo'yicha okkazional birliklarni hosil qilishga imkon beradiki, ularning ma'no-mazmun munosabatlari doirasini tadqiq etish kun tartibidagi dolzarb vazifa sifatida o'rin oladi.

Ushbu jarayonga zaruriyat jamiyat ehtiyojlari bilan aniqlanadi, ushbu so'zlarning eng keng ma'nosida talqin qilinadi. Okkazional so'zlar keng tarqalgan va butun konkret jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan faqat yangi reallikni, hodisani, fenomenni nomlash uchungina emas, balki individual kechinmalarining, kayfiyatlarining nozik konnotatsiyalarini aks ettirish, borliqning ayrim hodisalariga baho berish uchun ham paydo bo'ladi[5:46].

Badiiy adabiyotda yangidan yasalgan leksemalarning paydo bo'lishi nafaqat ma'lum emotsional konnotatsiyani yaratishga intilish bilan emas, balki kitobxonga yetkazishda lozim bo'lgan ishonch bilan ham belgilanadi. Okkazionalizmlarning badiiy asarda paydo bo'lishi, boshqa omillardan tashqari, yana yangi realiyalarni, tushunchalarni, hodisalarni nomlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ularni ifodalash uchun konkret tilda barqaror bo'lib qolgan vositalar mavjud emas [2:24].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Til lug'at qatlami nafaqat leksemalar, balki frazeologik birliklar, tasviriy birliklar hamda yangicha ma'no ifodalar bilan ham to'lishib boradi. Til lug'at qatlamida neologizm frazemalarning ham o'z o'rnini, shu bilan birga, shakllanish asoslari bor[1:26]. Tadqiqotchi L.Parsiyeva frazeologik neologizmlar leksik neologizmlarga nisbatan tez ommalashishini ta'kidlaydi. Uning bu xususiyatini davriy matbuot bilan bog'laydi. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, "davriy matbuot (ijtimoiy tarmoqlar) tilidagi yangi tendensiyalar, shu jumladan, yangi frazeologik birliklar (masalan: *ketmoni uchmoq (omadi kelmoq ma'nosidagi frazeologizm)*, *bechorani yoqmoq(o'zini bechorahol qilib ko'rsatmoq ma'nosida)* kabi) ning paydo bo'lishi va tarqalishida asosiy vosita bo'lmoqda[7:37].

Okkazional frazeologik birlikning hosil qilinishi boriga ko'ra shu shart bilan tejamkorki, yangi hosilani ishlab chiqishga adekvat so'zni yoki tasvirlovchi jumlaning qidirishga qaraganda kamroq energiya sarflanadi.

Okkazionalizmlarning tejamkorligi ko'pincha hosil qilish usullari bilan bog'liq – ko'pchilik okkazionalizmlar tilda bor bo'lgan tayyor asoslardan hosil qilingan hisoblanadi va tayyor andozalar bilan analogiya asosida yasalgan. Bunday okkazionalizmlar potensial deb atalgan so'zlardan iborat [1:12]. Frazeologik birliklarni (FB) stilistik qo'llash ilgaridan tilshunoslar e'tiborini tortgan. Professor A.E. Mamatov ta'kidlashicha, "Frazeologiya – bu ma'lum bir tilni, muhitni, mutaxassislikni, davrni o'zida aks ettiruvchi iboralar va ifodalar konstruksiyalari jamlanmasidir. Frazeologizm – bu, turg'un, ikki yoki undan ortiq komponentga ega bo'lgan, obrazli, motivlashgan, emotsional-ekspressiv, ongimizda tayyor holda qaytadan in'ikos etiluvchi va eng muhimi qo'shma ma'noga ega bo'lgan so'z birikmalaridir" [6: 212].

A.E. Mamatovning fikricha, "Okkazionalizmlar tilning sistem talablariga javob bera olmaydi, qonunlashtirilmagan, leksikografik manbalarda qayd etilmagan, birona yangi realiyani ham ifodalamaydi, ular nutqqa ekspressivlik berish uchun stilistik maqsadlarda qo'llaniladi va "badiiy so'z ustalari o'z asarlarida tilda mavjud, kodifikatsiyalangan, turg'un, barqaror, norma doirasidagi frazeologizmlarning strukturasini, ularning leksik tarkibini o'zgartirib, ana shu frazeologik birliklar ma'nosi asosida yangi okkazional frazeologik variantlar hosil qiladilar"[6:15].

Okkazional frazeologizmlarning barcha ma'nolarini bilishning iloji bo'lmaganligi sababli, ba'zan ularning asl mazmunini aniqlash uchun va tarjimada adashib ketmaslik uchun kodlab lug'aviy manbalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham badiiy asar tarjimasida okkazional frazeologizmlarning matnda qanday ifodalanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

A.S. Nachischione FBni ushbu okkazional qayta o'zgartirish usulining mantiqqa to'g'ri kelmasligini ko'rsatib o'tadi, bu usul shundan iboratki, buzilish ayni paytda stilistik va semantik vositalar bilan erishiladigan butunlikni ta'minlab, uni ajratib yuboradi. Shu bilan birga, FBning birinchi qismi okkazional metonimik vazifani qo'lga kiritadi: bo'lak o'quvchi yoki tinglovchi xotirasida frazeologik obrazning aktuallashuvi qiyinchiliklarini minimallashtirib, butun o'rniga ishlatiladi. Frazeologik birlikning buzilishi retardatsiya hodisasiga, ya'ni fahmlash jarayonini, mos ravishda, tushunishni sekinlatish jarayoniga olib keladi. Buzilishni hosil qilishning eng umumiy usuli kirish konstruksiyalarini ishlatishdir. FBning buzilishi bitta gap doirasida uchrashi mumkin, biroq boshqa gaplarni yoki bir necha gaplarni qamrab olib, ko'pincha uning chegarasidan tashqariga chiqadi.

Buzilish va so'z kiritish tushunchalarini farqlash, shak-shubhasiz, lingvistik innovatsiya hisoblanadi[6:12]

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida, tadqiqotchi M.Akbarov fransuz tilida murakkablik darajasi bo'yicha frazeologik birliklar okkazional transformatsiyasini jami 16 turga ajratgan:

1.Frazeologik birlik komponentlarining joylarini o'zgartirish. Bu okkazional transformatsiyaning minimal stilistik effekt beruvchi eng soddasi hisoblanadi.

2.Frazeologik birlik komponentlari orasiga, unga "begona" bo'lgan so'z va so'z birikmalarini qo'shimchasiga kiritish yoki "pona qoqqanday so'z kiritmoq" (tilshunos olim A.V. Kuninning iborasi).

3. Frazeologik birliklar okkazional (kvantitativ) variantining shakllanishiga olib keluvchi, frazeologizm oxirgi qismining elementlari qisqartiriladi.

4. Frazeologik birlik substantiv komponentidagi miqdorni bildirgan soʻzning (normativ) oʻzgarishi.

5. Frazeologik birliklarning adverbial yoki adektiv komponentining qiyosiy darajasining oʻzgarishi.

6. Frazeologik birlikning parsellyatsiyasi (qismlarga boʻlinishi) va hokazo [1: 42-50].

Aytish joizki, okkazional frazeologik birliklar transformatsiyasining asosiy maqsadi – maʼlum bir stilistik natijaga erishishdir. Shuning uchun ular frazeologik stilistika obyektlariga taalluqli va frazeologizmlarning stilistik xususiyatlariga bagʻishlangan. Biroq shuni taʼkidlash joizki, koʻp hollarda transformatsiyaga uchraydigan frazeologizm nafaqat stilistik, balki qoʻshimcha mazmuniy boʻyoqqa ham ega boʻladi.

Shunday qilib, tilning frazeologik tizimida frazeologik birliklarning uch guruhini ajratib koʻrsatish mumkin:

Uzual (odatdagi) frazeologizmlar – umum qabul qilgan, keng qoʻllanadigan va nutqda aks ettiriladigan nomuntazam rasmiy-maʼnoviy tuzilishli, komponentli tarkibning semantik oʻzgarishidan kelib chiqadigan kompleks belgilardir; leksikografik manbalarda kodifikatsiya qilingan; tilga tegishli birlik. Masalan: **“You have placed your finger on the real trouble, sir”**. Frazeologik birlik *to put one’s finger on smth* bu yerda hech qanday oʻzgartirishlarsiz, lugʻatda qanday qayd qilingan boʻlsa, oʻsha maʼnoda ishlatilgan (to identify something exactly).

Okkazional frazeologik modifikatsiyalar – nutqda okkazional qayta oʻzgartirilgan odatdagi frazeologizmlar, ular dastlabki frazeologik birlik bilan moddiy va semantik aloqalarni saqlab qoladi [8: 207.]; jumla hosil qiluvchi asos: konkret odatdagi (uzual) frazeologizm; tilga va nutqqa tegishli. Masalan, keyingi misolda: **“I shuddered from hair-do to shoe-sole”**[11:310] – odatdagi (uzual) frazeologizm *from head to toe* modifikatsiyaga uchraydi. Yana bir misol: **“Cats will be cats”** (odatdagi *Boys will be boys* frazeologizmidan).

Okkazional frazeologizmlar – matnda bir martadan koʻproq uchraydigan, qayta tushunilgan maʼnoli soʻz komplekslari; jumla hosil qiluvchi asos: alohida soʻzlar, oʻzgaruvchan soʻzga oid komplekslar, nofrazeologik tipdagi barqaror soʻzga oid komplekslar; nutqqa tegishli, biroq til tizimida tayyor. Masalan: **“Well, exercise what you’ve got. Give her the old oil. Play on her as on a stringed instrument”, “To play on such a woman as on a stringed instrument wasn’t going to be the simple task”** [11: 315]. Soʻz kompleksi *to play on smb as on a stringed instrument* okkazional frazeologizm hisoblanadi, sababi qayta fahmlangan mazmunga ega (to please smb.), alohida soʻzlar asosida hosil qilingan va matnda bir martadan ortiq qoʻllangan.

Frazeologik neologizmlar faqat tilga taalluqli va tilning frazeologik tizimiga kirmaydi, chunki barqarorlikning zarur minimumiga ega emas. Lekin qayd qilish lozimki, baʼzi frazeologik neologizm bitta muallifda u asardan bunisida takrorlanishi mumkin, shu tariqa okkazional frazeologizmga aylanadi. Masalan, P.G.Vudxauz oʻzining baʼzi asarlarda *the real tabasco* soʻz birikmasini ishlatadi: **“It’s all right,” I said “Have no misgivings. This is the real Tabasco”**.

Shunday qilib, frazeologizm shakllanishining asosiy bosqichlari uchga boʻlinadi: 1) frazeologik neologizm; 2) okkazional frazeologizm; 3) uzual (odatdagi) frazeologizm. Frazeologizmning shakllanish jarayonini apple sauce frazeologik birlik misolida qarab chiqamiz. U P.G. Vudxauzning ayrim asarlarida frazeologik neologizm sifatida, yaʼni maʼlum kontekst uchun bir marta paydo boʻladi, ammo u turli vaziyatlarda bir necha marta va bundan tashqari, bir necha asarlarda ishlatilishi fakti uni okkazional frazeologizmlarga kiritish imkonini beradi: **“I forget how the subject arose, but I remember Jeeves once saying that sleep knits up the ravelled sleeve of care. Balm of hurt minds, he described it a(...). Apple sauce, in my opinion. It seldom pans out that way with me, and it didn’t now”**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, oʻzbek va ingliz adiblari ijod mahsullarida badiiy matnlarida okkazional frazeologizmlar qoʻllanilgan: jumladan, oʻzbek ijodkorlari asarlarida **frazeologik**: gapning dumini yulmoq, choʻqib-choʻqib hijjalamoq, jahli chapaqa chiqmoq (X.Doʻstmuhammedov) hamda **parafrazik**: qoʻshaloq olcha (lab), koʻklam ashulachisi – qurbaqa (Gʻ.Gʻulom) shakllarda uchrashi kuzatiladi.

Bir qoʻlda belanchak, bir qoʻlda Qurʼon

Bir yelkada ketmon, birida iymon

Barchaga barobar bir oftobsimon

Yashnasin olam deb yashaydi oʻzbek. (M.Yusuf, “Qiyosi yoʻq aslo, mehri bir daryo”)

Quyosh barchaga birdek nur sochadi frazemasi oʻzbek shoiri Muhammad Yusuf sheʼrida ana shu holatda kelgan.

Iboralarning yangicha koʻrinishlari (qayta ishlangan, tarkibiga yangi birliklar kiritilgan, tarkibi qisqartirilgan va b.) oʻzbek badiiy adabiyotida keng kuzatiladi [10:12]. Bu holat maqollar bilan ham kechadi. Misollarni kuzatamiz: Muhammad Yusuf ijodidan: **Joningga jon boʻlmayman-u**, sevaman... (“Muhabbat”), **Qalinga tuyam ham tushib qolgan yoʻq**. (“Sodda Muhammadman...”) Shaytonning xizmatin qilishar

bari!.. (“Menday g‘aribni ham ko‘rolmaslar bor”) **O‘z qo‘lingda endi qushing**, o‘zing ovla. (“Tilak”); Usmon Azim ijodidan: Mening **izzatimni qorasan loyga**. (“Ertak”), Bosar – **qalbim tortadi mayda**. (“To‘yganmidim shodlikni ichib”); Farida Afro‘z ijodidan: **Jonimni cho‘qiydi** bir mayl. (“Har holda”), **Chang tegmagan iymoningga**. (“Bolam”).

O‘z elingda endi hushing, o‘zing chog‘la,

O‘z qo‘lingda endi qushing, o‘zing ovla. (“Tilak”) (M.Yusuf)

Farida Afro‘zning “Ey dunyo” she‘rida “osmon uzilib yerga tushmoq” iborasi shoir tomonidan “qayta ishlangan” holda qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz: **Uzilib ko‘k yerga tusharmi**/ Xiyonat boshlaring yanchilsa. Misradagi “uzilib ko‘k yerga tushmoq” iborasi lug‘at qatlamimizda keng qo‘llanadigan “osmon uzilib yerga tushmoq” frazemasining o‘zgargan shakli sanaladi. Mazkur holat Muhammad Yusufning “Ketar bo‘ldim” she‘rining ikki o‘rnida kuzatiladi:

Yor, eshiging ochilmadi men uchun

Tilingdan bol sochilmadi men uchun

...Derlar: **jon sog‘ bo‘lsa jahon topilgay**

Bir parcha yer, parcha osmon topilgay. (“Ketar bo‘ldim”)

Umuman, yangi frazeologik birliklarning o‘zbek va ingliz adabiyotida yaratilayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Ular an‘anaviy frazeologik birliklardan ko‘ra obrazlilik, ifodaviyligi, ta’sirchanligi bilan xarakter kasb etadi.

Xulosa. Har qanday holatda ham frazeologik-neologizmlar lug‘at qatlamidagi qandaydir bo‘shliq (lakuna)ni to‘ldirishga xizmat qila oladi. Ba’zida o‘zga tillar ta’siri natijasida ham yangi iboralar yuzaga keladi. Dastlabki holatda frazeologik-neologizmlar terminologik soha uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, sport diskurslarida bu kabi birliklar nisbatan tez paydo bo‘ladi. Okkazionalizmlar tilning sistem talablariga javob bera olmaydi, qonunlashtirilmagan, leksikografik manbalarda qayd etilmagan, bironta yangi realiyani ham ifodalamaydi, ular nutqqa ekspressivlik berish uchun stilistik maqsadlarda qo‘llaniladi va badiiy so‘z ustalari o‘z asarlarida tilda mavjud, kodifikatsiyalangan, turg‘un, barqaror, norma doirasidagi frazeologizmlarning strukturasi, ularning leksik tarkibini o‘zgartirib, ana shu frazeologik birliklar ma’nosi asosida yangi okkazional frazeologik variantlar hosil qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бабенко Н.Г. *Окказиональное в художественном тексте. Структурно семантический анализ: учеб. пособие.* – Калининград: изд-во КГУ, 1997. – С.8.
2. Бакина М.А. *Словотворчество // Языковые процессы современной русской художественной литературы. Поэзия. М., 1977. - 127 с. 3.*
3. Ҳақимов М. *Ўзбек прагмалингвистикаси асослари.* –Тошкент: Академнашр, 2013. –176 б.
4. Ibragimova M. *Neologizm frazemalarning tildagi xususiyatlari// Научный импульс. Международный научный журнал. Часть 1. –№8, 2023, март, – В.2 54-256.*
5. Габинская О.А. *Типология причин словотворчества/О. А ... СРЯ, 1981 Современный русский язык. - М., 1981. - 560с.*
6. Mamatov E.A. *Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.* – Toshkent, 1991. –В. 264.
7. Парсиева Л.К., Гацалова Л.Б. *Особенности фразеологических неологизмов// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2014. –№9-3. – С.71.*
8. Петрова С.И. *Окказиональные фразеологизмы в немецкой художественной речи (структурно-семантическая и смысловая характеристики): Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 207 с.*
9. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика.*–Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.
10. Юлдашев М. *Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри....дисс. автореф. – Т., 2009. – Б. 36.*
11. Wodehouse P.G. *Aunts Aren't Gentlemen // The Jeeves Omnibus 5. London: Hutchinson, 2005. - 243 с*